




J.R. ZAYNALOV
SH.M. LATIPOVA

LIZING VA LIZING OPERATSIYALARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

J.R.Zaynalov, Sh.M.Latipova

LIZING VA LIZING OPERATSIYALARI

O'quv qo'llanma

**TOSHKENT
"IQTISOD-MOLIYA"
2022**

UO'K 339.187.62(075.8)

KBK 65.262.1ya73

Taqrizchilar: *Musayev R.M.* – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrası dotsenti

Musayev Sh.A. – Trastbank XAB Samarqand filiali boshqaruvchisi

Z 22 Lizing va lizing operatsiyalari: O'quv qo'llanma / J.R.Zaynalov, Sh.M.Latipova; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2022. – 256 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada lizing xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va moliyalashtirishning muqobil usullaridan biri sifatida afzallik va kamchiliklari keltirilgan, lizing munosabatlari va ularni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, lizing tasnifi, lizing shartnomasi va uni amalga oshirish bosqichlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan lizing turlarini tanlash, lizing subyektlari uchun uning iqtisodiy samaradorligini baholash, lizing xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanmada lizing bozorining pandemiyagacha va pandemiya davridagi holati tahlil qilingan bo'lib, u 5230600 – “Moliya” ta'lim yo'nalishi talabalariga “Lizing va lizing operatsiyalari” fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

O'quv qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2020-yil 22-dekabrda 5-son bayon yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Institut Kengashining 2021-yil 11-yanvardagi 7-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

UO'K 339.187.62(075.8)

KBK 65.262.1ya73

ISBN 978-9943-7983-3-5

© J.R. Zaynalov, Sh.M. Latipova, 2022

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2022

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi subyektlarni uzoq muddatli moliyalashtirishdagi eng samarali usullardan biri sifatida lizing xizmatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasi konsepsiyasida ham lizing orqali ma'lum bir sohalar (ishlab chiqarish uskunalari, shu jumladan tog'-kon va metall eritish uskunalari uchun lizing tizimini ishlab chiqish, texnik uskunalar uchun, ya'ni jihozlar, chorvachilik va o'simlikshunoslikni rivojlantirish uchun texnikani lizing asosida qo'lga kiritish, yuqori mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ega nasldor chorva mollari lizingini shakllantirish, shuningdek, lizing va sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish orqali bank xizmatlari ulushini kamaytirish, buning natijasida esa kompaniyalar va fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirish masalalari)ni rivojlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda¹. Shu sababli "Moliya" ta'lim yo'nalishida o'qiydigan talabalarda moliyaviy xizmat turlaridan biri hisoblangan lizing operatsiyalari bo'yicha ma'lum nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish maqsadida ushbu o'quv qo'llanma yaratildi.

Havola etilayotgan o'quv qo'llanma mustaqillik yillarida lizing bozorining holati va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari hamda 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lib, u lizingning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, lizing to'lovlarining tuzilishi, lizing bozorida raqamli texnologiyalar, shuningde, lizing bozorini pandemiyagacha va pandemiya vaqtida ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish imkonini beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, 2018-yil 29-dekabr.



O'quv qo'llanmani yaratishdan asosiy maqsad – talabalarda lizingning iqtisodiy mohiyati haqida nazariy bilimlarni shakllantirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyalashtirishda moliyalashtirishning muqobil usuli sifatida lizingdan foydalanish bo'yicha nazariy bilimlar hosil qilish hamda ushbu munosabatlar doirasida nazariya bilan amaliyotning uyg'unligini ta'minlashdan iboratdir.

O'quv qo'llanmani yaratishda bir qator milliy va xorijiy iqtisodchilarning ilmiy ishlaridan, o'quv adabiyotlaridan foydalanildi. Jumladan, E.R. Nabiyeu va M.D. Marpatovlar tomonidan yozilgan "Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma asosida lizing g'oyasi, uning iqtisodiy mohiyati, uni amalga oshirish jarayonlari hamda mamlakatimizda lizingni tartibga solishning huquqiy-me'yoriy hujjatlariga oid ma'lumotlari o'rganildi. D.F. G'ozibekov, O.Sh. Sobirov, A.G. Muminov va O.M. Kuljonovlar tomonidan yaratilgan "Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma asosida esa lizing munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi.

Mualliflar tomonidan lizing operatsiyalarining ijara bilan o'xshash va farqli jihatlari, lizingning moliyaviy hisobini yuritish bo'yicha Sh.U. Haydarov, X.A. Ortiqov va X.A. Tuxsanovlar tomonidan yozilgan "Lizing: tan olish, baholash va uning hisobi" nomli o'quv qo'llanma ham o'rganilib, lizing turlari va to'lovlarini yoritishda foydalanildi. Bundan tashqari, xorijiy iqtisodchilardan V.D. Gazman, V.A. Goremikin, V.M. Djuxa, E. Kabatova, T.G. Filosofova va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

O'quv qo'llanmadan foydalanish jarayonida talaba lizing tushunchasi, uning tasniflanishi, milliy va xalqaro lizing bozori holati, lizing munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, lizingning uning ishtirokchilari uchun samaradorligini aniqlash, innovatsion lizing xizmatlari, lizing bozorida raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish bo'yicha bilimga ega bo'lishadi.

I bob. LIZINGNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. Lizingning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi

Moliyaviy xizmatlar bozorida lizing iqtisodiy tushuncha sifatida investitsion faoliyat turlaridan biri sifatida e'tirof etilib, u rivojlangan bozor iqtisodiyotining mahsuli va turkumlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston uchun tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning yangi usulini keng joriy qilish, shu bilan birga xorijiy mamlakatlar lizing biznesidan foydalanish uchun avvalo lizing munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy tabiatini oydinlashtirib olish lozim.

Lizing munosabatlarining mohiyati uning shakllanishi, bizgacha yetib kelishi va rivojlanishi, shuningdek, ushbu rivojlanish davomida yuzaga kelgan o'zgarishlar tarixini chuqurroq o'rganish natijasida yoritiladi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixida ijara munosabatlari bundan 4 ming yil avval ham mavjud bo'lib, o'zining boy va rang-barang tarixi bilan ajralib turishi haqida fikrlar keltirilgan. Insoniyat tarixidan dastlabki ijara kelishuvining qachon amalga oshirilganligini hech kim aniq bilmasada, ushbu faoliyat turidan guvohlik beruvchi ashyoviy dalillar eramizdan oldingi 2000-yillarga to'g'ri keladi. 1984-yilda Shumer davlatining Ur shaharchasida olib borilgan qazilma ishlarida olimlar tomonidan dastlabki ijara kelishuvlari ifodalangan loytaxtalar topib olingan². Bu loytaxtalardan ruhoniylarning birinchi ijaraga beruvchilar bo'lishganini va ular ijaraga qishloq xo'jalik qurollarini, suv manbalari va hokazolarni berishganini e'tirof etish mumkin³.

Bundan tashqari, olimlar tomonidan eramizdan oldingi 450–400-yillarda Vavilon davlatining janubi-sharqiy tomonida joylashgan qadimgi shahar Nippurda Murashu oilasi asos solgan dastlabki ijara

² Газманов В.Д. Рынок лизинговых услуг. М.: Фонд «Правовая культура», 1999. 17 с.

³ Черникова Е.В. История возникновения и развития лизинга // Вестник УЮрГУ. №13. 2006. <https://cyberleninka.ru/article/n/история-возникновения-и-развития-лизинга>

kompaniyasi aniqlangan. Ushbu oila o'z davrida ijara xizmatlari bozorida yetakchilik qilib, asosan yer, qoramol va qishloq xo'jalik texnikasini ijaraga bergan⁴.

Xalqaro savdoda o'zining uddaburonligi va omadliligi bilan dong taratgan finikiyaliklar kemalarni ijaraga berish bilan shug'ullanishgan. Qadimda amalga oshirilgan ijara kelishuvlarini o'zining iqtisodiy-huquqiy mohiyatiga ko'ra hozirgi lizing munosabatlariga juda o'xshab ketadi. Aynan finikiyaliklarni oddiy ijara munosabatlaridan farq qiluvchi moliyaviy ijara (lizing)ning asoschilari desa to'g'ri bo'ladi. O'sha paytda lizingga oluvchilarga egalik qilish, foydalanish uchun berilgan kemalarning muddati ularning samarali foydalanish muddatiga yaqin bo'lgan. Finikiyaliklar mijozlarining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun ijaraga berayotgan kemalari bilan birgalikda kemachilar guruhini ham qo'shimcha xizmat sifatida taklif etishgan. Garchi lizingga oluvchilar kemalarga egalik qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, iqtisodiy foydaga ega bo'lishsada, ular duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar ham juda ko'p bo'lgan⁵.

Eramizning 1066-yilida Norvegiya qiroli hamda Normandiya gersogi birlashib, to'satdan Angliyaga hujum qilishadi. Ikki hafta ichida ikkala flot tomonidan Angliyaning ko'pgina qirg'oqlari egallab olinadi. O'sha paytda na Norvegiya qiroli va na Normandiya gersogi yetarlicha o'zining kemalariga ega bo'lishgan. Bundan tashqari, ular bu turdagi harbiy kompaniyani moliyalashtirishga va o'zlarining faoliyatlarini qurishga ham yetarli mablag'ga ega bo'lishmagan. Inglizlar esa boshqa chora topa olmay taqdirlariga tan berishgan. Lekin hammasi o'zgacha bo'lishi mumkin edi, ya'ni bu orada qiroli va gersog moliyalashtirish manbaini topib: ular flot, qurol-yarog' va harbiy guruhlarini ijaraga olishib, o'zlarining "biznes-reja"larini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari mumkin edi.

Yevropadagi savdo markazlaridan biri bo'lgan qadimiy Venetsiyada ham dastlabki lizing munosabatlari mavjud bo'lganligi to'g'risida

⁴ Газманов В.Д. Рынок лизинговых услуг. М.: Фонд «Правовая культура», 1999. 18 с.

⁵ Кабатова Е. Лизинг: понятие. Правовое регулирование, международная унификация. М.: Наука, 1991. 38 с.

ma'lumot saqlab qolingan⁶. Venetsiyaliklar savdo-sotiq maqsadida kelgan xorijiy savdo kemalarini suv ko'rfazida ushlab turish uchun o'sha davrlarda o'ta qimmatbaho bo'lgan kemalarni ijara (lizing)ga berishgan. Keyinchalik bunday imtiyozli xizmat turidan uzoq safarlarga otlangan mahalliy suv kemalarining egalari ham foydalanishgan.

O'rta asrlarda qishloq xo'jalik qurollari va o'qlari ijarasi mashhur bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, o'sha paytda ritsarlik qurol-aslahalari juda qimmat bo'lganligi tufayli ularni ijaraga berish ommalashgan. Masalan, 1248-yilda Gaetalik ritsar Bonfils Manganella yettinchi salb yurishiga tayyorlanayotib ritsarlik qurol-aslahalarini ijaraga olgan. Ijara haqi qurol-aslahalar sotuv qiymatining 25 %ini tashkil qilgan.

XIX asrda jamiyatda foydalanilayotgan ijara predmetlarining ko'payib ketayotganligi sababli ijara munosabatlarida ham o'sish kuzatilgan. Qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va transport sohasida qo'llanilayotgan texnologiyalarning jadal rivojlanishi tadbirkorlik qatlamida ijaraga bo'lgan talabning oshishiga va uning ancha ommalashuviga olib keldi. AQShda temir yo'llarini qurish ijaraning yanada tez sur'atlarda o'sishiga sabab bo'ldi.

Avstriyalik olim V.Xoyer 1877-yilda o'zining "Yevropada qanday qilib biznes qilish kerak" degan kitobida "Bell" telefon kompaniyasida ishlab chiqarilgan telefon apparatlarining sotilmasdan ijaraga berilganligi va uning natijasida katta foyda ko'rilganligi haqida yozadi.

Bu kompaniya o'z iste'molchilariga telefon apparatining qiymatini aloqa xizmati haqiga mutanosib ravishda qo'shib to'lash sharti bilan ijaraga berib yuborgan. Bunda iste'molchilar telefon apparatida foydalanish huquqi bilan birga kelishilgan to'lovlarni amalga oshirilganlaridan so'ng, uning egasi bo'lish huquqini ham qo'lga kiritishgan. Bu voqea aloqa sohasining rivojlanishiga hamda iste'molchilardan o'z mulkiga bo'lgan egalik tuyg'usini shakllantirishga turtki bo'ldi. Demak, ijara orqali nafaqat mulkdan foydalanish huquqini, balki ijaraga olingan mulkka egalik qilish huquqini ham qo'lga kiritish

⁶ Кабатова Е. Лизинг: понятие. Правовое регулирование, международная унификация. М.: Наука, 1991. 39 с.

mumkinligi isbotlandi. Ushbu telefon apparatlari ijarasi hozirgi zamonaviy lizing munosabatlarining tamal toshidan biri bo'lgan bo'lib, u ijaraga berilgan mulkni ijaraga oluvchining mulkiga o'tish qoidasini ko'rsatib bergan.

XX asrdagi sanoat inqilobi ijara munosabatlariga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu paytga kelib ishlab chiqaruvchilarning o'zlari ijaraning rivojlanishiga turtki berishdi. Ular ijaraga o'zlari ishlab chiqargan asbob-uskuna va qurilmalarni sotish vositasi sifatida qaray boshlashdi.

Bu paytda Buyuk Britaniyada kapitalizmning jadal rivojlanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlarini ijaraga berish jarayonini tezlashtirib yubordi. Ayniqsa temir yo'l transporti va toshko'mir qazib olishning gurkirab o'sishi ijara munosabatlarini jonlanishida katta rol o'ynadi. Ma'lumki, qazib olingan toshko'mirni iste'molchilarga uzluksiz yetkazib berishda katta miqdordagi temir yo'l vagonlariga zaruriyat tug'iladi. Lekin kon sanoati korxonalari hamma vaqt ham bunday moliyaviy imkoniyatga ega bo'lishmagan. Ana shunday holatlarda moliyaviy jihatdan baquvvat kompaniyalar foyda olish uchun temiryo'l vagonlarini sotib olib, ularni konchilarga ijaraga berishgan. Vaqt o'tib ijara muddati tugagach, konchilarga vagonlarni sotib olish huquqi bilan ijara bitimi tuzilgan. Bunday shartnomalar "ijara-sotish" deb atalgan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirsak zamonaviy lizingning yana bir muhim jihati bo'lgan – uchinchi (vositachi) shaxsning, ya'ni lizing kompaniyalarining vujudga kelishi uchun poydevor qurilganligini kuzatishimiz mumkin.

Lizing tarixini o'rganar ekanmiz, bu borada Aristotelning falsafiy fikrlariga to'xtalib o'tish lozimdir. U o'zining asarida "Boylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan oqilona foydalanishdadir", ya'ni xo'jalik yurituvchi subyekt daromad olishi uchun biron-bir mulkka ega bo'lishi shart emas, faqatgina shu mulkdan foydalanish natijasida daromad olish huquqiga ega bo'lishi yetarli, degan fikrni ilgari surgan

edi⁷. Olim ushbu falsafiy fikrlari bilan lizing g'oyasini yaratdi, u bugungi kunda ham lizingning mohiyati va ahamiyatini ochib berish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Huquqiy jihatdan lizing dastlab eramizdan oldingi Vastrda Rim imperiyasining Qonuniy hujjatlarida o'z aksini topgan. Rim huquqnomasini kodlashtirgan Rim imperatori Yustinian I. (483-565) ijara munosabatlarini huquqiy hujjatlarda qayd ettirgan. Bunday ijara munosabatlarni rivojlantirish nafaqat falsafiy g'oyalarga ega bo'lish, balki uning mulkiy munosabatlar sifatida o'zining huquqiy mazmuniga ega bo'lishini taqozo etgan⁸.

Ayrim paytda lizing faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar eramizdan oldingi 1760-yillarda Xammurapi Qonunlarida qadimiy Sharq qulchilik huquqida keltirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo ushbu fikrlar lizingning zamonaviy talqinini emas, balki jihozlar ijarasi sifatidagi umumiy mazmunini aks ettiradi⁹.

Yuqorida keltirib o'tilgan tarixiy ma'lumotlar lizing munosabatlarini faqat shu davrdan boshlab mavjud bo'lgan, degan xulosani bermasligi kerak. Chunki insoniyat tarixi rang-barang bo'lib, uning hali ochilmagan qirralari behisobdir.

Lizing g'oyasi garchi yangi bo'lmasada, lizing atamasining qo'llanilayotganligiga ko'p vaqt bo'lgan emas. Lizing munosabatlarida tub o'zgarishlar XX asrning 50-yillarida Amerikada sodir bo'ldi. Lizingga texnologik vositalar, mashinalar, mexanizmlar, kemalar, samolyotlar va bir qator ishlab chiqarish vositalari faol ravishda berila boshlandi. Ushbu o'zgarishlarni AQSh hukumati munosib baholab, lizing faoliyatini rag'batlantiruvchi davlat dasturini ishlab chiqdi, buning natijasida lizing munosabatlari jadal rivojlana boshladi va lizing biznesining shakllanishiga turtki berdi. Ma'lum bir to'lov evaziga lizing kompaniyalari va firmalari tashkil etilib, lizing operatsiyalari tadbirkorlik faoliyatining asosiga aylandi.

⁷ Смирнов А.Л. Лизинговые операции. М.: Консалт-банк, 1995. 3. с.

⁸ Haydarov Sh.U., Ortiqov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: tan olish, baholash va uning hisobi. T.: NORMA, 2006. 13-14 b.

⁹ Черникова Е.В. История возникновения и развития лизинга // Вестник УЮрГУ. №13. 2006. <https://cyberleninka.ru/article/n/история-возникновения-и-развития-лизинга>

O'tgan asrning 60–80-yillarida AQSh, Kanada va Yevropada lizing munosabatlari tez sur'atlarda rivojlandi, uning geografik maydoni kengayib Avstraliya va Yaponiyada ham lizing bozori shakllantirildi. 80-yillarning oxiriga kelib lizingning rivojlanish darajasi va dinamikasini quyidagicha tavsiflash mumkin: agar 1987-yilda AQSh sanoatiga kiritilgan jami investitsiyaning 28 foizi mol-mulk (asbob-uskunalar) lizingiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Avstraliyada ushbu ko'rsatkich 30 foiz atrofida, Buyuk Britaniyada 20 foiz, Fransiya 17 foiz, Italiya 14 foiz, Germaniya 15 foiz, Avstriya 9 foiz atrofida, Kanadada esa qariyb 8 foiz bo'lgan. Hozirgi kunda lizing operatsiyalari ushbu mamlakatlarda 1,5-2,0 marta oshgan. Rossiyada ushbu ko'rsatkich 1996-yilda 1,2 foizni tashkil etib, 2000-yilga kelib 20 foizga yetgan¹⁰. Yuqorida keltirilgan raqamlar asosida biz tadbirkorlik faoliyatining nisbatan yangi shakli bo'lgan lizing munosabatlarining rivojlanish doirasi va dinamikasini ko'rib o'tdik.

1.2. Zamonaviy sharoitda lizingning iqtisodiy mohiyati

Lizing munosabatlari o'zida iqtisodiy, moliyaviy hamda huquqiy munosabatlar jamlanmasini aks ettiradi. Tarixiy jihatlarini o'zida aks ettirgan holda lizingning huquqiy mazmuni E.V. Kabatova, V.D. Gazman, V.V. Vitryanskiy, I.A. Reshetnik va boshqalarning asarlarida keltirib o'tilgan. Ammo hanuzgacha lizingning zamonaviy iqtisodiy sharoitlardagi mazmuni to'liq yoritilmagan. Ushbu olimlarning asarlarida lizingga moliyalashtirishning eng samaradorli usullaridan biri sifatida yondashilib, xo'jalik yurituvchi subyektlarga asosiy vositalarni yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish, soliq va joriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan moliyalashtirish shakli, deb e'tirof etilgan.

Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari tomonidan lizing quyidagicha talqin qilingan: "Lizing bu mulkiy munosabatlar majmui bo'lib, bunda bir taraf (lizingga beruvchi) boshqa bir taraf (lizingga

¹⁰ Zaynalov J.R. "Lizing va lizing operatsiyalari" fanidan ma'ruza matni materiallari. SamISI, 2008.

oluvchi)ning topshirig'iga ko'ra uchinchi taraf (mol yetkazib beruvchi)dan lizing shartnomasiga muvofiq lizing obyekti bo'lgan mulkni o'z mulki qilib sotib olib, uni to'lash asosida lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanish va egalik qilish uchun lizingga oluvchiga beradi".

Lizingga berilgan bu ta'rifda lizingning mulkiy munosabatlar majmui va bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan foyda olish istagining mahsuli ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, Yevropa federatsiyasining lizing bo'yicha milliy assotsiatsiyasi tomonidan lizingga berilgan ta'rifi ham e'tiborga molikdir, ya'ni: "Lizing – bu ijarachining ishlab chiqarish maqsadida zavod, sanoat tovarlari, uskunalar va ko'chmas mulklardan foydalanish bo'yicha ijara shartnomasi bo'lib, bunda mazkur tovarlar ijaraga beruvchi tomonidan sotib olinib, u mulkka bo'lgan egalik qilish huquqini saqlab qoladi"¹¹.

Ushbu ta'rifda lizing ijara shartnomasi sifatida baholanib, uning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Lizingni ta'riflashda dastlab uning mulkiy munosabatlar ekanligini e'tiborga olib, bu ta'rifda unda ishtirok etayotgan barcha subyektlarning mavqei va manfaatlari o'z ifodasini topishi kerakdir. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, Sh.U.Xaydarov, X.A.Ortikov va X.A.Tuxsanovlar o'zlarining asarlarida lizingga quyidagicha ta'rif berib o'tishgan: "Lizing deganda bir taraf (lizingga beruvchi) boshqa bir tarafning (lizingga oluvchining) topshirig'iga muvofiq lizing obyekti bo'lgan mulkni o'z mulki qilib sotib olib, uni lizingga oluvchiga haq evaziga lizing shartnomasida belgilangan shartlar bilan vaqtinchalik foydalanib va unga egalik qilish uchun hamda shartnoma tugagandan so'ng lizing obyekti sotib olish huquqi bilan beriladigan mulkiy munosabatlar majmuidir"¹².

¹¹ Nabiye E.R., Marnatov M.D. Lizing g'oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti. T.: UAJBNT, 2004. 80 b.

¹² Haydarov Sh.U., Ortikov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: Tan olish, baholash va uning hisobi. T.: NORMA, 2006. 43 b.

Ushbu ta'rifda lizingning o'ziga xos xususiyati, ya'ni bu munosabatlarda uch subyektning ishtirok etishi hamda mulkchilik huquqining o'zgarishiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Xorijiy adabiyotlarda mutaxassislar lizingga ta'rif berishda uning lug'aviy ma'nosiga ham e'tibor berishgan (inglizcha "to lease" fe'lidan olingan bo'lib, "mulkni ijaraga berish" yoki "mulkni ijaraga olish" ma'nolarini anglatadi). Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taalluqli harakatlanuvchi mulkni uzoq muddatli ijaraga olish lizing sifatida e'tirof etilgan¹³.

Ba'zi adabiyotlarda lizing ijarani moliyalashtirish deb hisoblanadi va lizing usulida moliyalashtirish bankning texnika yoki mashinalarni sotib olib, ularni o'z mijozlariga ijaraga berishni nazarda tutadi, deb ta'kidlanadi¹⁴.

Boshqa bir adabiyotda lizing deganda ma'lum bir muddatga to'lov asosida mulkni vaqtinchalik egalik qilish va undan foydalanish uchun ijaraga berish munosabatlari¹⁵, shuningdek, investitsiyalarni moliyalashtirish shakllari yoki usullaridan biridir kabi fikrlar bildirilgan¹⁶.

Bu ta'riflarda lizingga asosan ijara munosabati sifatida yondashilib, uning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berilmagan.

M.I. Leshenko tomonidan lizingga berilgan ta'riflar yuqoridagilardan bir muncha farq qiladi. Uning fikricha lizing – bu shunday tovar kreditiki, u lizingga beruvchidan lizingga oluvchiga turli shakldagi mulk (qurilma, uskuna, mashina, kema va hokazo)ni foydalanishga berilishi bilan an'anaviy bank ssudasidan farq qiladi.

Lizingga beruvchi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan mulkni to'liq qiymati bo'yicha egaligiga olib moliyaviy xizmat ko'rsatadi, lizingga

¹³ Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». Ростов н/Д.: Феникс, 1999. 56 с.

¹⁴ Роуз Питер С. Банковский менеджмент. М.: Дело Лтд, 1995. 173 с.

¹⁵ Шабашев В.А., Федулова Е.А., Едошкин А.В. Лизинг: основы теории и практики: Учебное пособие / Под ред. Г.П. Подшиваленко. М.: Кнокус, 2007.

¹⁶ Коноплицкий В., Филина Г. Это бизнес: Толковый словарь экономических терминов. Киев: Альтерпресс, 1996. 149, 447 с.; Козлов Д. Лизинг: новые горизонты предпринимательства// Экономика и статистика. 1996. 29 июля.

oluvchi esa ushbu qiymatni davriy ravishda to'lov (badal)lar hamda kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni birgalikda to'lab qoplaydi¹⁷. Bu yerda lizingning o'ziga xos xususiyati mulkka egalik qilish huquqida namoyon bo'ladi.

Mulkka egalik qilish huquqi lizing muddati mobaynida to'liqligicha lizingga beruvchida bo'ladi. Bu huquq lizingga oluvchiga faqatgina shartnomada ko'rsatilgan muddatda kelishilgan to'lovlar butunlay to'langandan keyingina o'tadi.

Bularning barchasi lizing operatsiyalarining lizing bozori ishtirokchilari uchun naqadar foydali ekanligidan dalolat berib turibdi.

Shu o'rinda 1988-yil 28-mayda Ottavada qabul qilingan Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi konvensiyaning (UNIDRUA) iqtisodiy fanida shakllantirilgan "lizing" atamasiga to'xtalib o'tsak. Fikrimizcha, u lizingning eng to'liq ta'rifi bo'lib, quyidagicha ifodalangan:

Lizing – bunda bir taraf (ijaraga beruvchi):

1) boshqa taraf (ijaraga oluvchi)ning ko'rsatmasiga binoan ijaraga beruvchi uchinchi taraf (mol yetkazib beruvchi) bilan ijaraga oluvchi tomonidan tasdiqlangan shartlarga muvofiq uskunalar, mol-mulk yoki asboblarni sotib olish to'g'risida shartnoma (mol yetkazib berish to'g'risida kontrakt) tuzadi;

2) ijaraga oluvchi bilan kontrakt (ijara shartnomasi, lizing kelishuvi) tuzadi va ijara haqini to'lash sharti bilan unga uskunadan foydalanish huquqini taqdim etadi.

Bundan tashqari, Konvensiyada lizingning quyidagi shartlari ham ko'rsatib o'tilgan:

- foydalanuvchi mustaqil ravishda uskunani aniqlaydi va mol yetkazib beruvchini tanlaydi;

- uskuna uni kelgusida albatta lizingga topshirish maqsadini nazarda tutgan holda, lizingga beruvchi tomonidan tuzilgan yoki tuzilishi lozim bo'lgan lizing shartnomasiga muvofiq sotib olinadi.

¹⁷ Лещенко М.И. Основа лизинга: Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2004.

•lizing shartnomasi bo'lgan to'lanishi lozim bo'lgan davriy to'lovlar, xususan, uskunaning butun yoki muhim qismi qiymatining amortizatsiyasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish va foydalanish, shuningdek, tasarruf etish sohasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarning yig'indisi bo'lgan lizingning mazmunini o'rganayotganda uning pul va tovar shaklida ro'yobga chiqadigan kredit munosabatlariga asoslangan mulkiy munosabatlar yig'indisi ekanligiga ham alohida urg'u berishimiz kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, lizingga quyidagicha ta'rif berib o'tamiz: "Lizing – bu vaqtinchalik bo'sh turgan yoki jalb qilingan moliyaviy vositalarni investitsiyalashni o'zida aks ettirib, bunda lizingga beruvchi ma'lum bir sotuvchidan mulkiy shartnomada kelishilgan mol-mulkka egalik qilish va ushbu mol-mulkni vaqtinchalik foydalanganlik uchun to'lov asosida oxirida xarid qilish huquqi bo'yicha lizingga oluvchiga taqdim etish majburiyatini oladi".

1.3. Lizing operatsiyalarining moliyalashtirishning boshqa shakllaridan farqli jihatlari

Lizing munosabatlarining asosini moliyaviy munosabatlar, shu jumladan kredit va ijara munosabatlari yig'indisi tashkil etadi, shular yordamida zamon va makonda kapitalning haqiqiy qiymatini saqlash yoki ko'paytirish maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash jarayoni sodir bo'ladi¹⁸.

Lizing bozoridagi tajriba shuni ko'rsatadiki, asosiy vosita sotib olish ehtiyoji mavjud bo'lgan korxona, ertami-kechmi pul vositalarini yo'naltirish usullari tanlovi qarshisida qoladi. Xaridni amalga oshirish uchun korxonaning pullarini sarflash, moliyalashtirish uchun bank tashkilotlarida kredit chizmaiyashtirish, yoki mulk va texnikalarni lizing shartlari asosida qo'lga kiritish mumkin. Lizing quyidagi kuchli

¹⁸ G'ozibekov D.F., Sobirov O.Sh., Muminov A.G., Kuljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: Fan va texnologiya, 2004.87 b.

tomonlari bilan, moliyalashtirishning boshqa usullaridan ajralib turadi (1.1-jadval):

1.1-jadval

Moliyalashtirish usullarining o'ziga xos xususiyatlari

Asosiy jihatlari	Moliyalashtirish usullari		
	korxona mablag'lari	kredit	lizing
Jalb qilingan mablag'lar hisobiga istalgan tovarlarni xarid qilish imkoni mavjudligi	yo'q	ha	ha
Texnik vositalarni olish uchun korxona o'z mablag'larini tejab yig'ish zarurati borligi	ha	yo'q	yo'q
Investitsion loyihaning amalga oshirilish bilan bog'liq xarajatlarning tannarxga kiritilishi	yo'q	yo'q	ha
Xarid qilinayotgan mulkka nisbatan 2 barobargacha tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash imkoni borligi	yo'q	yo'q	ha
Xarid qilinayotgan asosiy vositalar mulk solig'ini to'lamaslik imtiyoziga egaligi	yo'q	yo'q	ha

Garchilizingmunosabatlarning asosini ijara va kredit munosabatlari tashkil etsada, ular o'rtasida muayyan tafovutlar ham mavjud (1.2-jadval).

Demak, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, lizing munosabatlari kredit munosabatlari hamda ijara bilan ma'lum bir umumiylikka ega bo'lsada, ko'pgina ko'rsatkichlar jihatidan ulardan mutlaqo farq qiladi. Lizing, avvalo o'zining mazmuni, shakli, subyektlar doirasi, iqtisodiy

samaradorligi va soliqlar tortish tizimi kabi ko'rsatkichlari bilan oddiy kredit munosabatlaridan farq qiladi.

1.2-jadval

Kredit va lizing munosabatlarining eng muhim farqlari

Ko'rsatkichlar	Kredit	Lizing	Ijara
Subyektlar	Kredit beruvchi va oluvchi	Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi), lizingga beruvchi va lizingga oluvchi	Ijaraga beruvchi va ijarachi
Moliyalashtirish	Pul vositalari kredit shartnomasi bo'yicha bevosita kredit oluvchining hisob raqamiga kelib tushadi	Rasman moliyalashtirish yuz bermaydi (lizingga beruvchi lizing obyektini sotib oladi va uni lizingga oluvchiga beradi)	Ijaraga berilayotgan obyekt chizmaan ijarachiga topshiriladi
Garov ta'minoti	Garov ta'minoti qiymati bank tomonidan belgilanadi (odatda kredit qiymatining 125% hisobida)	Garov ta'minoti kattaligini har bir lizing kompaniyasi mustaqil ravishda o'rnatadi	Ijara munosabatlari da garov ta'minoti ko'zda tutilmagan
Nazorat	Ta'sirvositalarinin gyo'qligisabablivo sitalarningmaqsadl isarflanishiniazor atqilibbo'lmaydi	Lizingga aniq kelishilgan mulk (qurilma, uskuna, mashina va h.k.) berilishi sababli vositalar ustidan nazorat kafolatlangan	Ijaraga aniq kelishilgan mulk berilishi sababli vositalar ustidan nazorat kafolatlangan
Yo'naltirish	Investitsiyalar istalgan tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltiriladi	Investitsiyalar ishlab chiqarishni faollashtirishga, ishlab chiqarish quvvatini modernizatsiyalash	Tijorat va notijorat maqsadlarda foydalaniladi

		va rivojlantirishga yoʻnaltiriladi	
Obyektga egalik huquqi	Kreditga sotib olingan mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi kredit oluvchiga tegishli	Lizing shartnomasi amal qilish davomida, lizing obyekti lizingga beruvchining mulki hisoblanadi, lizingga oluvchi esa ushbu obyektдан foydalanish huquqiga ega. Lizing shartnomasining muddati tugagach va barcha toʻlovlar toʻlangandan keyin, lizing obyekti toʻliq lizingga oluvchining mulkiga aylanadi	Ijaraga berilgan mulkdan foydalanish huquqi shartnoma asosida ijarachiga oʻtsada, egalik huquqi ijaraga beruvchida saqlab qolinadi
Foizlarning toʻlanishi	Odatda, har oyda maʼlum bir stavkada amalga oshiriladi	Har oy yoki har chorakda amalga oshiriladi. Har bir lizing obyekti uchun alohida yondashiladi. Lizing toʻlovlari lizingga oluvchining daromadiga qarab bir- biridan farq qilishi mumkin	Ijara haqi ijara shartnomasida tomonlarning oʻzaro kelishuviga binoan belgilanadi
Moliyalashti- rish kattaligi	Odatda, xarid qilinayotgan obyektning toʻliq qiymati qamrab olinmaydi. Kredit oluvchi qisman oʻz mablagʻini ham qoʻllashi talab qilinadi	Lizing obyekti narxining lizingga beruvchi tomonidan toʻliq qoplanishi koʻzda tutilgan	Ijaraga berilayotgan mulkning qiymati mulkdor tomonidan, davlat mulki esa OʻzR qonunchiligi asosida belgilanadi. Ijara haqining ijara

			obyektiga nisbatan ma'lum miqdorni tashkil etishi ko'zda tutilmagan
--	--	--	---

Lizingning boshqa moliyalashtirish shakllariga nisbatan afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Moliyaviy nuqtayi nazardan bir vaqtning o'zida ham uskuna xarid qilinadi, ham moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi. Tadbirkorning o'z mablag'lari hamda jalb qilingan mablag'lari o'rtasidagi nisbat ijobiy saqlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelgan talabdan kelib chiqqan holda, qo'shimcha yoki yangi texnika xarid qilish muammosini operativ tarzda hal qilish imkonini beradi. Bu ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshiradi, mablag'lar daromad keltiruvchi sohaga yo'naltiriladi. Lizing to'lovlari baholar indeksiga bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun ijaradan farqli o'laroq, shartnoma amal qilish muddatida o'zgartirilmaydi. Lizingga beruvchi o'z faoliyati davomida bir qator imtiyozlarga ega bo'ladi va shuning uchun lizing to'lovlarini amalga oshirishda lizingga oluvchiga bir qator qulayliklarni yaratib berishi mumkin.

2. Investitsion nuqtayi nazardan korxona mol-mulkni lizingga olishda uni kredit hisobiga xarid qilishda bir qator qulayliklarga ega. Jumladan, lizing obyektiga garov sifatida ishtirok etgani uchun unga qo'shimcha ta'minot turi talab etilmaydi. Talab etilgan taqdirda ham bu kreditga qaraganda birmuncha kam summani tashkil etadi. Lizing lizingga beruvchi mablag'ini to'liq qaytarilishini kafolatlaydi. Chunki, lizing obyektiga lizingga beruvchining balansida aks etadi va shartnoma muddati tugagunga qadar lizing kompaniyasining mulki hisoblanadi. Lizing boshqa investitsion vositalarga qaraganda kamxarjdir. Buning natijasida iqtisod qilingan mablag'lar qo'shimcha investitsiyalarga yo'naltirilishi mumkin.

3. Tashkiliy va ekspluatatsiya qilish nuqtayi nazaridanlizing asbob-uskuna, texnika, mashina va mexanizmlar narxining to'liq summasini to'lamasdan turib, ulardan foydalanish imkonini beradi. Lizingga olingan uskunani ishlatib, foyda ko'rish va bu foyda hisobidan uskunaning narxini to'lash mumkin.

4. Servis xizmatlarini ko'rsatish nuqtayi nazaridan lizingga oluvchi lizing obyekti bilan birgalikda bir qator servis xizmati turlarini ham olishi mumkin. Bular: sug'urta, transportirovka, uskunani o'rnatish, kafolatli xizmat, profilaktika va boshqa xizmat turlaridir.

5. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan lizing bo'yicha xarajatlar joriy xarajatlar tarkibiga va mahsulot tannarxiga kiritiladi, bu soliqla tortiladigan foyda miqdorining kamayishiga olib keladi. Lizing obyekti lizing kompaniyasining balansida aks ettiriladi.

Lizingni moliyalashtirishning boshqa usullariga qiyoslaydigan bo'lsak, uning quyidagi muhim o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tishimiz mumkin:

- lizing korxonaga bir vaqtning o'zida xarajatlarni kamaytirgan holda, lozim bo'lgan mulkni kerakli miqdorda sotib olish imkonini beradi. Shuningdek, korxoning o'z mablag'larini yig'ish zarurati qolmaydi, aksincha mablag'lar xomashyo va tayyor mahsulot zaxiralari, debitorlar bilan hisob-kitob qilishga yo'naltiriladi. Aynan lizing korxona faoliyati uchun asos bo'lgan aylanma mablag'larni katta miqdorda sarflamagan holda texnik bazani yangilash imkonini beradi;

- lizing majburiyatlari bo'yicha to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi, bu esa daromad solig'i hisoblanishida ma'lum bir miqdorda mablag'larni tejash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, lizing obyektiga nisbatan 3 barobargacha tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash imkoniyati mavjud. Aynan shuning hisobiga korxona qisqa muddat ichida tannarx hisobiga lizing xarajatlarini qoplab olishi mumkin. Lizing shartnomasi muddati tugagandan keyin lizingga oluvchi korxona mulkni juda oz qiymatda, deyarli nol qoldiq qiymatida balansiga oladi. Ya'ni korxona kelajakda "Asosiy vositalar amortizatsiyasi" satridagi summaning kamayishi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari

kamaytirilishi mumkin. Lizing muddati tugagan mulkni bozor narxida sotib yuborishi mumkin, bozor narxi esa qoldiq qiymatdan bir necha barobar yuqori bo'ladi. Xulosa qilsak, korxona qo'shimcha daromadga ega bo'lishi mumkin;

– lizing shartnomasi imzolanishi jarayonida, mijozning moliyaviy holatiga qo'yilgan talablar bank kredit komissiyasiga nisbatan lizing korxonalarida ancha soddalashtirilgan. Binobarin bank tashkilotining kredit bo'limidan mablag' olishga nisbatan lizing orqali moliyalashtirish ehtimoli yuqoriroqdir.

1.4. Lizing operatsiyalarining funksiyalari

Lizingning iqtisodiy mohiyati amaliyotda unga tegishli bo'lgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan funksiyalarida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy adabiyotlarda lizingning funksiyalari bo'yicha yagona fikr keltirilmagan.

Xorijiy olimlardan V.G. Makeevaning fikricha, lizingning quyidagi maqsadli funksiyalari mavjud¹⁹:

1. Moliyaviy funksiya uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalarini anglatib, soliq va amortizatsiya bo'yicha imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ushbu funksiya:

– lizingga olingan mulkning shartnoma shartlarida kelishilganligiga qarab lizingga oluvchi yoki beruvchining balansida aks ettirilishini;

– lizing to'lovlarining ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat) tannarxiga o'tkazilishi o'z navbatida soliqqa tortiladigan bazaning kamayishini;

– lizingning tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llab, buning natijasida ham soliqqa tortiladigan bazaning kamayishini hamda moddiy-texnik bazaning yangilanishini tezlashtirishni ifodalaydi.

2. Ishlab chiqarish funksiyasi lizingga oluvchi tomonidan lizing obyektidan vaqtinchalik foydalanish davomida ishlab chiqarish bilan

¹⁹ Максеева В.Г. Лизинг: Учеб. пособие. М.: ИНФРА-М, 2004.

bog'liq vazifalarini iqtisodiy, ratsional va tezlik bilan yechishni anglatadi.

3. Taqsimlash funksiyasi tayyor mahsulotni sotish shakllarini, iste'molchilar doirasini kengaytirish va yangi bozorlarni zabt etishni ifodalaydi.

V.A.Goremikin lizingning bir qator quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: moliyaviy, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohasini kengaytirish, sotish, umumiy ikkilangan mulkni bartaraf etish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, mulkdor va mulkdan foydalanuvchini ajratish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, uskunalarni o'zlashtirishni tabaqalashtirish, soliq imtiyozlarini olish, qiymatni qoplash, raqobat munosabatlarini rivojlantirish²⁰.

Lizingning eng asosiy funksiyalari G'ozibekov D.G'. boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan talqin qilingan²¹. Ularning fikricha, lizingning asosiy funksiyasi moliyaviy funksiya hisoblanib, u tadbirkor (lizingga oluvchi)ni lizing obyektiga uning qiymatini bir yo'la to'lashdan ozod etishda va unga moliyaviy vositachi (lizing kompaniyasi) mablag'i hisobidan lizing krediti berishda namoyon bo'ladi. Lizing munosabatlari lizingga oluvchiga hech qanday pul mablag'i qulay lizing mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Lizingga beruvchining balansida lizing mulki qiymati ko'rsatilgan taqdirda lizingga oluvchi lizing mulki qiymatini hisobga olmagan holda o'zining kapital va joriy aktivlarini baholashi mumkin. Lizingning ushbu funksiyasi lizingga oluvchiga hech qanday sarflarsiz ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi.


Bundan tashqari, ishlab chiqarish funksiyasi lizingning ikkinchi muhim jihati hisoblanadi, u korxona ishlab chiqarish salohiyatini tezkorlik bilan hal etishda lizing obyektini sotib olish yo'li bilan emas, balki ijara shartlari asosida vaqtinchalik olib, yangi uskunani faol

²⁰ Горемикин В.А. Лизинг: Учебник. М.: Дашков и К, 2003.

²¹ D.G'.G'ozibekov, O.Sh. Sobirov, A.G. Mo'minov, O.M. Quljonov. lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: Fan va texnologiya, 2004. 308 b.

harakatga tushurishda namoyon bo'ladi. Lizingning yuqoridagi ikki funksiyasi bilan bir qatorda yana sotish funksiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. U iste'molchilar doirasini kengaytirish va mazkur vaqtda shunday lizing mulkini olishga imkon bo'lmaganlarni ishlab chiqarish sohasiga sotish uchun yangi bozorni egallash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, lizing tadbirkorlik miqyosini kengaytirish, davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, mulk qiymatini to'lashda namoyon bo'ladigan innovatsiya funksiyasini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, bular yordamida raqobat munosabatlari rivojlanadi. Lizingning sotish funksiyasi lizing mulkini ishlab chiqaruvchi (lizingga oluvchiga yetkazib beruvchi)ga xos. Yuqorida keltirilgan funksiyalardan tashqari lizingning yana bir qator funksiyalari mavjud bo'lib, ular quyidagi chizmada keltirilgan:

Fikrimizcha, lizingning iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarini ikki guruhga: ichki ishlab chiqarish va tashqi funksiyalarga ajratib o'rganganda yanada kengroq namoyon bo'ladi. Ichki funksiyalarga ishlab chiqarish, resurslarni tejash, moliyaviy hamda sotish funksiyalarini kiritamiz.



*1.1-chizma. Lizingning asosiy funksiyalari*²²

²² D. F.G'ozibekov, O.Sh. Sobirov, A.G. Muminov, O.M. Kuljonov. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: Fan va texnologiya, 2004. 55 b.

Lizingning ishlab chiqarish funksiyasi lizingga oluvchi tomonidan ishlab chiqarishga oid barcha masalalarni asbob-uskunalariga egalik qilish orqali emas, balki ulardan vaqtinchalik foydalanish bo'yicha tezkor va o'zgaruvchan qarorlarni qabul qilish orqali amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Shu sababli lizing ma'naviy eskirish riskiga moyil bo'lgan asbob-uskunalar hamda ishlab chiqarishning mavsumiylik xususiyati kuzatilganda moliyalashtirishning samarali usuli bo'lib hisoblanadi.

Lizingning yana bir muhim funksiyasi resurslarni tejash bo'lib, u ishlab chiqarish aktivlarining taqchil bo'lgan resurslarini me'yorlashtirishni anglatadi.

Lizingning moliyaviy funksiyasiuning ta'rifida o'z aksini topadi, ya'ni lizingga ta'rif berishda uning asosiy vositalarga mablag' kiritish shakli ekanligi sifatida yondashsak, u holda lizing korxonaning investitsion talablarini qondirishning qo'shimcha manbai ekanligi yuzaga keladi.

Lizingning sotish funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega bo'lsada, bugungi kunda u to'liq amalga oshirilmay kelmoqda. Agar ishlab chiqarish jarayonida lizingdan iste'molchilar sonini oshirish va yangi bozorlarni zabt etish maqsadida foydalanilsagina sotish funksiyasi ahamiyatli hisoblanadi. Lizing orqali ba'zida iste'molchilar jumlasiga asosiy vositalarni sotib olishga moliyaviy imkoniyati mavjud bo'lmagan yoki asosiy vositadan doimiy foydalanish ehtiyojiga ega bo'lmagan korxonalarni ham kiritish mumkin bo'ladi.

Lizingning tashqi funksiyalari qatorida moliyaviy va takror ishlab chiqarish funksiyalari ahamiyatlidir. Ushbu funksiyalarning mohiyati ichki funksiyalar mohiyatidan farqlanadi. Xususan lizingning tashqi moliyaviy funksiyasi lizingni investitsiyalashning asosiy shakli sifatida jozibadorligini oshirib, investitsion faoliyatni nafaqat mikro darajada, balki makro darajada ham tartibga soladi.

Lizingning takror ishlab chiqarish funksiyasi adabiyotlarda deyarli keltirilmagan. Ushbu funksiyaning mohiyatini takror ishlab chiqarish jarayonini umumiy iqtisodiy masshtabda qo'llash nuqtayi nazaridan

yoritish mumkin. Lizing munosabatlarining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar zanjirida lizingning qo'llanilishi natijasida mulkchilik munosabatlari bo'yicha yangi o'zaro munosabatlar yuzaga keladi va takror ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy munosabatlar samaradorligi oshadi.

Tayanch so'z va iboralar *Lizing, ijara, kredit, ijara predmeti, lizing funksiyasi, mulkdan foydalanish huquqi.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Lizing tushunchasining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Lizingning kredit va ijaradan farqli jihatlari nimada?
3. Zamonaviy lizing munosabatlari qachon rivojlandi?
4. Lizing qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Lizingning ichki ishlab chiqarish funksiyalarining mazmuni nimadan iborat?
6. Lizingning tashqi funksiyalariga qaysi funksiyalar kiradi?
7. Milliy va xorijiy iqtisodchilarning lizing funksiyalari bo'yicha fikrlarini taqqoslang.

II BOB. LIZINGNING ASOSIY TURLARI VA ELEMENTLARI

2.1. Lizingning moliyalashtirish usuli sifatida afzalligi, kamchiliklari va asosiy belgilari

Moliyalashtirishning muqobil usuli sifatida lizing operatsiya-siningo'ziga xos xususiyatlari, ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Lizingning asosiy ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- lizing investitsiya operatsiyasini to'liq hajmda moliyalashtirish imkonini beradi va bunda to'lovlarni birdan amalga oshirish talab etilmaydi. Natijada xo'jalik faoliyatidan katta miqdordagi mablag'larni muomaladan chiqarmasdan turib narxi yuqori bo'lgan aktivlarga egalik qilish imkoniyatining yaratilishi;
- lizing predmeti yetarlicha likvid aktiv sifatida bir paytning o'zida garov ta'minoti bo'lib hisoblanganligi uchun korxona (lizingga oluvchi)ga aktivlarni lizing asosida jalb qilishning ularni ssuda asosida olishdan qulay ekanligini namoyon etishi;
- ssudaga nisbatan lizingning o'zgaruvchan manbaa ekanligi lizing to'lovlarini hisoblash (yoki to'lash) usulini shartnoma ishtirokchilari xohishiga ko'ra ishlab chiqilishida namoyon bo'ladi (masalan, lizing to'lovlari lizing predmeti asosida ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiya qilingandan so'ng to'lanishi, biznesning mavsumiylik xususiyatlarini e'tiborga olinishi va h.k.);
- ta'minotning turli shakl va ko'rinishda bo'lishi;
- aktivga egalik qilish bilan bog'liq risklarni pasaytirishi;
- lizing to'lovlarining ishlab chiqarish (tannarx) xarajatlari sifatida hisobga olinishi;

– lizingga olingan mulkning shartnoma muddati davomida lizingga oluvchi balansida hisobga olinmasligi uni mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etadi;

– lizing malakali servis va texnik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi va h.k.

Lizingning o'ziga xos kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

– mulkni lizingga olishda uning yakuniy qiymati uni sotib olish yoki kreditga olishga qaraganda nisbatan yuqori bo'lishi;

– shartnoma qiymatining 25-30 foizi miqdorida avans to'lovlarining talab etilishi;

– to'lovlar majburiylik xususiyatiga ega ekanligi sababli ularni amalga oshirishda uskunaning holati va xo'jalik faoliyatining natijalari e'tiborga olinmasligi;

– tezashtirilgan amortizatsiyadan qo'lga kiritiladigan foydaning lizingga beruvchiga to'g'ri kelishi;

– korxonada moliyaviy riskning oshishi;

– ayrim paytda qo'shimcha garov ta'minotining talab qilinishi;

– shartnomaning huquqiy jihatdan murakkabligi va h.k.

Lizingning ijobiy va salbiy jihatlarini ushbu operatsiyada ishtirok etuvchi subyektlar nuqtayi nazaridan o'rganish ham moliyalashtirish bo'yicha qaror qabul qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi.

Lizingning lizingga oluvchi uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

– lizing orqali korxonalar uskunani xarid qilishda, pul mablag'larining yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi;

– lizing to'lovlarining mahsulot tannarxiga o'tkazilishi sababli foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan baza kamayadi;

– lizing operatsiyalari ishtirokchilari 3 dan yuqori bo'lmagan tezlashirilgan amortizatsiya koeffitsiyentini qo'llashlari mumkin bo'ladi;

– lizingga oluvchi ushbu mexanizmni qo'llash natijasida ishlab chiqarish quvvatlarini tezda yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi;

– lizingga beruvchilar bozor holati hamda tovarning sifat xususiyatlari haqidagi marketing axborotiga ega bo'lishadi;

– kreditdan farqli ravishda lizing operatsiyasida mablag'lar lizing shartnomasi asosida olingan uskunadan foydalanib ishlab chiqarilgan mahsulot ko'rinishida ham qaytarilishi mumkin;

– lizing to'lovlarini amalga oshirishning lizing predmetidan foydalanish xususiyati va muddatidan kelib chiqib o'zgaruvchan bo'lishi;

– lizing shartnomasi asosida lizingga beruvchi tomonidan majburiyatlar bajarilmasligi riskining past ehtimolliligi;

– xalqaro moliyaviy lizing asosida import qilish sxemasidan foydalanilganda bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lish mumkinligi.

Lizingning lizingga beruvchi uchun afzalligi quyidagilardan iborat:

– shartnomaning xavfsizligi – mulkka egalik qilish huquqining lizingga beruvchida qolishi;

– xarajatlarning o'zaro kelishilgani – investitsiya daromadlari va xarajatlarining parallel ravishda amalga oshirilishi;

– lizing to'lovlarining aniq ifodalanishi;

– bozor holati o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish – foydalanuvchi (lizingga oluvchi) bilan uzoq muddatli munosabatlar hamda lizing to'lovlarining nisbatan barqaror bo'lishi;

– soliqliq imtiyozlarini qo'llash mumkinligi.

Lizingning sotuvchi (mulkni ishlab chiqaruvchi) uchun afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– faol marketingni amalga oshirish;

- teskari aloqaning o‘rnatilishi – uskunaning tuzilishi bilan bog‘liq nosozliklarni tezda aniqlash;
- to‘lovsizlik riskining minimalligi – to‘lov va garov ta‘minotini lizingga beruvchi (lizing kompaniyasi) o‘z zimmasiga oladi;
- samarali reklama vositasi;
- ikkilamchi uskunalariga bo‘lgan talabning yuqori bo‘lishi;
- ishlab chiqarilayotgan uskunani yangilash sur‘atining tezlashishi;
- bozor holati o‘zgarishining salbiy ta‘sirini kamaytirish.

2.1-jadval

Lizingning moliyalashtirishni muqobil usuli sifatida afzalliklari va kamchiliklari

Moliyalashtirish usuli sifatida lizingning	
afzalligi	kamchiliklari
Yuz foizli kreditlash Bir vaqtda amalga oshiriladigan yirik xarajatlarning yo‘qligi O‘z va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi optimal nisbat Pul mablag‘larining vaqtinchalik muomaladan chiqarilishi Shartnomaning o‘zgaruvchanligi Uskuna eskirish riskining pasayishi Lizingga olingan mulk buxgalteriya hisobining ijobiyligi Amortizatsiya imtiyozlari Nisbatan past foiz stavkasini qo‘llash mumkinligi Qarz oluvchida risk darajasining nisbatan past bo‘lishi Iste‘molchilar sarfining kengayishi Shartnoma muddati yakunida uskunani sotib olish imkoniyatining mavjudligi	Inflyatsiya natijasida qoldiq qiymatining oshishi Tashkil etishning murakkabligi

Yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlaridan tashqari lizingning bir qator kamchiliklari ham mavjud:

– lizing operatsiyasi murakkab kelishuvlarga tayanadi, bunda shartnomadagi ko‘p sonli ishtirokchilarning roziligi talab etiladi;

– ayrim tarmoqlarda uskunalar shartnoma muddati tugashidan avval eskirishi mumkin;

– korxona (lizingga oluvchi) shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlar bajarilgach, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

Lizingning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

– lizing o‘zida ham kreditlash, ham ijara xususiyatlarini aks ettirgan moliyaviy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin;

– lizing shartnomasi imzolanganligidan qat’iy nazar, lizingga beruvchi mulkning yagona egasi, lizingga oluvchi esa mulkdan vaqtinchalik foydalanuvchi bo‘lib hisoblanadi;

– lizing kompaniyasi mulkni o‘zining ehtiyoji uchun emas, aksincha lizingga beruvchiga foydalanishga taqdim etish uchun xarid qiladi;

– mulkni tanlash huquqi lizingga beruvchiga beriladi, shu sababli lizing kompaniyasi lizing obyektini xarid qilayotganida lizingga oluvchining talabini ham e‘tiborga olishi kerak bo‘ladi;

– lizingga beruvchi ijarachidan lizing shartnomasi predmetini amalga oshirish uchun belgilangan pul mablag‘lari miqdorini undiradi. Lizingga oluvchi shartnoma muddati tugagach, mulkni sotib olish huquqiga ega bo‘ladi;

– lizing shartnomasi predmetini yetkazib beruvchisi lizingga beruvchi tomonidan olinayotgant mulk lizingga oluvchining foydalanishi uchun olinayotganligi haqida xabardor bo‘lishi kerak;

– vaqtinchalik xarajatlarni kamaytirish uchun lizing mulki bevosita lizingga oluvchiga yetkazib beriladi;

– mulkni ijaraga oluvchi foydalanish jarayonida mulkda ma’lum bir kamchiliklar yuzaga kelsa, bu haqida lizingga oluvchini emas, uning sifati bo‘yicha javobgar bo‘lgan mahsulot yetkazib beruvchiga xabar beradi.

2.2. Lizing obyektlari va subyektlari

Lizing obyekti va subyektlari lizing shartnomasining zaruriy sharti bo'lib, ularsiz shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Aniq vaziyatlardan kelib chiqib, lizing obyekti sifatida bozorda erkin muomalada bo'lishi cheklangan, asosiy vositalar klassifikatsiyasiga asosan ularning tarkibiga kiritilgan istalgan ko'char va ko'chmas mulk hisoblanishi mumkin. Umumiy holatda, lizing obyektlarini turli xil belgilariga ko'ra tasniflash mumkin (2.2-jadval).

2.2-jadval

Lizing obyekti turlari

Belgilari	Lizing obyekti	Xususiyatlari
ishlab chiqarish vositalari		
Funksional vazifasi		Tadbirkorlik maqsadlari uchun qo'llanilishi
Aylanuvchanlik		Fuqarolik muomalasidan chiqarilmasligi
Iste'mol shaklining holati		Iste'mol jarayonida foydalanilmaydigan
Aniqlik darajasi		Ma'lum bir tur belgilari bo'yicha aniqlanadigan Yakka tartibda aniqlanadigan
Murakkablik darajasi		Alohida mulk, murakkab – mulk jamlanmasi
Harakatchanlik darajasi		Ko'char va ko'chmas mulk
Mulkchilik shakli		Davlat, xususiy, aralash
Tarmoq bo'yicha tegishliligi		Sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va h.k.
Ishlab chiqarish jarayonida qiymatning o'tkazilish usuli		Eskirish darajasidan kelib chiqib asta-sekin

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (588-modda)ga muvofiq, ishlatilmay turgan har qanday ashyo lizing obyekti bo'lishi

mumkin, ammo u tadbirkorlik faoliyati uchun yaroqli bo'lishi kerak²³. Yer maydoni va boshqa tabiiy obyektlar bundan mustasno. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida lizing obyekti keng talqin etilmagan. Bu keyinchalik O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni (3-moddasi)da bartaraf etilib, lizing obyektiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy majmualar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin.

Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan boshqa mol-mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin emas". Lekin bu yerda ham muomalada taqiqlangan yoki muomalaning alohida tartibi belgilangan ko'char yoki ko'chmas mulklar qayd etilmagan.

Lizing biznesining o'ziga xos xususiyati ham lizing bitimining ta'minlanishida lizing obyektining muhim ahamiyatga egaligidadir. U lizing shartnomasining butun muddati mobaynida lizingga beruvchining mulki bo'lib qoladi. Agar olinayotgan mulk likvidli bo'lmasa, lizingga beruvchi to'lov qobiliyatining mavjud bo'lmalik riskining oldini olish yoki pasaytirish uchun lizing bitimining ta'minlanishini talab etish lozim. Lizing bitimini ta'minlash qimmatli qog'ozlar, topshiriqnama, bank yoki boshqalarning kafolati kabi turlarda bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, lizingning majburiy sharti shundaki, lizingga beriladigan obyektlar faqatgina tadbirkorlik maqsadlari uchun foydalanilishi kerak. Shuning uchun agar lizing kompaniyasiga ofis jihozlarani ijaraga olish uchun ikki tashkilot: tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat korxonasi va notijorat xayriya fondi murojaat qilsa, unda orgtexnika birinchi subyektga berilgandagina lizing kelishuvi obyekti bo'lib hisoblanadi.

Mulkni lizing obyekti bo'lishining yana bir muhim mezonini uning ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinmasligidir. Shunisi qayd

²³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/180552>

etilganki, iste'mol qilinmaydigan mulklar ishlab chiqarish jarayonida o'zining tabiiy xususiyatini yo'qotmaydi, ya'ni lizing muddati tugashi bilan lizing obyektini sotish va keyingi ijaraga berishga yaroqli bo'lishi kerak. Bunday shartlarga ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar javob beradi.

Lizing obyektini mulkning harakati nuqtayi nazaridan hamda mulkni ko'char va ko'chmas mulkka ajratilishi bo'yicha tasniflanishi keng tarqalgan. Ijaradan farqli ravishda yer uchastkalari hamda boshqa tabiiy obyektlar lizing objekti bo'la olmaydi.

Bundan tashqari, lizing obyektini yakka tartibda aniqlanadigan va ma'lum bir tur belgilari bo'yicha aniqlanadigan mezon ham mavjud. Ma'lum bir tur belgilari bo'yicha aniqlanadigan mezon sifatida barcha obyektga tegishli bo'lgan va soni, og'irligi kabi xususiyatlar bilan aniqlanishini keltirib o'tish mumkin. Ma'lum bir tur belgilari bo'yicha xarakterlanadigan mulklarni almashtirish mumkin. Shu sababli ularning yo'qotilishi qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi. Yakka tartibda aniqlanadigan mulk har doim aniq bo'ladi. U yoki noyob, yoki ma'lum bir tur belgilari bo'yicha aniqlanadigan mulk sirasiga kirsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ba'zida lizing objekti sifatida turli xil buyumlardan yig'ilib, yagona bir butunni tashkil etuvchi murakkab mulk lizing objekti bo'lishi mumkin. Misol tariqasida, lizing objekti sifatida korxona olinayotgan bo'lsa, unda uning alohida qismlari: bino, inshoot, asbob-uskuna va h.k.larga shartnomadagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

Har bir holatda lizing objekti aniq ifodalangan bo'lishi kerak. Agar bir turdagi obyektlar turli xil xususiyatlarga ega bo'lsa, unda shartnoma qanday xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. Agar lizingga oluvchi (foydalanuvchi) bir turda bo'lmagan tovarlarni olmoqchi bo'lsa, unda lizingga beriladigan har bir turdagi tovarning miqdori aniqlanib, xususiyatlari batafsil qayd etilishi lozim.

Agar lizing objekti bo'lib murakkab texnologik xususiyatlarga ega tovar hisoblansa, unda tovarning batafsil xususiyatlari yoritilishi kerak.

Amaliyotda lizingga ma'naviy eskirish darajasi yuqori bo'lgan qimmat turadigan mashina, stanok, qurilish texnikasi, avtomobil, daryo va dengiz kemalari, hisoblash texnikasi, traktor, kombayn, bino, inshoot va shu kabilar beriladi.

Lizing shartnomasidagi yana bir muhim element bu lizing subyektlaridir. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, lizingga beruvchi, lizingga oluvchi va sotuvchi lizing subyektlaridir²⁴.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchiga kelgusida topshirish maqsadida lizing obyektini mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb e'tirof etiladi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektini olayotgan shaxs lizing oluvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi.

Lizing subyektlari tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan (2.3-jadval).

2.3-jadval

Lizing subyektlari tarkibi

Lizing subyektlari			
tijorat korxonalari va yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi xususiy tadbirkorlar			
lizingga beruvchilar	lizingga oluvchilar (mulkdan foydalanuvchilar)	lizing obyektini sotuvchilari	asosiy ishtirokchilar o'rtasidagi vositachilar
Moliya-kredit muassasalari	Tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar	Mulkdorlar	Brokerlik lizing kompaniyalari
Moliyaviy lizing	Yuridik shaxs tashkil etmasdan	Uskunani ishlab	Trest kompaniyalari

²⁴ O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. T., 1999. 14-aprel. 756-I-son.

kompaniyalari	faoliyat yurituvchi xususiy tadbirkorlar (fermer xo'jaliklari va b.)	chiqaruvchilar	
Ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalari		Ta'minot savdo korxonalari	Shartnomalarni moliyalashtiruvchi moliyaviy kompaniyalar
Uskunani ishlab chiqaruvchi korxona bo'limlari, filiallari		Savdo korxonalari	Sug'urta kompaniyalari
Davlat va mahalliy organlar: Mulkni boshqarish bo'yicha qo'mitalar Ta'minot bo'limlari va boshqalar		Boshqa shaxslar, masalan, konsignatorlar	Xizmat ko'rsatuvchi boshqa shaxslar: Dilerlar - o'z mablag'lari hisobidan faoliyat yuritadi Maklerlar – shartnoma ishtirokchisi hisoblanmaydi; Brokerlar – ishonchli vakil Ulgurji vositachilar (vakillar) Agentlar –

			buyurtmachining nomidan va uning foydasiga ishlaydi
Tijorat banklari			

Demak, klassik (an'anaviy) lizingning subyektlari bo'lib lizingga beruvchi, lizingga oluvchi va lizing obyektini ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) hisoblanadi.

Mulzni lizingga berish huquqiga faqatgina uning mulkdori yoki vakillari ega bo'lishadi. Yetkazib beruvchi bo'lib esa oldindan aniqlangan turdagi asbob-uskunalar, zaxira qismlarni kafolatlangan yetkazib berishni o'z zimmasiga olgan, ba'zan esa texnik servis bo'yicha xizmat ko'rsatadigan firmalar hisoblanadi. Bularndan farqli o'laroq, qoida bo'yicha investitsiyaga ega bo'lgan ixtisoslashgan lizing kompaniyalari tomonidan kompleks lizing xizmatlari taqdim etiladi. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari lizing bozorida taklif bilan chiqishlari mumkin. Milliy lizing bozoridagi asosiy lizingga beruvchilar sifatida lizing kompaniyalari va tijorat kompaniyalarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Lizing bozorida talabni shakllantirishda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining ahamiyati juda yuqori. Lizing xizmatlarining iste'molchilari quyidagi talablarga javob berishlari kerak: yuqori darajada foyda hajmi va me'yorini, yetarli darajada kasbiy va iqtisodiy tayyorgarlikni hamda to'lovga qobililiyatlikning ishonchli kafolatini ta'minlash.

Lizingga oluvchilarning turli xo'jalik jarayonlaridagi faoliyatini tahlil qilish, shuningdek, ularning o'z oldiga qo'yan maqsad va ta'sir darajasidan kelib chiqib ularni ikkiga ajratish mumkin:

birinchisi, lizing orqali turli maqsadlar (yuqori daromadni qo'lga kiritish, jamiyatda mustaqil faoliyat yurituvchi shaxs sifatida o'z o'rniga ega bo'lish, farovon turmush sharoitlarini yaratish va h.k.)ga erishishga harakat qiluvchi lizingga oluvchilar;

ikkinchisi, yetarli miqdordagi dastlabki kapitalga ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar. Ular ishlab chiqarish hajmini oshirish evaziga maksimal miqdordagi foydaga erishishga harakat qilishadi, haddan ortiq tejamkorlik sharoitini yaratishadi, turmush va mehnat sharoitlariga ko'p e'tibor bermay, mashaqqatli og'ir mehnat evaziga o'z maqsadlariga erishishadi.

Lizing bozorining professional ishtirokchilari sifatida vositachilar quyidagicha maydonga chiqishadi:

- lizing munosabatlarining boshqa ishtirokchilari oldida mijozning vakili sifatida;

- boshqa mijozlarga kelajakda sotish maqsadida asbob-uskunani sotib oladigan mol yetkazib beruvchi bilan tuziladigan shartnomaning mustaqil subyekti sifatida.

Lizing shartnomasida ishtirok etuvchi vositachilar orasida turli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan professional maxsus tadbirkorlar ajratiladi (2.4-jadval):

2.4-jadval

Lizing shartnomasida ishtirok etadigan professional ishtirokchilar

№	Subyekt	O'ziga xos xususiyati, huquq va majburiyatlari
1	Distribyutor (ulgurji savdoni amalga oshiruvchi subyekt)	Ishlab chiqaruvchilar bilan to'liq o'z nomidan ish olib borishi kabi lizing mulkining sotuvchisi bilan ham xuddi shunday munosabatga kirishadi
		Narxni belgilaydi, bozorni o'rganadi, servis xizmatlarni ko'rsatadi
2	Diler	Uskunalarni o'z hisobidan xarid qilib, uni iste'molchilarga sotadigan mustaqil kichik biznes vakili bo'lib, texnikani reklama qilish va servis xizmat ko'rsatishda ishtirok etadi
3	Broker	Mijoz topshirig'i va uning mablag'lari hisobiga faoliyat olib boradi

		Manfaatdor tomonlarni uchrashtiradi
4	Komissioner	Shartnomalarni o'z nomidan, biroq komitent (mijoz) mablag'i hisobidan amalga oshiradi O'z vakolatlaridan chetga chiqsa, yuzaga kelgan zararlar bo'yicha javobgar hisoblanadi
5	Makler	Shartnoma doirasida manfaatdor subyektlarni tanlaydi va ularni uchrashtiradi, ammo o'zi shartnomada ishtirok etmaydi Tomonlarning chizmaiy ruxsatisiz shartnomalarni amalga oshira olmaydi
6	Konsignor	Ishlab chiqaruvchidan uskuna (mulk)ni komissiya asosida qabul qilib oladi va uni sotuvchi tomonidan belgilangan narxdan past bo'lmagan narxda sotadi Mulkka bo'lgan huquq mulkni yetkazib beruvchida qoladi
7	Ishonchli vakil	Shartnomalarni o'zining korxona (firma)si nomidan va topshirig'iga asosan amalga oshiradi Vakolatlarni topshirish-shartnomasi doirasida belgilangan shartlar asosida amalga oshiradi
8	Ishlab chiqaruvchi (iste'molchi) agenti	Belgilangan hudud doirasida mijoz nomidan va uning hisobidan faoliyat yuritadi Aniq bir shartnoma doirasida emas, kelishilgan muddat davomida vakolatlarga ega bo'ladi
9	Kommivoya jer	Mulkni nafaqat sotadi, balki uni lizingga oluvchiga yetkazib ham beradi
10	Konsultant	Shartromalardan ma'lum bir foiz evaziga tadqiqot ishlarini amalga oshiradi Daromadda ishtirok etmaydi va buyurtmachiga kafolat bermaydi

Odatda, vositachilar deganda tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarini namoyon etuvchi hamda ular nomidan ish

olib boruvchi subyektlar tushuniladi. Vositachilar tovarni ular tomon siljitish funksiyasi orqali ishlab chiqaruvchilarning aynan ishlab chiqarish jarayoniga diqqatlarini qaratib, ularning ish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, lizing operatsiyalariga vositachilarni jalb etish kapitalning aylanish muddatini qisqartiradi va buning natijasida ishlab chiqarish daromadlilikini oshiradi.

Murakkab lizing operatsiyalarida shartnomaga ko'plab vositachilar (brokerlik firmalari, sug'urta va trast kompaniyalari va h.k.) jalb qilinganligi sababli qarz beruvchi sifatida ko'plab yuridik shaxslar, lizingga beruvchilar, yetkazib beruvchi va ijarachilar ishtirok etishadi.

Ba'zida yetkazib beruvchi va lizingga beruvchi sifatida bir kishi ishtirok etishi mumkin. Bunda shartnoma ishtirokchilari minimumgacha – ikki kishigacha kamayadi. Ana shunday holatda uskunani ishlab chiqaruvchi korxona (yoki uning bo'limi, filiali, ixtisoslashtirilgan kompaniya) lizing faoliyatini amalga oshirib, ushbu mexanizm orqali mahsulotini bozorda realizatsiya qiladi.

2.3. Lizing turlari va tasnifi

Lizing munosabatlarini to'g'ri tashkil etish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan amaliy ishlarni tashkil etish uning mavjud shakllari, turlari va ularni amalga oshirish usullarini chuqur o'rganishni talab etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda lizingning turlarini talqin etuvchi yagona fikrlar mavjud emas. Haligacha lizingning aniq tasnifi, lizing munosabatlarining to'liq ta'rifi keltirilmagan. Lizing turlari o'rtasidagi farqlar har doim ham keraklicha ifodalanmagan va u yoki bu lizing turining ma'lum darajada farqli tomonlari bir shartnoma doirasida mujassamlashtirilgan. Bundan tashqari, lizing faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib oladigan terminologiya aniqlashtirilmagan va tartibga solinmagan. Misol uchun, lizingning bir turi ham moliyaviy, ham bevosita, ham standart lizing sifatida talqin etilishi mumkin.

Shuningdek, lizingni turlarga ajratganda qo'llaniladigan belgilar o'rtasida ham kelishmovchiliklar kuzatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga asosan, lizing uning uchta subyekti ishtirok etadigan to'g'ridan to'g'ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo'lib bir shaxsning o'zi ishtirok etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgani holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan lizing obyektini lizing beruvchining yozma roziligi bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga qo'shimcha lizingga topshirishga haqli. Qo'shimcha lizing shartnomasining amal qilish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Lizing ikki asosiy shaklda amalga oshirilishi mumkin:

Ichki lizing – lizingga beruvchi va lizingga oluvchi subyektlar bir mamlakat rezidentlari bo'ladi;

Xalqaro lizing – lizingga beruvchi va lizingga oluvchi subyektlar bir mamlakat rezidentlari bo'lmaydi.

Lizing shartnomasining muddatidan kelib chiqib, quyidagi turlari farqlanadi²⁵:

– uzoq muddatli (lizing shartnomasi 3 va undan ortiq yillar davomida amal qiladi);

– o'rta mudatli (lizing shartnomasi yarim yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatda amal qiladi);

– qisqa muddatli (lizing shartnomasi yarim yilgacha bo'lgan muddatda amal qiladi).

Amaliyotda lizingning moliyaviy, operativ (tezkor) va qaytariladigan (teskari) lizing turlari keng tarqalgan.

Moliyaviy lizingda lizingga oluvchi shartnoma amal qilinadigan davr mobaynida lizingga beruvchi subyektga (mulk egasiga) lizingga olingan mulkning to'liq qiymatini (to'liq amortizatsiya summasini)

²⁵ Шабашев В.А., Федулова Е.А., Кошкин А.В. Лизинг: Основы теории и практики: Учебное пособие / Под ред. Г.П. Подшиваленко. М.: КНОРУС, 2005. 9 с.

to'laydi. Buning yaqqol misoli bo'lib– ko'chmas mulk lizingi hisoblanadi. Uning obyektlari bo'lib binolar, inshootlar hisoblanadi. Ularning shartnoma muddati tugagandan so'ng (20 yilgacha) lizingga oluvchiga sotib yuborilishi mumkin. Shartnomaning bunday turi katta miqdordagi kapital qo'yilmalarini talab etadi va odatda boshqa banklar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Moliyaviy lizingning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- lizingga beruvchi uskunani o'zining foydalanishi uchun emas, aksincha lizingga berish uchun sotib oladi. Sotuvchi ham bundan xabardor bo'lganligi sababli, uskunani to'g'ridan to'g'ri lizingga oluvchiga yetkazib beradi;

- uskuna va uning sotuvchisini tanlash huquqi lizingga beruvchida bo'ladi;

- uskunaning sifati, kafolat muddati davomida butligi bo'yicha da'volar lizingga oluvchi tomonidan sotuvchiga yo'llanadi;

- lizing obyektining yaroqsiz holga kelishi bilan bog'liq risklar uskunani foydalanishga topshirish dalolatnomasi tuzilgach, lizingga oluvchining zimmasida bo'ladi.

Operativ (tezkor) lizingda uskunalar (mulk) amortizatsiya muddatidan kamroq muddatga lizingga olinadi. Lizingga oluvchi mulkni o'z ixtiyoriga ma'lum muddatga yoki bir ishlab chiqarish davriga oladi, odatda shartnoma uch yil muddatga tuziladi. Bu muddat tugagandan so'ng lizingga oluvchi to'lovni to'lashni to'xtatishga va mulkni lizingga bergan subyektga topshirishga haqli yoki shartnomani yangitdan tiklash, yoki shartnomani tuzish vaqtidagi kelishilgan bahoda uskunalarni sotib olishi mumkin. Operativ lizingda lizingga olingan uskunaning qiymati qisman to'lanishi kuzatilganligi sababli lizingga beruvchi uni, odatda, turli foydalanuvchilarga bir necha bor vaqtinchalik foydalanishga berishga majbur bo'ladi²⁶.

Operativ lizingning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- operativ lizingda shartnoma muddati lizing obyektining iqtisodiy foydalanish muddatidan kamroq bo'ladi. Shuning uchun lizingga

²⁶ Haydarov Sh.U., Ortiqov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: Tan olish, baholash va uning hisobi. T.: NORMA, 2006. 43 b.

beruvchi uskuna qiymatini bir shartnomadan keladigan tushumlar evaziga qoplashni nazarda tutmaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, lizing kompaniyasi uskunani sotib olar ekan, uning aniq foydalanuvchisini bilmaydi;


- lizing obyekti bo'yicha qo'shimcha xizmatlar (texnik xizmat ko'rsatish, sug'urtalash va h.k.) lizingga beruvchining zimmasida bo'ladi;

- lizing obyektining yaroqsiz holga kelishi bilan bog'liq risklar lizingga beruvchining zimmasida bo'ladi, shu sababli lizingga oluvchi bunday holatda shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi;

- operativ lizingda lizingga beruvchi uskunani qaytadan sotish, uskunaning yo'qotilishi bilan bog'liq riskni zimmasiga olishi kabi sabablar tufayli lizing to'lovlarining miqdori yo'qori bo'ladi;

- odatda, shartnoma muddati tugagach, uskuna lizingga beruvchiga qaytarilishi mumkin.

Ikkala lizing turini taqqoslab aytish mumkinki, moliyaviy lizingni o'zining iqtisodiy mazmuni bo'yicha kapital qo'yilmalarni uzoq muddatli moliyalashtirish usuli sifatida qabul qilsak, operativ lizing esa lizing to'lovlarini joriy tezkor xarajatlar bilan solishtirish mumkin bo'ladi.



Bu yerda:

1 – uskuna qiymati;

2 – lizing to'lovlari.

2.1-chizma. Qaytariladigan lizing chizmasi

Qaytariladigan (teskari) lizingda lizingga oluvchining o'ziga tegishli mulkning bir qismini bir vaqtning o'zida uni lizingga olish to'g'risidagi shartnomaga imzo chekib lizing kompaniyasiga sotishdir. Bunday


operatsiyada faqat ikki tomon ishtirok etadi, ya'ni sotuvchi va lizingga oluvchi bitta subyekt bo'ladi (2.1-chizma).

Rus olimlari tomonidan lizingning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan²⁷:

1. Xizmat ko'rsatish hajmiga asosan:

– sof lizing (uskunadan foydalanish bilan bog'liq barcha xarajatlar lizingga oluvchi zimmasida bo'lib, ular lizing to'lovlari tarkibiga kiritilmaydi);

– “ho'l” (to'liq servis xizmatlar bilan taqdim etiladigan lizing, ya'ni lizingga beruvchi tomonidan texnik xizmat ko'rsatiladi, ta'mirlash, sug'urtalash, shuningdek, xodimlarni tayyorlash, marketing, reklama kabi xizmatlar amalga oshiriladi). Ushbu lizing turini quyidagi chizmada ifodalash mumkin (2.2-chizma):



2.2-chizma. “Ho'l” lizing chizmasi

Qisman xizmatlar to'plami bilan amalga oshiriladigan lizing (uskunaga xizmat ko'rsatish bo'yicha alohida vazifalar lizingga beruvchi zimmasida bo'ladi).

2. Lizing shartnomasini amalga oshirish shakli bo'yicha²⁸:

²⁷ Лещенко М.М. Основы лизинга: Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 44.

²⁸ Шабашев В.А., Федуллова Е.А., Кошкин А.В. Лизинг: Основы теории и практики: Учебное пособие / Под ред. Г.П. Подшиваленко. М.: КНОРУС, 2005. 9 с.

– to‘g‘ridan to‘g‘ri (bevosita, ya‘ni uskunaning ishlab chiqaruvchisi yoki sotuvchisi uni lizing (ijara)ga beradi).

Rus olimlari tomonidan bevosita lizingga berilgan ta‘rif milliy qonunchiligimizda keltirilgan ta‘rifdan farqlanadi. Biz yuqorida O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonunida lizing uning uchta subyektini ishtirok etadigan to‘g‘ridan to‘g‘ri (bevosita) shaklda amalga oshirilishi mumkinligini ta‘kidlagan edik. Demak, ko‘rinib turibdiki, Rossiya amaliyotida to‘g‘ridan to‘g‘ri lizingda ikki tomon ishtirok etsa, milliy amaliyotimizda an‘anaviy ravishda uch tomon ishtirok etadi (2.3-chizma):



2.3-chizma. An‘anaviy lizing sxemasi

Bu yerda:

- 1 – lizing shartnomasini tuzish;
- 2 – doimiy lizing to‘lovlari;
- 3 – oldi-sotdi shartnomasi;
- 4 – uskuna to‘liq qiymatining to‘lovi;
- 5 – uskunani lizingga oluvchiga yetkazib berish.

Bilvosita lizing (mulkni ijaraga berish uchinchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi);

Leverij-lizing. Qiymati yuqori bo‘lgan uskunalar lizing obyekti bo‘lganda, tashqaridan lizing operatsiyasini amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘ jalb qilinadigan lizing turi hisoblanadi. Bunda

asosiy lizingga beruvchi lizing to'lovlarini olish bo'yicha imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

Lizingning ushbu turi ilmiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmagan va u bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Leverij-lizingning o'ziga xos xususiyati sifatida ushbu shartnoma doirasida bir nechta subyektlarning ishtirok etishini, jumladan, bir nechta lizingga beruvchi, birdan ortiq kreditor, bir va undan ortiq sotuvchilar ishtirok etishini quyida keltirib o'tishimiz mumkin:

–sublizing (lizing obyektidan foydalanish huquqining uchinchi shaxsga o'tkazilishi);

–revolver lizing (lizing muddatining dastlabki qismi tugaganidan so'ng, lizing obyektini ma'naviy jihatdan yangi obyektga almashtirish imkonini beradigan lizing).

3. Lizing to'lovlari turlari bo'yicha – pulli, kompensatsion va aralash lizing turlari farqlanadi.

4. Soliq hamda amortizatsiya imtiyozlariga nisbatan lizingning quyidagi turlari mavjud:

– amaldagi lizing (tadbirkorlik faoliyatining lizing shakliga xos bo'lgan iqtisodiy mazmun va huquqiy bazaga asoslangan lizing turi);

– soxta lizing (lizing munosabatlarini qo'llash orqali lizing imtiyozlari (soliq va amortizatsiya)ga ega bo'lish uchun ko'p bo'lmagan miqdorda foyda olishga qaratilgan faoliyat, lizing turi).

Tayanch so'z va iboralar: *Lizing elementlari, lizing turlari, lizing obyekti, lizing subyekti, sublizing, revolver lizing, sof lizing, qaytariladigan lizing, "ho'l" lizing, leverij-lizing.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Lizingning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'ting.
2. Lizingning moliyalashtirishning muqobil usuli sifatida afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?
3. Lizing elementlari deganda nimani tushunasiz?

4. Lizingning obykti nimadan iborat?
5. Kimlar lizing subyekti bo'lib hisoblanadi?
6. Lizingning turlarini izohlang.
7. Milliy va xorijiy lizing bozorida eng keng tarqalgan lizing turi qaysi?
8. Lizingning u yoki bu turidan foydalanish nimaga bog'liq?
9. Leverij-lizingning afzalligi nimadan iborat?
10. Qaysi holatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan revolver lizing qo'llaniladi?

III BOB. LIZING SHARTNOMALARINI TUZISH

3.1. Lizing shartnomasining mazmuni va uni tuzish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunida (9-modd) lizing shartnomasining yozma shaklda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi qayd etilgan.

Lizing shartnomasi:

- shartnoma taraflaridan birining talabiga ko'ra;
- mol-mulk lizing obyekti hisoblanib, u haqda tuziladigan bitimlar qonunga muvofiq notarial tartibda tasdiqlanishi talab qilinadigan hollarda notarial tasdiqlanishi lozim, bundan birlamchi bozordan ko'chmas mulk va transport vositalari olish chog'idagi lizing to'g'risidagi shartnomalar mustasno.

Milliy lizing qonunchiligiga ko'ra, quyidagilar lizing shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi:

- lizing obyektining tavsiflanishi (lizing obyektining miqdori, sifati, ro'yxati, kontrakt qiymati va boshqa ko'rsatkichlari) va shartnoma umumiy pul summasining ko'rsatilishi;

- taraflarning lizing obyektini olish va berish bilan bog'liq majburiyatlari;

- lizing obyektini berish tartibi, shu jumladan, lizing obyektini yetkazib berish, montaj qilish va foydalanishga topshirish tartibi;

- lizing to'lovlarini to'lash shartlari, miqdorlari, muddatlari va tartibi;

- lizing obyektidan foydalanish, unga qarash, uni saqlab turish va ta'mirlash yuzasidan taraflarning majburiyatlari;

- shartnomaning amal qilish muddati;


- sotuvchi va lizing obyektini tanlash uchun mas'ul tarafning ko'rsatilishi.

Taraflarning kelishuviga binoan lizing shartnomasiga quyidagi shartlar kiritilishi mumkin:

- lizing obyektini sotib olish tartibi va muddatlari;
- lizing shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish;
- lizing obyektini sug'urta qilish;
- fors-major holatlar;
- lizing beruvchi qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishi, bunday xizmatlarsiz lizing objektidan foydalanib bo'lmasa;
- lizing subyektlari tomonidan lizing shartnomasi shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi.

Lizing shartnomasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Odatda lizing kompaniyalari lizing operatsiyasini uch bosqichda amalga oshiradi. Bular quyidagilar (3.1-chizma):



3.1-chizma. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari

Ushbu bosqichlarda bajariladigan ish turlarini jadvalda ifodalaymiz (3.1-jadval).

1-bosqich. Lizing sxemasini tayyorlash va asoslash. Ushbu bosqich lizingni huquqiy jihatdan chizmaylashtirish (shartnoma tuzish) jarayonini ham o'z ichiga oladi.

**Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlarida bajariladigan
ish turlari**

№	Ish turlari	Ijrochilar
tayyorlov bosqichi		
1	Investitsion loyihani tayyorlash: uskunaga bo'lgan talab va uni sotib olish imkoniyatlarini o'rganish	Lizingga oluvchi
2	Kerakli uskunaga ariza yozish	Lizingga oluvchi
3	Arizaga ilova keltirish	Lizingga oluvchi
4	Lizingga oluvchining to'lovga layoqatliligi va loyihaning samaradorligi bo'yicha xulosa berish	Lizingga beruvchi
5	Shartnomani tuzish bo'yicha dastlabki kelishuv	Lizingga oluvchi va lizingga beruvchi
6	Uskunani yetkazib berish bo'yicha buyurtma berish	Lizingga beruvchi
7	Sotuvchi tomonidan buyurtma olinganligi va uni bajarishga tayyorligi haqida lizingga beruvchiga bildirishnoma yuborish	Sotuvchi
8	Lizing sxemasi (mulkni sotib olish)ni amalga oshirish uchun kredit berish bo'yicha talabnoma tayyorlash	Lizingga beruvchi
9	Uskunani sug'urtalash bo'yicha ariza tayyorlash	Lizingga beruvchi
Yuridik jihatdan chizmaiyashtirish		
1	Agar talab etilsa, lizing sxemasini amalga oshirish uchun kredit shartnomasi tuzish	Lizingga oluvchi va moliya instituti
2	Uskunaning oldi-sotdi shartnomasini tuzish	Lizingga beruvchi va sotuvchi
3	Lizing shartnomasini tuzish	Lizingga beruvchi, lizingga oluvchi

4	Uskunadan foydalanish bo'yicha qabul qilish dalolatnomasini tuzish	Lizingga beruvchi, lizingga oluvchi va sotuvchi
5	Lizing obyektini sug'urtalash shartnomasini tuzish	
Shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarish		
1	Lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish	Lizingga beruvchi, lizingga oluvchi
2	Mulkdan foydalanish	Lizingga oluvchi
3	Lizing to'lovlarini amalga oshirish	Lizingga oluvchi
4	Zarur bo'lganda mijozning moliyaviy holati haqida ma'lumot taqdim etish	Lizingga oluvchi
5	Lizing objekti bilan bog'liq sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqida lizing kompaniyasini xabardor qilish	Lizingga oluvchi
6	Taqdim etilgan moliyaviy resurslar uchun (agar kredit shartnomasi tuzilgan bo'lsa) foiz to'lovlarini amalga oshirish	Lizingga beruvchi
7	Soliq to'lovlarini amalga oshirish	Lizingga beruvchi, lizingga oluvchi

Birinchi bosqichdagi harakatlar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Potensial lizingga oluvchi lizing kompaniyasiga o'zining talablarini bildiradi, o'ziga kerakli mulk turi, qiymati va sotuvchi haqida xabar beradi. Buning uchun u kerakli mulkka bo'lgan arizani lizing kompaniyasiga topshiradi. Ariza o'z ichiga mulkning tavsifini, uni olish bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar va sotuvchi (yetkazib beruvchi) haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Ariza ixtiyoriylik asosida tuziladi, lekin ko'pgina holatda lizing kompaniyasi mijozlari uchun arizaning yagona shaklini qo'llashga harakat qiladi. Ariza bilan birga lizingga beruvchiga quyidagilar ilova qilinadi:

- notarial tasdiqlangan ta'sis hujjatlari nusxalari;
- korxonaning oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi nusxalari;
- biznes-reja (texnik-iqtisodiy asosnoma);
- uskuna joylashtirilishi rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish binosidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- korxonani rivojlantirish istiqbollari haqidagi ma'lumot;
- ishni bajarish, xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan xomashyoni yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish;
- ishlab chiqarilgan mahsulot iste'molchilari bilan shartnoma tuzish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun sertifikat;
- auditorlik xulosasi;
- kafolat xati, tavsiyanoma, zarur bo'lganda bank kafolati va h.k.
- shartnomani chizmaiyalashtirishgacha bo'lgan jarayonda qandaydir o'zgarishlar kuzatiladigan bo'lsa, potensial lizingga oluvchi bu haqida lizingga beruvchini xabardor qilishi lozim.

2. Shundan so'ng lizing kompaniyasi amalga oshiriladigan loyihaning maqsadlilikini, moliyalashtirish manbalari va shu kabilarni aniqlaydi. Buning uchun esa:

- potensial lizingga oluvchining arizasini ko'rib chiqadi;
- lizingga oluvchining to'lovga layoqatliligi haqida xulosa tayyorlanadi;
- risklarni hisobga olgan holda loyihaning samaradorligi aniqlanadi.

3. Agar lizingga beruvchi ushbu uskunani lizingga taqdim eta olsa, unda lizing bo'yicha lizingga beruvchining shartlari doirasida Shartnoma tuzishga yo'llangan taklif, ya'ni dastlabki oferta tayyorlanadi. U bo'lajak shartnoma qiymatini o'z ichiga oladi. Shartnoma qiymati tomonlar kelishuviga asosan belgilanadi. U ikki qismdan tashkil topadi:

- lizingga beruvchining shartnomani ijro etish bilan bog'liq investitsion xarajatlari;

– lizing kompaniyasi daromadi (marjasi) qiymati yoki lizing to'lovlari bilan lizing obyektini sotib olish qiymati yig'indisi.

4. Agarda lizing shartlari potensial lizingga oluvchi uchun ma'qul bo'lsa, unda lizing kompaniyasi biror moliya instituti bilan kredit shartnomasini tuzish bo'yicha faoliyatni boshlaydi, ya'ni zarur bo'lganda kreditor bilan lizing sxemasini amalga oshirish uchun talab etiladigan kredit bo'yicha kelishuvni boshlaydi va sotuvchi (moliyetkazib beruvchi)ga uskunani olish bo'yicha buyurtmani yuboradi. Buyurtmada quyidagilar aks ettiriladi:

- lizingga beruvchining nomi, joylashgan manzili va hisobraqami;
- ish hajmi va uni ijro etish muddati (lozim bo'lganda bosqichlari bilan);
- ish miqdori;
- ishni topshirish va qabul qilish tartibi (lozim bo'lganda bosqichlari bilan).

Uskunani olish bo'yicha buyurtmaga ishni bajarish shartlarini aniqlashtiradigan zarur hujjatlar va texnik topshiriqlar ilova qilinadi. Lizing amaliyotida garov ta'minoti va kafillikdan keng foydalaniladi.

Lizing subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan chizmaiyashtirish bosqichida quyidagilar chizmaiyashtiriladi:

- moliya instituti (bank) bilan kredit shartnomasini tuzish;
- uskunaning oldi-sotdi shartnomasini tuzish;
- lizing shartnomasini tuzish;
- lizing obyektidan foydalanish bo'yicha qabul qilish dalolatnomasini tuzish;
- lizingga berilayotgan uskunaga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish.
- lizing obyektini sug'urtalash shartnomasini tuzish.

Uskunani sotuvchi (yetkazib beruvchi) uskunani olish bo'yicha buyurtmani qabul qilgach, bu haqida lizingga beruvchiga xabar beradi, uskunani yetkazib bergach esa lizingga oluvchiga o'zining rekvizitlarini keltirgan holda ikki nusxada hisobni taqdim etishi lozim. Aynan shu orqali shartnomaning shaffofligi ta'minlanadi.

Lizing shartnomasining huquqiy jihatdan chizmaiyashtirilishi lizingga oluvchiga vaqtinchalik muddatga lizing obyektini taqdim etishda lizingga oluvchi va lizingga beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnomagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi.

Lizing shartnomasi uskunani foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanganda kuchga kiradi va belgilangan muddat davomida amal qiladi. Lizing shartnomasi ikki nusxada tuzilib, bir xil kuchga ega bo'ladi, tomonlarning majburiyatlarini o'zida aks ettiradi va ularning huquqiy vakillari uchun ham teng kuchga ega bo'ladi. Lizing shartnomasini tuzish va ijro etish jarayonida tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar sud tartibida hal etiladi.


3.2. Lizing shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari

Umumiy holatda lizing shartnomasi bo'yicha hujjatlar almashuvi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Lizingga oluvchidan ariza olish;
2. Lizingga oluvchining to'lovga layoqatliliigi va lizing jarayonining samaradorligi haqida xulosa tayyorlash;
3. Uskuna sotuvchisi (ishlab chiqaruvchi)ga uskunani olish bo'yicha buyurtma berish;
4. Lizing shartnomasini amalga oshirish bo'yicha kredit olish;
5. Lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasini tuzish;
6. Lizing obyektini foydalanishga qabul qilish bo'yicha qabul qilish dalolatnomasini tuzish;
7. Lizing shartnomasini tuzish;
8. Lizingga berilayotgan obyektga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish;
9. Lizing obyektini sug'urtalash shartnomasini tuzish;
10. Lizing to'lovlarini amalga oshirish;
11. Lizing obyektini qaytarish;
12. Kreditni qaytarish va foizlarni to'lash.

Lizing shartnomasining ajralmas o'ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- uskuna sotuvchisi (yetkazib beruvchisi)ning nomi;
- lizing obyektini yetkazib berish muddati;
- yetkazib berish joyi;
- lizing obyektini xarid qilingandan so'ng uning joylashgan joyini aniqlash;
- lizing muddati;
- lizing obyektidan foydalanish jarayonida lizingga oluvchining huquq va majburiyatlari;
- lizing to'lovlari (usul, shakl, hajmi, to'lovlarning davriyligi va lizing to'lovlarning umumiy miqdorini aniqlash usuli);
- fors-major holatlar;
- nizolar va shartnomani bekor qilish tartibini ishlab chiqish;
- mulkni sug'urtalash.



3.2-chizma. O'zavtosanoat lizing kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladigan shartnoma bosqichlari²⁹

²⁹ <https://uzlk.uz/uz> - O'zavtosanoat lizing kompaniyasi rasmiy sayti.

Lizing shartnomalarining bosqichlari haqida tushuncha hosil bo'lishi uchun milliy lizing bozorida samarali faoliyat olib boruvchi O'zavtosanoat lizing kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladigan shartnoma bosqichlarini quyidagicha amalga oshiriladi (3.2-chizma):

Moliyaviy lizing shartnomasini tuzish jarayonida lizingga oluvchi quyidagilarni sug'urtalash majburiyatlarini oladi:

- lizingga olinadigan mulkni transportda tashish va montaj qilish;
- uskunani ishga tushirish;
- mulkiy risklar.

Mulkni sug'urtalash shartnomasiga asosan quyidagi mulkiy manfaatlar sug'urtalanishi mumkin:

-lizing obyektining yo'qotilishi (nobud bo'lishi) va zarar yetishi bilan bog'liq bo'lgan risk;

-boshqa shaxslarning mulki, sog'ligi va hayotiga ziyon yetishi natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik riski, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilanganidek, shartnoma bo'yicha javobgarlik – fuqarolik javobgarligi riski;

-tadbirkorning kontragentlari tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlar natijasida yuzaga kelgan tadbirkorlik faoliyati zararlari riski, ya'ni kutilayotgan daromadni ololmaslik riski – tadbirkorlik riski.

Agarda lizing obyektining qiymati sezilarli darajada yuqori bo'lsa, unda mulkni qayta sug'urtalash mexanizmini qo'llash mumkin.

Lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu dalolatnomani lizingga oluvchi tuzadi va uni uch tomon imzolaydi: lizingga oluvchi, lizingga beruvchi va sotuvchi (yetkazib beruvchi). Uskunadan foydalanish bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasining imzolanishi haqiqatdan ham lizing obyektini yetkazib berilganligini, ta'mirlanishi va undan foydalanish mumkinligidan dalolat beradi. Mulk (lizing objekti)ga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi barcha hujjatlar lizingga beruvchiga o'tadi.

Lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashdan oldin lizingga oluvchi va lizingga beruvchi uskunani

ko'zdan kechirishadi, foydalanishga qabul qilinayotgan uskunaning buyurtmada ko'zda tutilgan xususiyatlarga muvofiqligini tekshirishadi, uskuna bo'yicha lizingga oluvchida biror e'tiroz bor-yo'qligini aniqlashtirishadi.

Lizingga oluvchi dalolatnomani imzolashi bilanoq, lizing obyektining yetkazib berilganligini tasdiqlaydi va sotuvchining ma'lum bir huquq va majburiyatlarini zimmasiga oladi. Xususan, sotuvchiga uskunaning sifati bo'yicha lizingga oluvchi tomonidan e'tirozlar bildiriladi. Shunisi qiziqki, mulkning haqiqiy egasi lizingga beruvchi hisoblanadi va u lizingga oluvchining uskuna sifatiga nisbatan barcha e'tirozlarini qondirishga ko'maklashishi kerak. Lizingga beruvchi quyidagilar bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi:

- lizing obyektining iste'mol qiymati bo'yicha;
- sotuvchi (yetkazib beruvchi)ning uskunaga kafolatlangan xizmat ko'rsatish majburiyati bo'yicha;
- mulkdan foydalanish jarayonida yuzaga kelgan zararni qoplash bo'yicha.

Agarda sotuvchi (yetkazib beruvchi) servis xizmat ko'rsatish taklifini bildirsagina u va lizingga oluvchi o'rtasida lizingga olinayotgan obyektga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuziladi.

Sotuvchiga lizing obyektini yetkazib berganligi uchun to'lov summasi lizingga beruvchi, lizingga oluvchi va sotuvchi (yetkazib beruvchi) o'rtasida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuzilib, to'lovni amalga oshirish uchun hisob berilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Lizingni amalga oshirish amaliyotidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, lizing obyektini qabul qilishda turli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin, ya'ni:

1. Lizing obyektini qabul qilishda bartaraf etiladigan kamchilik (nuqson)lar:

Lizingga oluvchi lizing obyektini foydalanish uchun qabul qilayotganda aniqlangan kamchilik (nuqson)larni qabul qilish-topshirish dalolatnomasida ko'rsatadi;

Dalolatnomada aniqlangan kamchilik (nuqson)larning sotuvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan bartaraf etish kelishiladi va uni amalga oshirish muddati ko'rsatiladi. Kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, lizingga oluvchi lizing obyektini almashtirish huquqiga ega. Sotuvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan keyinchalik shu bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi lizingga oluvchi tomonidan oldi-sotdi shartnomasining bekor qilinishiga asos bo'lishi mumkin.

2. Agarda lizing obyektidan normal foydalanishga to'sqinlik qiladigan bartaraf etib bo'lmaydigan kamchilik (nuqson)lar aniqlanadigan bo'lsa, lizingga oluvchi yozma ravishda lizingga beruvchini bu haqida xabardor qilishi lozim. Buning natijasida lizingga beruvchi sotuvchi (yetkazib beruvchi)dan lizing obyektini almashtirishni yoki oldi-sotdi shartnomasining bekor bo'lishini talab qilishi mumkin.

3. Agar lizingga oluvchi belgilangan muddatda lizing obyektini qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim etmasa va kamchilik (nuqson)lar haqida xabar bermasa, unda obyekt foydalanish uchun qabul qilingan hisoblanadi.

Lizingga beruvchi va sotuvchi (yetkazib beruvchi) o'rtasidagi to'lovlar oldi-sotdi shartnomasida kelishilgan tartib asosida amalga oshiriladi. Shartnoma majburiyatlarini bajarish lizing obyektidan foydalanish jarayonida amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish;
- lizingga oluvchining lizing obyektidan foydalanish bilan bog'liq faoliyati;
- lizingga beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash;
- lizing obyektini xarid qilishda kredit resurslaridan foydalanilgan bo'lsa, kreditni qaytarish bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish;
- lizing objekti bilan bog'liq sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, sug'urta kompaniyasini bu haqida xabardor qilish;

– lizing shartnomasi va u bilan bog‘liq boshqa shartnomalarning ijro etilishi bo‘yicha lizingga beruvchi tomonidan nazoratning tashkil etilishi, shuningdek, lizingga oluvchining lizing obyekti bilan bog‘liq faoliyati ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirishi.

Lizing shartnomasi tugashi bilan lizing obyektidan keyinchalik foydalanish tegishli hujjatlar bilan chizmaiyashtiriladi.

3.3. Lizing shartnomasi doirasida lizing subyektlarining huquq va majburiyatlari

Lizing shartnomasi doirasida lizingga beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

– lizing oluvchining lizing obyektidan qanday sharoitlarda foydalanayotganligini va uni belgilangan maqsadiga muvofiq ishlatayotganligini lizing shartnomasi shartlariga hamda qonun hujjatlari talablariga muvofiq nazorat qilish;

– lizing oluvchining roziligi bilan lizing obyekti va uning sotuvchisini tanlash;

– qonun hujjatlarida yoki lizing shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda lizing oluvchidan lizing obyektini talab qilib olish;

– lizing oluvchi tomonidan o‘z majburiyatlarining jiddiy ravishda buzilishiga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kelgusi lizing to‘lovlarini to‘lashni tezlashtirishni yoki garov narsasini undirish uchun nazarda tutilgan tartibda undiruvni lizing obyektiga qaratgan va zararni undirgan holda shartnomani bekor qilishni talab etish.

Agar lizing obyekti lizing beruvchining aybi bilan yetkazib berilmagan bo‘lsa yoki lizing shartnomasi shartlariga nomuvofiq bo‘lsa, lizing beruvchi lizing oluvchining roziligi bilan o‘zi lozim darajada bajarmagan lizing shartnomasi shartlarini tuzatib bajarishga yoki lizing oluvchiga boshqa lizing obyektini taklif etishga haqli.

Lizing beruvchi:

- lizing shartnomasi bo'yicha mol-mulkni olishi va uni lizing oluvchiga egalik qilish hamda foydalanish uchun berishi;
- lizing oluvchi uchun mol-mulk olayotganda mol-mulk muayyan shaxsга lizingga berishga mo'ljallanganligini sotuvchiga ma'lum qilishi;
- lizing obyektini, agar shartnomada shunday shartlar nazarda tutilgan bo'lsa, saqlab turish, ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha lizing oluvchi oldida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi shart.

Lizing beruvchi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin.

Lizing shartnomasi doirasida lizingga oluvchi esa quyidagi huquqlarga ega:

- lizing obyektini mustaqil aniqlash va sotuvchini tanlash;
- lizing beruvchidan lizing shartnomasini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish;
- sotuvchiga lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi talablarni, jumladan uning sifati va butligi, topshirish muddati, kafolatli ta'mirlashi va hokazolar xususida talablar qo'yish;
- lizing obyektini yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo'lmagan lizing obyektini yetkazib berilgan taqdirda, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing to'lovlari to'lashni kechiktirish, yetkazib beriladigan lizing obyektidan voz kechish va lizing shartnomasining bekor qilinishini talab etish;
- lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, o'zi ilgari avans sifatida to'lagan to'lovlarni lizing obyektidan foydalanishdan olingan foydaning qiymatini chegirib tashlagan holda, qaytarib berishni talab qilish.

Uchinchi shaxs undiruvni lizing obyektiga qaratganda lizing oluvchi lizing shartnomasini bekor qilishi va lizing obyektini mulk qilib olish bilan bir paytda lizing shartnomasi bo'yicha tegishli lizing to'lovlari qoldig'ini lizing beruvchining qolgan davrda oladigan daromadini chegirib tashlagan holda bir yo'la to'lashga haqli.

Lizing oluvchi:

- lizing obyektini qabul qilib olishi va undan lozim darajada foydalanishi, uni shartnoma shartlariga muvofiq saqlab turishi;

- lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lab turishi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, lizing obyektini o'z hisobidan joriy ta'mirlashi, uni saqlab turishga doir boshqa xarajatlar qilishi shart.

Lizing shartnomasi bekor qilinganda lizing oluvchi lizing obyektini lizing beruvchidan qanday holatda olgan bo'lsa, shunday holatda, normal eskirish va taraflarning kelishuvida shartlashilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytarishi shart.

Lizing oluvchining lizing obyektini ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatishga doir huquqi va majburiyati sotuvchi bilan alohida tuzilgan shartnomada belgilanishi mumkin.

Lizing oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin.

Lizing obyektini sotuvchisi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni bajaradi.

Agar lizing shartnomasida yoki oldi-sotdi (mahsulot yetkazib berish) shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchining lizing oluvchiga nisbatan huquq va majburiyatlari lizing beruvchiga nisbatan huquq va majburiyatlardir bo'ladi. Bunda lizing oluvchi lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasini bekor qilishga yoki uni haqiqiy emas, deb topishga haqli emas.

Lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida tuzilib, unga ko'ra lizing beruvchi lizing oluvchining topshirig'iga binoan lizing obyektini keyinchalik lizing oluvchiga berish uchun o'z mulki qilib oladi.

Taraflarning xohishiga ko'ra lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi lizing shartnomasi kuchga kirishidan oldin yoki keyin tuzilishi mumkin.

Lizing obyektini oldi-sotdi shartnomasini tuzish paytida lizing beruvchi lizing obyektini qaysi maqsadda olinayotganligidan sotuvchini oldindan xabardor qilishi, buni oldi-sotdi shartnomasida qayd etishi shart.

Lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishlidir.

Lizing shartnomasining amal qilish muddati tugagunga qadar barcha lizing to'lovlari lizing beruvchining lizing shartnomasi muddati tugagunga qadar qolgan davrda oladigan daromadi chegirib tashlangan holda to'langan taqdirda, agar lizing shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tishi mumkin.

Lizing oluvchi bankrot bo'lgan, uning mol-mulki xatga olingan yoki musodara qilingan taqdirda, lizing obyektini lizing oluvchining umumiy mol-mulkidan ajratiladi va lizing beruvchiga qaytarilishi lozim, u mol-mulkni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishi mumkin. Lizing beruvchiga zararni qoplash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tayanch so'z va iboralar *Lizing shartnomasi, lizing shartnomasi ishtirokchilari, lizing sxemasi, lizing shartnomasi bosqichlari, oldi-sotdi shartnomasi, sug'urta shartnomasi, kredit shartnomasi.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Lizing sxemasining xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘ting.
2. Lizing shartnomasida nimalar aks ettiriladi?
3. Lizing shartnomasida tomonlar qanday huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishadi?
4. Lizing shartnomasini tayyorlash va asoslash bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
5. Oldi-sotdi va kredit shartnomalarining mohiyati nimadan iborat?
6. Moliyaviy lizing shartnomasini tuzish jarayonida lizingga oluvchi qanday munosabatlarni sug‘urtalash majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi?
7. Nima uchun lizing shartnomasi huquqiy jihatdan chizmaiyashtirilishi kerak?
8. Qaysi holatlarda lizing obyektiga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuziladi?

IV BOB. LIZING OPERATSIYALARINING HUQUQIY ASOSLARI

4.1. Lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi huquqiy bazaning shakllanishi. Lizing – O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo‘nalishida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sinh sur‘atlarini saqlab qolish uchun ham aynan lizing, sug‘urta va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida rivojlantirish, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish yo‘llari belgilab berildi³⁰.

Ma‘lumki, lizing xizmati texnologik munosabatlarning moliyaviy ko‘rinishdagi tezkor va qulay vositasi hisoblanadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, u zamonaviy, innovatsion texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilgan holda, iqtisodiyot va biznes rivojlanishining garovi bo‘lib hisoblanadi. Bu tushunchaga Kanadaning Ottava shahrida 1988-yil 28-may kuni qabul qilingan “Xalqaro moliyaviy lizing to‘g‘risida”gi UNIDROIT Konvensiyasi muqaddimasida shunday sharh berilgan. Xalqaro moliyaviy lizingning huquqiy asoslarini o‘zida aks ettirgan

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni.

ushbu hujjatga O'zbekiston Respublikasining ham qo'shilgani Oliy Majlisning 2000-yil 26-maydagi qarori bilan tasdiqlangan.

Lizing mexanizmining yuqori samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri lizing xizmatlari bozori chegaralarini belgilashda ishonchli huquqiy bazaning mavjudligidir.

Lizing xizmatlarini amalga oshirishda mamlakatimizda yaratilgan huquqiy hujjatlar bu sohaning rivojini ta'minladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, o'tgan davrda mamlakatimizda lizing bozori uch bosqichni bosib o'tdi.

Birinchii bosqichda (1991-1999) lizing qonunchiligi shakllandi, xalqaro tamoyillar izchil joriy etildi. Jumladan, "Lizing to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, Fuqarolik kodeksi (6-bobi) va Soliq kodeksining qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ikkinchi bosqich (1999-2005) lizing huquqiy bazasining takomillashuvi bilan izohlanadi.

Uchinchi bosqich (2005-yildan hozirgacha bo'lgan davr) esa lizingning ommalashishiga, xizmatlar bozorida raqobat muhitining barqarorlashuvi uchun shart-sharoit yaratdi.

Mamlakatimizning lizing munosabatlari shakllanishining dastlabki bosqichida lizing bo'yicha qonunchilikning mavjud emasligi va buning natijasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanmaganligi kuzatilgan.

Keyingi bosqichda lizing operatsiyalari maxsus me'yoriy va huquqiy hujjatlarsiz xuddi ijara munosabatlaridek olib borilgan. Bu esa lizing jarayoni ishtirokchilarining risk darajasini oshirgan.

So'nggi bosqich lizing kelishuvlarining maxsus huquqiy bazasini faol yaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, Respublikamizda lizing munosabatlari institutlarini shakllantirish 1995-yil, ya'ni lizing operatsiyalarini olib borish bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingunigacha boshlab yuborilgan edi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda ichki lizing bitimlarini huquqiy tartibga solishda, avvalo O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Lizing to'g'risida"gi qonun (1999-yil 14-aprel)dan foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 6-paragraf 587-599-moddalari lizingga bag'ishlangan bo'lib, lizing operatsiyalarini umumiy holda tartibga solishda qo'llaniladi³¹.

Kodeksda dastlab lizing shartnomasiga izoh berilgan bo'lib, unga ko'ra lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi.

Kodeksda lizing operatsiyalarining asosiy elementlari sifatida lizing obyeksi va subyektiga ham aniq ta'rif berilgan.

Iste'mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashyolar (yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari bundan mustasno) lizing obyeksi bo'lsa, kelajakda lizing oluvchiga lizing bo'yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o'ziga mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb tan olinadi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing obyektini oladigan shaxs lizing oluvchi deb hisoblanadi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs sotuvchi, deb e'tirof etiladi.

Lizing beruvchi mol-mulkni bo'lajak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo'yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag' bilan ta'minlagan taqdirda bir shaxsning o'zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

³¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 15.01. 2020. 03/20/602/0052-son.
<https://www.lex.uz/acts/180552>

Lizing operatsiyalarining asosiy elementlaridan biri sifatida lizing to'lovi ham muhim ahamiyatga ega. Kodeksda lizing to'lovlarining lizing beruvchiga lizing obyekti qiymatining lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan, shuningdek, lizing beruvchining foizli daromadidan iborat ekanligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, kodeksda lizing operatsiyasini amalga oshirish jarayonida mol-mulkni lizingga topshirish to'g'risida sotuvchini xabardor qilish, lizing shartnomasi narsasini lizing oluvchiga topshirish jarayoni, mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan buzilishi xavfining lizing oluvchiga o'tishi, lizing beruvchining majburiyati va javobgarligi, lizing oluvchining huquqlari, qo'shimcha lizing tushunchasi, lizing oluvchining majburiyati va javobgarligi, bundan tashqari sotuvchining javobgarligi hamda lizing obyekti boshqa mulkdorga o'tganida lizing shartnomasining o'z kuchida qolishi kabi munosabatlar ham o'z aksini topgan.

4.2. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni

Mamlakatimizda lizing bo'yicha asosiy qonunchilik hujjatlaridan biri bo'lib O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Lizing to'g'risida"gi qonuni hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar va lizing kompaniyalari hamda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan lizing amaliyotlari asosan shu qonun talablari asosida tartibga solinmoqda.

"Lizing to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida lizingga quyidagicha ta'rif berilgan: Lizing – moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyekтини) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Ushbu moddada lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerakligi ta'kidlangan:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyektini lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;
- lizing shartnomasining muddati lizing obyektini xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lsa;
- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narx evaziga to'lab sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyektini qiymati asos bo'ladi;
- lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to'qson foizidan ortiq bo'lsa. Joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymat buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Lizing uch taraflama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo'shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Qonunda lizing doirasida quyidagi qoidalar mustahkamlangan:

- lizing shartnomasi muddati o'n ikki oydan kam bo'lmasligi lozim;
- lizingga oluvchi lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektini bozor qiymatidan past narxda to'lab sotib olish huquqiga ega;
- lizingga beruvchi lizing obyektini mulk qilib sotib olishiyoki lizing obyektini lizing shartnomasi tugaguncha lizingga beruvchining mulki bo'lib hisoblanishi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu qoidalar orqali qonunchilik hujjatlaridagi lizing mohiyati xalqaro huquqiy me‘yorlarga moslashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi “Lizing to‘g‘risida”gi qonunda lizing obyekti bilan bog‘liq risklar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bu risklar qanday holatlarda lizingga oluvchi yoki lizingga beruvchi zimmasida bo‘lishi batafsil ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va “Lizing to‘g‘risida”gi qonunida lizing subyektlariga ta‘rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra lizingga oluvchi deganda lizing obyektini o‘z tasarrufi va foydalanishiga oluvchi shaxs tushuniladi, lekin garchi lizing obyektini vaqtincha foydalanish hamda sublizingga uchinchi shaxsga lizingga beruvchining yozma roziligi bilan berishga ruxsat berilsa-da, lizingga oluvchining lizing mulkini qisman tasarruf etish huquqi ifodalanmagan.

O‘zbekiston Respublikasida amaldagi mavjud qonunchilikda lizing to‘lovlari xususidagi fikrlarga e‘tibor qaratamiz. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (590-moddasi)da “Lizing to‘lovi lizingga beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarning hammasi yoki ko‘p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlari lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidan iborat bo‘ladi”, degan fikrlar ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni (22-moddasi)da ham lizing to‘loviga shunday ta‘rif berilgan bo‘lib, ushbu ta‘riflardan kelib chiqib lizing to‘lovlari jahon tajribasiga to‘liq mos kelishini va quyidagi unsurlardan tashkil topishini aytish mumkin:

- 1) lizing bitimini amalga oshirish uchun lizingga oluvchi jalb etadigan kredit resurslari uchun to‘lov;
- 2) lizing mulki amortizatsiyasi;
- 3) komission mukofot;

4) risk mukofoti;

5) lizingga beruvchi lizingga oluvchiga ko'rsatgan qo'shimcha xizmati uchun to'lov;

6) agar lizing obyekti lizingga beruvchi tomonidan sug'urtalangan bo'lsa, unga lizing mulkini sug'urtalangani uchun to'lov.

Shunisi ham muhimki, qonun lizing shartnomasi taraflariga lizing to'lovlari miqdori va davriyligini o'zlari belgilash huquqini beradi. Shartnomada ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda lizing to'lovlarining har qanday qulay jadvali ko'rsatilishi mumkin. Masalan, g'alla o'rish bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklari lizing to'lovlari asosiy qismini faqatgina iyul, avgust va sentyabr oylarida amalga oshirishlari mumkin va h.k.

Lizing biznesi doirasini kengaytirish maqsadida "Lizing to'g'risida"gi qonunda lizing obyektining jadallashtirilgan amortizatsiyasini qo'llash imkonini oshirish kerak. Lizing shartnomasi qatnashchilarining o'zlariga amortizatsiya stavkasini tabaqalashtirish imkonini berish hamda qonunchilikdagi amortizatsiyaning me'yordan ortiq miqdorini soliqqa tortiladigan bazaga qo'shmaslik lozim.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi "Lizing to'g'risida"gi qonunda xalqaro lizingni rivojlantirish, soliqqa tortish bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar berish, investitsiya faoliyatini sug'urtalash, xorijiy lizingga beruvchilarning kafolatlari va ularning huquqini himoya qilish choralarini ishlab chiqish hamda kichik va o'rta biznes korxonalari loyihalarini moliyalashtirish jarayonida lizing samaradorligini baholash usullariga alohida e'tibor qaratib, ularni iloji boricha alohida moddalarda ifodalash lozim.

4.3. Lizingni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning takomillashuvi

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar lizing xizmatlarini maxsus ravishda rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar lizing

infrastrukturasini yanada takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, 2002-yil 28-avgustda qabul qilingan "Lizing faoliyatlarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3122-sonli Prezident Farmoni mamlakatimiz lizing sektorini rivojlantirishga to'siq bo'lib kelgan va lizing operatsiyalarini soliqqa tortishdagi muammolarni bartaraf etishga keng imkoniyat yaratib berilgan edi. Farmonga binoan 2002-yilning 1-sentyabridan boshlab:

- lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilindi;
- lizing berish uchun Respublikamiz hududiga olib kelinadigan texnologik uskunalar vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan holda, bojxona to'lovi va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi;
- lizingga beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi;

➤ lizingga oluvchi lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha lizingga beriladigan mulkka soliq to'lashdan ozod qilingan edi.

2002-yilning 1-sentyabrigacha O'zbekistonda rivojlanmagan qonunchilik sababli banklar deyarli nol foiz foyda bilan moliyaviy lizing operatsiyalarini amalga oshirgan va lizing kompaniyalari hukumatdan yordam olishga harakat qilishgan. Ular mamlakatdagi lizing operatsiyalari bilan bog'liq bo'lmagan ko'p yillik va o'rtacha vaqt oraliqdagi kreditlar uchun soliqlar bilan bog'liq bo'lgan.

2002-yilning oxirida lizingga oid qonunchilikka o'zgartirish kiritish natijasida, ayniqsa, Fuqarolik kodeksiga, Soliq kodeksiga, "Lizing to'g'risidagi qonun" va "Bojxona tariflari to'g'risidagi qonun" haqidagi qonunlarga o'zgartirish kiritilishi natijasida bu holat tubdan o'zgardi. Lizing qonunchiligidagi murakkab o'zgartirishlar lizing kompaniyasining O'zbekistonda rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan

to'siqlarni olib tashladi va bu sektorning mamlakatda rivojlanishi uchun zamonaviy yuridik asos yaratdi.

2004-yilda lizing operatsiyalarining o'sish tendensiyasi saqlanib qoldi. Lizing kompaniyalarga ham banklarga berilganidek soliq imtiyozlari berilishi yangi lizing kompaniyalarining ochilishiga sabab bo'ldi.

Mamlakatda valyuta bozorini liberallashtirish jarayoni bilan birgalikda lizing faoliyatining rivojlanishiga imkoniyat yaratuvchi qonunchilik ishlab chiqilishi lizingning yanada rivojlanishiga yo'l ochadi. Bu bosqichda milliy lizingga beruvchilar uchun lizing faoliyatini moliyalashtirishda tashqi manbalar hisobidan amalga oshirish istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, respublika tijorat banklari har doim mamlakatda amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalarining faol ishtirokchilari bo'lib kelgan. Ular tomonidan amalga oshirilgan lizing amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1999-yil 20-iyulda 776-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizam talablari asosida tartibga solinib kelindi. Ushbu nizam bugungi kunda respublikadagi amaldagi me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganligi munosabati bilan yangi tahrirda qayta ishlab chiqildi. Bundan tashqari, Markaziy bank boshqaruvining 2006-yil 21-oktyabrdagi 2516-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizomi ham tijorat banklarida lizing operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari jumlasiga kiradi.

Respublikamizda lizing munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar va imtiyozlar yaratish hamda uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan holatlarni bartaraf etish, shuningdek, qonunchilik hujjatlarini xalqaro andozalar talablariga moslashtirish maqsadida 2000-yildan boshlab qonunchilik hujjatlarida o'zgarishlar kuzatila

boshlandi. Jumladan, 2004-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 199-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2004-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 74-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobida lizing operatsiyalarini aks ettirish tartibi to'g'risida"gi nizom ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur nizom buxgalteriya hisobida lizing va ijara operatsiyalarini aks ettirishning yagona uslubiy asosini belgilab beradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning samarali shakli sifatida e'tirof etilayotgan lizing bo'yicha qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar muntazam yangilanib turishi lozim.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining rivoji ko'p jihatdan qishloq xo'jaligiga bog'liqdir. Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish masalasiga Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelinayotganligi sir emas. Bu borada quyidagi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrda qabul qilingan 486-sonli "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" aksiyadorlik lizing kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrda qabul qilingan 424-sonli "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 12-dekabrda 254-sonli "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2000-yil 2-noyabrda 424-sonli qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-maydagi "2012–2016-yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada

modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi to'g'risida"gi qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyulda qabul qilingan "2012–2016-yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturi amalga oshirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va h.k.

Ushbu me'yoriy hujjatlarga asosan lizing xizmati ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun foyda solig'i hamda yagona soliq to'lovi bo'yicha besh yilga imtiyoz berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, lizing oluvchi qishloq xo'jaligi korxonalarining lizing to'lovlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idan, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan ozod qilinganligi lizingdan foydalanayotgan barcha ishtirokchilar faoliyatiga katta madad bo'lmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-noyabrdagi "O'zagrotexsanoatxolding" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ–2658-sonli qarorining qabul qilinishi respublikamizda qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash mexanizmini amalga oshirishda muhim o'rin tutdi.

"O'zagrotexsanoatxolding" AJ tarkibiga qishloq xo'jaligi faoliyatini ishlab chiqarishni tashkil etishga ixtisoslashgan "O'zagrotexmash" AJ, qishloq xo'jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berishga ixtisoslashgan "O'zagrolizing" AJ, qishloq xo'jalik texnikalariga servis xizmatini ko'rsatish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga mexanizatsiyalashgan xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "O'zagroservis" AJ kabi kompaniyalar kiritilgan. Shu bilan birgalikda mazkur kompaniyalar ham o'z tarkibiga bir qator ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda lizing kompaniyasi filiallarini qamrab olgan. Mazkur tuzilma faoliyati zamonaviy qishloq xo'jaligi

texnikalarini ishlab chiqarish, sotish hamda qishloq xo'jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berish va ularga servis xizmatlarini ko'rsatish tizimini boshqarish bo'yicha yagona majmuaning samarali faoliyatini ta'minlash va qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mexanizatsiyalashtirilgan xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirilgan. Kompaniya tomonidan lizingga beriladigan obyektlar va lizing shartlari 1-ilovada keltirilgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, uni zamonaviy texnika bilan ta'minlashda hududlarning o'ziga xos xususiyati ham e'tiborga olinib, bu borada ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalarining faoliyatiga alohida urg'u berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Toshkent viloyati qishloq xo'jaligining texnik jihozlanganligini yanada oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3228-son qarori qabul qilindi. Qarorga asosan Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on, Bekobod, Bo'ka, Quyi Chirchiq va Chinoz tumanlarifermer xo'jaliklari va mashina-traktor parklariga 2017-2019-yillarda lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikasini yetkazib berishning prognoz parametrlari tasdiqlandi. Qarorga asosan, yetkazib berish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari, tijorat banklari kreditlari va qishloq xo'jaligi korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Lizing shartnomasi mavjud bo'lganda va haqiqatda avans to'lovi amalga oshirilganda esa (lizing obyekti qiymatining kamida 20 %) Jamg'arma tomonidan moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratiladi. Yetkazib berish lizing asosida "O'zagrolizing" AJ orqali yillik 2 %dan ko'p bo'lmagan foiz stavkasi bilan rejalashtirilgan hajmda har yili 1-dekabrga qadar amalga oshiriladi. "O'zagrolizing" AJ va Toshkent viloyati lizingga oluvchilari o'rtasida

tuziladigan shartnomalarda Jamg'arma mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda lizingning quyidagi muddatlari ko'zda tutiladi:

- fermer xo'jaliklari uchun – 12 yilgacha;
- “Toshkent Agroservis MTP” MChJ uchun – 10 yilgacha.

Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida 2018-yil 10-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo'jaligini o'z vaqtida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3712-sonli qarori qabul qilindi.

Bunday qonun hujjatlarining qabul qilinishi qishloq xo'jalik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib, lizing faoliyatini iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanishiga turtki bo'lmoqda. Ammo lizing bozorini rivojlantirish uchun qonunchilikka ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. Xususan, “Lizing to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ikkilamchi lizing bozori tushunchasini kiritish va amalda lizingga berilgan obyektlarning ikkilamchi bozorda sotilishi (lizingga berilishi)ga erishish lozim. Shuningdek, qonunga lizingning revolver lizing degan turini ham kiritib, moliyaviy barqaror bo'lgan lizingga beruvchilar faoliyatida lizingning aynan shu turini qo'llash orqali yuqori samaraga erishish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasi konsepsiyasida ham lizing orqali ma'lum bir sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Xususan, ishlab chiqarish uskunalari, shu jumladan tog'-kon va metall eritish uskunalari uchun lizing tizimini ishlab chiqish, texnik uskunalar uchun, ya'ni jihozlar, chorvachilik va o'simlikshunoslikni rivojlantirish uchun texnikani lizing asosida qo'lga kiritish, yuqori mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ega nasldor chorva mollari lizingini shakllantirish, shuningdek, lizing va sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish orqali bank xizmatlari ulushini

kamaytirish, buning natijasida esa kompaniyalar va fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan³².

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, lizing xizmatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish lizingning bundan keyingi rivojlanish istiqbolini belgilab beradi.

Tayanch so'z va iboralar *Lizingni huquqiy tartibga solish, Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni, UNIDROIT Konvensiyasi.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. UNIDROIT Konvensiyasi nima va u qachon qabul qilingan?
2. Lizingni huquqiy tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
3. Fuqarolik kodeksida lizing munosabatlarini tartibga solish bo'yicha qanday fikrlar keltirilgan?
4. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan va tarkibiy tuzilishi qanday?
5. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunining maqsadi nima?
6. So'nggi yillarda lizingni tartibga soluvchi qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi?
7. O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasida lizing orqali qaysi sohalarni rivojlantirishga urg'u berilgan?

³² O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining kontseptsiyasi. 2018. 29 dekabr.

V BOB. LIZING INSTITUTLARI VA ULARNING RIVOJLANISHI

5.1. Lizing bozorida lizing kompaniya (institut)larining obyektiv zaruriyati

Mamlakatda lizing kompaniyalarining tashkil topishi va rivojlanishi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- lizing ishtirokchilari uchun soliq imtiyozlarining qo'llanilishi;
- moliya va bank tizimining rivojlanish darajasi;
- iqtisodiyotning tarmoq darajasi va asosiy vositalarning eskirish darajasi.

Umuman olganda, lizing kompaniyalari deganda lizing operatsiyalarini tashkil etuvchi firma va tashkilotlar tushuniladi. Lizing kompaniyalarining ikki turi: ixtisoslashtirilgan va universal turlari farqlanadi. Ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyalari bitta (masalan, transport vositasi) yoki bir turdagi tovarlar guruhi bilan (masalan, qurilish vositalari, idora ashyolari) ish olib boradi. Odatda, bunday kompaniyalarning o'zi lizing obyektiga xizmat ko'rsatadi va uni normal ish holatida saqlashga harakat qiladi. Universal lizing kompaniyalari esa turli xil obyektlarni lizingga beradi. Obyektga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlashda lizing kompaniyalari bilan birga lizingga oluvchilar ham ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Lizing kompaniyalari mustaqil tobe bo'lmagan yuridik shaxs yoki sanoat kompaniyalarining shuba korxonalari, savdo korxonalari, bank va sug'urta jamiyatlarining filiallari bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda sanoat va qurilish korxonalari o'zlarining mahsulotlarini lizingga berish bilan shug'ullanadigan lizing kompaniyasiga ham ega bo'lishadi.

Lizing kompaniyalarining ishtirokchilari (ta'sisчилari) bo'lib, ta'sis shartnomasi asosida moliyaviy resurslarini birlashtirgan korxonalar,

tashkilotlar, banklar, assotsiatsiya va shu kabilar hisoblanadi. Ular tomonidan ustav kapitaliga ulush sifatida bino, inshoot, asbob-uskuna va boshqa moddiy qimmatliklar, pul mablag'lari va boshqa mulklar kiritilishi mumkin. Ta'sischilar kompaniya ishlari (faoliyatdan qo'lga kiritilgan foydadan (dividend) olish, kompaniya tugatilganda o'ziga tegishli bo'lgan ulushni olish va h.k.)ni boshqarishda ishtirok etishadi.

Lizing kompaniyasi asosiy faoliyatdan tashqari vositachilik, texnik, marketing, vakillik, informatsion, reklama, maslahat va boshqa tijorat faoliyatlarini ham amalga oshirishlari mumkin.

Xalqaro lizing bozorida asosiy ishtirokchi sifatida lizing kompaniyalarining quyidagi turlari kuzatiladi: Davlat lizing kompaniyalari, banklar guruhiga kiruvchi lizing kompaniyalari, sanoat guruhiga kiruvchi lizing kompaniyalari va mustaqil lizing kompaniyalari. Lizing bozorida moslashuvchanligi, sohaga oid masalalarni hal qilishdagi faolligi, tarmoq diversifikatsiyasi hamda sotuvchilarni tanlashdagi aniqligi nuqtayi nazaridan mustaqil lizing kompaniyalari bozorga ko'proq moslashgan kompaniyalar bo'lib hisoblanadi. Bank guruhiga kiruvchi lizing kompaniyalarining bozorga moslashishiga bank standartlariga qat'iy rioya qilish kerakligi, moslashuvchanlik va tezkor qarorlar qabul qilishning kuzatilmasligi kabi omillar to'sqinlik qiladi. Ushbu omillar esa lizing faoliyatining moliyaviy jihatdan banklar faoliyatiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Sanoat guruhiga kiruvchi lizing kompaniyalari faoliyatida lizing obyektini tanlash, tovar taklifini rivojlantirish hamda lizing obyektidan foydalanish bilan bog'liq qattiq cheklovlarning o'rnatilishi kuzatiladi. Davlat lizing kompaniyalarida esa lizingga oluvchilarga juda yuqori va qattiq talablar qo'yiladi, bir tarmoq doirasida assortiment cheklanadi, shuningdek, lizing shartnomalari bo'yicha qaror qabul qilish uzoq vaqtni talab etadi.

Lizing kompaniyasini tashkil etish bo'yicha kompleks masalalarni hal qilish uchun dastlab lizing kompaniyasining maqomini aniqlab olish

lozim. Tashkil etilayotgan lizing kompaniyasining asosiy maqsadi ular tomonidan mulkni lizingga berish uchun amalga oshirilgan investitsion faoliyatdan daromad olishga qaratilgan bo'ladi. Bunda lizing kompaniyalarini tashkil etish quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- lizingga oluvchida mulkni lizingga olish uchun investitsion loyihalarning mavjudligi va ularning lizing operatsiyalariga tayyorligi;

- talab etiladigan minimal resurslar va qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish imkoniyatining mavjudligi;

- bir nechta lizing loyihalarini investitsiyalash uchun sxemalarning yaratilganlik darajasi;

- lizing kompaniyasi uchun samarali bo'lgan lizing marjasini belgilash imkoniyatining mavjudligi;

- amortizatsiya siyosatining egiluvchanligi;

- lizing kompaniyasiga kafolat taqdim etuvchi ishonchli sxemalarning mavjudligi;

- lizing qonunchiligida ko'zda tutilgan soliq to'lovlarini qisqartirish imkoniyati va h.k.

Lizing kompaniyasini tashkil etishda uning tarkibiy tuzilishi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Kompaniyaning tarkibiy tuzilishiga aksionerlarning turi (banklar, sug'urta tashkilotlari, xususiy korxona va b.), faoliyatning iqtisodiy sohasi (sanoat, agrosanoat kompleksi, savdo va h.k.), shartnoma va mulk turi (asbob-uskuna, transport, ko'chmas mulk va h.k.) va faoliyat doirasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli kompaniyaning tashkil etilishi u va uning ta'sischilari maqsad hamda vazifalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Lizing kompaniyalari faoliyatlarini kengaytirish maqsadida shuba korxonalari va filiallarini ham tashkil etishadi.

Lizing kompaniyasi butun shartnoma muddati davomida lizingga oluvchilarga qat'iy lizing to'lovlarini belgilab beradi. Ushbu to'lov lizing foizlarini va amortizatsiya miqdorini o'z ichiga oladi. Lizing

foizlari shartnoma muddati yakunida mulkning qoldiq qiymati chegiriladigan butun qiymatga nisbatan hisoblanadi.

5.2. Mustaqillik yillarida lizing kompaniyalarining tashkil topishi

O'zbekiston hukumati mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridanoq lizing amaliyotlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Mamlakatimizda ilk lizing operatsiyasi 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, O'zbekiston havo yo'llariga chet el kompaniyalaridan lizing orqali samolyotlar xarid qilingan.

90-yillar boshlarida, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki moliyaviy xizmatlar bozori yanada shakllanib borishini ta'minlash maqsadida, lizing kompaniyasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

Ushbu tashabbus, Respublika hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan tashqari, jahondagi eng yirik moliyaviy institutlarda katta qiziqish uyg'otdi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-yanvardagi 6-sonli qaroriga asosan xorijiy kapital ishtirokidagi "Uzbek Lizing International A.O." xalqaro kompaniyasi tashkil etildi.

Kompaniya aksiyadorlari quyidagilardan tashkil topgan:

- O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki – 35%
- Maybank (Malayan Banking Berhad), Malayzia – 35%
- O'zbek-O'mon Investitsion Kompaniyasi – 30%.

Bugungi kunda kompaniyaning ustav kapitali miqdori 9,113,588,786 so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki kompaniya tashkil etilishining tashabbuskori bo'lganligi bois kompaniya faoliyatini doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqda. "Uzbek Lizing International A.O." faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki tomonidan, ustav kapitaliga kiritilgan hissadan tashqari, jami 10 mln. AQSh dollari miqdorida olish kunidagi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha milliy valyutada revolver kredit liniyasi taqdim etilgan. Kompaniya, shuningdek, O'zR TIF MB bilan imzolangan xorijiy kredit liniyalaridan foydalanib kelmoqda.

Faoliyat boshlangan vaqtdan boshlab to 2001-yilgacha kompaniya boshqaruvi Meybankka topshirilganligi sababli, bu Kompaniya uchun Meybankning lizing operatsiyalarini amalga oshirish borasidagi tajribasidan foydalanish, mahalliy xodimlarga jahon standartlari bo'yicha lizing loyihalarini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha bilim ko'nikmalarni berish imkoniyatini yaratdi. Natijada, Kompaniya tashkil etilish kunidan boshlab ko'rsatadigan lizing xizmatlari doirasini sezilarli darajada kengaytirdi va bugungi kunda moliyaviy xizmatlarni xalqaro lizing standartlari saviyasida ko'rsatib kelmoqda.

Bitimlar aksiyadorlarga tegishli mablag'lar, kompaniyaning o'z mablag'lari hisobiga ham, Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Malayziya Banki (Meybank), Xususiy Sektorni Rivojlantirish Islom Korporatsiyasi (IXSRK) kabi xalqaro investorlarning kredit liniyalari, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki, "ASAKA" DATB, UzKDB kabi mahalliy banklarning kredit liniyalari, hamda yirik uskuna yetkazib beruvchilarning kreditlari hisobiga ham mablag' bilan ta'minlanadi.

"Uzbek Lizing International A.O."— o'z rivojlanishida zamonaviy boshqaruv, moliya va marketing texnologiyalarini qo'llashi tufayli mijozlar bazasini faol kengaytirib kelayotgan lizing kompaniyasining o'ziga xos misolidir. Shu bilan birga, kompaniyaning ochiq-oydinlik tamoyili xalqaro moliyaviy institutlarni ham, mahalliy banklarni ham uzoq muddatli moliyalashtirishga jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Faoliyat boshidan boshlab to hozirgi vaqtga qadar Kompaniya portfelidagi lizing loyihalarining soni 1200 tadan oshadi. Respublikaning qariyb barcha mintaqalari bo'yicha amalga oshirilgan

loyihalar asosida sanoat mahsulotlarini va xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda "Uzbek Lizing International A.O." o'sishi sayin uning mijozlari ham rivojlanib bormoqda, moliyalashtirilayotgan tarmoqlar ko'lami ham kengayib, geografik ko'lam esa kattalashib bormoqda. 2005-yildan boshlab hozirgi vaqtga qadar butun respublika bo'yicha Kompaniyaning sakkizta mintaqaviy vakolatxonasi ochildi. 2005-yilda Samarqand viloyatida vakolatxona ochildi, 2009-yildan boshlab "O'zbek Lizing International A.O." kompaniyasining Xorazm viloyati hamda Farg'ona vodiysidagi vakolatxonalari ishga tushirildi. 2010-yilda Buxoro, Navoiy viloyatlarida va Qoraqalpog'iston respublikasidagi vakolatxonalar o'z faoliyatini boshladi. 2012-yilda Qashqadaryo viloyatida ham vakolatxona tashkil etildi. 2017-yilda kompaniyaning Jizzax, Sirdaryo va 2018-yilda Andijon, Farg'ona va Surxandaryo viloyatlarida hududiy vakolatxonalar ishga tushirildi.

Kompaniya 1995-yilda O'zbekistonda import o'rnini bosuvchi va eksport mahsulotlari hajmini ko'paytirish maqsadida moliyaviy lizing orqali ilg'or texnologiyalarni jalb qilish maqsadida yaratildi. Hozirda nafaqat Toshkent shahrida, balki respublikamizning barcha hududlarida ham mintaqaviy vakillar orqali faol ish olib bormoqda.

Kompaniyaning strategiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- texnologik uskunalarni xarid qilish va foydalanish uchun o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirish;
- ilg'or texnikalarni jalb qilish;
- xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy lizingga uskuna olishning keng imkoniyatlarini yaratib berish va O'zbekiston Respublikasida xalq iste'mol tovarlarining ishlab chiqarilishini ko'paytirish.

Kompaniya mijozlarning biznesini modernizatsiyalash, kengaytirish va yangilash uchun investitsiyalar kiritadi va iqtisodiyotning turli xil sektorlarini moliyalashtiradi, ya'ni:

- Mashinasozlik;
- Yengil sanoat (Tekstil);
- Oziq-ovqat sanoati;
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;
- Kimyo sanoati;
- Neftgaz sanoati;
- Qurilish mollarini ishlab chiqarish;
- Qurilish texnikasi;
- Turizm/mehmonxona biznesi;
- Tibbiyot va farmatsevtika;
- Avtotransport (Yuk va yo‘lovchi);
- Aholi uchun turli xizmatlar.

Qishloq xo‘jaligini zarur texnikalar bilan ta‘minlashning hamda qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri lizing hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, zamonaviy yuqori unumli qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan jihozlash darajasini tubdan oshirish, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalarini modernizatsiya qilish uchun yetakchi xorijiy kompaniyalarning to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish yuzasidan Hukumatimizning tegishli qaror va dasturlari qabul qilingan. Ushbu maqsadlarga erishish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi 486-sonli qarori bilan “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi 424-sonli qaroriga muvofiq Kompaniya faoliyati yanada kengaytirilgan hamda lizing loyihalarini imtiyozli shartlarda moliyalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida “Qishloq xo‘jaligini texnika bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tashkil etilgan.

Shu bilan birga, mazkur qarorga asosan “Respublika qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi texnikasini lizingga olish tartibi” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-noyabrda PF-4857-sonli “O‘zagrotexsanoatxolding” aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasi nomi “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati etib o‘zgartirildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-noyabrda PQ-2658-sonli “O‘zagrotexsanoatxolding” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq esa “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati huquq va majburiyatlar bo‘yicha “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” aksiyadorlik lizing kompaniyasining huquqiy vorisi etib belgilandi.

Ushbu qarorda “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari belgilab berildi:

- Fermer xo‘jaliklari, mashina-traktor parklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining lizing asosida topshiriladigan qishloq xo‘jaligi texnikasiga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini o‘rganish;

- Olingan buyurtmalar asosida zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan shunday texnikani ishlab chiqarish va yetkazib berishga buyurtmani joylashtirish;

- Belgilangan tartibda lizingga oluvchilarga yangi va xaridorgir qishloq xo‘jaligi texnikasini lizingga topshirish;

- “O‘zagrotexmash” AJ tarkibiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi uchun texnika ishlab chiqaruvchilarning mahsulotini lizing asosida sotishni tashkil etish;

- yetakchi lizing kompaniyalarining xalqaro tajribasini o‘rganish hamda lizing operatsiyalarini amalga oshirishning ilg‘or usullarini joriy etish.

Bundan tashqari:

– “O‘zagrotexsanoatxolding” AJga qishloq xo‘jalik texnikasining yetakchi xorijiy namunalarini respublika qishloq xo‘jaligi mashinasozlik korxonalarida mahalliylashtirish asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar kiritadi;

– Xalqaro faoliyati doirasida “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati vakillari yirik xalqaro qishloq xo‘jalik texnikalari ko‘rgazmalariga mazkur texnikalar bo‘yicha dunyo bozorining konyunkturasini o‘rganish maqsadida muntazam ishtirok etadilar.

2019-yilning 1-avgust holatiga “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati ustav fondi jamg‘armasi 105 681,8mlrd. so‘mni, lizing portfeli esa 1 501 675,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Jamiyatning aksiyadorlari 660 nafar bo‘lib, shundan 380 nafari yuridik, 280 nafari jismoniy shaxslar hisoblanadi. Shu jumladan, 7 nafar yuridik shaxslar va 3 nafar jismoniy shaxslar chet ellik aksiyadorlarni tashkil etadi.

Lizing loyihalarini Respublikaning barcha hududlarida amalga oshirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida Jamiyatning hududiy filiallari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Jamiyatning asosiy faoliyat turi qishloq xo‘jaligini lizing shartlarida zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashdan iborat bo‘lib, lizing xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lami bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bozorida uzoq yillardan buyon yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda.

Jamiyat tizimida “O‘zmashlizing”, “Lizing texnika servis” va “Lizing axborot texnologiyalari” kabi mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar mavjud.

Jamiyat Germaniyaning “CLAAS” konserni ishtirokida tashkil etilgan “Uz CLAAS Agro” qo‘shma korxonasida “Dominator 130” rusumli g‘alla o‘rish kombayni, “Arion 630S” rusumli haydov traktori, “LEMKEN GmbH & Co. KG” kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan “LEMKEN Chirchiq” qo‘shma korxonasida “EurOral”

modelidagi 2, 3, 4 va 5 korpusli aylanma osma pluglar, “Rubin” rusumli diskli boronalar va “Karat 9/300” rusumli tuproqqa intensiv ishlov beruvchi kultivatorlar lizingga taqdim etilmoqda.

Jamiyat hamkorlaridan biri “Toshkent qishloq xo‘jalik texnikasi zavodi” AJ tomonidan Janubiy Koreyaning “U-62” va “I-38” rusumidagi mini bog‘dorchilik traktorlarini ishlab chiqarilishi o‘zlashtirildi.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi texnikalari jami hajmining 50 foizidan ortig‘ini “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati tomonidan mijozlarga lizingga yetkazib bermoqda.

Jamiyat tashkil etilgandan boshlab o‘tgan davr mobaynida umumiy qiymati 2,3 trln. so‘m bo‘lgan 66,1 ming dona qishloq xo‘jaligi texnikalari fermer xo‘jaliklariga, mashina-traktor parklariga va “O‘zagrokimyohimoya” hududiy birlashmalariga lizing‘yetkazib berildi.

Mamlakatimiz lizing bozoridagi eng faol kompaniyalardan biri “O‘zavtosanoat-Leasing” MChJ ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-dekabrdagi PQ–531-sonli qarori bilan tashkil qilindi.

Kompaniya 2007-yilda davlat ro‘yxatidan o‘tdi va moliyaviy faoliyatini boshladi. “Samarqand avtomobil zavodi” MChJning mahsulotlarini lizing asosida sotish orqali ushbu korxonaning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘sha boshladi hamda O‘zbekiston lizingga beruvchilar uyushmasi a‘zosi ga aylandi.

2008-yildan boshlab og‘ir yuk avtomobillarini sotib olish bo‘yicha lizing loyihalarini moliyalashtirish boshlandi. III Xalqaro investitsion forum doirasida “O‘zavtosanoat-Leasing” MChJ lizing kompaniyasi “2007-yilning yetakchi lizing kompaniyasi”, deb topildi.

2009-yilda O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan yo‘l-qurilish texnikalarini sotib olish bo‘yicha lizing loyihalarini moliyalashtirish

boshlandi. Yil yakunlari bo'yicha kompaniya lizing bitimlarini amalga oshirish bo'yicha eng yirik korxona deb topildi.

Kompaniya 2010-yildan e'tiboran "JV MAN Avto – Uzbekistan" MChJ QKda ishlab chiqarilgan yuk va maxsus transport vositalarini sotib olish bo'yicha lizing loyihalarini moliyalashtirishni boshladi.

Lizing xizmatlarini tatbiq qilishda qo'shgan hissasi uchun 2011-yilda O'zbekiston lizingga beruvchilar uyushmasi tomonidan "Oltin portfel" mukofoti bilan taqdirlandi. Bunga asosiy sabab sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- "Angren Logistika Markazi" AJ faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida 300 dan ortiq lizing obyektlariga GPRS – trekkerlarini o'rnatish bo'yicha lizing loyihasini amalga oshirilishi;

- Rossiyaning "MAN Finance Rossiya" MChJ bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzolanishi;

- Kompaniyada Elektron hujjatlar almashish axborot tizimi "Germes"ning tatbiq qilinishi va h.k.

2012-yilda kompaniyaning ustav kapitali 12 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 30,0 mlrd. so'mgacha oshirildi.

O'tgan yillar davomida kompaniyaning lizing faoliyatini diversifikatsiyalash maqsadida tibbiyot va energiya tejovchi uskunalarni sotib olish bo'yicha lizing loyihalari moliyalashtirildi.

Tajriba almashish va lizing portfelini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini o'rganish maqsadida kompaniyaning bir nechta mutaxassislari Janubiy Koreya va Xitoy davlatlarida tajriba almashishdi.

Kompaniya 2015-yilda Xalqaro Biznes va Texnologiya uyushmasi (AMBiT) a'zosiga aylandi.

Kompaniya ta'sischilari bo'lgan "O'zavtosanoat" Aksiyadorlik Kompaniyasi MDH davlatlari orasida eng yirik kompaniyalardan biri bo'lib, u o'ziga "GM Uzbekistan" AJ, "JV MAN Auto – Uzbekistan" MChJ QK, "Samarqand Avtomobil Zavodi" MChJ va boshqa

O'zbekistonning deyarli barcha hududida joylashgan 200 dan ortiq avtomobilsozlik sohasiga kiruvchi korxonalarni birlashtiradi.

“Asaka” Aksiyadorlik Tijorat Banki O'zbekistonning barcha hududlariga kirib borgan va 1,4 mln.dan ortiq mijozlarga ega eng yirik banklardan biri hisoblanadi. Jahon bo'ylab 350 dan ortiq xorijiy banklar bilan aloqalarni o'rnatgan.

“O'zavtosanoat-Leasing” MChJ lizing kompaniyasining asosiy faoliyati mahalliy ishab chiqaruvchilarning tijorat avtotransportlarini moliyaviy lizingini amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Kompaniyaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik subyektlarining tijorat avtotransportlari va maxsus texnikalariga egalik ko'lamini oshirish va mavjud parklarni yangilashda ko'maklashish. “O'zavtosanoat-Leasing” MChJ lizing kompaniyasi faoliyati maksimal foyda olishga yo'naltirilmagan, aksincha u potensial lizing oluvchilarga imkoniyat va qulayliklar yaratishga yo'naltirilgan.

Kompaniya o'z faoliyatini Respublikaning barcha hududlarida amalga oshiradi, lizing loyihasini ko'rib chiqish muddati lizingga oluvchi tomonidan barcha kerakli hujjatlar taqdim etilganidan keyin 5 ish kunidan oshmaydi.

“O'zavtosanoat-Leasing” MChJ lizing kompaniyasi o'z faoliyati davomida O'zbekiston lizing xizmatlari bozorida o'z mavqeiga ega bo'ldi va eng yirik lizing kompaniyalar uchtaligiga kirdi hamda tijorat avtotransportlari bo'yicha eng yirik lizing portfeliga ega.

Kompaniya faoliyatini mijozlarga xalqaro standartlarga javob beradigan lizing xizmatlarini taklif qilgan holda yuqori bozor o'rmini ta'minlash va ulushini yanada oshirib borishga yo'naltirilgan.


5.3. O'zbekistonda Lizingga beruvchilar uyushmasining tashkil etilishi va lizing bozorida ahamiyati

“Uzbek Leasing International A.O.”-kompaniyasining va boshqa ko'plab lizingga beruvchilar – lizing kompaniyalari va tijorat

banklarining tashabbusi bilan “O‘zbekiston Lizingga beruvchilar Uyushmasi” tashkil qilinib, 2005-yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan chizmaiy ro‘yxatga olindi. Uyushmani tashkil qilishdan asosiy maqsad O‘zbekistonda lizing xizmatlari bozorini kengaytirish va faol rivojlantirishdan iborat edi.

Lizingga beruvchilar uyushmasining missiyasi respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida lizing xizmatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat.

Uyushma o‘ziga a’zolarining tadbirkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, iqtisodiy huquqlar va erkinliklarni amalga oshirish hamda muhofaza qilish, umumiy mulk va boshqa manfaatlarni taqdim qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashadigan lizing xizmatlarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat tashkilotlar faoliyatiga lizing xizmatlarini joriy qilish orqali faolligini oshirish maqsadida tashkil etiladi va amal qiladi.



**Guruhlar lizingga beruvchilar vakillaridan shakllantiriladi.*

5.1-chizma. Lizingga beruvchilar uyushmasining tarkibiy tuzilishi

Shuningdek, uyushma maqsadlari professional manfaatlarni qondirish, ilmiy va texnik ijodkorlikni rivojlantirish, insonlar hayoti va salomatligi himoyasiga ko'maklashish, atrof-muhit muhofazasi, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishdan iborat.

Lizingga beruvchilar assotsiatsiyasining boshqarish elementlari quyidagilardan iborat (5.1-chizma):

Uyushma faoliyatining vazifalari quyidagilar:

- Loyihalar ishlab chiqilishida hamda lizing va Uyushma a'zolari manfaatlari bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar muhokamasida ishtirok etish, ular bo'yicha tegishli davlat hokimiyati, qonun loyihalari ekspertizasi organlariga takliflar kiritish va ishlab chiquvchilar bilan hamkorlik qilish orqali, xalqaro standartlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida lizing xizmatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga ko'maklashish. O'zbekiston Respublikasida lizingni rivojlantirish masalalari bo'yicha lizing subyektlari manfaatlarini ifoda etish;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar va turli darajalarda davlat organlari, tashkilotlar, muassasalar, xo'jalik subyektlari, jamoat birlashmalari, barcha ma'muriy va fuqarolik huquqiy munosabatlari subyektlari bilan o'zaro aloqalarda Uyushma a'zolarining huquqiy manfaatlarini taqdim qilish;

- O'zbekiston Respublikasida lizingni rivojlantirish bo'yicha ijtimoiiy-iqtisodiy davlat siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- Lizing rivojlanishini rag'batlantiruvchi davlat va hududiy infratuzilmasini yaratishda konsultativ ko'mak berish;

- O'zbekiston Respublikasi lizing sektoriga investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashish;

- Mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulot reytingini ko'tarishda ko'maklashish;

- Lizing munosabatlari subyektlarini xalqaro lizing uyushmalari va boshqa xalqaro tashkilotlarda taqdim qilish, shuningdek, Uyushma a'zolariga tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda ko'maklashish;

- Uyushma faoliyati ixtisosligiga muvofiq yo'nalishlar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

- Uyushma a'zolarining o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish va ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ifoda etish, amalga oshirish va himoyalash bo'yicha harakatlarini birlashtirish;

- Uyushma a'zolari huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jumladan nohaq raqobatdan muhofaza qilish;

- Uyushma a'zolariga lizing masalalari bo'yicha bepul konsalting va axborot-tahliliy xizmatlarni ko'rsatish;

- Treninglar va seminarlar o'tkazish;

- Uyushma a'zolarini axborot bilan ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasida lizing huquqiy munosabatlari subyektlari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish;

- Uyushma, shuningdek, Uyushma a'zolari faoliyati haqida ma'lumot to'plash, tahlil qilish va tarqatish;

- Lizingdagi turli muammolar va jihatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish;

- Lizingning turli jihatlarini bo'yicha kutubxona yaratish;

- O'zbekiston Respublikasida lizingning turli jihatlarini bo'yicha kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot va o'quv ishlarini rivojlantirish;

- O'zbekiston Respublikasida lizingni rivojlantirish muammolarini ilmiy-amaliy o'rganish;

- Uyushma maqsadlariga erishish yo'lida lizing sohasida marketing tadqiqotlari va reklamani tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida Uyushma a'zolari mahsulotlari va xizmatlari ko'rgazmalari hamda yarmarkalarini tashkillashtirish;

- Turli lizing masalalari bo'yicha uchrashuvlar, davra suhbatlari, anjumanlar va boshqalarni tashkil etish;

- Ommaviy axborot vositalari uchun maxsus dasturlar va nashrlarni tayyorlash hamda o'tkazish;

- Menejment va marketingdagi ilg'or texnologiyalar, tajribalar, know-how va boshqalarni joriy qilish;

- Iste'molchilarni mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlari, tovar va xizmatlari bilan ta'minlashda ko'mak berish.

Ayni paytda Uyushma lizing bozori ishtirokchilarining faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi qator vazifalarni bajarmoqda, xususan u tegishli davlat muassasalari orqali O'zbekistonda lizing xizmatlarini xalqaro standartlarga muvofiq tartibga soladigan normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga yordam bermoqda; lizing sohasidagi bilimlarni takomillashtirishga qaratilgan xalqaro konferensiyalar va forumlarni, seminar-treninglarni o'tkazish yo'li bilan yangi va manfaatli hamkorlik uchun shart-sharoitlar taqdim etmoqda; uyushma a'zolarini World Leasing Yearbook, Central Asia Finance kabi xorijiy nashrlarda pozitsionerlash maqsadida ularni ilgari surish va reklama qilish bilan shug'ullanmoqda.

Lizing sektorini rivojlantirishning muhimligi va uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi rolini inobatga olgan holda, lizing bozorining barcha ishtirokchilari, ya'ni lizing kompaniyalari, tijorat banklari, lizingga oluvchilar, sug'urta tashkilotlari, uskunalar, qurilish texnikasi va hokazolarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik O'zbekistonda lizing xizmatlari bozorini sifat jihatdan yanada kengaytirish uchun qulay imkoniyatga aylanadi.

Ana shu oliyjanob maqsadda 2019-yil 19-iyulda O'zbekiston Lizingga beruvchilar uyushmasi a'zolarining Umumiy yig'ilishi

tomonidan tashkilot nomini “O‘zbekiston Lizing beruvchilar Uyushmasi”dan “O‘zbekiston Lizing Uyushmasi”ga o‘zgartirish haqida qaror qabul qilindi. Ushbu o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligida ro‘yxatga olindi.

Ayni paytda O‘zbekiston Lizing Uyushmasi a‘zolari quyidagi tashkilotlar bilan faoliyat olib boradi: “Uzbek Leasing International A.O.” Aksiyadorlik jamiyati; “Asaka Trans Leasing” MChJ; “Baraka Universal Leasing Kompaniyasi” MChJ; “China Leasing Group” MChJ; “Feron Leasing” MChJ; “InFinLeasing” MChJ; “Ipak Yo‘li” AITB; “Nano Lizing Kompaniyasi” MChJ; “O‘zavtosanoat-Leasing” MChJ; “Qurilish-Leasing” MChJ; “Respublika Ixtisoslashtirilgan Lizing Kompaniyasi Qurilishmashlizing” Aksiyadorlik jamiyati; “Taiba Leasing” MChJ ChEK; “Trast Leasing” MChJ; “Trastbank” XAB; “UzMed-Leasing” Aksiyadorlik jamiyati; “O‘zmeliomashlizing” Davlat unitar korxonasi; “Premier Class Leasing” MChJ; “West Techno Leasing” MChJ; “Tezkor Invest” MChJ; “Avto Lider Lising” MChJ; “Orient Invest Group” MChJ; “Hamkormazlizing” MChJ; “Hamkor Invest lizing” MChJ; “Leazing and Rent Gulistan” MChJ; “Mogo Lend” MChJ; “Ideal leazing Unit” MChJ; “Aloqalizing” MChJ; “O‘zagrolizing” Aksiyadorlik jamiyati; “Artum Leasing Group” MChJ.

Tayanch so‘z va iboralar *Lizing bozori, lizing kompaniyasi, lizingga beruvchilar uyushmasi, “Uzbek Lizing International A.O.”, “O‘zavtosanoat-Leasing” MChJ.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Lizing bozorida lizing kompaniyalarining ahamiyati nimada?
2. Milliy lizing bozorida ilk lizing operatsiyasi qachon amalga oshirilgan va lizing obyekti nima bo‘lgan?
3. Lizing kompaniyalarining asosiy faoliyatiga to‘xtalib o‘ting. Ular tijorat banklaridan nimasi bilan farqlanadi?

4. Lizing kompaniyalarining bozordagi asosiy vazifalari nimadan iborat?
5. O'zbekiston Lizingga beruvchilar uyushmasi qachon tashkil etilgan?
6. O'zbekiston Lizingga beruvchilar uyushmasining asosiy maqsad va vazifalariga to'xtalib o'ting.
7. O'zbekiston Lizingga beruvchilar uyushmasi ta'rischilari kimlar?
8. O'zbekiston Lizingga beruvchilar uyushmasi a'zolari kimlar?
9. "O'zavtosanoat-Leasing" MChJ lizing kompaniyasining bozordagi asosiy maqsad va vazifalari nimadan iborat?
10. "Uzbek Lizing International A.O" lizing kompaniyasining bozordagi asosiy maqsad va vazifalari nimadan iborat?

VI BOB. LIZING TO'LOVLARINING TURLARI VA HISOBLASH USULLARI

6.1. Lizing to'lovlari va uning tarkibi

Lizingga oluvchining eng muhim majburiyati bo'lib hisoblangan lizing to'lovlari shartnoma obyektidan tadbirkorlik maqsadida odatiy ravishda foydalanganlik uchun amalga oshirilgan to'lovlar miqdorini o'zida aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni (22-modda) va Fuqorolik kodeksida lizing to'lovlari lizingga beruvchining lizing obyektini olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidan iborat bo'lishi aytib o'tilgan.

Lizing to'lovlari shunday mexanizmki, uning yordamida lizingga beruvchi o'zining moliyaviy xarajatlarini mulkni xarid qilishga yo'naltiradi va ma'lum bir foydaga ega bo'ladi. Bundan kelib chiqib, lizing to'lovlarining umumiy summasi butun lizing kelishuvi davomida quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Lizing mulki amortizatsiyasi;
2. Lizing bitimini amalga oshirish uchun lizingga oluvchi jalb etadigan kredit resuslari uchun to'lov;
3. Komission mukofot;
4. Risk mukofoti;
5. Lizingga beruvchi lizing oluvchiga qo'shimcha xizmat ko'rsatganligi uchun to'lov;
6. Agar lizingga beruvchi sug'urtalangan bo'lsa, lizing mulkini sug'urtalagani uchun to'lov.

Lizing to'lovlari umumiy summasining iqtisodiy mazmuni haqida so'z yuritsak, bunda har qaysi lizing obykti qiymatining o'rnini to'ldirishi hamda uning to'lanmagan qiymati hisobidan olinadigan foizlarni o'z ichiga oluvchi lizing to'lovlari miqdoridan tarkib topadi.

Umumiy holatda lizing to'lovlari umumiy hajmini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$S = A + V + Kr + Sst + D. (1)$$

Bu yerda: S – lizing kelishuvining butun amal qilish muddati paytida lizing to'lovlarining umumiy summasi;

A – lizing kelishuvining butun amal qilish muddati paytida lizing mol-mulki qiymatini qoplaydigan summa;

V – lizingga beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan komission haq;

Kr – lizing mol-mulkini sotib olish uchun lizingga beruvchi foydalanadigan kredit xaziralari bo'yicha to'lov;

Sst – mol-mulkni sug'urtalash uchun lizingga beruvchiga to'lanadigan summa (agar mulk lizingga beruvchi tomonidan sug'urtalansa);

D – lizing beruvchining shartnomada ko'zda tutilgan boshqa xarajatlari.

Lizing to'lovlari umumiy summasining iqtisodiy mazmuni haqida so'z yuritsak, bunda har qaysi lizing obykti qiymatining o'rnini to'ldirishi hamda uning to'lanmagan qiymati hisobidan olinadigan foizlarni o'z ichiga oluvchi lizing to'lovlari miqdoridan tarkib topadi.

Lizing to'lovlarining qo'llanilayotgan hisoblash usuliga qarab mahalliy olimlar quyidagi turlarga ajratadilar (6.1-chizma)³³:


– lizingga beriladigan uskuna qiymatidan amortizatsiya ajratmalaridan, tarkibida lizing shaklida kredit uchun foiz va shuningdek, har bir davrning oxirida kiritiladigan bitim bo'yicha qo'shimcha taqdim etilgan xizmatlar uchun to'lovlar kiradigan lizingga

³³ Haydarov Sh.U., Ortikov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: Tan olish, baholash va uning hisobi. T.: NORMA, 2006. 93-96 b.

beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan komission haqdan iborat bo'lgan postnumerando to'lovlari;

- pronumerando to'lovlari postnumerando to'lovlariga o'xshash tarkibiy qismlarga ega, lekin har bir davrning boshida kiritiladi;

- kelishuv imzolangan paytda mol-mulkni lizingga oluvchi dastavval lizingga beruvchiga belgilangan miqdorda bo'nak (depozit) taqdim etgan holatlarda, bundan keyin esa, uskuna ishlatilish uchun qabul qilinganligi to'g'risida dalolatnoma imzolangandan keyin, lizing to'lovlarining umumiy summasini (bo'nak chegiriladi) muntazam badallar orqali to'lab borganda kuzatiladi;



6.1-chizma. Lizing to'lovlari turlarining turkumlanishi

– hisob-kitob kelishuvida qandaydir asoslarga ko‘ra qandaydir belgilangan foizga asoslangan aniq bo‘lmagan to‘lovlar. O‘zaro kelishuv bo‘yicha lizingga olingan uskunada ishlab chiqarilgan mahsulot sotuvining hajmi, sotuvdan olingan foydaning summasi yoki lizing shartnomasining amal qilish muddatida o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan boshqa parametrlar asos qilib olinishi mumkin.

Davriylik bo‘yicha to‘lovlar quyidagicha:

– lizing kelishuviga ilova qilingan, kelishuv taraflari tomonidan kelishilgan jadval bo‘yicha to‘lanadigan davriy(har yilgi, har chorakdagi, har oydagi) to‘lovlar;

– agar kelishuvda lizingga beruvchiga bo‘nak to‘lanishi nazarda tutilgan bo‘lsa, bir vaqtda to‘lanishi qo‘llaniladigan to‘lovlar;

– agar lizing kelishuvda bo‘nak to‘lovi nazarda tutilgan taqdirda, u davriy to‘lovlar bilan murakkablashtirilgan holda qo‘llanishini ajratadilar.

Lizingga oluvchining moliyaviy holati va to‘lov qobiliyatini inobatga olib, kelishuvda lizing to‘lovlarining turli usullari belgilanishi mumkin va ularga muvofiq quyidagi to‘lovlarni ajratish mumkin:

– teng ulushlar bilan;

– oshib boradigan miqdorlar bilan. Bu asosan lizingni boshlang‘ich bosqichida foydalanuvchi tomonidan lizing to‘lovini kamroq ulushlar bilan kiritish, keyinchalik esa, uskuna o‘zlashtirilib borishi va unda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sur‘ati o‘sib borishiga qarab ushbu ulushlarni oshirib borish qulayroq hisoblangan barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lmagan lizingga oluvchilar tomonidan qo‘llaniladi;

– kamayib boradigan miqdorlar bilan (tezlashtirilgan to‘lovlar).

Barqaror moliyaviy holatga ega bo‘lgan lizingga oluvchilar tomonidan qo‘llaniladi, bunda foydalanuvchi lizingning boshlanish davrida lizingga beruvchiga o‘z qarzining asosiy qismini kiritishni afzalroq ko‘radi.

Lizing kelishuvi bo'yicha to'lovlar amortizatsiya ajratmalari summasidagi lizing obyektining qiymatidan, majburiy zaxiralar jam'armasini hisobga olgan holda tijorat banklarining foydalanilgan resurslar uchun to'lovdan, shuningdek, bankning boshqa kredit operatsiyalari bo'yicha rentabellilik va daromadlilikning o'rtacha darajasidan kelib chiqib tarkib topadi. Masalan, tabiiy ofatlar, ehtiyotkorsizlik, ishlab chiqargan zavodning aybi bilan mahsulotning nosozligi yoki boshqa sabablarga ko'ra obyektning qisman yoki to'liq buzilishi bilan bog'liq ehtimoliy sug'urtalanadigan holatidan lizing obyektini sug'urtalash lizingga beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar sifatida ko'rinishi mumkin. Odatda, sug'urta badalining yillik miqdori uskuna qiymatining 1-2 %ini tashkil etadi.

Lizing to'lovlarini hisoblashda, shuningdek, lizing operatsiyalarini amalga oshirishda lizingga beruvchiga soliq imtiyozlari taqdim etilishini, ya'ni foyda solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod etilishi, shuningdek, lizing obyekti hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirilayotgan tovarlar yuzasidan bojxona bojlari va soliqlardan qisman ozod qilinishi ham inobatga olinishi lozim.

Foydalanilayotgan uskuna bo'yicha amortizatsiya uskunaning balans qiymatidan, uni xizmat ko'rsatish muddatidan va amortizatsiyaning belgilangan me'yorlaridan kelib chiqib oddiy usul bilan va to'liq qoplash uchun yillik amortizatsiya ajratmalari ikki marotabadan ko'p bo'lmagan miqdorda oshirilgan jadallashtirilgan amortizatsiya usuli bilan hisoblanishi mumkin. Bundan tashqari, kichik korxonalar jadallashtirilgan amortizatsiya usuli bilan bir qatorda, mashina va uskunalarni birinchi yilda ishlatilishi mobaynida ishlash muddati uch yildan ortiq bo'lgan asosiy fondlar dastlabki qiymatining 20 %gacha bo'lgan miqdorini qo'shimcha ravishda amortizatsiya ajratmalari kabi hisobdan chiqarishlari mumkin.

6.2. Lizing to'lovlari tarkibida amortizatsiya ajratmasining ahamiyati

Lizing to'lovining asosiy qismini amortizatsiya ajratmalari tashkil etadi. Amortizatsiya ajratmalari foydalanilayotgan lizing obyektining jismonan va ma'naviy eskirishi natijasida yo'qotilgan qiymatni qoplovchi asosiy manba hisoblanadi. Amaliyotda amortizatsiya ajratmalari summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$AA = \frac{BQ \cdot N}{100} T$$

bu yerda:

BQ – lizing obyektining balans qiymati;

N – amortizatsiya ajratmalari normasi (eskirish koeffitsiyenti);

T – lizing shartnomasi muddati.

Lizing stavkasi lizing beruvchi tomonidan ijaraga olingan mulkdan foydalanganligi uchun to'lanadigan haq bo'lib, u lizing beruvchining daromadi hisoblanadi. Lizing stavkasining mazmuni qarzga olingan mablag'lar (ssudalar) uchun to'lanadigan foizlar bilan bir xildir. Shu sababli uning summasi foydalanilgan kredit uchun foiz hisoblash tartibiga monand ravishda aniqlanadi:

$$KF = \frac{KM \cdot FS}{100}$$

bu yerda:

KM – kredit hajmi;

FS – foiz stavkasi darajasi.

Ma'lumki, lizing beruvchi – lizing kompaniyalari yoki banklar lizing obyektini sotib olish bilan bog'liq marketing, transport va xodimlarga ish haqi to'lash kabi xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu xarajatlar vositachilik xarajatlari bo'lib, u lizing to'lovlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu xarajatlar lizing beruvchiga lizing oluvchi tomonidan to'lanadigan xizmat ko'rsatish mukofoti ham deyiladi. Vositachilik xarajatlarning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$VX = \frac{KM \cdot VS}{100}$$

bu yerda:

KM – kredit hajmi;

VS – vositachilik xarajatlari stavkasi. U umumiy vositachilik xarajatlari summasini to'lov davriga bo'lib topiladi.

Bundan tashqari, lizing beruvchi lizing obyektni saqlash, uni lizing oluvchiga yetkazib berish, o'rnatish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha xodimlarni o'rgatish va turli maslahatlar berish kabi qo'shimcha xarajatlar qiladi. Qo'shimcha xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

$$QX = SX + KX + RX + BX$$

bu yerda:

SX – xizmat safari xarajatlari;

KX – ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha xarajatlar;

R – reklama xarajatlari;

BX – boshqa xarajatlar.

Amortizatsiya lizing obyektining balans qiymati, uning xizmat muddati va amortizatsiya ajratmalari normalariga qarab teng miqdorda hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini tatbiq etishni jadallashtirish uchun moliyaviy shart-sharoitlar yaratish asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismini texnik rivojlantirish va korxonalarning yangilanish sur'atini kuchaytirishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadlarida asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv qismining tezlashtirilgan amortizatsiya usulini tatbiq qilishi mumkin bo'ladi.

Lizing to'loviga kiritilgan amortizatsiya ajratmalarining miqdori (A) quyidagicha aniqlanadi:

$$A = \frac{S \cdot T}{N} * 100 \%$$

bu yerda:

S – lizing obyektining balans qiymati;

T – lizing muddati yoki lizing beruvchiga qaytarib beriladigan lizing obyekti qiymatining summasi;

N – to'la tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari,

$$B = \frac{S}{T} \text{ (avans sharoitida } V = S - \text{avans summasi)}$$

Lizing kompaniyasi tomonidan jalb qilingan mablag'lar bo'yicha to'lov summasi (P_{kr}) quyidagicha hisoblanadi:

$$P_{kr} = \frac{K_r * S_{kr}}{100 \%}$$

bu yerda:

K_r – kredit summasi,

S_{kr} – kreditdan foydalanish stavkasi.

Umumiy hollarda yoki lizing kompaniyasi bilan kredit muassasalari o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasining boshqa shartlari bo'yicha kredit summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_r = \frac{E}{\sum_{n=1}^N (\frac{S_n + S_k}{2})}$$

bu yerda:

S_n – lizing obyektining boshlang'ich davrdagi n – lizing to'lovini to'lash qiymati;

S_k – lizing obyektining oxirgi n – lizing to'lovini to'lash qiymati;
n – lizing to'lovlarining soni.

Lizing kompaniyasining marjasi (M_{kom}), ya'ni lizing shartnomasida ko'zda tutilgan lizing kompaniyasining daromadi miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{kom} = \frac{K_r * S_{kom}}{100\%}$$

bu yerda:

S_{kom} – lizing kompaniyasining stavkasi.

Demak, lizing shartnomasiga muvofiq lizing to'lovlarining umumiy summasi (L_t) quyidagicha hisoblanadi:

$$L_t = A + P_{kr} + P_{kom} + P_u$$

bu yerda:

P_u – lizingga beruvchining qo'shimcha xizmatlari.

Shuningdek, agar lizing to'lovi har yili to'lanayotgan bo'lsa, davriy lizing to'lovi (L_v)ni quyidagicha hisoblaymiz:

$$L_v = \frac{L_t}{T}$$

To'lov har chorakda to'lanayotganda:

$$L_v = \frac{L_t}{T*4}$$

To'lov har oyda to'lanayotganda:

$$L_v = \frac{L_t}{T*12}$$

Bugungi kun amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan, lizing oluvchi lizing to'lovlarini amalga oshirayotganida, uning amortizatsiya ajratmalariga, foizlarga, vositachilik va qo'shimcha to'lovlarga alohida ajratib ko'rsatgan holdagi yoyilmasini ilova qilishi shart. Lizing to'lovlari kelib tushganidan keyin, bank uning yoyilmasiga mos ravishda buxgalterlik o'tkazmalarini amalga oshiradi: amortizatsiya ajratmalari lizing hisobi yuritiladigan ssuda hisobvarag'ining kreditiga o'tkazish orqali kreditni to'lashga yo'naltiriladi, lizing uchun foiz, vositachilik haqi va boshqa to'lovlar bank daromadiga qo'shiladi.

Bu yerda shuni qayd etib o'tish kerakki, lizing to'lovlari lizing shartnomalaridagi kelishuvlarga muvofiq, har bir ayrim holatlar bo'yicha turlicha hisoblanishi mumkin. Masalan, ayrim hollarda lizing oluvchiga imtiyozli davr belgilanishi, ba'zi hollarda lizing to'lovini kechiktirib to'lashga kelishiladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa lizing to'lovlari lizing oluvchi tomonidan tomonlar kelishuviga muvofiq tuzilgan va lizing shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi. Lizing to'lovlarining shakli lizingga olingan uskunada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishidan kelib tushgan pul mablag'laridan amalga oshirilishi va takomillashtirilishi mumkin.

6.3. Lizing to'lovlarini hisoblash usullari

Lizing to'lovlari hajmini hisoblash lizingning turi, to'lov usuli va to'lov shakllari kabi omillarga qarab turli usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Maxsus adabiyotlarda lizing to'lovlarini hisoblashning bir qator usullari taqdim etilgan³⁴. MDH mamlakatlari moliyaviy soha mutaxassislari o'rtasida ma'lum bo'lgan lizing to'lovlarini hisoblashning keng tarqalgan usullari bo'yicha Ye.N. Chekmaryova va L.N. Prilutskiylar takliflari diqqatga sazovordir. Xususan, Sh.U. Xaydarov, X.A. Ortikov va X.A. Tuxsanov hammuallifliklarida chop etilgan "Lizing: tan olish, baholash va uning hisobi" kitobida Ye. Chekmaryova o'zining "Lizing biznesi" nomli asarida sobiq ittifoq tugatilgandan keyingi bozor munosabatlari sharoitida lizing to'lovlarini hisoblash uslubiyatini birinchilardan bo'lib 1993-yilda chop etgan. Ushbu uslubiyat lizing to'lovlarining umumiy summasini hisoblashni amalga oshirish va ular to'lovi jadvalini tuzish uchun mo'ljallangan. Risolada, shuningdek, lizing to'lovlari amortizatsiya ajratmalari, foydalaniladigan zaxiralar uchun to'lov, komission to'lovlar va lizingga beruvchining qo'shimcha xizmatlari uchun to'lovlardan iborat bo'ladi³⁵, deb ta'kidlangan.

Ye. Chekmaryova tomonidan taklif etilgan ushbu uslubiyatni moliyaviy lizing bilan birgalikda tezkor lizing uchun ham qo'llash mumkin, deb hisoblangan. Lizing muddati tugagandan keyin lizing mol-mulki qoldiq qiymati va moliyaviy lizing bitimi muddatdan oldin yopilishini hisoblashning o'ziga xos varianti keltirilgan. Moliyaviy lizing bitimi muddatdan oldin yopilishi summasiga quyidagi 3 ta tarkibiy qism kiritilgan:

1) lizing kelishuvi bo'yicha lizing to'lovlarining barcha to'lanmagan summasi;

³⁴ B.A. Шабашев и др. Лизинг: основы теории и практики: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2007. 191с.; Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». Ростов н/Д.: Феникс, 1999. 320 с.

³⁵ Haydarov Sh.U., Ortikov H.A., Tuxsanov X.A. Lizing: Tan olish, baholash va uning hisobi. T.: NORMA, 2006. 248 b.

2) lizing muddati tugaydigan paytdagi mol-mulkning qoldiq qiymati;

3) lizing kelishuvining amal qilishi tugagan paytdan boshlab to mol-mulk to'liq amortizatsiyalanganigacha qadar davr bo'yicha mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati tarzida hisoblangan neustoykaning foizlarda ifodalangan kredit zaxiralaridan foydalanganligi uchun stavka summasiga va komission haqi stavka summasiga ko'paytirilganligi.

So'ngi yildagi Ye.Chekmaryovaning uslubiyati o'z dolzarbligini birmuncha yo'qotganligining sababi u ijaraga oluvchi va lizing kompaniyasi o'rtasidagi o'zaro bozor munosabatlarini aks ettirmaydi. Boshqacha aytganda, Ye. Chekmaryova uslubiyatida ijaraga oluvchining manfaatlari inobatga olinmaydi. Uslubiyat faqatgina lizingni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha lizing kompaniyasining xarajatlarini jamlash va uning ustama haqi (marja)ni nazarda tutadi.

Lizing to'lovlarini hisoblash bo'yicha L.N. Prilutskiy tomonidan taklif etilgan uslubiyat diqqatga molik. Uning fikricha lizing to'lovlarini hisoblash uslubiyatini soddalashtirish maqsadida lizing mol-mulkini sug'urtalash lizingga oluvchi tomonidan amalga oshiriladi. Natijala lizing to'lovlarini aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$S = A + V + Kr + D$$

Aks holda hisoblashning har bir bosqichida lizing to'lovlari tarkibiga o'sha davrdagi sug'urta badallari miqdori qo'shib borilishi talab etiladi. O'z navbatida A, V, Kr, va D kattaliklari quyidagi keltirilgan uslubiy yondashuvlardan kelib chiqadi.

Lizing mol-mulkining qoplash summasi lizing kelishuvining amal qilish paytidagi amortizatsiya ajratmalari qiymatiga tengdir:

$$A = S_b * N * T$$

Boshqa holda A ko'rsatkichini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$A = A = \sum_{i=1}^N S_b * N / m$$

$$A = \sum_{i=1}^N (A_i)$$

Bu yerda:

S_b – mulkning balans qiymati;

N – mulkni to'liq tiklash uchun ajratilgan amortizatsion ajratmalarning yillik normasi.

T – lizing kelishuvining amal qilish muddati;

i – lizing to'lovlarining tartib raqami ($i=1, N$);

m – 1 yil davomida lizing to'lovlarining soni;

N – lizing to'lovlarining umumiy soni ($N=m*T$);

$A_i - i$ – davrda lizing mulkini qoplash qiymatining kattaligi.

Soddaroq qilib hisoblaganda, A_i ko'rsatkichi i – davrdagi amortizatsiya ajratmasi qiymatiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$A_i = S_b * N / m, (i=1, N);$$

Agarda lizing kelishuvi juft bo'lmagan yil (masalan, 3,5 yil)ga tuzilgan bo'lsa yoki to'lovlar davriy ravishda amalga oshirilmasa (masalan, birinchi, to'rtinchi, yettinchi va o'n ikkinchi oylarda), u holda hisob-kitob uslubiyatida mantiqan hech narsa o'zgarmaydi, faqatgina formulalar kiritilgan yangi qayta hisoblash koeffitsiyentlari evaziga bir oz murakkablashadi.

Lizingga beruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan komission mukofotlar tomonlarning kelishuviga muvofiq quyidagilarga nisbatan foizlarda hisoblanadi:

a) lizing kelishuvining predmeti bo'lgan mol-mulkning balans qiymati;

b) mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;

d) mol-mulkning to'lanmagan qiymati.

Shunga asoslanib, komission mukofotlarning hisobini quyida keltirilgan usullardan biri orqali amalga oshirish mumkin:

a) komission mukofotlar har bir davrda mol-mulkning balans qiymatiga nisbatan foizlarda aniqlansa:

$$B_i = P_B * S_B (i=1, N)$$

$B_i - i$ – davrdagi komission mukofotlar;

P_B – mol-mulkning yillik balans qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblangan komission mukofot stavkasi;

S_B – mol-mulkning balans qiymati.

b) lizing beruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan komission mukofotlar har bir davrda mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga nisbatan foizlarda aniqlansa:

$$B_i = P_o (C_{OH} + C_{OK}) : 2 (i=1, N);$$

bu yerda:

P_o – mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblangan komission mukofot stavkasi,

C_{OH} , C_{OK} – mol-mulkning mos ravishda yil boshi va yil oxiriga hisoblangan qoldiq qiymati;

d) lizingga beruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan komission mukofotlar har bir davrda lizing mol-mulkining to'lanmagan qismiga muvofiq kelishib belgilanadigan foizni e'tiborga olib hisoblansa:

$$B_i = [A - (i-1) A_i] P_H / m \quad (i=1, N);$$

P_H – mol-mulkning to'lanmagan qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblangan komission mukofot stavkasi.

i – davrda lizing mol-mulkini sotib olish uchun kredit zaxiralari bo'yicha lizingga beruvchiga to'lanadigan haq quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$K_{p1} = [K - (i-1) A_i] P_k / m \quad (i=1, N);$$

bu yerda:

$K_{p1} - i$ – davrda kredit zaxiralari to'lanishi lozim bo'lgan haq;

K – lizingga beruvchi tomonidan mol-mulkni sotib olish uchun foydalaniladigan kredit zaxiralarning miqdori;

P_k – jalb qilinayotgan kreditlar bo'yicha yillik foiz stavkasi.

Ushbu formulada kvadrat qavs ichidagi ko'rsatkichlar lizingga beruvchi tomonidan lizing kelishuviga muvofiq lizing mol-mulkini sotib olish uchun olingan kreditning to'lanmagan qiymatini ifodalaydi.

Biz uni K_{oi} orqali ifodalab, alohida formula shaklida yozamiz:

$$K_{oi} = \max\{O, [K - (i-1) \cdot A_i] \cdot P_k / m\} \quad (i=1, N);$$

bu yerda $\max\{O, K\}$ matematik belgi ikkita O va K o'zgaruvchilardan eng kattasi tanlanishini anglatadi.

Ushbu holat kredit to'lovlari bo'yicha salbiy oqibatlarning kelib chiqmasligi uchun maqbul keladi.

Biroq keyinchalik keltirilgan matematik ifodalar ma'lumotni bayon etish va uni o'rganishni murakkablashtirmasligi uchun (10) formulani qo'llaymiz. Bundan esa kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov faqat musbat qiymatlarni qabul qilishini anglash mumkin.

Lizing kelishuviga ko'zda tutilgan lizingga beruvchining qo'shimcha xizmatlari uchun to'lov ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar bo'yicha o'rtacha yillik kattalikni bevosita hisoblash usuli bilan, quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$D_i = \frac{(Y_1 + Y_2 + \dots + Y_n)}{T \cdot m} \quad (i=1, N);$$

bu yerda:

D_i – i-davrda ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov;

$Y_1 + Y_2 + \dots + Y_n$ – lizingga beruvchining lizing kelishuvida ko'zda tutilgan har bir xizmat bo'yicha xarajati.

Bunda i-davrda lizing to'lovining summasi ushbu davrdagi lizing mol-mulkining qoplash summasi, komission mukofot, kredit zaxiralari uchun to'lov va ko'rsatilgan yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$C_i = A_i + B_i + K_{pi} + D_i$$

yoki:

$$C_i = A_i + [A - (i-1) \cdot A_i] \cdot P_n / m + [K - (i-1) \cdot A_i] \cdot P_k / m + B_i$$

bu yerda: C_i – i-davrda lizing to'lovlarining summasi.

Lizing kelishuvining butun amal qilish muddati paytida lizing to'lovining umumiy summasi barcha oraliq lizing to'lovlarining yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$C = \sum_{i=1}^N (Ci)$$

yoki 15-formulani qo'llab:

$$C = \sum_{i=1}^N \{Ai + [A - (i - 1) * Ai] * Pn/m + [K - (i - 1) * Ai] * Pk/m + Bi$$

Lizing to'lovlarining umumiy summasi lizing shartnomasida nafaqat shu shartnomaning asosiy iqtisodiy parametrini ifodalovchi kalit sifatida e'tirof etiladi, balki u lizing loyihasini iqtisodiy asoslashda va tahlil qilishda muhim bo'lib, lizingga beruvchi hamda lizingga oluvchiga o'z faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida lizing loyihasiga haqiqatda qancha xarajat qilinganligini baholashga imkon beradi.

Aniq misollar asosida olib borilgan hisob-kitoblar shundan dalolat beradiki, agarda lizingga oluvchi lizing mol-mulkining, kreditning, kredit bo'yicha foizlar va komission mukofotning kelishilgan qiymatida lizing to'lovlarining umumiy summasini kamaytirishni istasa, lizing mulkining qiymatini tezroq qoplashga harakat qilishi kerak.

Keyingi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan lizing obyektining qoldiq qiymatini aniqlash uchun mulkining balans qiymati bilan mulkning to'langan qiymati o'rtasidagi farqni topish kifoya, ya'ni:

$$C_o = C_B - S = \sum_{i=1}^N (Ai)$$

bu yerda:

$$C_o - \text{mulkning qoldiq qiymati. } \sum_{i=1}^N (Ai)$$

Yuqoridagi usuldan tashqari, adabiyotlarda lizing to'lovi hisoblashning koeffitsiyentlar usulini ham uchratish mumkin. Ushbu usul annuitet usuli yoki moliyaviy rentalar usuli deb ham ataladi.

Koeffitsiyentlar usulining negizida "pulning vaqtinchalik qiymati" va mos ravishda "diskontlash" tushunchalari yotadi. Bu usulni qo'llab lizing to'lovlarini hisoblashda bir qator formulalardan foydalaniladi.

Demak, bir lizing to'lovi (S_n)ning qiymatini hisoblash uchun quyidagi formulani qo'llaymiz:

$$S_n = PS * \frac{I/k}{1 - (\frac{1}{1+k})^{nk}}$$

bu yerda:

S_n – lizing to'lovi;

I – lizing foizining stavkasi;

k – bir yil davomida amalga oshiriladigan to'lovlar soni;

n – yillar soni;

PS – mol-mulkning umumiy qiymati.

Ushbu holatda lizing foizining stavkasi (I) kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov summasi sifatida hisoblanib, uning qiymati lizing mukofoti va ko'rsatilgan qo'shimcha lizing xizmatlar qiymatiga teng bo'ladi:

$$I = (PS + q + q):100$$

Ushbu formulani keltirib chiqarishda biz lizing obyekti to'liq amortizatsiyalanadi, lizing to'lovlari lizing muddatining oxirida hisoblanadi va to'lanadi, deb faraz qilamiz. Buni boshqacha qilib "postnumerando annuiteti", deb ham atasak bo'ladi.

Endi esa lizing to'lovlari lizing davrining boshida to'lanish holatini ko'rib o'tamiz.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan olib qarasak, lizing to'lovlari asosiy qarz oldinroq qaytarilganligi uchun kamayib borishi kerak.

Natijada murakkab bo'lmagan matematik o'zgartirishlarni amalga oshirib lizing to'lovining qiymatini hisoblash uchun quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$S_n = PS * \frac{1}{(\frac{1}{1+I/k})} * \frac{I/k}{1 - (\frac{1}{1+k})^{nk}}$$

6.4. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida lizing to'lovlarini aniqlash usullarining o'ziga xos xususiyatlari

Xalqaro amaliyotda lizing to'lovlarini hisoblashda pul mablag'larining oqimi (PMO) usulidan keng foydalanib kelinadi. Koeffitsiyentlar usuliga muvofiq bo'lish bilan bir qatorda, tarkibiy qismlar (yuqorida keltirilgan dastlabki usul) usuliga muvofiq bo'lgan hamda lizing kompaniyalari o'zlarining xarajatlarini qoplash uchun lizing to'lovlaridan tushgan pul mablag'lari yetarli ekanligini aniqlash uchun albatta qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirishlari lozim. Xalqaro Moliya Korporatsiyasining lizingni rivojlantirish bo'yicha iqtisodchisi Veronika Shtelmax, avvalambor, lizing kompaniyasining pul oqimlariga asoslanishni taklif etadi. Bunda lizing shartnomasining muayyan davrida lizing kompaniyasining xarajatlari va lizing kompaniyasi tomonidan qo'shib beriladigan komission haqi hisobga olinadi, xolos. Lizing kompaniyasining lizingga taalluqli bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlar va xarajatlari hisobga olinmaydi.

Biroq PMO usulining tarkibiy qismlar usulidan farqlari mavjud. Nihoyat kredit bo'yicha foizlar kreditlash davri bo'yicha uning o'rtacha qismi bo'yicha emas, balki ssuda qarzining qoldig'i bo'yicha hisoblanishi lozimligi e'tirof etiladi.

V.Shtelmax lizing to'lovining asosiy tarkibiy qismi deb, bitimni amalga oshirish uchun olingan bank krediti bo'yicha to'lovlarni oladi, moliyalashtirishning kredit summasi lizingga beriladigan mol-mulkning qiymatiga teng degan fikrlarni ilgari surgan. Bu barchamizga ma'lum bo'lgan kreditni qoplash jadvali, ya'ni asosiy qarz qismini qoplaydigan to'lovlar va qoplanmagan qismi bo'yicha foizlardan iborat bo'lgan teng miqdordagi to'lovlardir. Bunday jadvalni hisoblash uchun quyidagi formulani qo'llaymiz:

$$g = [1 - 1 : (1 + r)^n]$$

bu yerda:

g – vaqt davri bo'yicha birlik ulushi ko'rinishidagi kredit stavkasi (vaqtning barcha davrlari uchun bir xil);

n – to'lovlar miqdori.

Lizing amaliyotida yuqorida keltirilgan lizing to'lovlarini hisoblash usullarini o'zaro taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu usullarni o'zaro taqqoslash uchun avvalo, lizing to'lovlarining hajmini davrlar bo'yicha solishtirma holatga keltirish kerak. Lizing to'lovlarining hajmi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ushbu kriteriyning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, korxona tomonidan usullarning noto'g'ri tanlanishi uning to'lovga qobiliyatligining pasayishiga olib keladi.

Bu esa lizing shartnomasining ikkala tomon uchun ham salbiy holatni keltirib chiqaradi. Quyida keltirilgan 6.1-jadvalda oldindan ma'lum bo'lgan bir xil ma'lumotlarga asoslanib turli xil usullar yordamida hisoblangan lizing to'lovlarining miqdori ko'rsatilgan.

6.1-jadval

Turli usullar yordamida hisoblangan lizing to'lovlari miqdorining taqqoslama tahlili, ming so'm

To'lovlar tartib raqami	Lizing to'lovlari hisoblangan usullar		
	tashkil etuvchilar	PMO	koeffitsiyentlar
1	12851,282	38217,84	13187,86
2	12851,282	37822,54	13187,86
3	12851,282	37428,20	13187,86
4	12851,282	37033,12	13187,86
5	12851,282	1237,82	13187,86
6	12851,282	990,02	13187,86

7	12851,282	742,22	13187,86
8	12851,282	495,60	13187,86
9	12851,282	247,80	13187,86
10	12851,282	-	13187,86
11	12851,282	-	13187,86
12	12851,282	-	13187,86
Jami	154215,38	154215,38	154245,32

PMO va tashkil etuvchilar usuli to'lovni amalga oshirish vaqtiga qaramasdan o'z mohiyatini o'zgartirmaydi. Bulardan farqli ravishda koeffitsiyentlar usuli agarda to'lov lizing muddatining oxirida emas, aksincha boshida (prenumerando annuiteti) amalga oshirilsa, formulaga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritilishi talab etiladi.

Tashkil etuvchilar va koeffitsiyentlar usuli lizingga oluvchining zimmasiga bo'lgan to'lov og'irligini lizing shartnomasining butun muddati davomida teng taqsimlanishini ko'rsatib berdi. PMO usulida esa asosiy og'irlik lizing muddatining dastlabki oylariga to'g'ri keladi.

Lizing to'lovlarini hisoblashning ushbu sxemasi ko'p yillik ish faoliyatiga ega bo'lgan, barqaror korxonalar tomonidan qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday korxonalarning pul mablag'lari oqimi asosan boshqa manbalardan akkumulyatsiyalanadi (jamlanadi) hamda ushbu oqimning asosiy bo'lmagan qismini tashkil etadi. Ushbu usulni teskari holatda, ya'ni pul mablag'lari oqimi to'liq shakllantirilmagan yoki lizing obyekti pul mablag'lari oqimining katta qismini ta'minlagan korxonalarda qo'llanilsa mijozning to'lovga qobiliyatsizligi xavfi paydo bo'ladi.

Quyidagi keltirilgan 6.2-jadvalda har bir metodning afzalliklari va kamchiliklari hamda dastlabki belgilari ifodalangan bo'lib, ular orqali lizingga oluvchilar o'z faoliyatlarida to'lovlarni qaysi usullar yordamida hisoblashlarini aniqlab olishlari mumkin.

Lizing to'lovlarini hisoblash usullarining qiyosiy tavsifnomasi

Tav sif noma	Usullar		
	tashkil etuvchilar	PMO	koeffitsiyentlar
Afzal liklar	1. Yuqori darajadagi aniqlik 2. Buxgalteriya hisobini yuritishning soddaligi 3. Tarkibiy elementlarni hisoblashning turli usullarini birlashtirish imkoniyatining mavjudligi 4. To'lovlarni davrlar bo'yicha ko'chirib o'tkazish usulining soddaligi	1. Yetarli darajadagi aniqlik 2. Xarajatlarning paydo bo'lishi va ularni to'lash vaqtlari o'rtasida uzilishlar mavjud emas 3. Tarkibiy elementlarni hisoblashning turli usullarini birlashtirish imkoniyatining mavjudligi	1. Pulning vaqtinchalik qiymati e'tiborga olinadi 2. Mehnat sig'imi darajasining pastligi
Kam chi liklar	1. Mehnat sig'imi darajasining yuqoriligi	1. Qo'shimcha soliq og'irligining yuzaga kelishi 2. Asosiy to'lovlar lizing muddatining boshlariga to'g'ri keladi	1. Buxgalteriya hisobini yuritishning murakkabligi 2. Tashkil etuvchilar usuli bilan qayta hisoblash ishlarining amalga oshirilishi past darajadagi aniqlik

Qo'lla niladi- gan asosiy holat- lar	1. Lizingga oluvchi lizing operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha tajribaga ega emas 2. Lizingga oluvchi yangi tashkil etilgan korxona 3. Lizing obyekti pul mablag'lari oqimlarini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi 4. Lizingga oluvchida soliqlarni rejalashtirishning boshqa yo'llari mavjud bo'lmaydi	1. Lizingga oluvchi lizing operatsiyalarini olib borish tajribasiga ega emas yoki tajribasi juda kam 2. Lizingga oluvchi barqaror moliyaviy holatga ega 3. Lizing obyekti o'rnatish va ishga tushirish lizingga oluvchining ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmaydi 4. Lizing kompaniyasi parallel ravishda bir qancha lizing shartnomasini amalga oshira oladi 5. Lizing shartnomasining muddati bank tomonidan lizingga beruvchini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit muddatiga mos keladi	1. Lizingga oluvchi lizing operatsiyalarini olib borishda yuqori tajribaga ega 2. To'lovlar lizing sxemasini amalda qo'llash samaradorligining dastlabki baholanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi 3. Lizing obyekti pul mablag'lari oqimlarini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi 4. Lizingga oluvchi kuchli buxgalteriya hisobiga va soliqlarni rejalashtirishning rivojlangan tizimiga ega bo'ladi
--	---	---	---

6.5. Milliy lizing bozorida lizing to'lovlarini hisoblash amaliyoti

Respublikamizda lizing to'lovlarini hisoblaganda bir qator o'ziga xos xususiyatlar e'tiborga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Lizing to'g'risida"gi qonunida lizing to'lovlarining umumiy yig'indisi lizing shartnomasida aks ettirilishi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Shartnomada lizing to'lovlari summasi, shuningdek, ularni to'lash muddatlari aks ettiriladi. Odatda lizing to'lovlari bo'yicha hisob-kitob qilishda umumiy to'lov summasi oldindan belgilangan to'lanmalardan foydalaniladi. Bu hol lizing to'lovi amortizatsiya ajratmalari, olingan qarz mablag'lari uchun to'lanadigan foiz hamda lizing kelishuvi jarayonida ko'rsatiladigan xizmat haqini o'z ichiga oladi.

Ushbu holatlar, shuningdek, lizingga oluvchining loyiha bo'yicha sarflangan xarajatlarini hisob-kitob qilish orqali olib boriladigan lizing kompaniyasi marjasini aniqlash chog'ida ham e'tiborga olinadi.

Agar lizing shartnomasida lizing obyektini sotib olish holati ko'zda tutilgan bo'lsa, unda o'zaro tomonlar kelishuvi asosida mulkning qoldiq qiymatiga teng yoki teng bo'lmagan ulushlarda lizing to'lovlariga kiritilishi ham mumkin. Shu tariqa lizingga oluvchi subyekti lizing obyektini sotib olishni hisobga olgan holda, lizing to'lovlarining umumiy summasini kamaytirishi mumkin.

Lizing to'lovi lizing operatsiyasining belgilangan hamma muddatida barcha lizing to'lovlarining summasini, shuningdek, agar lizingga oluvchi ijara asosida berilayotgan mulkni xarid qilmoqchi bo'lsa, lizing oluvchi to'lashi kerak bo'lgan summani o'z ichiga oladi. Qoida bo'yicha moliyaviy, qaytariluvchi va alohida lizingda lizing obyektining qiymati ham umumiy lizing to'lovlari summasiga kiritilgan bo'ladi. O'zgaruvchan lizing to'lovlari bo'yicha ustama haq to'lash usuli lizing shartnomasida belgilangan maxsus jadvalga binoan davriy lizing to'lovlari ko'proq uchraydi.

Lizing to'lovlarini qay tariqa amalga oshirish usulini tanlashda lizingga oluvchining moliyaviy imkoniyati, loyihaning iqtisodik samaradorligi, shuningdek, lizingga oluvchi faoliyat yuritayotgan tarmoqdagi va moliya bozoridagi holat e'tiborga olinishi lozim.

Ushbu holatlar, shuningdek, lizingga oluvchining loyiha bo'yicha sarflangan xarajatlarini hisob-kitob qilish orqali olib boriladigan lizing kompaniyasi marjasini aniqlash chog'ida ham e'tiborga olinadi.

Lizingga oluvchi tomonidan lizingga biror mulk o'zlashtirilayotganda, shuningdek, uning tasarrufida yetarlicha miqdorda pul mablag'lari yetishmayotganda bir xil miqdordagi to'lovlar bilan bir qatorda, badal miqdorlari oshib boruvchi to'lovlarni ham tatbiq etish mumkin. Lizingga oluvchining moliyaviy ahvoli barqaror bo'lib, lizingning boshlang'ich davrida o'z qarzining katta qismini birdaniga to'lash istagini bildirgan hollarda tezlashtirilgan to'lov turlaridan foydalanish mumkin.

Lizing to'lovlarini belgilashning asosini to'lovning davriyligi va lizing beruvchiga pul mablag'larini qaytarish summasi bilan bog'liq bo'lgan lizing to'lovlarining umumiy summasi yoki amortizatsiya ajratmalarga qo'shib hisoblanadigan summa tashkil etadi.

Lizing to'lovlarining umumiy summasi doimiy miqdor bo'lmay, balki unga lizing obyekti qiymatining o'rnini to'ldirish tezligiga bog'liq miqdor sifatida qaraladi. Lizing mulkining qiymati qanchalik tez to'lansa mulkning qoldiq qiymati bo'yicha to'lanayotgan foiz summasi shunchalik kam bo'ladi. Mabodo lizingga oluvchi subyekt lizing to'lovlarini to'lashni ancha kech muddatga qoldiradigan bo'lsa, unda mulkning dastlabki qiymati lizing mulki qiymatiga va lizingga beruvchi tomonidan foydalanilayotgan kredit resurslariga qo'shib hisoblangan foiz stavkalari hisobiga ortishi mumkin.

Agar lizing shartnomasida lizing obyektni sotib olish holati ko'zda tutilgan bo'lsa, unda o'zaro tomonlar kelishuvi asosida mulkning qoldiq qiymati teng yoki teng bo'lmagan ulushlarda lizing to'lovlariga

kiritilishi ham mumkin. Shu tariqa lizingga oluvchi subyektlar lizing obyektlarini sotib olishni hisobga olgan holda, lizing to'lovlarining umumiy summasini kamaytirishi mumkin.

Mamlakatimiz lizing bozorida lizing to'lovlarini hisoblash va to'lashda bir nechta lizing to'lovlari jadvallaridan foydalanishadi. Quyida biz ana shu jadvallarni aniq misollar orqali ifodalab, ularning lizingga oluvchilar uchun o'ziga xos xususiyatlarini ham keltirdik.

Lizing to'lovlarining shakli lizingga olingan uskunada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishidan kelib tushgan pul mablag'laridan amalga oshirilishi va takomillashtirilishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda lizing to'lovlari jadvallarining turli xillarini ko'rib chiqamiz:

- lizing obyekti qiymatini bir tekis to'lash jadvali;
- lizing to'lovlarini o'sib borish tartibida to'lash jadvali;
- annuitet hisobi uslubiga asoslangan to'lov jadvali;
- to'lovlarning kamayishi uslubidagi to'lov jadvali;
- teng bo'lmagan qismlar bilan to'lash jadvali (o'sish yoki kamayib borish).

Ushbu jadvallarning mohiyatini yaqqolroq tushunib yetish, ular o'rtasidagi farqni anglab olishlari va lizing loyihalari uchun eng optimal uslubni tanlab olishlari uchun aniq misol keltiramiz.

Tadbirkor lizingga qiymati 10 mln. so'm. bo'lgan uskuna sotib oldi. Shartnomaning amal qilish muddati 2 yilni tashkil etadi va to'lovlar qulaylik uchun har chorakda amalga oshiriladi (har oyda ham to'lash mumkin, mos ravishda hisob-kitoblar har oyda amalga oshiriladi).

Quyida keltirilgan lizing to'lovi hisob-kitobi bo'yicha (6.3-jadval) marja hajmi yillik 12 % qilib o'rnatilgan. Keyingi hisob-kitoblarda esa marja qiymati yillik 20 %ga teng. Ushbu jadvallardan ko'rinib turibdiki, marja qiymatining qanchaligidan qat'iy nazar, lizing to'lovining yillik summasi barcha to'lov jadvallarida deyarli bir xildir.

Buning sababi hisob-kitoblarda farq mavjudligidadir. Xususan, lizing obyektini narxini bir tekis ravishda to'lash jadvalida (6.3-jadval) marja kattaligi shartnoma amal qilish muddati ichida lizing obyektining birlamchi qiymatiga tenglashtiriladi, keyingi jadvallarda esa marja kattaligi lizing obyektining qoldiq qiymatiga tenglashtiriladi.

Lizing obyektini qiymatini bir tekis to'lov jadvali asosiy qarzni (10 mln. so'm) lizing shartnomasi amal qilish muddatiga taqsimlash yo'li bilan hisoblab chiqariladi (bizning misolda shartnoma muddati 2 yil yoki 8 chorak hisoblanadi). Bu holda har bir chorakdagi qaytarish summasi 1 250 000 so'mni tashkil etadi ($10\,000\,000 : 8 = 1\,250\,000$). Marja kattaligi 2 yil uchun har chorakda 300 000 so'mni tashkil etadi. (Uskunaning narxi $10\,000\,000 \cdot 12\% : 4 \text{ chorak} = 300\,000$). Har chorakda lizing oluvchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan umumiy lizing to'lovi 1550000 so'mni tashkil etadi (6.3-jadvalga qarang).

Lizing to'lovining ushbu turi barqaror aylanma mablag'lariga ega bo'lgan korxonalar uchun qo'llaniladi.

Mazkur lizing to'lovi tizimining afzalligi shundaki, korxona bir tekis lizing to'lovlari bilan o'z moliyaviy faoliyatini rejalashtirayotganda shaxsiy pul mablag'larini ham rejalashtirib olishi mumkin.

6.3-jadval

Lizing obyektini qiymatini bir tekis to'lash

№	To'lovlarni amalga oshirish sanalari	Obyektning qoldiq qiymati	Marja (yillik 12%)	Lizing obyektini narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1	1 chorak	10000000	300000	1250000	1550000
2	2 chorak	8750000	300000	1250000	1550000
3	3 chorak	7500000	300000	1250000	1550000
4	4 chorak	6250000	300000	1250000	1550000
5	5 chorak	5000000	300000	1250000	1550000
6	6 chorak	3750000	300000	1250000	1550000
7	7 chorak	2500000	300000	1250000	1550000
8	8 chorak	1250000	300000	1250000	1550000
	Jami		2400000	10000000	12400000

Boshlovchi tadbirkor yoki yangi tashkil qilingan korxonaning biznesi uchun o'sib boruvchi lizing to'lovlari jadvali tavsiya qilinadi. Bu uslubda, korxona ishlab chiqarishni to'liq quvvat bilan ishga tushirish yo'lida katta moliyaviy xarajatlar qilayotganligi e'tiborga olinadi. Shuning uchun uskunani qaytarish narxi lizing oluvchi uchun qulay bo'lishi e'tiborga olingan holda hisoblab chiqariladi. 6.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich to'lov minimal darajada. Keyingi lizing to'lovlari esa oshib boradi, bunda korxona o'z mahsulotlarini sotishni boshlashi va daromad olishi ko'zda tutilgan.

6.4-jadval

Lizing to'lovlarini o'sib borish tartibida to'lash

No	To'lovlarni amalga oshirish sanalari	Obyektning qoldiq qiymati	Marja (yillik 12%)	Lizing obyekt narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1	1 chorak	10000000	500000	550000	1050000
2	2 chorak	9450000	472000	750000	1222500
3	3 chorak	8700000	435000	950000	1385000
4	4 chorak	7750000	387000	1150000	1537500
5	5 chorak	6600000	330000	1350000	1680000
6	6 chorak	5250000	262000	1550000	1812500
7	7 chorak	3700000	185000	1750000	1935000
8	8 chorak	1950000	97500	1950000	2047500
	Jami		2670000	10000000	12670000

Jahon amaliyotida ko'pincha annuitet hisob uslubiga asoslangan lizing to'lovlari jadvali (6.5-jadval) ko'proq qo'llanilmoqda. Ushbu jadval lizingga oluvchi uchun ham, lizing beruvchi uchun ham samaralidir. Jadvalda lizing to'lovi kattaligi o'zgarmas bo'lib, maxsus formula yordamida hisoblanadigan annuitet koeffitsiyenti orqali belgilanadi:

$$KA = \frac{1 - \left(\frac{1}{(1+P/4)^T} \right)}{P/4}$$

bu yerda:

KA – annuitet koeffitsiyenti;

P – marja stavkasi, foizlarda olingan;

T – lizing shartnomasi muhlatining lizing to'lovlar davriyligiga ko'paytirilgan darajasi (bizning misolda, $T = 8$, ya'ni 2 yil *4 chorak).

Bu holda lizing to'lovi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{Lizing to'lovi} = \frac{\text{Lizing obyektining narxi}}{KA}$$

Bizning misolda lizing to'lovi qiymatini hisoblab chiqaramiz. Bunda, P uchun 20 %ni kiritamiz, T uchun 8 ni. Natijada annuitet koeffitsiyenti:

$$KA = \frac{1 - \left(\frac{1}{(1 + 20\%/4)^8} \right)}{20\%/4}$$

Formulaga ko'ra, lizing to'lovi kattaligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\text{Lizing to'lovi} = 10000000 / 6,463 = 1\,547\,218 \text{ so'm.}$$

Shunday qilib, 6.5-jadvalda annuitet uslubidagi hisobga asoslangan to'lov jadvali keltirilgan bo'lib, 2 yil mobaynidagi har bir lizing to'lovi 1547218 so'mga teng bo'lib, o'zgarmas bo'ladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, lizing obyektining qaytarilish qiymati va marjaning kattaligi ahamiyatga ega emas.

Biroq, potensial lizing oluvchi lizing to'lovi jadvalida marja kattaligi va asosiy qarz qiymatining har chorakda o'zgarishini kuzatib borishni xohlaydi. Shuning uchun, lizing kompaniyalarining mutaxassislari tomonidan lizing to'lovlarining to'liq jadvali tuzib chiqilishi mumkin, bunda marja kattaligi va lizing obyektining qaytarilish narxi kattaliklari aks ettirilgan bo'ladi.

6.5-jadval

Annuitet hisobi uslubiga asoslangan to'lov

№	To'lovlarni amalga oshirish sanalari	Obyektning qoldiq qiymati	Marja (yillik 12%)	Lizing obykti narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1	1 chorak	10000000			1547218
2	2 chorak	8952782			1547218
3	3 chorak	7853203			1547218
4	4 chorak	6698645			1547218
5	5 chorak	5486359			1547218
6	6 chorak	4213459			1547218
7	7 chorak	2876914			1547218
8	8 chorak	1473541			1547218
	Jami				12377744

6.6-jadval

Annuitet hisobi uslubiga asoslangan to'lov

№	To'lovlarni amalga oshirish sanalari	Obyektning qoldiq qiymati	Marja (yillik 12%)	Lizing obykti narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1	1 chorak	10000000	500000	1047218	1547218
2	2 chorak	8952782	447639	1099579	1547218
3	3 chorak	7853203	392660	1154558	1547218
4	4 chorak	6698645	334932	1212286	1547218
5	5 chorak	5486359	274318	1272900	1547218
6	6 chorak	4213459	210673	1336545	1547218
7	7 chorak	2876914	143846	1403372	1547218
8	8 chorak	1473541	73677	1473541	1547218
	Jami		2377745	10000000	12377744

6.6-jadvalda annuitet hisob uslubiga asoslangan to'lov jadvali aks ettirilgan bo'lib, potensial lizing oluvchining iltimosiga binoan, unda har chorakdagi marja qiymati va lizing obykti qiymatining qaytarilish summasi aks ettirilgan bo'lishi mumkin. Bunda marja uskunaning qoldiq

qiymatidan hisoblanadi, lizing obyektini qiymatining qaytarilishi qiymati esa tegishli davr uchun lizing to'lovi va marja kattaligi o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi (bu holda 1547218 so'm). To'lovlarning kamayishi uslubiga asoslangan jadval uskuna tez amortizatsiya bo'ladigan holda qo'llaniladi. Lizing to'lovlaridagi mazkur uslubning qulayligi shundaki, nisbatan qisqa davr ichida lizing obyektini qiymatining katta qismi to'lab bo'linadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, marja va umumiy lizing to'lovi kamayib boradi, "Lizing obyektini qiymatining qaytarilishi" to'lovi esa butun lizing shartnomasi amal qilish davrida o'zgarmas kattalik bo'lib qoladi.

6.7-jadval

Lizing obyektini qiymatining qaytarilishi

№	To'lovlarni amalga oshirish sanalari	Obyektning qoldiq qiymati	Marja (yillik 12%)	Lizing obyektini narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1	1 chorak	10000000	500000	1250000	1750000
2	2 chorak	8750000	437500	1250000	1687500
3	3 chorak	7500000	375000	1250000	1625000
4	4 chorak	6250000	312500	1250000	1562500
5	5 chorak	5000000	250000	1250000	1500000
6	6 chorak	3750000	187500	1250000	1437500
7	7 chorak	2500000	125000	1250000	1375000
8	8 chorak	1250000	62500	1250000	1312500
	Jami		2250000	10000000	12250000

Agar ishlab chiqariladigan mahsulot mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, quyida bayon etilgan lizing to'lovlarining teng bo'lmagan qismlar bilan to'lash jadvali (o'sish yoki kamayib borish) qo'llanilishi mumkin. Ushbu tizimning lizing oluvchi uchun afzalligi shundaki, to'lovlarning asosiy qismi korxonaning mavsumiy faoliyatidan kelib tushuvchi moliyaviy mablag'lar asosiga rejalashtiriladi. 20 %lik marja lizing obyektining qoldiq qiymatiga o'rnatiladi. 6.8-jadvaldan ko'rinib

turibdiki, marja qiymati lizing oluvchi tomonidan eng daromadli deb belgilangan choraklarda kichikroq o'rnatilgan.

6.8-jadval

To'lovlarning kamayishi uslubidagi to'lov teng bo'lmagan qismlar bilan to'lash (o'sish yoki kamayib borish)

№	To'lovlarni amalga oshirish sanalari	Obyektning qoldiq qiymati	Marja (yillik 12%)	Lizing obyekti narxining qaytarilishi	Lizing to'lovi
1	1 chorak	10000000	500000	500000	1000000
2	2 chorak	9500000	475000	1700000	2175000
3	3 chorak	7800000	390000	2000000	2390000
4	4 chorak	5800000	290000	500000	790000
5	5 chorak	5300000	265000	500000	765000
6	6 chorak	4800000	240000	1900000	2140000
7	7 chorak	2900000	145000	2300000	2445000
8	8 chorak	600000	30000	600000	630000
	Jami		2335000	10000000	12335000

Yuqorida keltirilgan jadvallardan ko'rinib turibdiki, marja kattaligidagi farq mavjudligiga qaramay, lizing to'lovlarining umumiy qiymati deyarli bir xil. Annuitet to'lovlarning kamayib borishi hamda teng bo'lmagan qismlar bilan to'lash uslublariga asoslangan jadvallarda lizing to'lovlari (6.3-jadvalda marja 12 %ga teng bo'lgan) hattoki kamroq hamdir.

Tayanch so'z va iboralar *Lizing to'lovi, lizing mulki amortizatsiyasi, komission mukofot, risk mukofoti, marja, obyektning qoldiq qiymati, annuitet.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Lizing to'lovi nima?
2. Lizing to'lovlarining tarkibi qanday elementlardan iborat?
3. Hisoblash usuli bo'yicha lizing to'lovlarining qanday turlari bor?

4. Kelishuvda lizing to'lovlarining usullari bo'yicha lizing to'lovlarining qanday turlari bor?
5. Kiritilishining davriyligi bo'yicha lizing to'lovlarining qanday turlari bor?
6. Lizing to'lovlarini aniqlashning qanday usullari mavjud?

VII BOB. XALQARO LIZING RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR

7.1. Xalqaro lizing operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining real sektorida sifatli ishlab chiqarish aktivlariga ehtiyoj sezilsa, davlat ishlab chiqarish sektorini rivojlantirishdan manfaatdor bo'ladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida xorijiy kapitalning shakllanishini ta'minlaydigan mexanizmlardan biri xalqaro lizing bo'lib hisoblanadi. Ilk marta xalqaro lizing shartnomalari o'tgan asrning 50-yillarida Amerika lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan. AQShda ishlab chiqarilgan turli xil uskunalar xalqaro lizing shartnomasi asosida xorijiy mamlakatlarga yetkazib berilgan. Bunda AQSh rezidenti – lizingga beruvchi lizing obyekti bo'yicha tezashtirilgan amortizatsiyani qo'llash, shuningdek, investitsion soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Buning natijasida esa norezident – lizingga oluvchi uchun xalqaro lizing shartnomasi qiymatini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan. Vaqt o'tib, Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham bunday tajribadan foydalanilgan.

Xalqaro moliya tizimida har bir davlat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida xalqaro lizingning taraqqiyotini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq xalqaro bozorda raqobatning kuchayishi, milliy qonunchilik hamda soliqqa tortish metodikasidagi tafovutlar xalqaro lizingning rivojlanishi uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.


Xalqaro lizing deganda lizingga beruvchi (lizing kompaniyasi) tomonidan moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga xorijiy lizingga oluvchilarga ijaraga berilishi tushuniladi. Lizingning ushbu turi tovarlar import-eksportini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Xalqaro lizingning obyekti bo'lib lizingga oluvchi mamlakatiga eksport

qilinadigan uskunalar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, xalqaro lizing uch yoʻnalishda amalga oshiriladi:

- Eksport lizingi. Bunda lizingga oluvchi tomon xorijiy ishtirokchi boʻladi va lizing obykti eksport shartnomasi asosida mamlakatdan olib chiqiladi;

- Import lizingi. Bunda lizingga beruvchi tomon xorijiy ishtirokchi boʻladi va lizing obykti lizingga oluvchi mamlakatiga import shartnomasi asosida yetkazib beriladi;

- Tranzit lizing. Xalqaro lizingning ushbu turida shartnoma ishtirokchilari turli mamlakatlarda joylashgan boʻladi.



7.1-chizma. Xalqaro lizing operatsiyalari sxemasi³⁶

Xalqaro lizing shartnomalari lizingga beruvchi mamlakatida ishlab chiqariladigan uskunalarini sotishning keng tarqalgan mexanizmlaridan hisoblanadi. Sababi uskunani sotishning ushbu mexanizmi amaliy jihatdan 7.1-chizmada aks ettirilgan lizing sxemasi orqali moliyalashtirilib, ishlab chiqaruvchilar uchun ancha taʼsirchan

³⁶ Лещенко М.И. Основа лизинга: Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2004.

hisoblanadi. Lizingga oluvchilar lizingga beruvchi mamlakatida moliyalashtirish manbalarini o'zining mamlakatiga nisbatan kichik foizlar asosida jalb qilishi butun shartnoma qiymatiga ta'sir etadi va aynan shu sababli lizingga oluvchi uchun afzal bo'lib hisoblanadi.

Ushbu chizmada:

- 1-potensial lizingga oluvchi tomonidan ariza berilishi;
- 2-lizingga oluvchining to'lovga layoqatliligi haqida xulosa;
- 3-bank kreditini olish;
- 4-lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasini tuzish;
- 5-lizing shartnomasini yetkazib berish;
- 6-yetkazib berish xizmati uchun to'lov;
- 7-uskunani foydalanishga qabul qilish-topshirish dalolatnomasini tuzish;
- 8-lizing shartnomasini imzolash;
- 9, 9a-lizing obyektini sug'urtalash bo'yicha shartnoma tuzish;
- 10-lizing to'lovlarini amalga oshirish;
- 11-lizing obyektini qaytarish;
- 12-kredit va u bo'yicha to'lovlarni qaytarish

Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan uskunalarni lizingga berish xorijiy moliya institutlaridan hamda xorijiy mamlakatga o'zining sanoat mahsulotlarini eksport qilishdan manfaatdor bo'lgan davlatlardan pul fondlarini nisbatan arzon jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Lizingga oluvchi mamlakat uchun xalqaro lizingning afzalligi lizing shartnomasi miqdorining milliy qarzdorlikni aniqlashda hisobga olinmasligida namoyon bo'ladi, ya'ni Xalqaro valyuta fondi tomonidan alohida mamlakatlarga belgilanadigan kreditorlik qarzdorligi bo'yicha me'yordan oshirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, lizing moliyalashtirish manbalari va kapital qo'yish darajasi o'rtasidagi raqobatning umumiy oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro lizing bozori turli shakllarda amalga oshirilishi bilan farqlanadi. Uning quyidagi shakllari mavjud: an'anaviy, qaytariladigan

(uskunaning sotuvchisi lizingga oluvchiga aylanadi), “ho‘l” (qo‘shimcha xizmatlar bilan), “sof” (lizingga oluvchi uskunadan foydalanish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni qoplaydi) va “yangilanadigan” (lizing obyektining davriy ravishda takomillashtirilgan uskuna bilan almashtirilib borilishi) lizing.

Xalqaro lizingni qo‘llashning samaradorligi u yoki bu mamlakatda qulay soliq rejimini qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Buni soliq imtiyozlarini lizingga beruvchi mamlakatidan lizingga oluvchi mamlakatiga eksport qilish sifatida tasavvur qilish mumkin.

Xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshlagan. Xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir etgan: ko‘pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og‘irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarining oshirilishi, moliyaviy inqirozlar, ba’zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar.

Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, ular hamkor mamlakat hukumatining valyuta, bojxona va boshqa tartibga solish qoidalari ta’siri ostida bo‘ladi. Xalqaro lizing taraqqiyoti oldidagi to‘siqlarni yo‘q qilish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida turli mamlakat va xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro moliyaviy lizing bo‘yicha Ottava Konvensiyasi 1988-yilning may oyida qabul qilingan. Jahon amaliyotida lizingning taraqqiyoti ko‘p jihatdan davlatlarning qonunchiligida mavjud to‘siqlar va shart-sharoitlar asosida shakllanib kelmoqda. Bugungi kunda yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan “Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi” va milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa federatsiyasi (Leaseurope)ni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishda shartnoma ishtirokchilari to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan risk turlarini ham e’tiborga olish lozim. Bunday risk turlariga quyidagilar kiradi:

1) Qo'shimcha soliq to'lovlari, ya'ni to'lovchi (lizingga oluvchi) tomonidan ushlab qolinadigan xorijiy yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'ining yuzaga kelishi bilan bog'liq risklar.

2) Kredit bo'yicha asosiy qarz summasi va foizlarning qaytarilmaslik ehtimoli bilan bog'liq kredit risklari;

3) Siyosiy beqarorlik, davlatning lizing operatsiyalariga aralashuvi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy risklar;

4) Xomashyo va materiallarni yetkazib berish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq risklar;

5) Doimiy xaridorlarni yo'qotish ehtimolining yuzaga kelishi, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq risklar;

6) Lizing shartnomasini amalga oshirish davomida valyuta kurslaridagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan valyuta risklari.


7.2. Xalqaro lizing institutlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Xalqaro lizing bozorida lizing kompaniyalari shartnoma asosida obyektni samarali foydalanish muddatiga teng yoki undan kam bo'lgan muddat (ya'ni amortizatsiya ajratmalarini aniqlashda hisobga olingan muddat)ga foydalanishga beradigan servis va moliyaviy lizing kompaniyalariga ajratiladi. Ular o'rtasidagi farq shundan iboratki, servis kompaniyalari lizing obyektni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Moliyaviy lizing kompaniyalari esa qo'shimcha ravishda sug'urtalash, soliqlarni to'lash va qisman risklarni boshqarish bilan ham shug'ullanishadi.

Chizmada aks ettirilganidek, xalqaro lizing bozori tarkibiga o'zida professional lizingga beruvchilarni, moliyaviy kompaniyalar uyushmalarini hamda banklarni birlashtirgan lizing uyushmalari kiradi. Uyushmalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Uyushma a'zolarining manfaatlarini ham mamlakat ichkarisida, ham mamlakatdan tashqarida himoya qilish;

– Uyushma a’zolarining lizing masalalari bo’yicha umumiy qarashlari va turli davlat organlarida ularning manfaatlarini himoya qilish bo’yicha faoliyatlarini shakllantirish;



7.2-chizma. Xalqaro lizing bozori tarkibi

– Mamlakatda lizing qonunchiligi, hisob va tartibga solish jarayonini tartiblashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish;

– Lizing bo’yicha ma’lumotlarni yig’ish va qayta ishlash;

– Lizing masalalari bo’yicha forum tashkil etish;

– Lizing biznesida standartlarning amalga oshirilishi.

Lizing uyushmalari xalqaro lizing bozorining taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Uyushma, qoida bo’yicha, ixtiyoriylik tamoyili asosida a’zo bo’lgan mustaqil birlashmalarni tashkil etishadi.

Milliy uyushmalar tarmoq bo’yicha lizingga beruvchilarni birlashtiradi. Bunday uyushmalar tarkibiga avtotransport vositalari bilan bog’liq operatsiyalar ulushi yuqori bo’lgan mamlakatlarda bu obyektlarning lizingga beruvchilarini o’z ichiga oladi. Shunday uyushmalar borki, ularning tarkibiga kompyuter texnikasini lizingga beruvchilar (AQShda), davlat tashkilotlari uchun mulkni lizingga beruvchilar (AQSh) va lizing brokerlari (AQSh, Buyuk Britaniya) kiradi.

Xalqaro lizing uyushmalari milliy lizing uyushmalarini o’zida birlashtiradi. Jumladan, milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa federatsiyasi (shtab-kvartirasi Bryusselda, 1972-yilda tashkil topgan),

Mexikodagi Latin Amerikasi lizing federatsiyasi (1983-yil tashkil topgan.), Osiyo lizing uyushmasi (Singapur, 1982-yilda tashkil topgan), Afrika lizing uyushmasi (Nigeriya, 1993-yilda tashkil topgan).

Xalqaro lizing bozori tarkibida maslahat va brokerlik kompaniyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kompaniyalar tarkibiga kiradigan kompaniyalar investitsiyalash jarayonida ham, lizing shartnomasini ijro etishda ham bevosita ishtirok etishmaydi. Shunga qaramay, lizing kelishuvini tashkil etish va chizmaiyashtirishda ularning o'zni juda yuqori. Huquqiy maslahatchilar sifatida jahonning yirik huquqiy firmalari ishtirok etishadi. Ular shartnoma hujjatlarini tayyorlash va huquqiy jihatdan ijro etilishiga mas'ul bo'lishadi. Bundan tashqari, mahalliy lizing bozorlari haqida ma'lumot yig'ib, ularni tahlil qilish bilan ham shug'ullanishadi. Lizing bo'yicha brokerlik kompaniyalarining asosiy funksiyasi potensial foydalanuvchi bilan bank o'rtasida vositachilik faoliyatini olib borishdan iborat. Lizing brokeri garchi lizing munosabatlarining bevosita ishtirokchisi hisoblanmasada, uskunaning ishlab chiqaruvchisi nomidan ma'lum bir komission mukofot evaziga faoliyat olib boruvchi savdo agenti sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, ko'pgina holatlarda brokerga mukofot lizingga oluvchi tomonidan lizing shartnomasi tashkil etilgandan so'ng yoki har bir lizing to'lovi bilan bir paytda to'lanadi. Shu bilan bir qatorda, broker bilan risklarni e'tiborga olgan holda lizing shartnomasini tashkil etish bo'yicha majburiyatlarni uning zimmasiga yuklaydigan maxsus shartnoma ham tuziladi.

Ko'plab davlatlarda mustaqil lizing kompaniyalari lizing operatsiyalari hajmida nisbatan kichikroq ulushga ega bo'ladi. Bugungi kunda to'la mustaqil lizing kompaniyalari sifatida asosan mahalliy bozorda doimiy mijoz bilan faoliyat olib boradigan va aniq belgilangan uskunalar lizingiga ixtisoslashgan kompaniyalar tushuniladi. Bunday kompaniyalar operatsiyalarining hajmi yuqori bo'lmaydi. Ularning shtat birliklari ham mijozlarga xizmat ko'rsatish, ham ularga texnik xizmat ko'rsatishga muvofiqlashtirilgan bo'ladi. Jismoniy shaxslar, yirik bo'lmagan tijorat banklar, jamg'arma banklarining filiallari, sug'urta

kompaniyalari va fondlari mustaqil kompaniyalarning mulkdorlari bo'lishi mumkin.

Quyidagi jadvalda milliy lizing assotsiatsiyalari va birinchi lizing kompaniyasi ro'yxatdan o'tgan vaqti aks ettirilgan (7.1-jadval):

7.1-jadval

Dunyo mamlakatlarida milliy lizing assotsiatsiyalari va birinchi lizing kompaniyasi ro'yxatdan o'tgan vaqt³⁷

Mamlakat	Milliy lizing assotsiatsiyasi nomi	Birinchi lizing kompaniyasining ro'yxatga olingan yili
Avstraliya	Australian Equipment Lessors Association (AELA)	1960
Avstriya	Association of Austrian Leasing Companies	1963
Belarus	Belorussian Lessor's Union	1993
Belgiya	Association Belge Des Entreprises De Leasing	1961
Braziliya	ABEL – Associacao Brasileira Das Empresas De Leasing	1966
Bolgariya	Bulgarian Leasing Association	1991
Vengriya	Hungarian Leasing Association	1988
Buyuk Britaniya	British Vehicle Rental and Leasing Association	1960
Gana	Gana Association of Leasing	1993
Germaniya	Bundesverband Deutscher Leasing Gesellscharften	1962
Hindiston	Equipment Leasing Association	1973
Indoneziya	Indonesian Leasing Association	1975
Irlandiya	Irish Finance Houses	1960

³⁷ Лещенко М.И. Основы лизинга: Учебное пособие. М.: Финансы и статистика, 2004. С. 167-170.

	Association	
Ispaniya	Asociacion Espanola de Leasing	1965
Italiya	Associazione Italiana Leasing – ASSILEA	1961
Kanada	Canadian Finance and Leasing Association	1952
Xitoy	China Leasing Corporation Friendship Association	1981
Kolumbiya	Columbian Leasing Association (Fedeleasing)	1971
Lyuksemburg	Association Luxembourgeoise Des Societes de Leasing	1960
Malayziya	Equipment Leasing Association of Malaysia	1974
Meksika	Asociacion Mexicana de Arrendadoras Financieras	1961
Niderlandiya	Nederlandse Vereniging Leasemaatschappijen	1963
Nigeriya	Equipment Leasing Association of Nigeria	1972
Norvegiya	Association of Norwegian Finance Houses	1964
Pokiston	Leasing Association of Pakistan	1984
Panama	Asociacion Bancaria de Panama	1975
Peru	Asiciacion Peruana de Empresas de Leasing	1982
Polsha	Conference of Leasing Companies in Poland	1988
Portugaliya	Associacao Portuguesa de Empresas de Leasing	1982
Rossiya	Rossiyskaya assotsiatsiya lizingovыx kompaniy (Roslizing)	1994

Slovakiya	Association of Leasing Companies of Slovak Republic	1988
Singapur	Leasing Association of Singapore	1973
AQSh	Equipment Leasing Association (ELA)	1952
Tayvan	Taipei Leasing Association	1973
Tailand	Thailand Leasing Association (ELA)	1978
Ukraina	Ukrlizing	1997
O'zbekiston	O'zbekiston lizing uyushmasi	1995
Filippin	Philippine Association of Finance Companies Incorporated	1957
Finlyandiya	Finnish Finance Houses Association	1959
Fransiya	Association Francaise Des Societes Financieres	1961
Chexiya	Association of Leasing Companies of Czech Republic	1988
Chili	ACHEL – Chilean Leasing Company Association	1978
Shveytsariya	Verband Schweizerischer Leasing-Gesellschaften	1964
Shvetsiya	AFIN A – Associationa of Swedish Finance Houses	1960
Shri-Lanka	Leasing Association	1980
Estoniya	Estonian Leasing Association	1993
JAR	Independent Car Leasing Association (ICRA)	1971
Janubiy Koreya	Korea Leasing Association	1972
Yaponiya	Japan Leasing Association	1963

80-yillar oxirlariga kelib jahonning 60 ta mamlakatiga tegishli lizing kompaniyalar 150 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritgan. 1965- yilda Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi (IFLA) tashkil topgan bo'lib keyinchalik uning tarkibiga ko'plab moliya va lizing tashkilotlari birikishni boshlashgan. Bugungi kunda uning a'zolari soni 25 ta lizing tashkilotlaridan iborat bo'lib, har bir davlat faqat bitta lizing tashkiloti bilan a'zolikka qabul qilinishi mumkin³⁸. Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi a'zolari muhim bo'lgan xalqaro kredit institutlari bilan uzviy aloqalarga ham ega bo'lishadi. Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasiga a'zo bo'lish uchun quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- lizing tashkiloti kredit va lizing asosida moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lishlari lozim;

- barqaror moliyaviy tizimga ega bo'lishi;

- lizing tashkilotlari o'z faoliyati, kuch g'ayrati bilan assotsiatsiya faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashishi talab qilinadi.

“Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi” (IFLA) o'zining asosiy maqsadi sifatida, a'zolari o'rtasida forumlar tashkil etish va bu bilan ular o'rtasida o'zaro g'oyalar, bilimlar, malaka va ma'lumotlar almashinuviga zamin yaratishga qaratgan. Bunday o'zaro almashinuvlar tomonlar manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirilgan. Assotsiatsiya o'z faoliyati doirasida a'zolari faoliyat doirasi, ularning moliyaviy natijalari va shu kabi boshqa ma'lumotlarni o'rganib boradi va o'z a'zolari faoliyatini qiyosiy baholaydi.

³⁸ Immorent Aktiengesellschaft, Avстрия. KBC Lease Group, Бельгия. Китай. Лизинг бизнес ассоциация Китайской ассоциации предприятий с иностранными инвестициями. Предприятия, Китай. CSOB Лизинг как: Чешская Республика. Nordania лизинга, Дания. Piraеus Египет лизинговая компания, Египет. Nordea Finance Финляндии Limited, Финляндия. Ergo, Исландия. Сундарам Finance Limited, Индия. Промышленность и шахты лизинговая компания, Иран. Iccrea Bancalmpresa, Италия. ABN AMRO NV аренды, Нидерланды. DNB Bank ASA, Финанс, Норвегия. Europejski Fundusz Leasingowy SA, Польша. Caixa Лизинг электронной факторинг, Португалия. Лизинговая компания УРАЛСИБ, Россия. BCR Лизинг IFN SA, Румыния. Swedbank Финанс АВ, Швеция. Tunisie лизинга, Тунис. Турецкая финансовая лизинговая ассоциация, Турция. УФНА Американская ассоциация финансовых услуг, Соединенные Штаты Америки. HSBC Bank, Великобритания. Лизинг оборудования и финансам ассоциации (ELFA), Соединенные Штаты Америки.

7.3. Lizing operatsiyalarini tashkil etishda taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi

Butun dunyoga mashhur “White Clarke Group” konsalting kompaniyasi tomonidan o‘tkazgan tahlillarga asosan, 2017-yilda global lizing sanoati o‘zining “barqarorlik va innovatsionlik” xususiyatini namoyon etdi. Dunyoning 50 ta yirik davlatlarida yangi bitimlar hajmining 16,6 foizga o‘sishi (2016-yilda 1099,7 mlrd. AQSh dollaridan 2017-yilda 1282,73 mlrd. AQSh dollarigacha) kuzatilgan. Yangi biznes miqdorining hajmi 2016-yilda dunyo bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichdan 182,96 mlrd. AQSh dollariga yuqori bo‘lgan bo‘lsa, bu bitimlarning 95 foizi uchta hudud (Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyo)ga to‘g‘ri keldi³⁹.

Quyidagi 7.2-jadvalda 2017-yilda lizing bozorida yillik lizing hajmi bo‘yicha yetakchilik qilgan 20 ta davlat haqida ma’lumotlar keltirilgan.

7.2-jadval

2017 yilda dunyo mamlakatlari bo‘yicha lizing bozori hajmi⁴⁰

№	Davlat	Yillik hajmi	O‘shish darajasi, % 2017-yildan 2016-yilga nisbatan	Bozorga kirishi, %
1	AQSh	410,35	6,90	21,6
2	Xitoy	265,68	20,42	6,8
3	Buyuk Britaniya	92,45	5,18	32,4
4	Germaniya	78,32	7,29	17,2
5	Yaponiya	60,47	-2,00	5,3
6	Fransiya	49,78	8,69	16,1
7	Italiya	33,63	12,89	15,2

³⁹ White Clarke Group. URL: <https://www.whiteclarkegroup.com/>


⁴⁰ Глобальный лизинговый отчет 2019. Ведущие финансовые технологии. URL: <https://www.whiteclarkegroup.com/reports/global-leasing-report-2019>

8	Avstraliya	31,49	2,10	40,0
9	Kanada	26,46	2,70	38,0
10	Shvetsiya	24,88	10,50	27,1
11	Rossiya	20,06	46,68	Ma'lumot mavjud emas
12	Polsha	19,11	15,72	25,1
13	Shveytsariya	13,59	0,27	12,3
14	Koreya	12,00	5,30	8,9
15	Daniya	11,95	0,31	29,4
16	Tayvan	11,83	8,08	9,9
17	Ispaniya	11,15	8,76	6,2
18	Meksika	9,06	9,70	Ma'lumot mavjud emas
19	Avstriya	8,85	7,85	13,0

Shimoliy Amerika lizing bozori (AQSh, Kanada, Meksika) avvalgiday 2017-yilda ham eng yirik hududiy lizing bozori sifatida saqlanib qoldi. Bu sohadagi yangi biznesning umumiy qiymati uchchala hudud bo'yicha 2017-yilda 445,87 mlrd. AQSh dollari (jami xalqaro lizing bozorining 34,8 foizi)ni tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda, 2017-yil lizing bozorida boshqa hududlarning o'sish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi tufayli Shimoliy Amerika lizing bozorining ulushi 3,1 foizga qisqargan, Yevropa lizing bozorining ulushi 1,9 foizga, lizing xizmatlarining yillik hajmi esa 354,4 mlrd. AQSh dollarigacha (32,7 foiz) o'sgan. Xalqaro lizing bozorida Osiyo lizing bozorining ulushi 1,3 foizga, lizing xizmatlarining yillik o'sishi esa Yevropa lizing bozori bilan bir xil miqdorga yetib, 58,9 foizga o'sgan.

Yevropa Ittifoqi (YI) hududida faoliyat yuritayotgan firmalarni doimiy kuzatuv tahlil jarayoni bilan Yevropa markaziy banki (YMB) shug'ullanib boradi. Bugungi kunda Yevropa lizing bozorining yirik ishtirokchisi bu "Leaseurope" bo'lib, unga 1972-yilda asos solingan. "Leaseurope" hozirgi kunda Yevropa davlatlarining 44 ta

assotsiatsiyalarini o'zida birlashtirgan federatsiya hisoblanadi va Yevropa lizing bozorini 93 %ini egallagan. Bugungi kunda "Leaseurope" Yevropa davlatlaridan tashqari AQSh, Kanada, Avstraliya va Yaponiya kabi davlatlarining lizing assotsiatsiyalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatgan. Yevropa mamlakatlarida 2015-yilda lizing portfelining hajmi 7.1-diagrammada keltirilgan.



7.1-diagramma. 2015-yilda Yevropa mamlakatlarida lizing portfeli hajmi (mlrd yevro)⁴¹

"Leaseurope" tomonidan "Leaseurope Index" so'rovnomasi olib boriladi, bu so'rovnomada Yevropa davlatlari ixtiyoriy ravishda ishtirok etishadi, shunga ko'ra 2011-yilda Yevropada texnika va transport sohasiga kiritilgan lizing hajmi mos ravishda 8,4 % va 11,7 %ga oshganligi kuzatilgan. Italiya va Fransiyaning ko'chmas mulk lizing bozorlarining qisqarganligi sababli Yevropa ko'chmas mulk sohasida lizing hajmi 13 %ga pasaygan. Germaniya, Fransiya va Avstriya iqtisodiyotning ko'chmas mulk sohasidan tashqari barcha jabhalarda o'sish kuzatilgan. 2012-yilning 3-choragida amalga oshirilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra imzolangan lizing shartnomalarining hajmi 16,6 mlrd. yevroni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning 3-choragiga nisbatan 17,5 %ga pasayganligini ko'rish mumkin.

⁴¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/trends-of-international-lease-market-developing>.

AQSh lizing bozorida ko'plab lizingga beruvchilarning turlari mavjud bo'lib, ular izchil tizim asosida faoliyat yuritishadi. Bugungi kunda AQShning eng yirik assotsiatsiyalardan biri bu "Equipment leasing and finance association" (ELFA) bo'lib, u o'z tarkibida 575 dan ziyod kompaniyani birlashtirgan. "ELFA" muntazam ravishda "Monthly Leasing and Finance Index" (MLFI-25) nomini olgan har oylik lizing va moliya bozorlari yakuniga bag'ishlangan ma'lumotlarni e'lon qilib boradi. Shunga ko'ra kuzatuv tahlili ostidagi kompaniyalarning lizing bozoridagi ulushi 2012-yilning noyabr holatiga ko'ra 6,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib bu borada o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 %ga o'sish kuzatilgan. "ELFA"ning a'zolari tomonidan bugungi kunda kompyuter, tibbiyot, qishloq xo'jalik, qurilish, tog'-kon sanoat texnikalari, shaxsiy va yo'lovchi tashuvchi samolyotlar, vagonlar, yuk tashuvchi va yengil avtomobillar, yirik kemalar va konteynerlar lizingga taqdim etiladi. AQShda lizingning jadal rivojlanishidagi muhim sabablardan biri investitsiyalarga nisbatan beriladigan soliq imtiyozlari hisoblanadi. Jumladan, yangi investitsiyalar yig'indisining 10 foizgacha bo'lgan qismi soliq yig'indisidan chiqarib tashlanadi. Masalan, asbob-uskunalar sotib olish xarajatlari 100 ming dollar deylik, soliq imtiyozi 10 %, soliq yig'indisidan 10 ming dollar chiqarib tashlanadi. Lizing shartnomasida soliq imtiyozi Moliya vazirligining ichki daromadlari boshqarmasi tomonidan ijara uchun o'rnatgan qoidalarga mos kelgan xoldagina qo'llaniladi.


Bugungi kunda Germaniyada ko'plab lizing kompaniyalarini ko'rish mumkin. Shulardan taxminan 200 tasi "Bundesverband Deutscher Leasing Unternehmen" (BDL) nemis lizing assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. Lizing Germaniyada investitsiya mexanizimini harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib yillik investitsiyalarning beshdan bir qismi lizing asosida amalga oshiriladi. 2011-yil Germaniyada amalga oshirilgan lizing hajmi 49,1 mlrd. yevroni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilda 49,3 mlrd. yevroga teng

bo'lgan. Texnika vositalariga kiritilayotgan mahalliy investitsiyalarning 22,7 %, xoriijiy investitsiyalarning 53 % qismi lizing asosida amalga oshirilgan. Bugungi kunda Germaniya lizing bozorining 90 % qismi to'raligicha "Bundesverband Deutscher Leasing Unternehmen" (BDL) ishtirokida kechadi.

Germaniya lizing bozorida amalga oshirilgan lizing operatsiyalarning tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsa u yerda yirik havo kemalaridan tortib oddiy avtomobillargacha ko'rish mumkin. Germaniya lizing operatsiyalari tarkibida eni yirik ulushga ega bo'lgan mahsulot bu yengil va tijorat avtomobillari bo'lib ular jami lizing portfelining 68,6 %ini tashkil etadi. Buyuk Britaniyada lizing nisbatan kech, ya'ni 1970-yildan keyingina keng ko'lamda rivojlandi. 1981-yildan 1986-yilgacha hukumat korporatsiyalardan olinadigan soliq miqdori 52 %dan 35 %ga pasaygan. Shu vaqtgacha qo'llab kelingan 100 %li soliq imtiyozi (bu imtiyoz birinchi yilga nisbatan qo'llanilardi) 25 %li imtiyoz bilan almashtirildi.

Korporatsiyalardan olinadigan soliq stavkasi pasaytirilishi bilan lizingga nisbatan qo'llaniladigan soliq imtiyozining ham ahamiyati pasaydi. Bu esa lizing va uskunalar sotib olish qiymatining pasayishiga olib keladi. Hozirgi kunda ham soliq imtiyozlarining ma'lum qismi saqlanib qolgan. Masalan, birinchi yili ijara to'lovlari soliqqa tortilmaydi. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada yetakchi lizing uyushmasi bu "Finance & Leasing Association" (FLA) bo'lib, 2012-yil holatiga ko'ra uning asosiy a'zolari soni 112 tani tashkil qilgan bo'lsa, ularga xizmat ko'rsatuvchi a'zolarining soni 83 taga yetgan. 2011-yilda FLA a'zolari tomonidan 72,1 mlrd. funt sterlingga teng miqdorda lizing ajratilgan. FLA a'zolari tarkibiga banklar, qurilish uyushmalari, lizing kompaniyalari, moliya uylari kiradi, ular moliyaviy lizing, operativ lizing, ko'chmas mulk ijarasi va savdosi, turli kreditlar ajratish kabi xizmatlarni taqdim etishadi. FLA a'zolari tomonidan 2011-yil

oktyabrdan 2012-yil oktyabrgacha bo'lgan muddat ichida amalga oshirilgan lizing hajmi 20 mln. funt sterlingdan oshgan.



7.2-diagramma. **Jahon miqyosida amalga oshirilgan lizing operatsiyalari hajmi**
(mlrd \$)⁴²

Xalqaro miqyosda jadal rivojlanayotgan lizing bozorlaridan biri bu Rossiya lizing bozori bo'lib, 2018-yil yakunlariga ko'ra uning hajmi 1,35 trln. rubldan oshgan. Lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan yangi lizing operatsiyalari hajmi esa 1276 mlrd. rublni tashkil qilgan. Rossiya lizing bozori mana ikkinchi yildirki, o'zining eng yuqori cho'qqisini namoyon qilmoqda. Lizing bozorining bunday o'sishi temir yo'l texnikasi va avtolizing hisobiga ta'minlangan bo'lib, ularning yangi lizing operatsiyalari hajmidagi jami ulushi 61,1 %ni tashkil qilgan. Lizing bozorida o'sishni ta'minlashga xizmat qilgan eng faol 10 ta davlat lizing kompaniyalarining lizing bozorida jami ulushi 80 %ga yetgan⁴³.

Joriy yilda e'lon qilingan pandemiya tufayli korporativ segmentning qisqarishi hamda iqtisodiyotda pasayish kuzatilganligi Rossiya lizing bozorida ham yangi bitimlar hajmining 22 foizga pasayishiga olib keldi.

⁴² <https://cyberleninka.ru/article/n/trends-of-international-lease-market-developing>.

⁴³ Рынок лизинга по итогам 2018 года: новый рекорд. Аналитические материалы. М., 2019. 20 марта.

Ammo bunga qaramasdan, valyuta shartnomalarini qayta baholash va muammoli aktivlar hamda ularni restrukturizatsiyalash hajmining oshishi natijasida lizing portfelining hajmi deyarli o'zgarishsiz qoldi.

2019-yil yakuniga ko'ra, lizingga kiritilgan sof investitsiyalar hajmi 1,84 trln. rublni tashkil qilib, o'tgan yilgi 32 foizlik o'sish ko'rsatkichi evaziga 10 foizni tashkil qildi⁴⁴.

Karantin cheklovlari tufayli lizingga oluvchilar taklifining pasayishi 2020-yilning birinchi yarmida lizingga oluvchilarning asosiy muammosi bo'lib qoldi. "Ekspert RA" tomonidan o'tkazilgan tahlillar joriy yil yakunlari bo'yicha lizing xizmatlarining 10-20 foiz atrofida pasayishi mumkinligini bashorat qilmoqda. Bu holat epidimiologik vaziyatning o'zgarishi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Joriy yilning birinchi yarmida lizing bozorida yangi bitimlar hajmi 570 mlrd. rublga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22 foizga pasaygan. Eng yuqori pasayish ko'rsatkichi ko'chmas mulk lizingida kuzatilgan (-95 foiz) bo'lsa, 2019-yil o'rtalaridan boshlab esa havo va temir yo'l texnikasi lizingida kuzatila boshlagan. Shu bilan bir qatorda, joriy etilgan karantin cheklovlari hamda yuk tashish xizmatiga bo'lgan talabning keskin kamayishi bu sohalarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan kuchli pasayishni (35-45 foiz)ni taqozo etdi⁴⁵.

Lizing kompaniyalari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 2020-yilning birinchi yarmida lizingga beruvchilar duch kelgan muammolar orasida mijozlar talabining keskin kamayganligi eng dolzarb muammo deb qayd etilgan. Bu holat lizing bozorida risk darajasining ortib borganligidan dalolat beradi.

Tayanch so'z va iboralar: *Xalqaro lizing, xalqaro lizing bozori, "Xalqaro moliya va lizing assotsiatsiyasi" (IFLA), eksport lizingi, import lizingi, tranzit lizing.*

⁴⁴ Рынок лизинга по итогам 1-го полугодия 2020 года: тотальное поражение. <https://raexpert.ru/docbank/e9e/b3e/ab8/b0087effddc885d8168f4ee.pdf>

⁴⁵ Рынок лизинга по итогам 1-го полугодия 2020 года: тотальное поражение. <https://raexpert.ru/docbank/e9e/b3e/ab8/b0087effddc885d8168f4ee.pdf>

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Xalqaro lizing nima?
2. Xalqaro lizing bozorining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat?
3. Xalqaro lizing biznesining taraqqiyotiga sabab bo'lgan omillarni keltiring?
4. Pandemiya va pandemiyaga va pandemiyada xalqaro lizing bozori holatini taqqoslang.
5. Xalqaro lizing bozorida mashhur bo'lgan lizing kompaniyalarini bilasizmi, ular qaysilar?
6. AQSh, Yevropa va Osiyo lizing bozorlarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
7. Xalqaro lizing bozori tarkibi qanday elementlardan tashkil topgan?

VIII BOB. LIZING OPERATSIYALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

8.1. Lizing xizmatlari samaradorligining nazariy asoslari

Lizing xizmati ushbu xizmat ishtirokchilari uchun ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlar, ya'ni lizingga oluvchi uchun investitsion loyihani amalga oshirish, lizingga beruvchi uchun moliyaviy investitsiyalar va sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uchun esa sotish mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Lizingning murakkab iqtisodiy va huquqiy tabiati lizing shartnomasining barcha ishtirokchilari uchun uning samaradorligini baholash muhimligini anglatadi.

Lizing bo'yicha maxsus adabiyotlarda lizing samaradorligini lizing munosabatlarining u yoki bu ishtirokchisi nuqtayi nazaridan baholash masalalariga to'xtalib o'tilgan⁴⁶. Jumladan, investitsion loyihalar samaradorligini baholashning o'ziga xos jihatlari ikki holatda ko'rib chiqilishi mumkin:

- Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lizing shartlari asosida mahsulotni lizing to'lovlari bahosida sotganda. Shuni alohida qayd etish kerakki, bunday holat milliy lizing bozorida kam uchraydi va lizing munosabatlarini boshqarishning ilk bosqichida kuzatiladi;

- Mulk lizing shartlari asosida bevosita vositachi, ya'ni lizingga beruvchi orqali yetkazib berilganda. Ushbu holatda investitsion loyihaning samaradorligini pul oqimlarini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Ushbu keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, lizingning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholashning quyidagi o'ziga xos jihatlari ajratib ko'rsatish mumkin:

⁴⁶ Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». Ростов н/Д.: Феникс, 1999.

- Lizing obyektining sotuvchisi uchun lizing mexanizmidan foydalanib, obyektни sotish faoliyatining samaradorligini anglatuvchi ko'rsatkichlarni hisoblash;

- Lizingga oluvchi uchun real investitsiyalar samaradorligini ikki guruh ko'rsatkichlari, ya'ni lizingning kreditga nisbatan va muqobil lizing loyihalariga nisbatan taqqoslashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar orqali hisoblash;


- Lizingga beruvchi uchun faoliyatining asosini tashkil etuvchi lizing xizmatlarining rentabelligini va amalga oshirilgan moliyaviy investitsiyalar samaradorligini aniqlash.

Rus olimlarining lizingni iqtisodiy samaradorligi bo'yicha manbalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning fikricha lizing shartnomasini amalga oshirishning samaradorligini lizingga oluvchi va lizingga beruvchi nuqtayi nazaridan tahlil qilish mumkin. Lizing kompaniyasi tomonidan keyinchalik asbob-uskunani lizingga berish uchun xarid qilinganda, asbob-uskunadan lizingga oluvchi tomonidan kelajakda qanday foydalanish masalasi uni qiziqitirmaydi. Rus olimi V.V. Kovalyovning fikriga ko'ra, lizing operatsiyalari samaradorligini baholashning turli usullari mavjud⁴⁷. Ushbu usullarni tahlil qilish lizingni baholash usullarini yirik guruhga umumlashtirish imkonini beradi (8.1-chizma) va bu jarayonda lizing kompaniyasining aniq bir shartnoma doirasida amalga oshiradigan xarajatlarining yig'indisiga tayaniladi.

Lizing samaradorligini baholash usullarining boshqa guruhi lizing bilan moliyalashtirishning boshqa muqobil usullari (misol uchun uzoq muddatli aktivlarni kredit asosida moliyalashtirish) bilan taqqoslashga bag'ishlanadi. Ushbu guruhga oid usullar haqida rus iqtisodchi olimlari V.V. Maslennikov, V.A. Ivashkin, V.D. Gazmanlar o'z ilmiy ishlarida to'xtalib o'tishgan. Ularning fikricha, lizingni moliyalashtirishning boshqa muqobil usullari bilan taqqoslash bevosita pul kirimi va chiqimi

⁴⁷ Философова Т.Г. Лизинг: научные основы, методы оценки и управления. М., 2004.

balansini taqqoslash, diskontlash qiymatini aniqlash, lizing bo'yicha sof joriy qiymatni tuzatilgan diskontlash stavkasini hisobga olgan holda aniqlash mumkin bo'ladi.



8.1-chizma. Lizing samaradorligini baholash usullari

Bundan tashqari, lizingga beruvchining tahlillarida asbob-uskunani o'zining mablag'lari hisobiga sotib olish yoki aralash moliyalashtirish manbalaridan foydalanish kabi variantlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Lizingga oluvchi nuqtayi nazaridan oladigan bo'lsak, lizing shartnomasi bo'yicha moliyalashtirish manbaini tanlash imkoniyati yuzaga keladi. Shuning uchun asbob-uskunani lizing orqali olish yoki sotib olish variantlarini tahlil qilish lozim bo'ladi. Bunday tahlilni mavjud pul mablag'lari oqimi harakati asosida olib borish mumkin.

Lizing xizmati asbob-uskunani lizing asosida olishga pul mablag'larini investitsiyalash usuli ekan, uning samaradorligini aniqlash uchun ilmiy adabiyotlarda an'anaviy tarzda investitsiyalarning samaradorligini tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan foydalaniladi (8.1-jadval).

8.1-jadval

Lizing samaradorligini baholash bo'yicha olimlarning yondashuvi

Muallif, manba	Muallifning yondashuvi
1. И.Э.Крылов (Крылов И.Э. Анализ эффектив- ности инвестицион- ной, инновацион- ной, финансовой и хозяйствен- ной деятельности предприятия: Учебн. пособие. В 2. ч. Ч.1, 2. СПб.: СПбГУЭФ, 1999. 256 с.)	Muallif "investitsion loyihani moliyalashtirishda lizingdan foydalanish samaradorligining qo'shimcha (taqqoslama) hisob-kitobi"ni amalga oshirish uchun quyidagi formulani taklif etgan: $S_{lqi} = S * K_{an} - A - \frac{(LT-A)/(100-F)}{100} - \frac{S * F}{M_1 * 100} \frac{A_{qq}}{M_2} + \frac{S * S_m}{2 * 100}$ S_{lqi} – 1 yil davomida bank krediti bilan taqqoslaganda lizingdan foydalanishning qo'shimcha iqtisodiy samaradorligi S – bank tomonidan asbob-uskunani sotib olish uchun taqdim etilgan ssuda miqdori K_{an} – ssuda bo'yicha foizlarni e'tiborga olgan holda har yil bankka amalga oshiriladigan to'lovlarni aks ettiruvchi annuitet koeffitsiyenti $S * K_{an}$ – ssuda va u bo'yicha foizlarni qoplash maqsadida har yili bankka to'lanadigan to'lovlar miqdori LT – lizing to'lovining yillik miqdori A – yillik amortizatsiya miqdori F – foyda solig'i stavkasi M_1 – bank ssudasini qoplash muddati, yil A_{qq} – asbob-uskunaning qoldiq qiymati M_2 – asbob-uskunaning foydali ishlatish muddati,

	yil S_m – mol-mulk solig‘i stavkasi, %
2. В.В.Ковалев (Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. М.: Финансы и статистика, 2001. 560 с.)	Muallif investitsion faoliyat tahlilining mezonlarini ikki turda ko‘rib o‘tadi: 1) diskontlangan bahoga asoslangan 2) hisob bahosiga asoslangan. Investitsion qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etgan vaqt omiliga ustuvorlik beriladi. Bunda investitsion loyiha boshidan quyidagi ko‘rinishdagi model sifatida aks ettiriladi: $IP = \{IC, CF_1, CF_2, \dots, CF_k, n, r\}$, IC – investitsiyaning chiqib ketishi (mablag‘lar chiqimi) CF_k – k-bazis davridagi tushum (odatda mablag‘lar kiritimi) n – loyiha amalga oshiriladigan bazis davrlar soni r – pul oqimi elementlari vaqtning bir davriga keltiriladigan diskontlash stavkasi Muallifning fikricha, investitsion loyihalarni baholashning uslubiy vositalari bo‘lib sof keltirilgan qiymat, sof joriy qiymat, investitsiya rentabelligi indeksi, investitsiya foydasi ichki me‘yori, investitsiyalarning qoplash muddati va h.k. hisoblanadi
3. Ендовицкий Д.А. (Щербакова Н.Ф., Исаенко А.Н. Финансовый менеджмент: Учебник/ Под ред. Д.А.	Mualliflarning fikricha, quyidagi asosiy qoidalarga rioya qilgan holda investitsion loyihalarni baholashning keng uslubiy vositalaridan foydalanish mumkin: - agar NPV (loyihaviy pul oqimlarining sof joriy qiymati) ijobiy bo‘lsa, loyihani moliyalashtirish mumkin, aks holda uni rad etish lozim; - agar muqobil loyihalar mavjud bo‘lsa, ular orasidan NPV eng yuqori bo‘lgan loyihani tanlash; - agarda mavjud kapital qo‘yilmalardan investitsiya

Ендовицкого. М.: РЕД групп, 2012. 800 с.)	portfelini shakllantirish talab etilsa, unda NPV yuqori bo'lgan loyihalar kombinatsiyasini tuzish talab etiladi. Loyihaviy pul oqimlari bo'yicha sof joriy qiymatni aniqlashning asosiy formulasi quyidagicha aniqlanadi: $NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I_0, \text{ yoki } NPV = PV - I_0$ Bu yerda, PV – loyihaviy pul oqimlarining joriy qiymati; I_0 – boshlang'ich investitsiya xarajatlari; n – investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan davr; $CF_1 - t$ davrdagi sof pul oqimi; r – loyiha bo'yicha diskont stavkasi. NPV ning bazaviy formulasini qo'llab, mualliflar uzoq muddatli investitsiyalarning natijaviyligini, loyihaviy pul oqimlarining joriy qiymati va h.k.ni aniqlashi mumkin bo'ladi.
--	--

Shuni alohida qayd etish kerakki, investitsion loyihalarni lizingdan foydalanib moliyalashtirish samaradorligini miqdor va sifat jihatidan baholash barcha usullarning asosini tashkil etadi. Lizingni sifat jihatidan baholash ishlab chiqarish samaradorligining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari o'sishini taqqoslashni aniqlashdan iborat. Ushbu holatda, agarda lizing ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish va fond qaytimi hajmining o'sishiga olib kelsa, u iqtisodiy jihatdan samarali bo'lib hisoblanadi.

Amalda lizingga oluvchi uchun lizingning miqdor jihatdan samaradorligi lizingga oluvchini barqaror rivojlanishining ikki varianti (o'z mablag'lari yoki lizing asosida) bo'yicha uning ixtiyorida qoladigan sof foydaning ikkala pul oqimlari hajmini taqqoslash orqali aniqlanishi muhimdir.

Shu bois lizingning samaradorligini aniqlash uchun quyidagi tengsizlikdan foydalanish zarur (1-formulaga qaralsin):

$$IRR_n > P_{np}, \quad (1)$$

bu yerda: IRR_n – lizing asosida olingan korxona aktivlarining kutilayotgan ichki rentabellik darajasi;

P_{np} – korxona o'z aktivlarining (lizingsiz) kutilayotgan rentabelligi.

Xalqaro amaliyotda lizingning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi tamoyillar keng qo'llaniladi:

Daromad va xarajatlarni ajratish tamoyili – investitsion loyiha bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan daromad hamda xarajatlarni ajratishda namoyon bo'lib, korxona tomonidan mablag'larni joylashtirishda kutiladigan daromad miqdorini aniqlash va buning uchun qancha xarajat talab etilishini bilish maqsadida foydalaniladi.

Baholashni muqobillashtirish tamoyili – mablag'larni boshqa muqobil loyihalarga yo'naltirmasdan, aynan shu loyihaga jalb etish qarorini asoslashdan iborat. Muqobil variantlar sifatida – loyihadan bosh tortishni, xususiyl mablag'lar yoki tijorat banklarining qarz mablag'laridan foydalanishni keltirish mumkin. Bunda NPV (sof joriy qiymat) va r (vaqt davri bo'yicha birlik ulushi ko'rinishidagi diskontlashning stavkasi) hamda IRR (lizing asosida olingan korxona aktivlarining kutilayotgan ichki rentabellik darajasi) ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Agar $NPV=0$ bo'lsa, u aktivlarning kutilayotgan ichki daromadlilik darajasi (IRR) deb nomlanadi. IRR ko'rsatkichi loyihaga kiritilgan investitsiyaning qo'lga kiritiladigan foiz darajasini anglatadi. Loyiha $NPV>0$, $IRR>r$ bo'lganda samarali, aksincha $NPV<0$, $IRR<r$ bo'lganda esa samarasiz hisoblanadi.


Natija va xarajatlarning har xilligi tamoyili. Ushbu tamoyil loyihani amalga oshirishdan kutiladigan foydaning ushbu loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'dan farqini arifmetik nuqtayi nazardan taqqoslashda namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyillarning mazmunidan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, iqtisodiyoti

rivojlangan davlatlarning lizing bozorida ularga tayanilib, bevosita soliq munosabatlarini baholash va narxlashtirish mexanizmi yordamida moliyalashtirishning u yoki bu usulini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Keling, lizingning samaradorligini uning subyektlari bo'yicha alohida ko'rib chiqaylik.

8.2. Lizing obyektining sotuvchisi uchun lizingning samaradorligini baholash

Sotuvchining lizingga beruvchi bilan barqaror moliyaviy munosabatlar asosida mahsulotni realizatsiya qilishi unga bir qator imkoniyatlarni yaratib beradi (8.2-chizma).



8.2-chizma. Lizing mexanizmi orqali mahsulotni sotishda sotuvchida yuzaga keladigan imkoniyatlar

Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxona aylanma aktivlarni boshqarish samaradorligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda uni aniqlashda qo'llaniladigan bir nechta ko'rsatkichlar

to'liq aks ettirilgan. Shu sababli risolamizda sotish (realizatsiya) nuqtayi nazardan lizingning samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlab, ularni hisoblash formulalarini keltirib o'tamiz.

Bunday ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritamiz:

– Mahsulotni lizing orqali realizatsiya qilish hisobiga sotish hajmini oshirish;

- Lizing obyektini realizatsiya qilish hisobiga foydani oshirish;
- Lizing asosida sotish rentabelligi;
- Aylanma aktivlarning aylanuvchanligini oshirish;
- Aylanma aktivlarning aylanish davrini qisqartirish;
- Zaxiralar aylanuvchanligini oshirish.

Mahsulotni lizing orqali realizatsiya qilish hisobiga sotish hajmi

$$\Delta S_{MH} = S_{MQ} \quad (1)$$

Bu yerda: S_{MQ} – lizing orqali realizatsiya qilingan mahsulot qiymati.

Lizing orqali mulkni realizatsiya qilish natijasida foydaning oshishi ΔS_F lizingga beruvchi bilan tuzilgan shartnoma doirasida mulk bo'yicha uni aniqlash ketma-ketligi asosida ("Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot, 2-sonli shakl) aniqlanadi.

Lizing bo'yicha sotish rentabelligi R_s ni aniqlashni quyidagi formulada ifodalaymiz:

$$i_r = \frac{\Delta S_f}{S_{mq}} \quad (2)$$

Ushbu ko'rsatkich lizing asosida berilgan mulk qiymatiga to'g'ri keladigan sotish bo'yicha sof foydaning miqdorini aks ettiradi.

Aylanma aktivlarning aylanuvchanligini oshirish ΔO_{AA} quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta O_{AA} = \frac{S_{mm} + \Delta S_{mh}}{O_{aaq}} - \frac{S_{mm}}{O_{aaq}} \quad (3)$$

Bu yerda:

S_{MM} – lizingdan foydalanmagan holda realizatsiya qilingan mahsulot miqdori;

O'_{AAQ} – davr (yil) mobaynida aylanma aktivlar o'rtacha qoldiq qiymati.

Ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$O'_{AAQ} = \frac{Q_{db} + Q_{do}}{2} \quad (4)$$

(3)-formulani quyidagi ko'rinishda ham aks ettirishimiz mumkin:

$$\Delta O_{AA} = K_{A1} - K_{A0} \quad (5)$$

Bu yerda:

K_{A0} – lizing asosida realizatsiya hajmini e'tiborga olmagan holda aniqlangan aylanish koeffitsiyenti;

K_{A1} – lizing asosida realizatsiya hajmini e'tiborga olgan holda aniqlangan aylanish koeffitsiyenti.

Aylanish koeffitsiyenti korxona aylanma aktivlarining hisobot davrida necha marta aylanligini aks ettiradi.

ΔO_{AA} koeffitsiyenti mahsulotni lizing asosida qo'shimcha realizatsiya qilish natijasida hisobot davrida aylanishlar soni (yoki ulushi) qanchaga oshganligini aks ettiradi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mahsulotni lizing asosida realizatsiya qilishda aylanma aktivlar aylanish tezligiga 2 ta omil ta'sir ko'rsatadi:

– Sotish hajmining o'sishi ΔS_{MH} ;

– Tayyor mahsulot zaxirasining qisqarishi hisobiga aylanma aktivlar o'rtacha qiymati (O'_{AAQ})ning qisqarishi.

Aylanma aktivlar aylanuvchanligi davrining qisqarishi ΔD_{AA} quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta D_{AA} = \frac{365}{K_{A0}} - \frac{365}{K_{A1}} \text{ (kun)} \quad (6)$$

Bu yerda:

365 – kalendar yili (hisobot davri)dagi kunlar soni.

ΔO_{AA} ko'rsatkichi lizing mexanizmini qo'llash natijasida aylanma aktivlar aylanish davrining necha kunga qisqarganligini ko'rsatib beradi.

Mahsulot realizatsiyasi jarayonida sotish vositasi sifatida lizingdan foydalanish nafaqat aylanma aktivlar aylanuvchanligini oshirishga, balki aylanma aktivlarning elementi sifatida tayyor mahsulot zaxirasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tayyor mahsulot zaxirasining aylanuvchanligini oshirish ΔT_{MAO} ni quyidagi formula orqali aniqlashimiz mumkin:

$$\Delta T_{MAO} = \frac{S_{MM} + \Delta S_{mh}}{T_{mo/q}} - \frac{S_{MM}}{T_{mo/q}} \quad (7)$$

$$\text{yoki } \Delta T_{MAO} = K_{MAOI} - K_{MAO0}$$

Bu yerda:

$T_{MO \cdot Q}$ – tayyor mahsulot zaxirasining o'rtacha qoldiq qiymati;

K_{MAO0} – lizing asosida realizatsiya hajmini e'tiborga olmagan holda tayyor mahsulot zaxirasining aylanish koeffitsiyenti;

K_{MAOI} – lizing asosida realizatsiya hajmini e'tiborga olgan holda tayyor mahsulot zaxirasining aylanish koeffitsiyenti.

T_{MAO} ko'rsatkichi davr mobaynida tayyor mahsulot zaxirasining necha marta yangilanishini anglatga, ΔT_{MAO} ko'rsatkichi esa lizingni qo'llash orqali tayyor mahsulot zaxirasining qisqarishi va realizatsiya hajmining o'sishi natijasida tayyor mahsulot zaxirasining nechta aylanish (yoki ulush)ga oshganligini anglatadi.

Shuningdek, tayyor mahsulot zaxirasi muddatining qisqarishi ΔD_{MAO} quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta D_{AA} = \frac{365}{K_{mao0}} - \frac{365}{K_{mao1}} \text{ (kun)} \quad (8)$$

Ushbu ko'rsatkich tayyor mahsulot zaxirasini omborda saqlash muddatining necha kunga qisqarganligini anglatadi.

8.3. Lizingga oluvchi uchun lizing loyihasining kreditga nisbatan samaradorligini baholash

Lizingga oluvchi uchun lizing loyihasining kreditga nisbatan samaradorligini baholash ikkala moliyaviy xizmat turi bo'yicha pul oqimi elementlarini taqqoslash orqali amalga oshiriladi (8.2-jadval). Bunda asosiy e'tibor loyihani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan jami pul tushumlari va hisobot davridagi jami xarajatlar e'tiborga olinishi talab etiladi.

8.2-jadval

Lizing faoliyati natijasida lizingga oluvchining pul oqimlari tarkibi

Pul oqimlari elementlari			
Pul mablag'lari kirimi (+)		Pul mablag'lari chiqimi (-)	
Nomlanishi	shartli belgisi	nomlanishi	shartli belgisi
Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda mahsulotni realizatsiya qilishdan tushgan tushum	S_{rt}	Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	S_{mt}
Tezlashtirilgan amortizatsiyaning soliq imtiyozi (foyda solig'i bo'yicha)	S_{fs}	Boshqa operatsion xarajatlar tarkibida lizing to'lovlari (QQS ni hisobga olib)	S_{lt}
Lizing to'lovlari tarkibida to'langan QQSni qoplash	S_{qqs}	Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda mahsulotni realizatsiya qilishdan to'langan foyda solig'i	S_{rfs}
Mol-mulk solig'ining tejalishi	S_{kmm}		

Ushbu jadvalda keltirilgan pul oqimlari lizing obyektni lizingga oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizingga beruvchi balansida hisobga olishga mo'ljallangan lizing sxemasi doirasida keng

qo'llaniladi. Pul oqimlarini tarkibini tahlil qilib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Lizing faoliyati asosiy faoliyat bo'lganligi (joriy, operatsion) sababli, pul oqimlari tarkibida investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul kirimi va chiqimi kuzatilmaydi.

2. Ishlab chiqarish va mahsulot realizatsiyasi xarajatlari tarkibidagi lizing to'lovlari boshqa operatsion xarajatlar sifatida hisobga olinadi.

3. Qo'shimcha pul mablag'lari oqimi sifatida foyda solig'idan tejam, lizing to'lovlari tarkibida to'langan QQSning qoplangan summalarini keltirishimiz mumkin.

Lizing obyektni lizingga beruvchi balansida hisobga olganda mol-mulk solig'i mahalliy soliq sifatida lizingga beruvchi tomonidan to'lanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib, lizingga oluvchining jami (umumlashtirilgan) samarasini quyidagicha aks ettiramiz:

$$S_{js} = i_{fs} * S_{lt}$$

Bu yerda: i_{fs} – foyda solig'i stavkasi;

S_{lt} – lizing to'lovlari miqdori.

$$S_{qqs} = \sum_{i=1}^m S_{qqsci}, m = kT$$

Bu yerda:

S_{qqsci} – i-to'lov tarkibida QQS miqdori;

m – lizing shartnomasi davrida hisob-kitob davri soni;

T – lizing shartnomasi muddati;

k – bir yil davomida hisob-kitob qilinadigan davr soni.

$$S_{kmm} = i_{ss} * S_{mq}$$

Bu yerda:

i_{ss} – mol-mulk solig'i stavkasi,

S_{mq} – lizing shartnomasi bo'yicha olingan mulk qiymati.

Umumiy holatda lizing faoliyatidan umumiy pul oqimlari pul mablag'lari kirimi va chiqimi sifatida quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{po} = (S_{rt} + S_{fs} + S_{qqs} + S_{kmm}) - (S_{mt} + S_{lt} + S_{rfs}).$$

Lizing shartnomasi bo'yicha lizingga oluvchida yuzaga keladigan pul oqimlari tarkibini tahlil qilish uning uchun lizing hamda kredit

munosabatlarning samaradorligini taqqoslash metodikasini yaratish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ushbu metodika:

– Lizing asosida yoki qarz mablag‘larini jalb qilish evaziga olingan mulkdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan mulk oqimlarini tahlil qilishni;

– Pul oqimining har bir elementi bo‘yicha baholash ketma-ketligini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Mulkni lizing yoki qarz mablag‘lari evaziga olganda yuzaga keladigan pul oqimlari quyidagi jadvalda keltirilgan (8.3-jadval).


8.3-jadval

Mulkni lizing yoki qarz mablag‘lari evaziga olganda yuzaga keladigan pul oqimlari

Mablag‘lar harakati ning yo‘nali shi	Mulkni olishni moliyalashtirish usullari			
	lizing		kredit	
	pul mablag‘lari oqimi elementining nomlanishi	shartli belgisi	pul mablag‘lari oqimi elementining nomlanishi	shartli belgisi
Kirim (+)	Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda mahsulot (ish, xizmat)ni realizatsiya qilishdan tushgan tushum	Sl_{rt}	Qarz mablag‘lari evaziga olingan mulkdan foydalangan mahsulot (ish, xizmat)ni realizatsiya qilishdan tushgan tushum	Sk_{rt}
	Tezlashtirilgan amortizatsiya ning soliq imtiyozi (foyda solig‘i bo‘yicha)	Sl_{fs}	Tezlashtirilgan amortizatsiyaning soliq imtiyozi (foyda solig‘i bo‘yicha)	Sk_{fs}
	Lizing to‘lovlari tarkibida to‘langan	Sl_{qqs}	Lizing obyektni sotib olishda to‘langan QQSDan	Sk_{qqs}

	QQSning qoplangan summalari (S _{qqs2})		tejam	
	Mol-mulk solig'ining tejalishi	Sl _{ms}		
Chiqim (-)	Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	Sl _{rx}	Qarz mablag'lari evaziga olingan mulkdan foydalangan holda realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	Sk _{rx}
	Boshqa operatsion xarajatlar tarkibida lizing to'lovlari	Sl _t	Qarz mablag'lari evaziga olingan mulkdan foydalangan holda mahsulotni realizatsiya qilishdan to'langan foyda solig'i	Sk _{rfs}
	Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda mahsulotni realizatsiya qilishdan to'langan foyda solig'i	Sl _{rfs}	Kreditni qoplash	Sk _q
			Foizlarni to'lash	Sk _f
			Mol-mulk solig'i	Sk _{mm}

Quyida lizing yoki kredit samaradorligini taqqoslash uchun pul oqimining har bir elementi bo'yicha baholash ketma-ketligini keltirib o'tamiz (8.3-chizma):



8.3-chizma. Lizing va kredit lizingga oluvchining pul oqimlarini taqqoslash ketma-ketligi

Ushbu chizmadan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Mahsulot (ish, xizmat)ni realizatsiya qilishdan tushgan tushum mulkni moliyalashtirish usuliga bog'liq emas ($Sl_{rx}=Sk_{rx}$), shu sababli tahlilni detallashtirishda pul kiriminig ushbu elementni kiritmasa ham bo'ladi;

- Lizing bo'yicha ham, kredit bo'yicha ham tezlashtirilgan amortizatsiyaning soliq imtiyozi (foyda solig'i bo'yicha) mavjud. Ammo imtiyoz bo'yicha kamaytiriladigan summa turlicha bo'lganligi uchun ushbu ko'rsatkichni chuqur tahlil qilish lozim;

- Lizing to'lovlari nafaqat mulk qiymatini, balki boshqa to'lovlar, masalan lizing to'lovlari bo'yicha hisoblangan QQSni ham o'z ichiga olib, natijada mulk egasiga mulkni qarz mablag'lari evaziga sotib olishda to'lanadigan QQSDan yuqori miqdorda to'lanadi ($Sl_{qqs} > Sk_{qqs}$);

- Lizing obyekti lizingga oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizingga beruvchi balansida bo'ladi. Bunda lizingga oluvchi mol-mulk solig'ini to'lamaydi (kreditda esa bunday emas);


- Lizingga olingan mulkdan foydalangan holda realizatsiya qilingan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi qarz mablag'lari evaziga olingan mulkdan foydalangan holda realizatsiya qilingan mahsulot (ish, xizmat) tannarxidan farqlanmaydi ($Sl_{rx}=Sk_{rx}$). Bu esa pul mablag'lari chiqimini tahlil qilishda ushbu ko'rsatkichlarni chiqarib tashlash mumkinligini anglatadi;

- Lizingda mulk qiymati sifatida lizing to'lovlari (Sl_l) e'tiborga olinsa, kreditda esa asosiy qarz summasi va to'langan foizlar hisobga olinadi (Sk_q+Sk_f). Pul oqimining ushbu elementlarini ham chuqur tahlil qilish lozim;

- Mahsulotlarni realizatsiya qilishda foyda solig'i mahsulot ishlab chiqarilayotgan xarid qilingan asbob-uskunalarini moliyalashtirish manbalariga bog'liq emas ($Sl_{rfs}=Sk_{rfs}$);

– Mol-mulk solig'i lizingga oluvchi tomonidan emas ($S_{lmm}=0$), qarzdor tomonidan to'lanadi (S_{kmm}).

Moliyalashtirishning ikkala variantida ham amortizatsiya summasi soliqqa tortiladigan bazadan chegirilishini hisobga olsak, samaradorlikni baholash uchun faqatgina quyidagi chizmada keltirilgan elementlarni tahlil qilishimiz lozim (8.4-chizma).



8.4-chizma. Lizing va kredit usullarida pul kirimi bo'yicha foyda solig'ini aniqlashda soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan elementlar tarkibi

Umuman olganda, kredit munosabatlaridagi qarzdor va lizingga oluvchining pul oqimlarini tahlil qilib, quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Lizingda mol-mulk solig'ining tejalishi hisobiga qo'shimcha pul kirimi yuzaga keladi, kreditda esa ushbu element qo'shimcha chiqim bo'ladi;

- QQSni qoplash orqali pul oqimlarining kirimi kreditga nisbatan lizingda ko'proq kuzatiladi;

- Lizing hamda kredit bo'yicha samaradorlikni chuqur tahlil qilish uchun foyda solig'idan tejama (pul mablag'lari oqimi bo'yicha), lizing to'lovlari, kredit miqdori va u bo'yicha foiz to'lovlarini qoplash (pul mablag'lari chiqimi bo'yicha) ko'rsatkichlarini taqqoslash maqsadga muvofiq bo'ladi;

- Lizingda soliqqa tortiladigan foyda lizing to'lovlari miqdoriga (QQSsiz) kamaytiriladi, kreditda esa amortizatsiya summasi, mol-mulk solig'i va kredit bo'yicha foizlar summasiga kamaytiriladi.

Pul mablag'lari chiqimi bo'yicha lizing to'lovlari (S_{lt}) va kreditni qoplash (Skq) va u bo'yicha foizlar miqdori (Skf)ni taqqoslash kerak (8.3-chizma 6-band).

Lizing to'lovining majburiy elementi bo'lib komission mukofot (Sk_m) hisoblansa, qolgan elementlar to'plami lizing shartnomasi asosida belgilanadi. Yuqoridagi 8.3-jadvalda lizing to'lovlari tarkibi turlicha bo'lganda pul mablag'lari kirimi bo'yicha kreditga nisbatan lizing samaradorligining shartlari keltirib o'tilgan.

Jadvalda keltirilgan oxirgi uchta variantda kredit bo'yicha foiz to'lovlari kreditning lizingga oluvchi yoki boshqa qarzdor tomonidan olinganligiga bog'liq bo'lmaydi. Ushbu variantlar kredit bilan taqqoslaganda samaradorligi past, deb taxmin qilinmoqda.

**Lizing to'lovlari tarkibi turlicha bo'lganda pul mablag'lari
kirimi bo'yicha lizing samaradorligining shartlari**

№ v a r i a n t	Lizing to'lovlari tarkibiga kirgan taqqoslanuvchi elementlar	Lizingning kreditga nisbatan samaradorligi shartlari	
		pul mablag'lari kirimi bo'yicha	pul mablag'lari chiqimi bo'yicha
1	Komission mukofot + foyda solig'i	$Sk_m > (Sk_f + Sk_f)$	$Sk_m + Sq_{qs} < Sk_f$
2	Komission mukofot + sug'urta badali summasi	$(Sk_m + Ssb_m) > (Sk_f + Sk_f)$	$Sk_m + Sq_{qs} + Ssb_m < Sk_f$
3	Komission mukofot + sug'urta badali summasi + qo'shimcha xizmatlar qiymati	$(Sk_m + Ssb_m + Sq_x) > (Sk_f + Sk_f)$	$Sk_m + Sq_{qs} + Ssb_m + Sq_x < Sk_f$
4	Komission mukofot + lizingga oluvchi tomonidan olingan kredit uchun foizlar	$Sk_m > Sk_f$	Shartlar mavjud emas
5	Komission mukofot + lizingga oluvchi tomonidan olingan kredit uchun foizlar + sug'urta badali summasi	$(Sk_m + Ssb_m) > Sk_f$	Shartlar mavjud emas
6	Komission mukofot + lizingga oluvchi tomonidan olingan kredit uchun foizlar + sug'urta badali summasi + qo'shimcha xizmatlar qiymati	$(Sk_m + Ssb_m + Sq_x) > Sk_f$	Shartlar mavjud emas

8.4. Lizingga oluvchi uchun muqobil lizing shartnomalarini taqqoslash orqali lizingning samaradorligini baholash

Lizingga oluvchi uchun muqobil lizing shartnomasini baholashda lizingning xususiyatlarini yorituvchi ko'rsatkichlarni tanlab olib, ularning qo'llanish doirasi, boshlang'ich ma'lumotlar bazasini tayyorlash hamda baholash ko'rsatkichlarining mazmunini aniqlashi talab etiladi.

Lizing qarorlarini baholashda eng avvalo lizing obyektidan foydalanish natijasida olinadigan ikki xil pul oqimlari, ya'ni lizing to'lovlari ($L_{T1}, L_{T2}, \dots, L_{Tm}$) va foyda miqdori ($F_{M1}, F_{M2}, \dots, F_{Mm}$)ni ko'rib chiqish talab etiladi.

Xalqaro amaliyotda investitsiyalar samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda:

- sof joriy qiymat;
- ichki daromadlilik darajasi;
- investitsiyalar rentabelligi;
- investitsiyalarning qoplash muddati.

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash pul oqimlarini diskontlashga, ya'ni ko'rsatkichlar miqdorini ma'lum bir davr boshiga keltirilgan qiymatiga asoslanadi. Lizing loyihalarining samaradorligini baholashda ushbu ko'rsatkichlar mazmuni va ularni aniqlash metodikasiga to'xtalib o'tsak.

Lizing loyihasining ichki daromadlilik darajasi r ni aniqlashda quyidagi tenglik o'rinni bo'lishi talab etiladi:

$$\sum_{n=1}^m \left(\frac{F_{Mi}}{(1+r)^n} \right) = \sum_{n=1}^m \left(\frac{L_{Ti}}{(1+r)^n} \right)$$

Bu yerda:

L_{Ti} – i davrdagi lizing to'lovlari miqdori;

F_{Mi} – i davrdagi sof foyda miqdori;

m – davrlar soni ($m=kT$);

$\sum_{n=1}^m \left(\frac{F_{Mi}}{(1+r)^n} \right)$ – vaqt omilini hisobga olgan holda lizing muddati davomida aniqlangan, ya'ni davr boshiga keltirilgan sof foydaning umumiy kattaligi;

$\sum_{n=1}^m \left(\frac{L_{Ti}}{(1+r)^n} \right)$ – lizing muddati davomida aniqlangan, ya'ni davr boshiga keltirilgan lizing to'lovlarining umumiy kattaligi.

Ichki daromadlilik darajasi lizing obyektidan foydalanish asosida lizing shartnomasining har bir davrida 1 so'mlik lizing to'loviga to'g'ri keladigan sof foyda miqdorini anglatadi.

Ichki daromadlilik darajasi ko'rsatkichini qo'llash sohasi juda keng, ayniqsa, strategik ahamiyatga ega bo'lgan, uzoq muddatli va yuqori daromad keltiradigan yirik lizing loyihalarini amalga oshirishda ushbu ko'rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiq. Lizingga oluvchi tomonidan ichki daromadlilik darajasiga tayanilib, lizing bo'yicha talab etiladigan qarorlar daromadlilik bo'yicha tasavvur asosida lizing loyihasi tanlab olinishi mumkin.

Navbatdagi ko'rsatkich lizing loyihasi bo'yicha sof joriy qiymat bo'lib, uni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$NPV = \sum_{n=1}^m \left(\frac{F_{Mi}}{(1+rn)^n} \right) - \sum_{n=1}^m \left(\frac{L_{Ti}}{(1+rn)^n} \right) > 0$$

Bu yerda: r_n – diskontlash stavkasi (ishonchli tijorat banklari foiz stavkasi darajasida yoki muqobil investitsion loyihalar samaradorligi sifatida qo'llaniladigan).

Sof joriy qiymat ko'rsatkichi lizing muddati davomida keltirilgan daromad miqdorining lizing to'lovlaridan qancha birlikka ortiq ekanligini anglatib, uning qo'llanilishi loyiha hajmi, uning davomiyligi hamda loyiha xususiyatlari bo'yicha cheklovga ega bo'lmaydi. Shunisi diqqatga molikki, xalqaro amaliyotda sof joriy qiymat ko'rsatkichi asosan o'rta biznes vakillari tomonidan keng qo'llanilsa, yirik va kichik biznes vakillari tomonidan loyihalarni baholashda esa cheklangan darajada qo'llaniladi.


Lizing loyihasining rentabelligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$R_1 = \frac{\sum_{n=1}^m \left(\frac{FMI}{(1+rn)^n} \right)}{\sum_{n=1}^m \left(\frac{LTI}{(1+rn)^n} \right)} - 1 > 0$$

Ushbu ko'rsatkich lizing obyektidan foydalanish natijasida qo'lga kiritilgan sof joriy foydaning lizing loyihasini amalga oshirish davrining boshida diskontlangan lizing to'lovlari birligiga to'g'ri keladigan miqdorini anglatadi. Agar ushbu ko'rsatkich ijobiy qiymatga ega bo'lsa, lizingga oluvchi lizing shartnomasi muddati davomida qo'lga kiritgan foyda hisobidan lizing to'lovlarini qoplaydi va diskontlangan lizing to'lovlaridan R_1 miqdorda sof diskontlangan daromadga ega bo'ladi.

Lizing loyihasini tanlashda yuqori rentabellikka ega bo'lgan variantni afzal ko'rish kerak. Rentabellik ko'rsatkichini sof joriy qiymat bilan birga o'rta biznes vakillari doirasida lizing loyihalarini baholashda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Lizing loyihasining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri lizing to'lovlarining qoplash muddati hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich asosan yirik kapitalga ega bo'lmagan va lizingga beruvchiga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini zudlik bilan qaytarishga urinadigan kichik korxonalar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda qoplash muddatini m_q deb oladigan bo'lsak, unda lizing obyektidan foydalanish davrining boshidan lizing to'lovlari davrining umumiy miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi. Bunda lizing to'lovlari yig'indisi ushbu davr mobaynida lizing obyektidan foydalanish natijasida qo'lga kiritilgan sof joriy qiymat bilan tenglashtiriladi:



8.5-chizma. Lizingga oluvchi tomonidan eng maqbul lizing loyihasini tanlash ketma-ketligi

$$\sum_{n=1}^{mq} \left(\frac{F_{Mi}}{(1+r)^n} \right) = \sum_{n=1}^{mq} \left(\frac{L_{Ti}}{(1+r)^n} \right)$$

Qoplash muddati qanchalik kichik bo'lsa, lizingga oluvchi shunchalik tez muddat davomida lizingga yo'naltirgan mablag'larini qaytarib oladi.

Lizing loyihalari orasidan eng maqbul variantni tanlab olish metodikasini ma'lum bir ketma-ketlikda aks ettirishga harakat qilamiz (8.5-chizma).

8.5. Lizingga beruvchida lizing loyihasining baholanishi

Lizing faoliyatining samaradorligini baholash moliyani boshqarish bo'yicha adabiyotlarda keng muhokama qilinayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi sifatida lizing bozorida bu munosabatlar rivojlanishining dastlabki bosqichda ekanligi, lizing kompaniyalarining kamligi va lizing operatsiyalari hajmining kichikligini keltirish mumkin. Lizing bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, lizing ahamiyatining oshib borishi, lizing xizmatlari hajmi va lizing shartnomasi shartlarining kengayib borishi bilan ushbu xizmatning lizingga beruvchi uchun samaradorligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Lizingga beruvchi investitsion loyiha sifatida lizing shartnomasini miqdoran aniq baholay olishi lozim.

Lizingga beruvchining asosiy faoliyati sifatida lizing faoliyatining yakuniy mahsuloti lizing xizmatlari hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulot singari lizing xizmatlari ham rentabelligi bo'yicha baholanishi lozim.

Garchi lizingga beruvchi lizing obyektidan kelajakda investitsiya qilingan kapitaldan foiz ko'rinishida daromad olish maqsadini qo'yar ekan, uning moliyaviy investitsiyalari samaradorligini baholash masalasi kun tartibiga chiqadi.

Lizing samaradorligini pul oqimlariga asoslanib aniqlashda lizing xizmatlari va lizing obyektiga yo'naltirilgan investitsiyalarning rentabelligini nafaqat lizingga oluvchi uchun, balki lizingga beruvchi uchun ham pul mablag'lari kirimi va chiqimi tarkibini baholash bo'yicha ham aniqlash lozim.

8.5-jadval

Lizingga beruvchi pul oqimi tarkibi

Pul oqimlari elementlari			
Pul mablag'lari kirimi (+)		Pul mablag'lari chiqimi (-)	
Nomlanishi	Shartli belgisi	Nomlanishi	Shartli belgisi
Lizing xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan tushum (QQSsiz lizing to'lovlari), shu jumladan:	S_{lt}	Lizing objekti qiymati (investitsiya qilingan kapital)	S_{mt}
Amortizatsiya ajratmasi	S_a	Lizing xizmatlari tannarxi, shu jumladan:	S_{lt}
Foizlar miqdori	S_{kf}	Amortizatsiya ajratmasi	S_a
Qo'shimcha xizmatlar miqdori	S_{qx}	Foizlar miqdori	S_{kf}
Sug'urta badali miqdori	S_{bm}	Qo'shimcha xizmatlar miqdori	S_{qx}
Komission mukofot miqdori	S_{km}	Sug'urta badallari miqdori	S_{bm}
Lizingga beruvchida qo'shimcha pul oqimi sifatida lizing obyektini sotib olishda to'langan	S_{qqs_1}	Lizing xizmatlarini realizatsiya qilishdan olingan foyda solig'i miqdori	S_{fs}

QSSdan tejam			
Lizing to'lovlari	Sqqs ₂	QQS	Sqqs
tarkibida to'langan		Mol-mulk solig'i	Sms
QSSni qoplash			

Quyida keltirilgan 8.5-jadval ma'lumotlarini tahlil qilib, ayrim xulosalar chiqarish mumkin:

1. Lizingga beruvchi uchun lizing faoliyati asosiy faoliyat bo'lganligi sababli, olingan lizing to'lovlari uning uchun xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum bo'lib hisoblanadi.

2. Lizing xizmatlari tannarxiga lizing to'lovlarining quyidagi elementlari kiritiladi: amortizatsiya miqdori (Sa), lizing obyektni sotib olishda qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun to'lanadigan foiz miqdori (Skf), lizingga oluvchiga ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun to'lanadigan xarajatlar (Sqx), sug'urta badallari miqdori (Sbm).

3. Lizingga beruvchida qo'shimcha pul oqimi sifatida lizing obyektni sotib olishda to'langan QSSdan tejam (Sqqs₁) va lizing to'lovlari tarkibida to'langan QSSning qoplangan summalarini (Sqqs₂) keltirish mumkin:

$$Sqqs_1 = i_{qqs} * Skq;$$

$$Sqqs_2 = i_{qqs} * (Sa + Skf + Sbm + Sqx + Skm) = Sqqs;$$

Bu yerda: i_{qqs} – QQS stavkasi.

4. Pul mablag'lari chiqimining barcha elementlari lizing to'lovlari tarkibida pul mablag'lari kirimi tarkibiy qismlari sifatida qoplanadi.

5. Barcha elementlar bo'yicha pul mablag'lari chiqimi (lizing obyekti qiymatidan tashqari Skq) iloji boricha chiqimlar hisobidan qoplanadi.

6. Lizing obyektining qiymati lizing muddatining boshlang'ich davrida lizingga beruvchi uchun bir martalik xarajat hisoblanib, lizing to'lovlari tarkibida lizing mulki bo'yicha amortizatsiya sifatida ma'lum bir vaqt davomida taqsimlanib qoplanadi:

$$\sum_{i=1}^m Sai = Skq = R$$

Amaliyotda mahsulot (ish, xizmat)larning rentabelligini aniqlash uslubiyoti yetarlicha yoritilgan bo'lib, u daromad va xarajatlarni taqqoslashga tayanadi. Lizing xizmati bo'yicha daromad va xarajatlarning tarkibini aniqlash maqsadida pul mablag'lari kirimi va chiqimi elementlariga mos keluvchi matritsani shakllantiramiz (8.6-jadval).

8.6-jadval

Lizing xizmati bo'yicha pul mablag'lari kirimi va chiqimi elementlarining o'zaro muvofiqlik matritsasi

Pul mablag'lari chiqimi elementlari	Sa	Skf	Sqx	Sbm	Sfs	Sqqs	Sms	Jami Slt
Pul mablag'lari kirimi elementlari								
Sa	+							+
Skf		+						+
Sqx			+					+
Sbm				+				+
Sfs								+
Sqqs ₁								
Sqqs						+		
Jami Sxar	+	+	+	+		+		

Lizingga beruvchining yalpi daromadi pul mablag'lari chiqimi tarkibiga kirmaydigan pul mablag'lari kirimi elementlaridan shakllanadi, ya'ni:

$$Syad = Skm + Sqqs.$$

Lizingga beruvchining sof foydasi:

$$Sf = Syad - (Sfs + Sms) = (Skm + Sqqs) - (Sfs + Sms).$$

Lizing shartnomasi bo'yicha xarajatlar:

$$Sxar = Sa + Skf + Sqx + Sbm + Sqqs$$

yoki $Sxar = Slt - Skm.$

Ushbu keltirilganlardan foydalanib, lizing muddati davomida ushbu xizmatning rentabelligini (i_{π}) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$i_{\pi} = \frac{\sum_{i=1}^m S f i}{\sum_{i=1}^m S x_{\text{ari}}} = \frac{\sum_{i=1}^m (S k m + S q q s) i - (S f s + S m s) i}{\sum_{i=1}^m (S l t i - S k m) i}$$

bu yerda: m – hisob-kitob davrlari soni.

Rentabellik lizing muddati davomida lizingga beruvchining mulkka investitsiya qilingan kapital miqdori va lizing bo'yicha xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'z ichiga olgan bir birlik xarajatiga to'g'ri keluvchi komission mukofot va QQSdan tejam miqdorini anglatadi.


i_{π} ko'rsatkichi qanchalik katta bo'lsa, m hisob-kitoblar muddati davomida lizing loyihasi shunchalik samarali bo'ladi. Turli muddatli lizing shartnomalari bo'yicha lizing xizmatlarining samaradorligini taqqoslash uchun har bir shartnoma bo'yicha lizing xizmatining yillik rentabelligini (i_{rtvil}) aniqlash lozim:

$$i_{\text{rtvil}} = i_{\pi} / T,$$

bu yerda: T – shartnoma muddati (yil).

i_{rtvil} ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, lizing shartnomasi shunchalik samarali bo'ladi.

8.6-chizmada lizing xizmatining samaradorligini baholash algoritmi ifodalangan. Jahon va milliy amaliyotdan ma'lumki, moliyaviy investitsiyalarning samaradorligini baholash loyiha bo'yicha olinadigan foizli (yoki diskontli) daromad va investitsiyalangan kapitalni taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalardan farqli ravishda lizing mexanizmida investitsiyalangan kapital investitsiya muddati oxirida to'liq qaytarilmay, muddat davomida bo'lib qaytariladi (amortizatsiya summasi ko'rinishida). Lizing shartnomasi muddatining oxiriga kelib, investitsiya qilingan kapital miqdori imkon qadar kamayadi va buning natijasida komission mukofot ko'rinishidagi foizli daromad hajmi ham kamayib boradi.



8.6-chizma. Lizing xizmatining samaradorligini baholash

Lizingning moliyaviy investitsiyalarning vositasi sifatidagi o'ziga xosligi lizing obyekti o'rtacha yillik qiymatidan hisoblanadigan komission mukofot sifatida aniqlanishida namoyon bo'ladi. Lizing va moliyaviy investitsiyalarning boshqa shakllarida foizlarni hisoblashda iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir-biridan farqlanadigan ko'rsatkichlardan foydalanilishi lizing bo'yicha komission mukofot stavkasini muqobil moliyaviy investitsiyalar bo'yicha aniqlanadigan foiz stavkalari bilan taqqoslashda xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Ana shunday qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun, fikrimizcha, investitsion faoliyatning mohiyatidan kelib chiqib yondashish, ya'ni kiritilgan kapitaldan kutilayotgan daromad boshqa muqobil variantlar bilan taqqoslaganda yuqori bo'lishi kerakligidan kelib chiqish lozim. Ushbu fikrdan kelib chiqib:

$$i_{km} * Sl_{o'yq} = i_m * R$$

bu yerda: i_{km} – lizing loyihasi bo'yicha yillik komission mukofot stavkasi;

$Sl_{o'yq}$ – lizing mulkinining yillik o'rtacha qiymati;

i_m – muqobil moliyaviy investitsiya loyihalari bo'yicha me'yoriy yillik foiz stavkasi (masalan, ishonchli tijorat banki bo'yicha foiz stavkasi).

Lizing mulkinining yillik o'rtacha qiymati $Sl_{o'yq}$ quyidagicha aniqlanadi:


$$Sl_{o'yq} = \frac{Sl_b - Sl_o}{2}$$

bu yerda: Sl_b – shartnoma muddatining boshida mulkning qoldiq qiymati;

Sl_o – shartnoma muddatining oxirida mulkning qoldiq qiymati.

Shartnoma muddati davomida mulk qiymatining to'liq qoplanganida:

$$Sl_o = 0, Sl_{o'yq} = \frac{Sl_b}{2} \text{ tenglik o'rinli bo'ladi.}$$



8.7-chizma. Lizing xizmatining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash

Yuqorida keltirilgan tengliklardan kelib chiqib, muqobil moliyaviy qo'yilmalar quyidagi ko'rinishga keladi:

$$i_{km} * \frac{Sl_b}{2} = i_m * R$$

bu yerda: R = lizing obyekting qiymati.

Demak, lizingning ham boshqa muqobil moliyaviy investitsiyalar singari daromad keltirishi uchun komission mukofot stavkasi bilan me'yoriy foiz stavkasi o'rtasida quyidagi tenglik ta'minlanishi lozim:

$i_{km} = 2i_m$, ya'ni komission mukofot stavkasi boshqa moliyaviy investitsiyalar daromadlilikidan ikki marta yuqori bo'lishi kerak. Quyida keltirilgan chizmada lizing xizmatining uning barcha ishtirokchilari uchun samaradorligi keltirilgan. Lizing xizmatining iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, sanoat sohasini modernizatsiyalashga moliyaviy resurslarni lizing orqali jalb qilishning metodologik jihatlarini baholashning kompleks tizimiga tayanib, quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Loyihalarni moliyalashtirishning ko'p variantlilikini e'tiborga olgan holda strategik qarorlarni qabul qilishda tartibsizlik va subyektivlikka yo'l qo'ymaslik lozim. Bu holat esa bevosita lizing xizmatlarining samaradorligini turli usullar orqali obyektiv baholashda namoyon bo'ladi. Lizingning samaradorligini baholash usullari zamonaviy iqtisodiy ta'limotlar qonuniyatlariga hamda lizing xizmatini amalga oshirish bilan bog'liq barcha omil va ko'rsatkichlarga tayanishi lozim.

2. Lizing xizmatlari samaradorligini obyektiv baholashning asosiy omillari sifatida baholash usullarida obyektiv mezonning mavjudligini, hisob-kitoblarda vaqt omillarini, lizing turlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llashni, xalqaro lizing bozori istiqboli hamda lizing shartnomasidagi barcha ishtirokchilar manfaatlarini e'tiborga olish talab etiladi.

3. Investitsiya loyihalarini lizing orqali moliyalashtirishda lizingning samaradorligini lizing to'lovlarini hisoblash usullarini o'zaro taqqoslash

muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullarni o'zaro taqqoslash uchun avvalo, lizing to'lovlarining hajmini davrlar bo'yicha solishtirma holatga keltirish kerak. Lizing to'lovlarining hajmi korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ushbu mezonning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, korxona tomonidan usullarning noto'g'ri tanlanishi uning to'lovga qobiliyatligining pasayishiga olib keladi. Bu esa lizing shartnomasining ikkala tomon uchun ham salbiy holatini keltirib chiqaradi.

4. Lizing xizmatlarini amalga oshirishda lizing munosabatlari tizimining xalqaro xo'jalik munosabatlari istiqboliga tayanilgan tarkibiy-funksional tahlilini amalga oshirish lozim.

5. Lizing xizmatlarining obyektivligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida uning iqtisodiy samaradorligini baholashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalarini yangilash va ularni texnik qayta qurollantirish jarayonini jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning kompleksligiga alohida e'tibor berish lozim. Bunda asosiy vositalarni moliyalashtirish bo'yicha har bir loyihani alohida tahlil qilish talab etiladi. Aynan shu holat xo'jalik yurituvchi subyektlarni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka sabab bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar *Lizing samaradorligi, lizing xizmatining iqtisodiy samaradorligi, komission mukofot, pul oqimi, pul mablag'lari kirimi va chiqimi, lizingga beruvchining yalpi daromadi, sug'urta badallari.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Lizingning iqtisodiy samaradorligi nima?
2. Lizing operatsiyasining lizingga beruvchi uchun samaradorligi nimada?

3. Lizing operatsiyasining lizingga oluvchi uchun samaradorligi nimada?
4. Lizing operatsiyasining lizing obyektining sotuvchisi uchun samaradorligi nimada?
5. Lizing xizmatining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash qaysi subyektlar bo'yicha amalga oshiriladi?
6. Lizingga beruvchi pul oqimining tarkibi nimalardan iborat?
7. Lizing loyihasining ichki daromadlilik darajasi nimani anglatadi?

IX BOB. LIZING FAOLIYATIDA UCHRAYDIGAN RISKLAR VA ULARNI MINIMALLASHTIRISH YO'LLARI

9.1. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risk turlari

Lizing kompaniyalarining o'z faoliyatlari davomida duch keladigan risklarni 2 ta yirik guruhga ajratish mumkin:

1. Umumiy risklar – bu barcha korxonalar duch keladigan risklardir.


2. Maxsus risklar – faqatgina lizing faoliyati bilan bog'liq bo'lgan risklar.

Umumiy risklar tarkibiga quyidagi risk turlarini kiritamiz:

- Siyosiy;
- Makroiqtisodiy;
- Huquqiy;
- Soliq bilan bog'liq bo'lgan xavflar (risklar).

Lizing faoliyatida uchraydigan maxsus risklar jumlasiga loyiha riskini, shuningdek, lizing obyekti bilan bog'liq bo'lgan risklar, moliyaviy hamda lizing to'lovlarining to'lanmasligi bilan bog'liq bo'lgan risklarni kiritamiz.

Loyiha riski lizingga oluvchining moliyaviy va xarajatlar strategiyasi nuqtayi nazaridan olib qaralgan lizing loyihasining holati bilan bog'liq. Bu turdagi riskni pasaytirish uchun lizingga beruvchi tomonidan lizingga oluvchining biznes-rejasi yoki investitsion loyihasining samaradorligini hamda uning kelgusi pul oqimlarini, narx strategiyasi va h.k chuqur tahlil qilishni talab etadi (9.1-chizma).



9.1-chizma. Lizing faoliyatida uchraydigan risk turlari

Barcha lizing kelishuvlarida lizing obyektining qaytarilmaslik riski uchrab turadi. Lizing obykti garchi lizingga beruvchining mulki bo'lsada, amaldagi qonunchilikka muvofiq uni lizingga oluvchidan

mutlaqo tortib olish mumkin emas. Riskning ushbu turini qaytarish uchun lizingga oluvchining qanchalik insofli ekanligini, uning huquqiy jihatlarini to'liq o'rganib chiqish va lizing ta'minotining samarali sxemasini ishlab chiqish lozim.

Lizing obyektining yo'qotilishi bilan bog'liq risk asosan lizing obyektining o'g'irlanishi, talon-taroj qilinishi natijasida yuzaga keladi.

Ushbu risk turini kamaytirish uchun lizing obyektini sug'urtalash to'g'risidagi shartnomani tuzish lozim.

Lizing obyektini ikkilamchi bozorda realizatsiya qila olmaslik riskini kamaytirish uchun lizingga beruvchi va mol yetkazib beruvchi o'rtasida mulkni qaytadan xarid qilish yoki takroran realizatsiya qilish bo'yicha shartnoma tuzish lozim.

Moliyaviy risklar turiga quyidagilar kiradi:

1. Portfel riski – bu lizing shartnomalari portfelining lizingga oluvchilar o'rtasida notekis taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan riskdir.

2. Foiz riski – lizing shartnomasida ko'zda tutilgan stavkadan tashqari bank kreditlari bo'yicha lizing kompaniyasi to'lagan foiz stavkalari oshishi natijasida yuzaga keladigan yo'qotish riskidir.

3. Valyuta riski – valyuta lizingi bitimi tuzilishida yuzaga keladi va valyuta kursi tebranib turishi natijasida lizingga beruvchi yo'qotishi mumkinligini bildiradi.

Portfel riskini kamaytirish uchun lizing loyihalari portfelini shakllantirish bo'yicha yaratilgan strategiyani realizatsiya qilish talab etiladi. Ushbu portfelni shakllantirishda bir qancha yo'nalishlar mavjud:

- tarmoqli;
- mulk turi bo'yicha;
- hududiy;
- korxona shakli bo'yicha;
- moliyalashtirish hajmi bo'yicha.

Har xil hududlarda turli shakldagi mulk bilan turli xil sanoat tarmoqlarida lizing faoliyatini olib boruvchi universal kompaniyalar kam holatlarda portfel riskiga duch keladi.

Agarda lizing shartnomasida bank foiz stavkasining o'zgarishi tufayli lizing to'lovlari miqdorini qayta ko'rib chiqishi haqida kelishib olinsa foiz riskini kamaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunda shuni unutmaslik kerakki, lizing to'lovlarining miqdori ko'pi bilan 3 oyda 1 martagacha o'zgarishi mumkin.

Valyuta riskini kamaytirishning bir usuli bo'lib kreditlashda foydalanilgan valyuta bilan lizing to'lovlarini hisoblashda qo'llanilgan valyutaning o'zaro mosligini ta'minlash hisoblanadi.

Lizing kompaniyasi o'z faoliyati davomida duch keladigan eng jiddiy risk turlaridan biri lizing to'lovlarini to'lamaslik riskidir. Ushbu risk turini pasaytirishning eng samarali usuli bo'lib uni sug'urtalash hisoblanadi. Shuningdek, lizingga oluvchining kredit qobiliyatini kompleks ravishda tahlil qilishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Umuman olganda, lizing faoliyatida uchraydigan risk turlarini pasaytirishning eng samarali usuli lizing shartnomalarining qo'shimcha ta'minlanganligi bo'lib hisoblanadi. Lizing shartnomasida garchi lizing obyekti asosiy ta'minot sifatida e'tirof etilsada, u yagona ta'minot emas. Lizing shartnomasining qo'shimcha ta'minoti sifatida lizingga oluvchi tomonidan amalga oshirilgan bo'nak to'lovlarini, yuridik va jismoniy shaxslar kafilligini hamda garov sifatida mulkni e'tirof etish mumkin.

Bundan tashqari, lizingga oluvchining risklarini pasaytirish va lizing obyektlaridan g'oyatda samarali foydalanish uchun sublizingdan foydalanishadi. Masalan, agar lizingga oluvchi lizing obyektidan to'liq foydalanishi uchun yetarli resurslarga ega bo'lmasa, u obyektini uchinchi tarafga – bunday resurslari bo'lgan sublizingga oluvchiga berish mumkin. Lizingga beruvchi mol-mulkni lizingga oluvchiga berishni ba'zi ko'rsatkichlar (monitoringning murakkabligi, taqdim etiladigan

ba'zi bir talablarga muvofiqligi va h.k) bo'yicha o'zi uchun haddan tashqari riskli deb hisoblangan vaziyat ham yuzaga kelishi mumkin. Bu risklarni pasaytirish uchun taraflar lizingga beruvchi sifatida ana shu maqsadlar uchun ko'proq to'g'ri keladigan, lekin o'zi lizing subyektidan foydalanmaydigan, balki o'z zimmasiga pirovard oluvchining barcha risklarini oladigan kompaniyani tanlashlari lozim.

Bulardan tashqari yana jahon amaliyotida qayd etilgan quyidagi risk turlariga to'xtalib o'tamiz:

- **Marketing riski** – asosan tezkor lizingga xos bo'lib, taklif etilgan lizing mulkiga lizingga beruvchining 100 %li talabining bo'lmaslik riski. Lizing to'lovida risk mukofotining oshirilishi, bitim uchun uskuna va texnikaning eng ommabop turlaridan foydalanish, lizing shartnomasining muddati tugagach bozor konyunkturasini hisobga olib bitim obyektini sotish marketing riskining oldini olish usullari hisoblanadi.

- **Lizing bitimi obyektining ma'naviy eskirish riski.** Lizing bitimi obyekt, odatda, ko'p ilm talab qiladigan sohaning mahsuloti bo'ladi. Shunga ko'ra ular ko'pincha ancha samarali texnologiya va uskunalar yaratishi natijasida "ilmiy texnika taraqqiyoti ta'siriga uchraydi". Bu riskni minimallashtirishning asosiy usuli bo'lib, shartnomaning qat'iy muddatini belgilash, ya'ni shartnoma bekor qilinishi mumkin bo'lmagan davrni belgilash hisoblanadi.

- **Narx riski** – lizing bitimi amal qiladigan muddati mobaynida lizing bitimi obyektining narxi o'zgarishi bilan bog'liq daromadni aniq yo'qotish riski. Bunda lizingga beruvchi eski narxlarda tuzilgan lizing obyekt narxi oshgan hollarda qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan daromadni yo'qotadi. Eski narxlar bo'yicha lizingga olingan lizing mulki narxining pasayishidan lizingga oluvchi zarar ko'radi. Bu riskni birgalikda minimallashtirishga lizingning butun muddati mobaynida har bir lizing to'lovining miqdorini qayd etish yo'li bilan erishiladi.

• **Siyosiy risk** – mamlakatdagi siyosiy vaziyat o'zgarishi, ish tashlashlar, davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi va boshqalar bilan bog'liq moliyaviy yo'qotishlar riskidir.

• **Huquqiy risk** – muayyan mamlakatdagi lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari o'zgarishi natijasida lizingga beruvchida yuzaga keladigan yo'qotishlar bilan bog'liq.

9.2. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risklarni minimallashtirish yo'llari

Lizing faoliyatida uchraydigan risklarni pasaytirishning eng samarali usullaridan biri – bu lizing obyektini sug'urtalashdir.

Xalqaro amaliyotda lizing operatsiyalarining sug'urtalash sug'urtaning maxsus turi sifatida XIX asrda shakllangan bo'lib, u iqtisodiy inqiroz va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida qayta tiklangan, desak to'g'ri bo'ladi.

Lizing obyektini nobud bo'lish, yo'qotish, o'g'irlash, shikastlanish, buzilish va barvaqt eskirish xavfi bilan bog'liq bo'lgan tarzdagi har qanday yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan sug'urtalash taraflarning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, lizingga oluvchi lizing obyekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi.

Tadbirkorlik (moliyaviy) risklarni sug'urtalash lizing shartnomasiga muvofiq tomonlar kelishuviga asosan amalga oshiriladi va majburiy bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq lizingga oluvchi lizing mulkidan foydalanishi jarayonida boshqa shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga zarar yetishi mumkin bo'lgan hollarda vujudga keladigan javobgarligini sug'urtalash kerak.

Lizingga oluvchi lizing shartnomasining buzilishi bo'yicha o'zining javobgarligi riskini lizingga beruvchi foydasiga sug'urtalash huquqiga ega.

Lizing xizmatlari bozori tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliyotda lizing obyektlarining mulkiy sug'urtasi ko'p uchraydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra mol-mulk bilan bog'liq risklarni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnomalarning usuli barcha lizing shartnomalarining 90 %ni tashkil etadi. Lizingga beruvchining moliyaviy risklarini sug'urtalash esa barcha lizing shartnomalarining 2 % ulushini tashkil etadi.

Mulkiy sug'urtaga sug'urtalovchi sifatida (yoki benefitsiar) lizingga beruvchi yoki lizingga oluvchi ishtirok etishi mumkin. Birok lizing obyektining o'g'irlanishi hamda nobud bo'lishi riski bo'yicha lizingga beruvchi foydaga egalik qiluvchi subyekt sifatida chiqadi.

Mamlakatimiz sug'urta bozorida faol rivojlanib borayotgan "Kapital" davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi viloyatimiz lizing bozorida uchraydigan turli xil risk turlaridan lizing obyektlarini himoyalashda muhim ahamiyatga ega. Bu kompaniya "Uzavtosnoat leasing" ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi bilan birgalikda lizingga berilayotgan mol-mulkni sug'urtalash hamda lizingga oluvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha sug'urta badali miqdori eng kam ish haqining 1000 barovari miqdoridan 2 % va 0,7 % ulushida undiriladi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizda lizing bozorining mavjud risklardan yuqori darajada himoyalanganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga muvofiq lizing objekti bilan bog'liq barcha risklar, shu jumladan uning tasodifan yo'qolishi (nobud bo'lishi) yoki tasodifan buzilishi, shuningdek, o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, shikastlanishi xavflari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizingga oluvchiga o'tadi. Risklar lizingga oluvchiga o'tgan daqiqadan e'tiboran lizingga oluvchi

lizing obyektini har qanday tarzda yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi.

Agar risklar lizingga beruvchidan lizingga oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shartnomasida belgilangan bo'lmasa, risklar lizingga oluvchiga u lizing obyektini olgan daqiqadan e'tiboran o'tadi.

Agar taklif etilgan lizing obyektini lizing shartnomasiga mos kelmasa va bu lizingga oluvchiga lizing obyektidan voz kechish huquqini bersa, ana shunday nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar yoki lizingga oluvchi lizing obyektini olgunga qadar barcha risklar lizingga beruvchi zimmasida bo'ladi.

Sotuvchining to'lovga qobiliyatsizligi yoki lizing obyektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqligi risklari lizingga oluvchining zimmasida bo'ladi, lizingga lizingga beruvchining sotuvchini yoki lizing obyektini tanlash yoxud lizingga beruvchi lizingga oluvchini muayyan sotuvchini yoki lizing obyektini tanlashga g'ayriqonuniy tarzda majburlash hollari bundan mustasno.

9.3. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risklarni minimallashtirishda ichki nazoratning ahamiyati

Lizing kompaniyalari faoliyati davomida ularning asosiy vazifasi o'z vaqtida samarali ichki nazoratni tashkil etish bo'lib, u orqali lizing predmetini saqlab qolish, pul mablag'lari oqimining hajmini optimallashtirish, lizing shartnomasining amal qilishi davomida yuzaga keladigan risklarni minimallashtirish hamda lizing munosabatlari ishtirokchilariga shaffof axborotlarni taqdim etish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda faoliyat samaradorligini oshirishning muhim jihati lizing kompaniyalarida doimiy ravishda nazorat tizimining yo'lga qo'yilishi bilan belgilanadi.


Ma'lumki, nazorat boshqarish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining

asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o'rnatilgan parametrlari va me'yoriy ko'rsatmalardan og'ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi obyekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir⁴⁸. Bu esa istalgan boshqaruv tizimi nazorat funksiyasini amalga oshirishi lozim degan fikrga olib keladi. Natijada korxona (tashkilot)da nazoratni amalga oshiruvchi subyektning huquq, majburiyat va mas'uliyati yuzaga kelib, nazorat usul va uslublari aniqlanadi.

Ichki nazorat – mulkdorlar tomonidan korxonada eng kam xarajat qilib, belgilangan maqsadga erishtiruvchi zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Korxonada ichki nazorat tizimini korxona rahbariyati tomonidan samarali va tartibga solingan faoliyatni amalga oshirish, rahbariyat topshiriqlariga amal qilish, aktivlarni saqlash, hujjatlarning aniqligi va to'liqligi kabi maqsadlarga eltuvchi moliyaviy yoki boshqa turdagi nazorat tizimi sifatida e'tirof etish mumkin. Korxonada ichki nazorat tizimi faoliyatni rejalashtirishdan boshlab, to moliyaviy hisobotni tuzishgacha bo'lgan biznes-jarayonlarda qo'llaniladi.

Lizing kompaniyalarida ichki nazoratni amalga oshirishdan asosiy maqsad mulkdorlar va foydalanuvchilar tomonidan oqilona iqtisodiy-moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun shaffof va obyektiv axborotlar bilan ta'minlash hamda lizing shartnomasini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risk darajasini pasaytirishga imkon beradigan samarali boshqaruv tizimini yaratish bo'lib hisoblanadi. Lizing operatsiyalarining ichki nazoratini amalga oshirib, asosiy maqsadga erishish quyidagi qo'shimcha maqsadlarga erishishni ta'minlaydi (9.2-chizma).

⁴⁸ Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma. T., 2014. 380 b.



9.2-chizma. Lizing operatsiyalarining ichki nazorati bo'yicha maqsadlarning tasniflanishi

O'zbekistonda lizingga beruvchilar ichki nazoratining maqsadi quyidagilardan iborat:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga yo'naltirilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni samarali aniqlash va oldini olish;
- lizingga beruvchilarning qasddan yoki qasddan bo'lmagan jinoiy faoliyatga jalb qilinishiga yo'l qo'ymaslik;
- lizing beruvchi faoliyati sohasidagi risklarni, shuningdek, ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash va baholash;
- lizingga beruvchilar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga, shuningdek, lizing faoliyatini amalga oshirishda ichki hujjatlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash.

Ushbu maqsadga erishish uchun avvalo quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi (9.3-chizma):




9.3-chizma. Lizing kompaniyasida ichki nazoratni amalga oshirish mexanizmi

Lizing kompaniyasida ichki nazoratning tizimlilik xususiyati beshta asosiy element bo'yicha namoyon bo'ladi:

- nazorat muhiti;
- lizing kompaniyasining riskni baholash jarayoni;
- axborot tizimi (xususan, moliyaviy hisobotni tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan);
- nazorat qilish bo‘yicha choralar;
- nazorat vositalarini monitoring qilish.

Mamlakatimiz milliy lizing bozorida faoliyat yurituvchi Respublika ixtisoslashtirilgan “Qurilishmashlizing” lizing kompaniyasida ichki nazorat jarayoni quyidagi elementlardan shakllangan (9.4-chizma):



9.4-chizma. Lizing kompaniyalarida ichki nazoratning tarkibiy elementlari

Ushbu elementlar asosida lizing kompaniyasining o‘ziga xosligi (kompaniya faoliyat yo‘nalishi va boshqaruv strukturasi)dan kelib chiqib kompaniyaning ichki nazorat tizimi ishlab chiqilishi lozim. MDH davlatlari, xususan Rossiya Federatsiyasida lizing kompaniyalarida boshqaruv tizimida aksariyat hollarda bosh direktor, moliyaviy direktor, bosh hisobchi va hisobchi, yurist-maslahatchi, ichki nazorat bo‘yicha mutaxassis hamda mijozlar bilan ishlash bo‘yicha menejerlar faoliyat yuritadi. Aynan ichki nazoratni amalga oshiruvchi mutaxassis birinchi navbatda lizing kompaniyasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni

legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan me'yoriy hujjatlarga amal qilishni nazorat qilib boradi⁴⁹. Lizing kompaniyasida mavjud bo'limlar faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnoma va nizomlarga asosan kompaniyaning ichki nazorat tizimida nazorat jarayonini amalga oshirish tartibi belgilab beriladi (9.1-jadval).

9.1-jadval

Lizing kompaniyasining ichki nazorat tizimida nazorat jarayonining amalga oshirilishi⁵⁰

№	Nazorat jarayonining yo'nalishlari	Ijrochi (mas'ul)
1	Lizing xizmatlari bozorini tahlil qilish va nazoratini amalga oshirish	Bosh direktor, moliyaviy direktor (menejer)
2	Lizing shartnomasini amalga oshirishda yuzaga keladigan risklarni tahlil qilish	Bosh direktor, moliyaviy direktor (menejer), ichki nazorat bo'yicha mutaxassis
3	Lizing munosabati ishtirokchilarining moliyaviy holatini tahlil va nazorat qilish	Moliyaviy direktor (menejer), mijozlar bilan ishlash bo'yicha menejer
4	Shartnomaning qonuniyligini nazorat qilish	Yurist-maslahatchi, ichki nazorat bo'yicha mutaxassis
5	Lizing operatsiyasini hujjatlashtirishning to'g'ri va to'liqligini nazorat qilish	Mijozlar bilan ishlash bo'yicha menejer, hisobchi
6	Lizing operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirishni nazorat qilish	Bosh hisobchi

⁴⁹ Черногузова И.Г. Методические аспекты организации внутреннего контроля лизинговых операций у лизингодателей // Экономика и предпринимательство. 2013. №6(35). С. 411-414.

⁵⁰ Плешанова Д.А., Яляева Т.В. Построение системы внутреннего контроля лизинговых операций // Economics & Law. 2015. № 8-9 С. 54-55.

7	Lizing to'lovlari holatini nazorat qilish	Hisobchi, moliyaviy direktor
8	Lizing obyektining joriy holatini baholash va butligini nazorat qilish	Ichki nazorat bo'yicha mutaxassis
9	Lizing operatsiyalarini tahlil qilish	Moliyaviy direktor (menejer)
10	Lizing kompaniyasi moliyaviy holatini tahlil qilish	Moliyaviy direktor (menejer), bosh hisobchi

Mamlakatimizda lizingga beruvchilar ichki nazoratining vazifalari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi⁵¹:

- qonun hujjatlariga muvofiq mijozlarni lozim darajada tekshirish choralari amalga oshirish;

- benefitsiar mulkdorlar (pirovard natijada mulk huquqiga ega bo'lgan yoki mijozni haqiqiy nazorat qiluvchi jismoniy shaxs yoxud mijoz tomonidan, uning manfaatlari yo'lida pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyani amalga oshirayotgan yuridik shaxs)ni, shuningdek, lizing faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk manbalarining kelib chiqish manbalarini aniqlash va o'rganish;

- ma'lum bir mezonlar asosida shubhali operatsiyalarni aniqlash;
- ichki nazoratni amalga oshirish davomida aniqlangan va xabar qilinishi lozim bo'lgan shubhali operatsiyalar haqidagi axborotlar (hujjatlar)ni departamentga o'z vaqtida taqdim etish;

- alohida hollarda xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni, bu operatsiya bajarilishi lozim bo'lgan sanadan e'tiboran uch ish kuniga to'xtatib turish hamda bunday operatsiya haqida operatsiya to'xtatib turilgan kunning o'zida departamentni xabardor etish;

⁵¹ "Lizing xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizمنى moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari" 1-bo'lim, 3-bandi.

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlash;

– lizing faoliyati to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, identifikatsiyalash ma‘lumotlarini va mijozlarni lozim darajada tekshirishga doir materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar mobaynida saqlanishini ta‘minlash;

– lizingga beruvchilar rahbariyatini tegishli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ishonchli axborot va materiallar bilan tezkor va muntazam ta‘minlab borish;

– shubhali operatsiyalarning amalga oshirilganligi yoki amalga oshirishga urinishlar haqidagi, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan mijozlar bilan bog‘liq shaxslar (rahbarlar, ta‘sischilar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasini yaratish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq bunday axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro ayirboshlash;

– so‘rovnomalar bo‘yicha mijozlar bazasidan terrorchilik faoliyatini moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarni aniqlash;

– lizing beruvchi faoliyati doirasida risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, aytishimiz mumkinki, lizing kompaniyalarida ichki nazoratni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga tayanilsa, nazoratning samaradorligi yanada oshadi, deb hisoblaymiz:

– uzluksizlik tamoyili – ichki nazorat tizimlarini doimiy va tegishli ravishda amalga oshirish kompaniyada risklarni o‘z vaqtida aniqlash va kelajakda ularni kelib chiqishini ogohlantirishga imkon beradi;

– ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdorligi tamoyili – lizing munosabatlari har bir ishtirokchisining nazorat qiluvchi

funksiyalarini bajarish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchilari tomonidan nazorat qilinishini anglatadi;

– majburiyatlarning taqsimlanishi tamoyili – kompaniya nazorat qiluvchi funksiyalarni takrorlamaslikka harakat qiladi va bu funksiyalar xodimlar o'rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, toki aktivlarni saqlash va ularning inventarizatsiyalashni ta'minlash, operatsiyalar hisobi, muayyan aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni tasdiqlash funksiyalari bitta va o'sha shaxs tomonidan takrorlanmasligi lozim;

– lizing operatsiyalarning tegishli ravishda ma'qullanishi va tasdiqlanishi tamoyili – kompaniya vakolatli shaxslar tomonidan ularning vakolatlari doirasida barcha moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarni tasdiqlashning qonun tomonidan o'rnatilgan tartibiga rioya etishga intilishi;

– majburiylik tamoyili – ichki nazoratning kompaniyada ishlaydigan barcha subyektlarning nazorat qiluvchi funksiyalarni tegishli tartibda bajaralishiga bo'lgan majburiyatini anglatadi;

– aniqlik tamoyili – kompaniya barcha bo'linmalarining aniq o'zaro ta'siri asosida ichki nazoratni amalga oshirish;

– doimiy rivojlanish va takomillashish tamoyili – kompaniya yangi vazifalarni hal etish, tizimni kengaytirish va takomillashtirish zaruriyatini hisobga olgan xolda soddalashtirilishi mumkin bo'lgan ichki nazorat tizimi uchun sharoitlarni ta'minlashga harakat qilishi;

– og'ishlar haqida xabarlarini o'z vaqtida yetkazish tamoyili – kompaniyada og'ishlarni bartaraf qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolati berilgan shaxslarga tegishli ma'lumotlarni maksimal darajada qisqa muddatda yetkazish yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, ichki nazorat tizimi lizing kompaniyasidagi asosiy masala, ya'ni debitorlik qarzdorlikni o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qilishi lozim. Sababi lizing kompaniyasining keyingi faoliyati lizing shartnomalari bo'yicha to'lovlar oqimiga bevosita bog'liq bo'lib,

muddatida amalga oshirilmagan to'lovlar oxir-oqibatda pul mablag'larining taqchilligini yuzaga keltiradi. Bunday holatning yuzaga kelmasligi uchun lizing shartnomasi ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarini doimiy ravishda tartibga solib turish talab etiladi.

Tayanch so'z va iboralar *Risk, umumiy risklar, maxsus risklar, makroiqtisodiy risklar, siyosiy risk, narx riski, ichki nazorat, nazorat muhiti, risklarni baholash, risklarni boshqarish, sug'urtalash, diversifikatsiyalash.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Risk deganda nimani tushunasiz?
2. Umumiy risklar nima?
3. Maxsus risklarning mohiyati nimada?
4. Lizing kompaniyalarida yuzaga keladigan maxsus risklarning sabablarini ko'rsating?
5. Lizing kompaniyalarida ichki nazoratning tarkibiy elementlari nimadan iborat?
6. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risklarni minimallashtirishning qanday usullari bor?
7. Moliyaviy risk nima va uning qanday turlari lizing faoliyatida kuzatilishi mumkin?
8. Lizing kompaniyasi faoliyatida ichki nazorat nimaga xizmat qilishi kerak?
9. Lizing kompaniyalarida ichki nazoratni amalga oshirishning qanday tamoyillari mavjud?
10. Ichki nazoratning predmeti nimalardan iborat?

X BOB. SEKYURITIZATSIYA – LIZINGNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMI SIFATIDA

10.1. Sekyuritizatsiya tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Moliya bozorida mablag'larning taqchilligi muammosi moliyaviy resurslarni jalb qilishning muqobil mexanizmidan foydalanishni talab etadi. Ana shunday mexanizmlardan biri sekyuritizatsiya bo'lib, u nisbatan yangi moliyaviy innovatsiyalar jumlasiga kiradi.

Moliyalashtirish jarayonining uzluksizligini ta'minlash va uning hajmini oshirishga bo'lgan talab, moliyaviy mablag'larni jalb etishni takomillashtirishning dolzarbligi, moliyaviy vositalar qiymatining fond bozorida kredit bozoriga nisbatan pastligi, kredit bo'yicha foiz stavkalarining yuqori o'zgaruvchanligi, bank hamda soliqqa oid me'yoriy hujjatlardagi doimiy o'zgarishlar, shuningdek, aloqa vositalarini texnik va texnologik jihatdan qurollantirish natijasida axborot almashinuvining tezlashishi aktivlarni sekyuritizatsiya qilish (asset securitisation) deb nomlangan yangi mexanizmning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Sekyuritizatsiya atamasi inglizcha (securities)dan kelib chiqqan bo'lib, "qimmatli qog'ozlar" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama dastlab o'tgan asrning 70-yillarida AQShda paydo bo'lib, hozirgi kunda Kanada, Rossiya, Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida milliardlab dollarlar muomalada bo'ladigan kapital bozorining tarkibiy qismini egallagan vositalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda sekyuritizatsiya atamasi keng talqin qilinib kelinayotgan bo'lsada, uning iqtisodiy mohiyatini yoritish borasida yagona bir to'xtam yo'q. Ayrim

iqtisodchi olimlar sekyuritizatsiyani mulkdor tomonidan aktivlarni uchinchi shaxsga sotish bo'yicha kelishuv degan fikrni ilgari surib kelishmoqda, ya'ni ular tomonidan: "Bank kreditlari sekyuritizatsiyasi deganda bank berilgan kreditni uni qoplash muddati tugaguniga qadar to'liq yoki qisman sotib o'z balansidan chiqarishi hamda bu kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni olish huquqini yangi kreditorga topshirishi tushuniladi" deb e'tirof etilgan⁵².

Ikkinchi bir guruh olimlarning fikricha sekyuritizatsiya deganda ipoteka kreditlari paketi bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish tushuniladi⁵³. Ushbu masalaga taalluqli fikrni o'zmoz oydinlashtirishga harakatlar L.Gavrilovanning ilmiy ishlarida ham uchratish mumkin, u kishining fikriga ko'ra sekyuritizatsiya deganda aniq bir aktivlar portfeli bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish tushuniladi⁵⁴.

Yuqorida keltirilgan ikki guruh olimlari fikridan farqli o'laroq, uchinchi guruh mualliflari "Sekyuritizatsiya – bu faqatgina bir aniq u yoki bu jarayon bilan emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta, ya'ni aktivlarni sotish, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish, aktivlardan kelib tushadigan mablag'larni jamlash va bevosita bu mablag'lardan investorlarga to'lovlarni amalga oshirish kabi jarayonlar bilan bog'liq", deb fikr bildirishadi. Bunga misol tariqasida N.Aleksandrovaning quyidagi fikrlarini keltirish ham mumkin: "Aktivlar sekyuritizatsiyasi moliyalashtirishning shunday innovatsion usuliki, bunda sekyuritizatsiyani amalga oshirayotgan subyekt ixtiyoridagi aktivlar ajratilib, differensiatsiyalangan aktivlar paketi (pul)ga o'tkaziladi va uning balansidan chiqariladi. So'ngra bu paket kelajakda yuqorida belgilangan aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni


⁵² М.Ю.Бабичев, Ю.А.Бабичева, О.В.Трохова и др. Банковское дело: Справоч. пособие / Под ред. Ю.А.Бабичевой. М.: Экономика, 1994. С.164.

⁵³ А. Копейкин, Л. Стебеньев, Б. Скоробогатко, А. Пенкина. Американская модель ипотеки // Рынок ценных бумаг. 1999. №8. С. 21.

⁵⁴ Гаврилова Л. Как использовать кредитные деривативы // Рынок ценных бумаг. 2000. №7. С. 40.

muomalaga chiqaradigan maxsus shakllantiriladigan yangi tashkilotga o'tkaziladi. Bu tashkilot muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarni investorlarning keng qatlami orasida joylashtiradi"⁵⁵.

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganar ekanmiz, yuqorida keltirilgan fikrlar bilan bir qatorda I.Blank va P.Rouzlarning ham bu boradagi fikrlari qanchalik muhim ekanligiga e'tibor beramiz. Bu omillar sekyuritizatsiyani u yoki bu aktivlarning qimmatli qog'ozlarga "aylanishi" deb e'tirof etishgan. Xususan, I.Blank o'z ilmiy ishida past likvidli moliyaviy aktivlarning kapital bozorida muomalada bo'ladigan likvidli qimmatli qog'ozlarga aylanish jarayonini sekyuritizatsiya, deb ta'riflagan bo'lsa⁵⁶, P.Rouz sekyuritizatsiyani past likvidli aktivlarga aylanishi jarayoni kabi ifodalagan⁵⁷.



10.1-chizma. Sekyuritizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari

⁵⁵ Александрова Н.В. Понятие и виды секьюритизации активов // Финансы и кредит. 2007. №5. С. 27.

⁵⁶ Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. К.: Эльга-Н, Ника-Центр, 2001. Т. 2. С. 448.

⁵⁷ Роуз П.С. Банковский менеджмент. М.: Дело, 1997. С. 429.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash kerakki, mualliflar sekyuritizatsiyaga ta'rif berganda muntazam ravishda amalga oshiriluvchi harakatlardan iborat jarayonga urg'u berishgan. Biroq ularning barchasida sekyuritizatsiya jarayonining u yoki bu xususiyatlari aks etgan xolos. Ularning barchasini umumlashtirib, sekyuritizatsiyaga aktivlarni qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish hamda ularga xizmat ko'rsatishga jalb etish jarayoni deb ta'rif berishimiz mumkin. Fikrimizcha ushbu ta'rifda sekyuritizatsiyaning barcha xususiyatlari o'z ifodasini topgan bo'lib, bu xususiyatlarni quyidagi 10.1-chizma orqali aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilish jarayoni quyidagi to'rt moliyaviy vosita – kredit, lizing, faktoring hamda qimmatli qog'ozlar kesimida yuzaga kelgan⁵⁸. Investitsion loyihalarni amalga oshirishning turli xil modellarini qo'llashni talab etuvchi ushbu innovatsion mexanizm korxonalarning asosiy fondini yangilash, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishda yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradi.

Sekyuritizatsiya mexanizmini lizing portfeliga nisbatan qo'llash hozirgi kunda lizing bozorining sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tgan mamlakatlar tajribasida uchratish mumkin. Xususan, AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlarida lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilish jarayoni o'tgan asrning 80-yillari boshlaridan boshlab keng qo'llanilib, so'nggi 20 yil ichida uning hajmi 1,5 trln. AQSh dollarini tashkil etgan⁵⁹. Bu bosqichda iqtisodiyotning tarmoqlari va aktivlar turlari bo'yicha operatsiyalar hajmining o'zgarishi bir maromda kechib, eng asosiysi, lizing shartnomasini bajarish jarayonida lizing mulkining sotish qiymatini bashorat qilishga imkon beruvchi ikkilamchi bozor infratuzilmasining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

⁵⁸ Газман В.Д. Лизинг: финансирование и секьюритизация: Учебник. Высшая школа экономики, 2011. С.193.

⁵⁹ Газман В.Д. Лизинг: финансирование и секьюритизация: Учебник. Высшая школа экономики, 2011. С.251.

Lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilish – bir yoki undan ortiq lizingga beruvchilar lizing shartnomalarining kelajakdagi pul mablag‘lari oqimi asosida portfelnii shakllantirish jarayoni bo‘lib, bu jarayon qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarishda ta‘minot sifatida, shuningdek, ushbu qimmatli qog‘ozlarni lizing operatsiyalarining keyingi qayta moliyalashtirilishi uchun ma‘lum bir investorlar guruhiga sotish sifatida ham e‘tirof etiladi.

Lizing portfelini sekyuritizatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilganda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratiladi, ya‘ni sekyuritizatsiyalanadigan aktivlar:

➤ geografik jihatdan, lizingga oluvchilar shakli va hajmi, shuningdek, iqtisodiyotning tarmoqlari jihatidan yaxshi balanslashtirilgan va diversifikatsiyalashgan bo‘lishi lozim;

➤ huquqiy jihatdan erkin ayirboshlanadigan va sotiladigan bo‘lishi lozim;

➤ pul mablag‘larining doimiy va barqaror oqimini ta‘minlay olishi lozimki, bu pul mablag‘lari oqimining tarkibi majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarning tarkibi bilan mos kelishi kerak.

10.2. Lizing aktivlarini sekyuritizatsiyalashning asosiy turlari va o‘ziga xos xususiyatlari

Xalqaro amaliyotda lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilishning turli mexanizmlaridan foydalaniladi. Bu esa sekyuritizatsiyani tasniflash lozimligini keltirib chiqaradi.

Aktivlar sekyuritizatsiyasining quyidagi ikki turi keng tarqalgan:

1. Klassik sekyuritizatsiya. Ushbu mexanizm aktivlarni vositachilarsiz sotishni (true sale) nazarda tutib, sotuvchi sifatida shartnomaning tashkilotchisi, ya‘ni lizingga beruvchi, xaridor sifatida esa maxsus yuridik shaxs (SPV) faoliyat ko‘rsatadi. Natijada aktivlarning yangi mulkdoriga qarzlarni qabul qilib olish uchun egalik

huquqi beriladi va qimmatli qog'ozlarning navbatdagi emissiyasi amalga oshiriladi. Aktivlarning o'tkazilishi bevosita tashkilotchi faoliyati bilan bog'liq risklardan himoyalash maqsadida amalga oshirilishi ham mumkin.

2. Sintetik sekyuritizatsiya. Aktivlarni sekyuritizatsiya qilishda aktivlar har doim ham shartnoma tashkilotchisining balansidan chiqarilmaydi. Sintetik sekyuritizatsiyada debitorlik qarzlarga bo'lgan egalik huquqi tashkilotchi tomonidan maxsus yuridik shaxs (SPV)ga bevosita, ya'ni aktivlarga egalik qilish huquqsiz o'tkaziladi, ya'ni bunda aktivlarni sotish o'rniga ular garovga beriladi.

Sekyuritizatsiya obyekti bitta yoki bir nechta aktiv bo'lishi mumkin. Bu yerda barchasi shartnoma tomonlarining maqsad va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi hamda quyidagilar e'tiborga olinadi: barcha risklarni inobatga olgan holda lizing kompaniyasi yoki lizingga beruvchilar guruhi bitta yoki bir nechta lizing shartnomasi doirasida to'planishadi. Ammo yangi shartnomalarni tuzish uchun naqd resurslar yoki mavjud bo'lmaydi, yoki yetarli bo'lmaydi, yoki nisbatan arzon vositalarni jalb qilish orqali qayta moliyalashtirishni amalga oshirish talab etiladi. Shuning uchun lizing kompaniyasi ma'lum muddatga tuzilgan shartnomani oldi-sotdi shartnomasi yoki lizing obyektiga bo'lgan huquqini o'tkazish shartnomasi asosida SPVga o'tkazishga tayyor bo'ladi va bunda shartnoma lizingga oluvchi tomonidan bajarilishi davom ettiriladi. Bu esa tashkilotchining SPV bilan kelishuvidan so'ng ham lizingga oluvchi shartnomani bajarishni davom ettiradi, biroq lizing to'lovlarini lizingga oluvchiga emas, SPVga to'lab beradi, ya'ni lizingga oluvchi uchun shartnoma doirasida majburiyatlarni qabul qiluvchi shaxs o'zgaradi. O'z navbatida, klassik sekyuritizatsiyada lizing obyektining mulkdori o'zgaradi – SPV mulkdor sifatida maydonga chiqadi, sintetik

sekyuritizatsiyada esa bu jarayon kuzatilmaydi, mulkdor sifatida dastlabki lizingga beruvchining o'zi qoladi.

Lizingga beruvchilardan kerakli lizing shartnomalarini sotib olish yoki huquqdan voz kechish shartnomasi bo'yicha belgilangan summani to'lash maqsadida mablag'larni jamlash uchun obligatsiyalar muomalaga chiqariladi. Obligatsiyalar emissiyasining ta'minoti bo'lib lizing aktivlari (obyekti): asosiy vositalar va lizing to'lovlarini olish uchun o'tkazilgan huquqlar hisoblanadi.

Lizing shartnomasining oldi-sotdi kelishuvi amalga oshirilishidan avval o'tkaziladigan aktivlarning likvidiligi aniqlanadi. Buning uchun lizingga oluvchi rivojlanishining istiqbollari va moliyaviy barqarorligi baholanadi, o'tkazib beriladigan portfelning balanslashganlik darajasi aniqlanadi, SPVga o'tkaziladigan aktivlar bozoridagi vaziyat monitoring qilinadi, lizingga oluvchining mavqeini tavsiflovchi o'ziga xos xususiyatlar aks etgan ma'lumotlar batafsil to'planadi, moliyalashtirish manbaini jalb qilish usullari aniqlanadi. Qoida bo'yicha ushbu ishni tashkilotchi amalga oshiradi.

Lizing shartnomasining oldi-sotdi kelishuvi yoki huquqlardan voz kechishda tomonlar kelishuvni amalga oshirish bo'yicha turli xil ssenariylarni ko'zda tutishlari lozim, misol uchun, tashkilotchiga nisbatan hamda ushbu shartnomani oldingi mulkdorga qaytarish bo'yicha regress da'vosi, dastlabki lizing shartnomasi bo'yicha barcha ta'minotning SPVga o'tkazish huquqi, xaridor tomonidan mablag'ning to'liq amalga oshirilmadan, ma'lum bir qismining (misol uchun, 80%) to'lab berilishi va h.k.

Xorijiy amaliyotdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, lizing shartnomasining sotuvi lizingga beruvchi portfelining hajmi juda katta miqdorga yetkazilganda amalga oshiriladi⁶⁰. Bunda lizingga beruvchi

⁶⁰ Газман В.Д. Лизинг: финансирование и секьюритизация. М.: ГУ ВШЭ, 2011. 194 с.

portfelni SPVga to'liq yoki qisman sotadi. Portfelning yangi mulkdori lizing shartnomalari bo'yicha to'lovlarni qabul qiladi va taqsimlaydi. SPV tomonidan emissiya qilingan obligatsiyalarni sotib olgan investorlar lizing to'lovlari qaytarilishi hisobiga shakllangan mablag'lardan kuponli daromad olishadi.

Sintetik sekyuritizatsiya mexanizmidan foydalanilganda lizing to'lovlari avvalgiday lizingga beruvchiga to'lanadi. Ular emissiya qilingan obligatsiyalar va lizingga beruvchiga kredit taqdim etishda ta'minot sifatida foydalaniladi. Eng muhim jihati shundaki, taqdim etiladigan kredit shartlari lizing obyektini xarid qilish uchun olinadigan kreditga nisbatan ancha samarali hisoblanadi.

Sekyuritizatsiyaning ikki turini taqqoslash natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- lizing shartnomalarini sotish natijasida lizing obyektining lizingga beruvchining balansidan chiqarilishi kuzatiladi. Sintetik sekyuritizatsiyada asosiy vositalar ko'rinishidagi lizing objekti lizingga beruvchining balansida qoladi;

- klassik sekyuritizatsiya natijasida shartnoma xarididan so'ng SPV qisman lizingga beruvchiga aylanadi, lizing kompaniyasi esa servis kompaniyasi funksiyalarini bajaruvchi bo'lib qoladi. O'z navbatida, sintetik sekyuritizatsiyada lizingga beruvchi o'zgaraydi va hech qanday servis xizmatlari funksiyasi ajratilmaydi;

- shartnomalar transchegaraviy xususiyatga ega bo'lganligi sababli, klassik sekyuritizatsiyada soliq bilan bog'liq risklar (QQS stavkasining o'zgarishi, tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash mexanizmidan foydalanishning taqiqlanishi, mol-mulk solig'ini tashkil etishning qo'shimcha murakkablashuvi) yuzaga kelishi mumkin. Sintetik sekyuritizatsiyada bunday muammolar kuzatilmaydi. Buning asosiy

sababi sifatida lizingga beruvchi va soliq to'lovchilarning o'zgarimasligini keltirib o'tish mumkin;

– klassik sekyuritizatsiyada emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarning reytingini yuritish va listing xarajatlarini amalga oshirish talab etilsa, sintetik sekyuritizatsiyada esa yevroobligatsiya mexanizmi qo'llaniladi. Bunda qimmatli qog'ozlar ijro etilganda yuqoridagi shartlar majburiy bo'lmaydi;

– kapital bozorida pul mablag'lari qiymatining tabaqalashuvi hamda sekyuritizatsiya bo'yicha ko'plab mamlakatlarda milliy qonunchilikning mavjud bo'lmashligi shartnomaning xorijiy valyutada amalga oshirilishiga sabab bo'ladi. Sintetik sekyuritizatsiyada obligatsiyalar qiymati emitent tanlovi asosida istalgan valyutada amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu valyuta emitent ro'yxatdan o'tgan mamlakat yoki obligatsiyalar joylashtirilgan mamlakat pul birligi bo'lmashligi ham mumkin.

Shunday qilib, lizing bozorida lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilish mexanizmidan foydalanishning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

➤ lizing kompaniyasi uchun qarz kapitali (bank krediti) qiymati ma'lum bir vaqtda yuqori bo'lganligi sababli aktivlarni sekyuritizatsiya qilish nisbatan arzon resurslarni jalb etishni ko'zda tutadi;

➤ lizing aktivlari sekyuritizatsiyalanadigan aktivlar portfelini shakllantirishda sekyuritizatsiya jarayonini ortiqcha xarajatlarsiz, samarali tashkil etishga imkon yaratadi;

➤ moliyaviy resurslar integratsiyalashuvi kapital bozorida lizingga beruvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirgani singari, arzon moliyalashtirish manbaini izlab topishni ham maqsad qilib qo'yadi va h.k.

Respublikamizda lizing aktivlarini sekyuritizitsiya qilish jarayoni bevosita fond bozorining rivojlanganlik darajasiga, qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va bu bo'yicha ikkilamchi bozorning faoliyatiga, shartnomalarning sug'urta qilinishi va huquqiy kafolatlarning mavjudligiga bog'liqdir. Yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar moliyaviy barqaror, ishonchli va likvid bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sekyuritizatsiyani amalga oshirishda yuzaga keladigan risk darajasini minimallashtirish maqsadida shartnomaning amal qilish muddatiga, lizingga berilgan obyektlar (asosiy vositalar)ning amortizatsiyasiga ham alohida e'tibor berishni talab etadi. Demak, lizing bozori bilan birgalikda qimmatli qog'ozlar bozori va sug'urta bozorining yuqori darajada taraqqiy etishi mamlakatda lizing aktivlarini sekyuritizitsiya qilish jarayonini yo'lga qo'yish uchun mustahkam asos bo'la oladi.

Bundan tashqari, respublikamiz lizing bozorida lizing aktivlarini sekyuritizitsiya qilish jarayonini amalga oshirishning huquqiy asoslari (misol uchun "Sekyuritizatsiya to'g'risida"gi O'zR Qonuni)ni yaratish va uni amalga oshirish tartibini ishlab chiqish ham bu mexanizmni joriy etishning asosi bo'ladi.

Yana bir muhim jihati, lizing aktivlarini sekyuritizitsiya qilishda shartnoma soliq nuqtayi nazaridan "betaraf" bo'lib, imkoni boricha ro'yxatdan o'tkazganlik uchun va shunga o'xshash to'lovlardan ozod bo'lishi lozim, deb o'ylaymiz. Fikrimizcha, ushbu keltirilgan takliflarning amaliyotda joriy etilishi nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorida, balki lizing bozorida ham sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berib, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatimizda lizing bozorida sekyuritizatsiyani qo'llash bevosita rivojlangan fond bozori doirasida sodir bo'ladi. Shu sababli loyihalarni moliyalashtirish manbalarini

doimiy ravishda kengaytirish lizing bozorining taraqqiyoti uchun juda muhim.

Bugungi kunda O'zbekiston fond bozori rivojlanish bosqichida bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorida jalb etish vositalaridan foydalanishga qaror qilindi. 2020-yilning 24-fevralida "Uzbek Leasing International A.O." AJ QK bank bo'lmagan kredit tashkilotlari orasida birinchi marta umumiy summasi 25 mlrd. so'mlik obligatsiyalarni 3 karra joylashtirdi. Bular jumlasiga foydasi 18 %li 1 yillik, foydasi 19 %li 2 yillik va foydasi 20 %li 3 yillik obligatsiyalar kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bozordagi boshqa mavjud obligatsiyalarga nisbatan kompaniyaning korporativ obligatsiyalari ikkita afzallikka ega. Birinchisi, muomalaning muddati. Boshqa emitentlar kamida 3 yil muddatga ega obligatsiyalarni taklif qilar ekan, "Uzbek Leasing International A.O." AJ QKda 1 va 2 yil muddatli obligatsiyalar ham mavjud. Bu taklif nisbatan yuqori daromad olgani holda aktivlarning likvidligini saqlab qolmoqchi bo'lgan kompaniyalar uchun ma'qul bo'lishi mumkin.

Ikkinchisi – kupon stavkalari. Bozordagi 3 yillik obligatsiyalarning aksariyati 16-18 %li kupon stavkasiga ega. Shunga ko'ra, "Uzbek Leasing International A.O." AJ QK ning 3 yillik obligatsiyalari bozordagi raqobat takliflariga qaraganda 2 %ga foydaliroq hisoblanadi. Boshqa emitentlardan farqli o'laroq, kompaniya kupon stavkasini, respublika Markaziy bankining asosiy stavkasiga bog'liq bo'lmagan holda belgilagan. Bu, shuningdek, investorlarga ko'proq pul ishlash imkonini beradi, chunki Markaziy bankning asosiy stavkasi pasayishga moyil.

Joylashtirish jarayonida obligatsiyalar asosan mahalliy investorlarga sotildi. Shunisi diqqatga sazovorki, hatto AQSh xususiy investorlari ham obligatsiyalarni sotib olib, har chorakda kupon daromadini olmoqda.

“Toshkent” BFB rasmiy saytida joylashtirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, kompaniya obligatsiyalari bozorda eng daromadli va jozibadorlaridan biridir (10.1-jadval).

10.1-jadval

“Toshkent” BFB da mavjud korporativ obligatsiyalar haqida ma’lumot⁶¹

Emitent nomi	Tiker	Nomin al qiyma-ti	Foiz stavkasi	Joylashti-rish boshlan gan sana	Qayta rish muddati
“Uzbek Leasing International A.O.” AJ QK	UZLI1	10 000 000	18%	24.02.2020	05.03.2021
“Uzbek Leasing International A.O.” AJ QK	UZLI2	10 000 000	19%	24.02.2020	04.03.2022
“Uzbek Leasing International A.O.” AJ QK	UZLI3	10 000 000	20%	24.02.2020	03.03.2023
“Uzsanoatqurilish Bank” ATB	SQB301	100 000	2,25%	29.12.2010	04.01.2021
“Uzsanoatqurilishbank” ATB	SQB4	100 000	2%	10.08.2012	15.08.2022
“Uzsanoatqurilishbank” ATB	SQB6	1 000 000	Ref.stavkas i MB+2%	05.12.2019	03.12.2022
“Uzsanoatqurilishbank” ATB	SQB7	1 000 000	Ref.stavkas i MB+3%	05.12.2019	30.11.2024
“Uzsanoatqurilishbank” ATB	SQB8	1 000 000	Ref.stavkas i MB+4%	05.12.2019	28.11.2026
“Asia Alliance Bank” ATB	AABK1	1 000 000	Ref.stavkas i MB+4%	16.07.2019	15.07.2026
“Kapitalbank” ATB	KPB4	1 000 000	Ref.stavkas i MB+5%	24.04.2020	21.05.2027

⁶¹ <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-zafar-mustafaev-dlya-kompanii-vazhno-postoyanno-rasshiyati-istochniki-finansirovaniya-lizingovykh-proektov-2>

Kelajakda mamlakat fond bozori yanada rivojlanar ekan, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning kengayishi kuzatiladi.

Tayanch so'z va iboralar *Sekyuritizatsiya, klassik sekyuritizatsiya, sintetik sekyuritizatsiya, lizing aktivlari sekyuritizatsiyasi, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar emissiyasi, oblizatsiya.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Sekyuritizatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Sekyuritizatsiya atamasi ilk marta qachon va qayerda qo'llanilgan?
3. Aktivlar sekyuritizatsiyasi nima?
4. Sekyuritizatsiyaning obyektiv zarurati nimada?
5. Lizing aktivlari sekyuritizatsiyaning nechta turi mavjud?
6. Sekyuritizatsiyalanadigan aktivlarga qanday talablar qo'yiladi?
7. Klassik va sintetik sekyuritizatsiyaning asosiy farqli jihatlari nimada?
8. Sekyuritizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
9. Kupon stavkalari nima?
10. Sekyuritizatsiya faoliyatida maxsus yuridik shaxs (SPV) va tashkilotchi kim?

XI BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT VA INNOVATSION LIZING XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

11.1. Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati va ahamiyati

Globallashuv sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining shiddat bilan o'sishi avvalo milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish, xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar hamda moliyaviy xizmat turlarining takomillashuvi kabi omillarning ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur⁶²".

O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanar ekan, mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi asosida uning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida keltirilgan fikrlar doirasida innovatsiyalarni keng joriy etish va bu orqali mavjud resurslardan samarali foydalanish talab etilmoqda. Xususan, Prezidentimizning bu borada bildirgan quyidagi fikrlari diqqatga molikdir: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda...

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018. 28-dekabr.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi⁶³”.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349- sonli farmoni⁶⁴, 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832- qarori⁶⁵ va 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4699-sonli qarorining⁶⁶ [5] qabul qilinishi mamlakatimizda raqamlashtirish jarayoniga alohida e‘tibor qaratilayotganligini anglatadi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida belgilangan maqsadlarga erishishda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Ayniqsa moliya xizmatlarini taqdim etishda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish xo‘jalik yurituvchi subyekt (korxona)lar faoliyatini ham rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan. Jumladan, bir guruh olimlarimiz raqamli iqtisodiyotga jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan va raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili deb sanalgan xo‘jalik faoliyati sifatida ta’rif berishgan⁶⁷.

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Parlamentga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-25-01-2020>

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349 sonli farmoni.


⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832 qarori.

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4699-sonli qarori.

⁶⁷ Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 32,36 b.

Raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi⁶⁸.

Xorijiy ilmiy ishlarda ham raqamli iqtisodiyotga turli ta'riflar berilgan. Jumladan, raqamli iqtisodiyot – bu ishlab chiqarishning asosiy omillari raqamli ko'rinishda taqdim etilgan, shuningdek, qayta ishlangan va katta hajmlarda foydalanilgan faoliyat turi tushunilib, bunda turli xil sifatli mahsulotlar, texnologiyalar, asbob-uskunalarni ko'plab ishlab chiqarish, ularni saqlash, sotish, yetkazib berish va iste'mol qilish samaradorligi oshadi⁶⁹.



11.1-chizma. Raqamli iqtisodiyotning muhim xususiyatlari⁷⁰

Ma'lumotlar, hisoblash texnikasi va aloqaning o'zgaruvchan xususiyatlari bilan tavsiflanadigan raqamli iqtisodiyot bugungi kunda iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy harakatga keltiruvchi kuchi bo'lib hisoblanadi⁷¹.

⁶⁸ Mustafakulov Sh. Raqamli iqtisodiyot – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri. (DEUZ) "Raqamli iqtisodiyot: yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi". Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya 26 fevral. T., 2020.

⁶⁹ Andreeva A.N., Mizova E.M. Digital economy: new business opportunities. Journal of Economy and Business, vol.4. <https://cyberleninka.ru/article/n/digital-economy-new-business-opportunities>

⁷⁰ Zimmermann H. D. Understanding the digital economy: Challenges for new business models // Zimmermann, Hans-Dieter, "Understanding the Digital Economy: Challengers for New Business Models" (2000). AMCIS 2000 Proceedings. Paper. 2000. T. 402.

⁷¹ Brynjolfsson E., Kahin B. Understanding the digital economy: data, tools, and research. The MIT Press, Cambridge, Massachusetts, and London, England. – 2002.

Iqtisodiyotning bu yangi turi nafaqat texnologik jarayonlarni, balki mavjud muammo va uni bartaraf etishning tarkibiy tuzilmasini ham o'z ichiga olib, uning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi 11.1-chizma orqali aks ettirish mumkin:

Raqamli iqtisodiyotga elektron biznes va elektron tijorat bilan bog'liq raqamli texnologiyalarga asoslangan, ular orqali raqamli tovarlar hamda xizmatlar ishlab chiqaradigan va sotadigan iqtisodiy faoliyat sifatida ta'rif berishimiz mumkin, ya'ni raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalar va ular bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, ularni tarqatish va foydalanish bilan bog'liq faoliyatdir. Raqamli iqtisodiyot orqali mamlakatda iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Aynan u orqali raqobat, investitsiya va innovatsiyalar rag'batlantiriladi. Natijada esa xizmatlar sifati oshadi, iste'molchilar tanlovi kengayadi va qo'shimcha ishchi o'rinlar yaratiladi.

11.2. Innovatsion lizing xizmatlarining nazariy asoslari

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun lizing xizmatlarining hajmini oshirish, ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi⁷².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning respublikamiz viloyatlariga tashrifi davomida mamlakatimiz iqtisodiyotida o'sish xomashyo hisobiga emas, aksincha tayyor mahsulotni yaratish hisobiga erishilishini alohida qayd etib o'tilmoqda. Bu esa milliy sanoat tizimini texnik va innovatsion qayta qurollantirish

https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=dpf2hL6E-GcC&oi=fnd&pg=PA1&dq=dijital+leconomy&ots=sVy18a0m9O&sig=P-no3G23a7oNtchwFyX8-K6hsNA&redir_esc=y#v=onepage&q=dijital%20leconomy&f=false

⁷² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni.

masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini anglatadi. Ammo shuni qayd etish kerakki, so'nggi o'n yilliklar davomida milliy sanoat korxonalarining innovatsion faolligi o'n foiz atrofida qayd etilmoqda. Bunday holat odatda asosiy fondlarning jismoniy hamda ma'naviy eskirishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ko'plab sanoat korxonalari uchun aktivlarni yangilash strategiyasi asosan ichki moliyaviy manbalarning taqchilligi tufayli orqada qolmoqda.

Ana shunday sharoitda sanoat sohasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi shakl va turlaridan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etib boradi. Fikrimizcha, sanoat korxonalarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishdagi eng samarali moliyaviy vositalardan biri lizing bo'lib, hozirgi kunga qadar u nisbatan yangi va yuqori talabga ega bo'lmagan xizmat turi sifatida qo'llanib kelinmoqda. Innovatsion faoliyatda lizingning dolzarbligi, fikrimizcha, birinchidan, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda moliya-kredit resurslarining taqchilligi, ikkinchidan, lizingning iqtisodiy faoliyat shakli sifatidagi foydaliligi hamda innovatsion jarayonning har bir bosqichida kuzatiladigan moliyalashtirishning samarali shakli sifatidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Bunga asosiy sabab sifatida quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

- xo'jalik yuritishning zamonaviy sharoitida lizingning sanoat sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning eng maqbul usuli sifatida asoslanmaganligi;

- mamlakat sanoat sohasida lizing munosabatlarining rivojlanish darajasining tahlil qilinmaganligi;

- mamlakat sanoat sohasida lizing munosabatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni aniqlash va bir vaqtning o'zida salbiy omillar ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning kam ta'sirchanligi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidan shu narsa ma'lumki, taraqqiyotning innovatsion yo'lini raqobatbardosh bilim va

texnologiyalarga ilmiy g'oyalarni yo'naltiradigan mukammal innovatsion tizimsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, innovatsion rivojlanish nafaqat innovatsion jarayonlarning natijasini amaliyotga tatbiq etish, balki innovatsion faol korxonalarni moddiy texnik bazasi bilan ta'minlash bilan ham bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, yuzaga kelgan holat mamlakatimizda lizing mexanizmini rivojlantirish va tartibga solishda yangicha yondashuvni talab etadi. Bu borada, avvalo, innovatsion sohada lizing mexanizmidan foydalanishning mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim.

Ma'lumki, lizing jarayoni deganda loyiha bo'yicha konseptual g'oyaning shakllanishidan boshlab, uning amalga oshirilishigacha bo'lgan jarayon tushuniladi. Ushbu jarayon lizing obyekti bo'lgan asosiy vositalardan foydalanib mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hamda shartnomaning tugatilishi bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga olgan uchta asosiy bosqich (dastlabki, ya'ni tayyorgarlik (investitsiyadan oldingi), tashkiliy (investitsion) va obyektidan foydalanish bosqich)larda o'z aksini topadi⁷³. Shunday ekan, innovatsion faoliyatda lizingdan an'anaviy foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, lizing xizmati ma'lum bir imkoniyatlar doirasida qayd etilgan uch bosqich orqali raqobatbardosh bilim va texnologiyalarni oxirgi iste'molchiga yetib borishini ta'minlovchi ishlab chiqaruvchining barcha imkoniyatlarini ishga solishga ko'maklashadi. Aynan ana shunday holatda "innovatsion lizing" yuzaga keladi.

Innovatsion lizing tushunchasi so'nggi yillarda iqtisodchilar tomonidan keng qo'llanilib, unga turlicha ta'rif berilgan. Xususan, N.G. Korol⁷⁴ tomonidan innovatsion lizingga innovatsion faoliyatni ta'minlovchi moliyaviy resurslarni jalb qilish va joylashtirish sifatida ta'rif berilgan⁷⁴.

⁷³ Горемыкин В.А. Организационное и методическое обеспечение лизингового процесса // Финансовый менеджмент. 2003. №5. С. 103-123.

⁷⁴ Король Н.Г. Инновационный лизинг. Лизинг программного обеспечения // Управление финансами и рисками в лизинговой компании. 2010. №1. www.lawmix.ru

A.A. Ayupov o'zining ilmiy ishlarida "innovatsion lizing"ga iqtisodiy munosabatlar subyektlari (lizingga oluvchi, lizingga beruvchi va sotuvchi) o'rtasida yuzaga keladigan aniq, maxsus iqtisodiy munosabatlar shakli sifatida yondashadi. Bunda lizing innovatsion mahsulotni bozorga kirib borish usuli sifatida, bir paytning o'zida innovatsion faoliyatning amalga oshirilishiga zamin yaratadi yoki lizingning o'zi shaklan hamda mohiyatan innovatsiya sifatida yoki yuqoridagilarning kombinatsiyasi bo'lib maydonga chiqadi⁷⁵. Innovatsion lizing lizingga beruvchining investitsion portfelida mavjud bo'lgan murakkab vositalardan biri bo'lib, undan to'g'ri va samarali foydalanishgina lizingga beruvchi va lizingga oluvchi uchun ijobiy bo'lishi mumkin.

Innovatsion lizing bilan klassik moliyaviy lizing o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– shartnoma subyektlari nuqtayi nazaridan. Klassik moliyaviy lizing doirasida moliyaviy munosabatlar mulkni sotuvchisi bilan lizingga beruvchi (oldi-sotdi shartnomasi) hamda lizingga beruvchi bilan lizingga oluvchi o'rtasida (lizing shartnomasi) kuzatiladi. Bundan tashqari, ushbu jarayonda bilvosita ishtirokchilar ham ishtirok etishi kuzatilishi mumkin. Innovatsion lizingda esa lizingga oluvchilar ikkita bo'ladi.

– Ishtirok etuvchi subyektlarning o'zaro ta'sir etish maqsadlari nuqtayi nazaridan. Klassik moliyaviy lizingda lizingga beruvchining maqsadi lizing obyektni lizingga oluvchiga haq to'lash evaziga berishdan daromad olish bo'lsa, lizingga oluvchi lizing orqali ma'lum bir soliq imtiyozlariga ega bo'lishni xohlaydi. Lizing obyektni sotuvchisi esa o'zining mahsulotini lizing orqali realizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Innovatsion lizingda esa ishtirokchilarning asosiy maqsadi lizingga beruvchining vositachi sifatida faoliyat yuritishi orqali innovatsion mahsulotni yaratish va uni realizatsiya qilishda namoyon bo'ladi.


⁷⁵ http://www.mirkin.ru/_docs/book018.pdf

– Shartnoma obyekti nuqtayi nazaridan. Klassik moliyaviy lizingda shartnomada lizing obyekti sifatida tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk belgilanishi mumkin. Klassik moliyaviy lizingdan farqli o'laroq, innovatsion lizingda subyektni maxsus asbob-uskuna⁷⁶ bilan ta'minlash maqsadi qo'yiladi. Buning o'ziga xos jihati shundaki, ishlab chiqaruvchi lizingga beruvchi tomonidan shartnoma obyekti sifatida asbob-uskuna sifatida intellektual mulk (nou-xau, ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya)larni olib, yangi mahsulotni ishlab chiqarishda qo'llaydi va bu mahsulot lizingga oluvchiga lizing obyekti sifatida taqdim etiladi.

– Shartnoma ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari nuqtayi nazaridan. Klassik moliyaviy lizingda bir shartnoma orqali lizingga beruvchi lizingga oluvchining topshirig'iga asosan ma'lum bir mulkni sotib oladi va undan foydalanish hamda keyinchalik o'z balansiga olish (to'lovlilik tamoyili) sharti asosida lizingga oluvchiga taqdim etadi (mulkchilik huquqi o'zgaradi). Innovatsion lizingda esa shartnoma to'rt tomonlama (ishlab chiqaruvchi-lizingga beruvchi-lizingga oluvchi-lizingga oluvchi) xarakterdagi munosabatlarni o'zida aks ettiradi (11.2-chizma).

Innovatsion lizing shartnomasida ishtirok etuvchi subyektlar shartnomada ishtirok etishdan oldin shartnomaning moliyaviy modeliga alohida e'tibor berishlari talab etiladi. Sababi moliyaviy model shartnomada ishtirok etuvchi subyektlarining qanchalik maqsadga muvofiqliklarini baholay olishi lozim. Bunday baholash esa avvalo, shartnoma bo'yicha sof diskontlangan daromad (SDD)ni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin (1-formulaga qaralsin):

⁷⁶ Maxsus asbob-uskuna deganda ko'pincha aniq operatsiya (aniq mahsulot) uchun mo'ljallangan, amalda mavjud standart asbob-uskunani modernizatsiyalash natijasida yaratiladigan asbob-uskuna tushuniladi.



11.2-chizma. Innovatsion lizing mexanizmining umumiy ko'rinishi

$$SDD = \sum_{n=1}^N \left(\frac{LT_i}{(1+d)^n} \right) - Q_{iau} \quad (1)$$

Bu yerda:

LT_i – asbob-uskunadan foydalanganlik uchun to'lov;

d – shartnoma bo'yicha qo'llaniladigan diskont stavkasi;

Q_{iau} – asbob-uskuna qiymati;

n – asbob-uskuna lizingi bo'yicha shartnoma muddati.

Ushbu formuladan foydalangan holda lizingga oluvchi shartnomani tuzishdan oldin lizing hamda kredit mexanizmlarining afzalliklarini aniqlab olishi mumkin bo'ladi.

Investitsion loyihalarni innovatsion lizing mexanizmi orqali moliyalashtirishni nafaqat korxona (yoki tarmoq) miqyosida, balki hudud (butun mamlakat) miqyosida rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, lizing mexanizmini qo'llash natijasida nafaqat korxona (yoki tarmoq)ning, balki butun bir hudud iqtisodiy samaradorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (11.3-chizma).

Makro (mezo)darajada	Mikrodarajada
	
☐ YaIM (YaHM) hajmining o'sishi	☐ korxona (tarmoq) faoliyati masshtabining kengayishi
☐ byudjetga soliq tushumlarining ortishi	☐ xarajatlarning qisqarishi
☐ aholi turmush darajasi va sifatining oshishi va b.	☐ korxona raqobatbardoshligining oshishi
	☐ biznes qiymatining kapitallashuvi

11.3-chizma. Turli darajada lizing mexanizmidan foydalanishning samaradorligi

Garchi mamlakatimizda lizing bozorini rivojlantirish borasida ma'lum bir chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, lizing xizmatlarining YalMdagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Milliy lizing bozori ham sifat jihatdan rivojlanganlik darajasi nisbatan past. Istiqbolda innovatsion lizingni joriy etish va bu xizmat turini yanada kengaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- innovatsion lizing xizmatlarini amalga oshiruvchi mutaxassislar innovatsiyalar bo'yicha, tijorat bo'yicha, asbob-uskunalarga bo'lgan talab va taklifni aniqlash, ishlab chiqarish texnologiyalari, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha, nazorat, qonunchilik bo'yicha, mol-mulkni sug'urtalash va boshqa sohalar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari talab etiladi;

- innovatsion lizing xizmatlarini amalga oshiruvchi lizing kompaniyalarda mablag'lar taqchilligi muammosini bartaraf etish uchun "aktivlar sekyuritizatsiyasi" deb nomlangan innovatsion moliyaviy mexanizmdan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun me'yoriy-huquqiy bazani yaratish;

- innovatsion lizing xizmatlari bo'yicha to'lovlarning hamma unsurlarini hisob-kitob qilish uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish. Innovatsion lizing xizmati yuzasidan tuziladigan shartnomalarning namunalarini shakllantirish. Lizing kompaniyalariga to'lanadigan vositachilik yig'implari, mukofotlarni belgilash uchun yo'riqnomalar ishlab chiqish bozorning mazkur segmentidagi hal etilmagan muammolardan hisoblanadi;

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizingni joriy etish maqsadida moliyalashtirishning muqobil usullarini taqqoslash lozim. Bunda moliyalashtirish muqobil usullarining natijalarini chiqimlarning haqiqiy qiymati ko'rsatkichi, kutilgan sof foyda bo'yicha qiyoslash talab etiladi;

- innovatsion lizingni amalga oshirishda Ishonchli lizingga oluvchilarni to'g'ri tanlash, ular taklif etadigan loyihalarning hayotiyligi

va samaradorligini aniqlash lizingdan foydalanish amaliyotidagi asosiy muammolardan biridir. Shu bilan birga lizingga oluvchilarning kredit qobiliyatini aniqlash va lizing bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'p jihatdan lizing operatsiyalarining samaradorligini oldindan belgilab beradi. Bu masalalarni to'g'ri hal qilish uchun xalqaro tajribaga asoslanib, O'zbekistondagi iqtisodiy vaziyatni e'tiborga olib ish tutish lozim. Shu bilan birga innovatsion lizing xizmatlarini butun respublika hududida bir maromda kengaytirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunday lizing xizmatlarini kengaytirish uchun lizing bitimlari ta'minotining keng axborot bazasini vujudga keltirish, samarali hayotiy lizing loyihalarini amalga oshirishga yordam beradigan konsalting kompaniyalari va firmalarini, boshqa vositachilik tashkilotlarini tuzish zarur. Lizing kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli shartlar bilan moliyaviy resurslar berib turadigan maxsus fondlar bo'lishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish lozimki, innovatsion lizing xizmatining nazariy asoslarini yaratish, bunday munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirib borish, shu bilan bir qatorda yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish milliy iqtisodiyotda innovatsion lizing xizmatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbolini belgilab beradi.

11.3. Innovatsion lizing xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni

So'nggi paytlarda bozor munosabatlarining takomillashuvi hamda moliya tizimida kuzatilayotgan o'zgarishlar natijasida korxonalarda moliyaviy resurslarni taqsimlash imkoniyati va raqobat sharoitida faoliyat yuritish, potensial mijozlarni jalb etish va yuqori bo'lmagan moliyaviy natijalar bilan ham rivojlanish, mahsulotga belgilangan narx siyosatini hamda mavjud debitorlik qarzlarini hisobga olish, kontragentlarning qarzlarini hisobga olgan holda debitorlik qarzlarini imkon darajada kamaytirish, asbob-uskunalarni topish va xarid qilish bo'yicha yetkazib beruvchilarni jalb qilish masalalarini hal qilish

borasida ko‘plab muammolar yuzaga kelmoqda. Ana shunday sharoitda mahalliy korxonalar faoliyati davomida talab etiladigan asosiy vositalar va aylanma mablag‘larni modernizatsiyalash va yangilash, mavjud aktivlarni sotish hamda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini mijozlarga taklif etish murakkabligicha qolmoqda. Shu sababli korxonalar qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida moliya-kredit institutlariga murojaat qilishib, qarz mablag‘laridan foydalanishni afzal ko‘rishmoqda. Ammo bu har doim ham o‘zining ijobiy natijasini bermaydi. Korxonalar uchun kredit resurslarini jalb qilish og‘irlik qilgan bir paytda uning muqobili sifatida lizing xizmatlaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Respublikamizda lizing xizmatlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillar mavjud:

- korxonalar asosiy fondlarining eskirganligi va ularni modernizatsiyalash lozimligi;

- lizing xizmatining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalarida lizingdan foydalanish.

Bunda davlat-xususiy sheriklikning shakllaridan biri sifatida lizingdan foydalanilishi va shartnoma bilan belgilangan shartlar asosida, davlat yoki mahalliy hokimiyatning infrastruktura obyektlarini vaqtinchalik foydalanish uchun hamda ma’lum bir haq evaziga xususiy sherikka o‘tkazadi. Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchi har doim davlat yoki mahalliy hokimiyat mulkini sotib olish huquqiga ega. Davlat yoki mahalliy hokimiyat va xususiy sherik o‘rtasidagi ijara munosabatlarining saqlab qolinishi mulkni vaqtinchalik ishlatish va muayyan haq evaziga o‘tkazish hisoblanadi⁷⁷; -

- Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida korxonalar qarz mablag‘larining yuqoriligi va kreditga layoqatlilikining pasayishi natijasida moliyaviy mustaqillik darajasining pastligi va h.k.

Ko‘rinib turibdiki, lizing xizmatlarini amalga oshirish jarayonini takomillashtirish korxonalarga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb

⁷⁷ Elmiraev S.E., Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg‘or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo‘llash istiqbollari // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. 2019. № 3. Iyun. 4 b.

qilish imkonini beradi. Ammo shuni ta'kidlashimiz kerakki, garchi iqtisodiyotimizda raqamli iqtisodiyot elementlari qo'llanilayotgan bo'lsada, lizing xizmatlari bozorida undan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha shakllantirilmagan. Xorijiy davlatlar moliya-kredit sohasi (lizing kompaniyalari faoliyati) hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqamlashtirish jarayonidan keng foydalanilayotgan⁷⁸ bugungi kunda O'zbekiston lizing bozori haqida bunday xulosa qilib bo'lmaydi.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, iqtisodiyotimizda ko'plab ishlab chiqaruvchilar, bank sohasi hamda savdo sohasi xodimlari yetakchi raqamli texnologiyalardan foydalangan bir paytda lizing kompaniyalari o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini barcha imkoniyatlarini keng qo'llamagan holda olib borishmoqda. Buni lizing xizmatlarining mamlakat YaIMdagi ulushining hattoki 1 foizga ham yetmaganligi orqali ifodalashimiz mumkin⁷⁹. Lizing bozorida lizingga beruvchilar tomonidan ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi lizingga oluvchilar talablaridan alohida amalga oshirilganligini ham bunga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri sifatida keltirishimiz mumkin. Lizingga oluvchilar esa, o'z navbatida, lizingga beruvchilarning imkoniyatlari hamda lizing predmetidan foydalanish huquqini qo'lga kiritish shartlari bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lishmaydi. Lizing shartnomalarining katta qismi potensial lizingga oluvchilar tomonidan uzoq vaqt davomida ularning talablarini qondira oladigan va ikki tomon uchun manfaatli bo'lgan shartlarni taqdim etuvchi lizing kompaniyalarini qidirib topish natijasida tuziladi. Milliy hamda xalqaro darajada lizing kompaniyalari taqdim etadigan xizmatlar haqida yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi lizing xizmatining rivojlanishiga to'sqinlik qildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

⁷⁸ Казанкина О.А. Перспективы развития лизинга в условиях цифровой экономики // Вестник ГГЦЭУ. 2019. №3 (77). С. 160-163.

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Lizingga beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari. www.ula.uz.

Shunday ekan, lizing bozorida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish lozim. Buning uchun esa eng avvalo barcha lizingga beruvchilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va potensial mijoz (lizingga oluvchi)lar foydalana oladigan ma'lumotlar bazasini yaratishdan boshlanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Lizingga beruvchilar uyushmasi tomonidan moliya bozorida faoliyat yurituvchi barcha lizingga beruvchilar haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan ma'lumotlar bazasi yaratilishi lozim.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotiga nazar tashlasak, raqamli texnologiyalarni qo'llaganda big data ma'lumotlar tarmog'idan foydalanilayotganligiga guvoh bo'lamiz⁸⁰. Xorijiy olimlarning fikricha, katta ma'lumotlar bo'shliqda foydasiz bo'ladi. Uning potensial ahamiyati qaror qabul qilishda foydalanilganda namoyon bo'ladi. Buning uchun esa tashkilotlarda katta ma'lumotlarni tez o'zgartira oladigan samarali tizimlar bo'lishi kerak⁸¹.

Big data zamonaviy texnologiyalar asosida ma'lumotlar bazasini yangilash imkoniyatiga ega bo'lgan raqamlashtirilgan tarmoq sifatida mijozlar fikrini o'rganish asosida faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi. Milliy lizing bozorida shunga o'xshash "big lease data" ma'lumotlar bazasini yaratib, unda barcha lizingga beruvchilar haqidagi ma'lumotlar, lizingga beriladigan obyektlar va shartlarining barchasi to'liq aks ettirilishi lozim. Mahalliy olimlarimiz tomonidan katta ma'lumotlar – inson idrok qiladigan natijalar olish maqsadida strukturalangan va strukturalanmagan (jumladan, mustaqil manbalardan olingan) ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan usullar, vositalar va yondashuvlar yig'indisi sifatida tavsiflangan⁸². Olimlarning fikricha, katta ma'lumotlar texnologiyasi bu – katta hajmdagi axborot asosida

⁸⁰ Казанкина О.А. Перспективы развития лизинга в условиях цифровой экономики // Вестник СГЦЭУ. 2019. №3 (77). С. 160-163.

⁸¹ Gandomi A., Haider M. Beyond the hype: Big data concepts, methods, and analytics //International journal of information management. – 2015. T. 35. – №. 2. C. 137-144.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0268401214001066?via%3Dihub>

⁸² S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullayev, G.R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 32,36 b.

qaror qabul qilish vositasidir. U boshlang'ich ma'lumotlar katta tanlamasi mavjud bo'lgan joylarda paydo bo'ladi.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, yaratiladigan ma'lumotlar bazasini lizingga beriladigan obyektlar nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratish lozim. Birinchi guruhda mamlakatimizda ishlab chiqarilib, lizingga beriladigan obyektlar keltirilsa, ikkinchi guruhda esa xalqaro lizing munosabatlari aks ettirilishi lozim, ya'ni xorijda ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar o'z aksini topishi kerak. Xorijda ishlab chiqarilgan asbob-uskunalarni mamlakatimiz lizing bozoriga jalb qilishda uning ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy samarasi, mamlakatimizda ishlab chiqarilmasligi (yoki o'rnini bosuvchi asbob-uskunalarining ishlab chiqarilmasligi)ga ham e'tibor berilishi lozim. Mijoz elektron (on-layn) ko'rinishda lizing obyektini olish uchun lizing shartnomasi talablariga javob berishini aniqlab olishi muhim. Ya'ni mijoz o'zining moliyaviy holatidan kelib chiqib, lizingga olishi mumkin bo'lgan obyekt qiymatining maksimal miqdorigacha bo'lgan imkoniyatini aniqlab oladi. Bu borada Lizingga beruvchilar uyushmasi mijozga turli lizingga beruvchilarning tijorat takliflarini onlayn shaklda taqdim qilishi mijozga qulaylik yaratib berishi lozim.

Lizing bozorini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirishning yana bir yo'li sifatida "sharing economy" tushunchasini joriy etishga e'tibor berish kerak. "Sharing economy" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda "raqamli transformatsiya" yoki "o'zaro (birgalikda) foydalanish iqtisodiyoti" degan ma'nolarni anglatadi⁸³. Bunda asosiy e'tibor ma'lum bir vaqt davomida lizing obyektidan birgalikda foydalanishga qaratiladi. Lizing amaliyotida ushbu jarayon operativ lizingning bir turi sifatida on-layn ma'lumotlar bazasi orqali amalga oshiriladi, ya'ni shartnoma muddati tugagach, mulkchilik huquqi o'zgarmaydi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida qo'shimcha lizing tushunchasi

⁸³ Адактилос А.Д., Чаус М.С., Молдован А.А. Шеринговая экономика.
<https://cyberleninka.ru/article/n/sheringovaya-ekonomika>

keltirilgan. Qo'shimcha lizing asosida lizing oluvchi lizing beruvchi oldida lizing shartnomasi yuzasidan javobgar bo'lib qolgani holda, lizing shartnomasi bo'yicha olgan lizing obyektni lizing beruvchining yozma roziligi bilan vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga qo'shimcha lizingga topshirishga haqli. Bunda qonunda keltirilgan qoidalar qo'shimcha lizing shartnomasida qo'shimcha lizing beruvchiga, qo'shimcha lizing oluvchiga va sotuvchiga nisbatan muvofiq ravishda lizing beruvchiga, lizing oluvchiga va sotuvchiga bo'lganidek qo'llanilishi, qo'shimcha lizing shartnomasining amal qilish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq bo'lishi mumkin emasligi qayd etilgan⁸⁴.

Fikrimizcha, "big lease data"da keltirilgan ma'lumotlar asosida "Sharing economy"ni qo'llash uchun sharoit yaratish lizingga beruvchilarning lizing portfelini kengaytirib, faoliyati davomida moliyaviy resurslar taqchilligining oldini olishga xizmat qiladi hamda lizingga oluvchilarning tranzaksion xarajatlari (potensial lizingga beruvchini aniqlash)ni kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, lizing obyekti lizingga beruvchiga qaytarilganda uni sotish uchun ikkilamchi lizing bozorini ham shakllantirish, buning uchun qonunga ushbu tushunchani kiritib, uni izohlab o'tish ham taklif etiladi.

Lizing sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish ushbu sohadagi mavjud strategik muammolarni bartaraf etish imkoniyatini yaratib beradi. Xususan, milliy lizing kompaniyalari import, eksport va tranzit lizing kabi ko'p bo'g'inli tizimni yaratish orqali xizmat ko'rsatish geografiyasini kengaytirish, natijada bir mamlakatdagi lizing predmeti sotuvchisini boshqa mamlakatdagi iste'molchi (lizingga oluvchi) bilan uchrashtirish, lizing predmetining texnik, ekspluatatsion hamda iqtisodiy xususiyatlarini taqqoslash, uni iste'molchiga yetkazib berishning samarali marshrutini aniqlashi mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari:

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. 1999. 14-aprel. 756-I-son.

– Lizingga beruvchilar uyushmasi va lizing kompaniyalari darajasida zamonaviy kompyuter bazasini shakllantirish;

– Lizing operatsiyasi ishtirokchilari uchun maxsus qidiruv tizimini yaratish;

– Moliyaviy yoki qo‘shimcha lizing sxemasi asosida faoliyat yurituvchi lizingga beruvchilar uchun maxsus dasturiy ta‘minot yaratish;

– Lizing sohasida raqamlashtirish jarayonining huquqiy bazasini yaratish;

– Lizingga beruvchi tashkilotlar uchun raqamli texnologiyalar sohasida maxsus bilimga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash jarayonlarini ham amalga oshirish lozim.

Demak, lizing xizmatlari bozorida raqamli texnologiyalarni joriy etishda lizingga beruvchilar nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar haqida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, balki potensial mahalliy (va hattoki xorijiy) potensial lizingga oluvchilar talablari haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Yaratiladigan ma‘lumotlar bazasi soliq va bojxona to‘lovlari, obyektning yetkazib berishning logistik sxemasini ham qamrab olishi lozim. Raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritish lizingga beruvchilarning reklama xarajatlarini qisqartiradi, bozorni tahlil qilish imkoniyatini oshiradi hamda potensial lizingga oluvchilar haqida ma‘lumot olish imkoniyatini kengaytiradi.

Tayanch so‘z va iboralar *Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, innovatsion lizing, “big lease data”, “Sharing economy”.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Raqamli iqtisodiyot nima?
2. Raqamli texnologiyalar nima?
3. Innovatsion lizing nima?
4. Lizing shartnoma bo‘yicha sof diskontlangan daromad qanday aniqlanadi?

5. Lizing bozorini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirishning qanday yo'llarini bilasiz?

6. "Sharing economy" nima?

7. Lizing sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

8. Lizing bozorida taklif etiladigan loyihalarning hayotiyligi va samaradorligi qanday aniqlanadi?

9. Investitsion loyihalarni innovatsion lizing mexanizmi orqali moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyati nimada?

10. Moliyaviy xizmatlarni taqdim etishda raqamli iqtisodiyotdan foydalanishning afzalligi nimada?


XII BOB. O'ZBEKISTON LIZING BOZORI HOLATI

12.1. O'zbekistonda lizing bozori holati: pandemiyagacha bo'lgan davr

Mamlakatimizda milliy lizing bozorida pandemiyagacha bo'lgan davrda progressiv holat kuzatilgan. 2019-yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha yangi lizing bitimlarining hajmi 1,189 trln.so'mni tashkil qildi, lizing amaliyotlarining umumiy portfeli esa 4,351 trln. so'mdan oshdi, biroq umumiy portfelda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining umumiy qiymati 967 mlrd. so'mlik portfeli hisobga olinmagan. O'zbekiston Respublikasi lizing bozorining tahlili O'zbekiston Lizingga beruvchilar Uyushmasiga lizing kompaniyalari va tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlandi. O'zbekiston lizingga beruvchilari reytingini tayyorlash jarayonida 44 ta lizing beruvchi lizing faoliyati bilan faol shug'ullangani aniqlandi, ularning 15 tasi banklar hisoblanadi⁸⁵.


2019-yilning 1-yarim yilligi yakunlari bo'yicha yangi lizing bitimlarining hajmi 2019-yilda 52,5 %ga oshib 1188,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan, bu o'tgan yilning xuddi shu davri bilan solishtirganda 409,3 mlrd. so'mga ko'p (12.1-diagramma). 2019-yilning birinchi yarim yilligida, eng avvalo, qishloq xo'jalik sektori, qurilish texnikasi va avtotransport, xususan yuk avtotransporti sohalari bozor drayverlari sifatida chiqdi. O'z navbatida, bozorning rekord darajadagi kichik hajmini ko'chmas mulk sektori ko'rsatgan.

⁸⁵ www.ula.uz – O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari.



12.1-diagramma. Yangi lizing bitimlari hajmining o'sish dinamikasi
(mlrd so'mda)⁸⁶

2019-yilning birinchi yarim yilligida tuzilgan lizing bitimlarining soni oshib, 5202 ta bitimni tashkil qilgan. 2018-yilning birinchi yarim yilligi bilan solishtirganda yangi lizing bitimlarining soni qariyb 58,6 %ga ko'paygan, aniqrog'i 1922 ta bitimga ko'p (12.2-diagramma).



12.2-diagramma. Yangi lizing bitimlari sonining dinamikasi⁸⁷

⁸⁶ www.ula.uz – O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari.

⁸⁷ www.ula.uz – O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari.

Lizing bozori ishtirokchilarining ulushiga to'xtaladigan bo'lsak, yangi lizing bitimlari hajmining o'sish tendensiyasi lizing bozori ishtirokchilari orasida quyidagi tarzda taqsimlandi (12.1-jadval):

12.1-jadval

Lizing bozori ishtirokchilarining ulushi⁸⁸

	2014	2015	2016	2017	2018	1-2019
Lizing kompaniyalari						
mulk qiymati, mlrd. so'm	592,6	668,2	630,8	963,8	1912,2	1122,5
ulush, %	71,7	78,5	64,8	62,0	72,6	94,4
Banklar						
mulk qiymati, mlrd. so'm	233,6	183,0	342,3	589,8	722,2	66,4
ulush, %	28,3	21,5	35,2	38,0	27,4	5,6
Jami	826,2	851,2	973,1	1553,6	2634,4	1188,9

2019-yilning 1-yarim yilligi yakunlari bo'yicha lizingga beruvchilar orasida lizing bozorining taqsimlanish tendensiyasi juda o'zgargan bo'lib, bozorning 94 % lizing kompaniyalariga tegishli ekani aniqlandi. Tijorat banklariga to'xtaladigan bo'lsak, 2018-yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bilan solishtirganda taqdim etilgan lizing xizmatlarining hajmi keskin kamaygan va ularning bozordagi ulushi bor-yo'g'i 5,6 %ni tashkil qilgan.

Agar lizing portfelining taqsimlanishi lizingga beruvchilar bo'yicha ko'rib chiqilsa, unda uning 80,6 % lizing kompaniyalarining ulushiga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin. 2019-yilning birinchi yarim yilligi holati bo'yicha lizing portfelining summasi 4 trln. 35 mlrd.so'mni tashkil etgan. Lizing bitimlarining asosiy vositalar turlari bo'yicha taqsimlanishi lizingga beruvchilar qaysi lizing obyektlari bilan va qay darajada faol ishlashi haqida tasavvur beradi. Oxirgi yillar davomida qishloq xo'jalik texnikasi va texnologik uskunalar lizing bozorining yirik segmentlari bo'lib kelmoqda. 2019-yilning birinchi yarim yilligida qishloq xo'jaligining ulushi 39,9 %ni, texnologik uskunalar esa 37,4 %ni tashkil qildi⁸⁹.

⁸⁸ www.ula.uz – O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Lizingga beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari. www.ula.uz.

Lizing kompaniyalarining TOP – 5 taligi⁹⁰

№	Bank nomi	I-2019-yilda ko'rsatilgan lizing xizmatlari hajmi (mlrd so'mda)
1	“O‘zagrolizing” AJ	470,9
2	“Nano lizing”AJ	186,7
3	“Qurilishmashlizing” RILK AJ	135,9
4	“Uzbek Leasing International A.O.” AJ	82,3
5	“O‘zavtosanoat - Leasing” MChJ LK	64,8

2019-yilda lizing bozorida banklar TOP – 5 taligi⁹¹

№	Bank nomi	2018-yilda ko'rsatilgan lizing xizmatlari hajmi (mlrd so'mda)
1	“Ipoteka Bank” ATIB	38,9
2	“Ipak Yo‘li Bank” AITB	11,2
3	“Qishloq Qurilish Bank” ATB	9,1
4	“Turon Bank” XAB	2,8
5	“Mikro Kredit Bank” ATB	2,6

Lizing bitimlarining asosiy vositalar turlari bo'yicha taqsimlanishi lizingga beruvchilar qaysi lizing obyektlari bilan va qay darajada faol ishlashi haqida tasavvur beradi. Oxirgi yillar davomida qishloq xo'jalik texnikasi va texnologik uskunalar lizing bozorining yirik segmentlari bo'lib kelmoqda. 2019-yilning birinchi yarim yilligida qishloq xo'jaligining ulushi 39,9 %ni, texnologik uskunalar esa 37,4 %ni tashkil qildi.

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Lizingga beruvchilar uyushmasi rasmiy sayti ma'lumotlari. www.ula.uz.

⁹¹ 2018-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistondagi lizing xizmatlari sektorining obzori. O'zbekiston lizingga beruvchilar uyushmasining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida. www.ula.uz.

Qishloq xo'jalik sektorida tuzilgan yangi lizing bitimlarining summasi 474,3 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda. Ushbu sektorda xizmatlarni taqdim etish bo'yicha lizingga beruvchilar orasida "O'zagrolizing" lizing kompaniyasi (470,9 mlrd.so'm) yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o'rinlarda mos ravishda "Uzbek Leasing International A.O." AJ (0,75 mlrd.so'm) va "O'zmeliomashlizing" DUK (0,62 mlrd.so'm) kelmoqda.

Texnologik uskunalar borasida bozorda quyidagilar katta talabga ega: qurilish texnikasi – 172,8 mlrd. so'm; kompyuterlar va telekommunikatsiya uskunolari – 141,8 mlrd. so'm; kimyo uskunolari – 20,8 mlrd. so'm; yengil sanoat uchun uskunalar – 16,3 mlrd. so'm.

Lizingga berilgan texnologik uskunalar obyektlarining hajmi bo'yicha lizingga beruvchilar orasida "Nano Lizing" MChJ (179,0 mlrd.so'm) yetakchilik qilmoqda, undan keyingi o'rinlarni esa mos ravishda "Qurilishmashlizing" RILK AJ (79,9 mlrd. so'm) va "Uzbek Leasing International A.O." AJ (69,0 mlrd. so'm) egalladi.

Lizingga avtotransport taqdim etish bilan bog'liq bitimlar hajmi 20,6 %ni, ko'chmas mulkniki esa bor-yo'g'i 2,1 %ni tashkil etdi.

Lizingga avtotransport vositalarini taqdim etish sohasida ham ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Avtotransport sektorida yangi lizing bitimlarining hajmi 80,0 mlrd. so'mga oshib, 245,1 mlrd. so'mga yetdi, bu 2018-yilning birinchi yarim yilligi bilan solishtirganda 1,5 baravarga ko'p ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu sektorda avtotransport vositalarini lizingga taqdim etishga ixtisoslashgan "O'zavtosanoat-Leasing" MChJ davlat lizing kompaniyasi eng yirik lizing beruvchi hisoblanadi. Xususan, hisobot yilida "O'zavtosanoat-Leasing" MChJ LK tomonidan qiymati 62,3 mlrd. so'mlik yangi lizing bitimlari tuzildi, undan keyingi o'rinlarda "Qurilishmashlizing" RILK AJ (56,1 mlrd. so'm) va "Ipoteka Bank" ATIB (38,9 mlrd. so'm) bormoqda.

Ko'chmas mulk sektorida yangi lizing bitimlarining summasi keskin tushib ketgan. O'tgan yarim yillik bilan solishtirganda ushbu ko'rsatkich 78,3 mlrd. so'mga kamayib, 24,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Ushbu tendensiya yil boshida yuzaga kelgan respublika Soliq kodeksidagi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha o'zgarishlar bilan shartlanadi. Xususan, ko'chmas mulkni lizingga taqdim etish borasida banklar o'zini ko'rsatgan. "Qishloq Qurilish Bank" ATB (8,9 mlrd. so'm), "Ipak Yo'li Bank" AITB (4,0 mlrd. so'm) kabi banklar eng katta summani namoyish qilgan, uchinchi o'rinni esa "Turon Bank" ATB (2,5 mlrd. so'm) egallagan.

Lizing amaliyotlarining respublika bo'ylab taqsimlanishi yetarlicha bir tekis, faqat ulushi mamlakat bozorida amalga oshirilgan barcha yangi lizing amaliyotlarining 41,8 %ni tashkil qiluvchi Toshkent shahri bundan mustasno. 2019-yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha viloyatlar orasida Qashqadaryo viloyati (8,7 %) va Toshkent viloyati (8,3 %) respublikada yetakchilik qilmoqda.

Lizingga beruvchilarning moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyati avvalgi yillardagi kabi lizing sektorini rivojlantirishning belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Lizing kompaniyalari to'g'ridan to'g'ri chet el kreditlarini jalb etish masalasi ustida ishlashi; lizing bitimlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan resurslarni jalb etish maqsadida sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilishi lozim. Sug'urta kompaniyalari, xorij mamlakatlaridan uskuna yoki texnika yetkazib berish shartnomalarini tuzishda, eksport agentliklarining sug'urta polislari ostiga kafolatli ta'minotdan foydalangan holda, lizing kompaniyalari tomonidan kredit liniyalari bo'yicha banklar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun lizing kompaniyalariga qo'shimcha ta'minot taqdim etishadi. Bu, o'z navbatida, lizing bitimlarini erkin ayirboshlanadigan valyutada moliyalashtirish hajmlarining oshishini rag'batlantiradi.

Aytish joizki, toboro ko'proq xalqaro moliya institutlari o'zbekistonlik lizingga beruvchilar bilan hamkorlikka tayyor va ular bilan muzokaralar olib borishga ochiq.

12.2. O'zbekistonda lizing bozori holati: pandemiya davri

O'zbekistonda lizing bozori, respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari singari COVID-19 pandemiyasi ta'sirini o'zida his qildi. Tahlilchilar ko'pchilik lizing segmentlarida talabning pasayib ketgani, lizingga oluvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlashgani va soha uchun boshqa xavf omillari paydo bo'lganini qayd etmoqdalar.

Pandemiyaning va u sababli kelib chiqqan karantin holatining asosiy zarbasi kichik va o'rta biznesga to'g'ri keldi. Strategik ahamiyatga ega bo'lganlaridan tashqari ko'pgina korxonalar vaqtincha ish faoliyatini to'xtatdilar. Umuman, kutilganidek, aholining xarid qobiliyati pasayib, eksport va import qisqardi. Natijada, kompaniyaning ko'plab mijozlari to'lovlarni kechiktira boshladi va to'lov grafigini qayta tuzishni talab qila boshladi.

Lizing xizmatlariga bo'lgan talab, ayniqsa, iqtisodiyotning COVID-19 ta'sir etgan tarmoqlarida: transport, turizm, umumiy ovqatlanish, qurilish va boshqalarda kamaydi. Tabiiyki, mavjud loyihalardan olingan daromadlarning kamayishi yangi rejalashtirilgan lizing loyihalarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Lizing uyushmasi mijozlarizning manfaatlarini nazarda tutgan holda har bir restruktura ishini tomonlar bilan kelishib amalga oshirishga harakat qilib, buning natijasida mijozlar asta-sekin o'z faoliyatini tiklashga erishishmoqda va ko'plab yangi loyihalar moliyalashtirib kelinmoqda.

2020-yil birinchi yarim yillik yakunlariga ko'ra lizingga beruvchilar o'rtasida lizing bozorining taqsimlanish tendensiyasi taxminan bir xil darajada qoldi-bozorning 89 % lizing kompaniyalariga tegishli (12.4-jadval).

Lizing kompaniyalarining TOP 5 ro'yxati⁹²

№	Lizing kompaniyasining nomi	2020-yilning 1-yarim yilligida ko'rsatilgan lizing xizmatlari (mlrd so'mda)
1	"O'zagrolizing" AJ	633,2
2	"O'zavtosanoat-Leasing" MChJ LK	83,5
3	"Uzbek Leasing International A.O." AJ QK	63,5
4	"ASAKA-TRANS-LEASING" MChJ LK	59,6
5	"Fincom" MChJ	53,8

Tijorat banklariga keladigan bo'lsak, 2019-yil yakunlariga nisbatan ko'rsatilgan lizing xizmatlari hajmi birmuncha oshdi va ularning bozordagi ulushi 11 %ni tashkil etdi (12.5-jadval).

Banklarning TOR 5 ro'yxati⁹³


№	Bankning nomi	2020-yilning 1-yarim yilligida ko'rsatilgan lizing xizmatlari (mlrd so'mda)
1	"InFin Bank" ATB	79,6
2	"Turkiston" XATB	25,1
3	"Trast Bank" XAB	16,9
4	"Asia Alliance Bank" ATB	3,9
5	"Ipoteka Bank" ATIB	3,9

Quyidagi diagrammada lizing bozorida lizingga beruvchilarning ulushi keltirilgan (12.3-diagramma). Har doimgidek, lizing bozorida

⁹² <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-zaфар-мустафаев-для-компаний-важно-постоянно-расширять-источники-финансирования-лизинговых-проектов-2>

⁹³ <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-зафар-мустафаев-для-компаний-важно-постоянно-расширять-источники-финансирования-лизинговых-проектов-2>

lizing kompaniyalarining ulushi eng yuqori bo'lib, undan so'ng boshqa subyektlar tomonidan ko'rsatilgan lizing xizmatlari va eng oxirida banklarning lizing xizmatlari tashkil qilgan.



12.3-diagramma. Lizing bozorida ishtirokchilarning ulushi⁹⁴

Bitimlarning kamharjligi, avtotransport vositalari uchun ikkilamchi bozor mavjudligi va doimiy talab borligi sabab, tabiiy-ki, avtotransport bilan operatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha sog'lom raqobat kuzatildi.


2020-yilning 1-yarmi yakunlariga ko'ra, yangi lizing operatsiyalari hajmi 1,17 trln., lizing operatsiyalarining umumiy miqdori 5,55 trln. so'mdan oshib ketdi⁹⁵.

Lizing operatsiyalarining asosiy - vositalar turi bo'yicha taqsimlanishi lizingga beruvchilar lizingning qaysi obyektlari bilan va qay darajada faol ishlashi haqida tasavvur beradi. So'nggi yillarda bozorda eng yirik segmentlar – qishloq xo'jaligi mashinalari, texnologik uskunalar va oxirgi ikki yil ichida ko'payib borayotgan avtomobil

⁹⁴ <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-zaфар-мустафаев-для-компании-важно-постоянно-расширять-источники-финансирования-лизинговых-проектов-2>

⁹⁵ <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-зафар-мустафаев-для-компании-важно-постоянно-расширять-источники-финансирования-лизинговых-проектов-2>

lizingidir. Ta'kidlash lozimki, 2020-yilning birinchi yarmida qishloq xo'jaligi texnikalarining ulushi 59,4 %, avtotransport – 18,8 %, qurilish mashinalari va uskunolari – 11,4 %, ko'chmas mulk– 5,4 %, texnologik uskunalar 5,0 %ni tashkil etdi. Bu nisbatning keskin o'zgarishi ko'plab lizing kompaniyalari faoliyatining susayishiga bog'liq, qishloq xo'jaligi sohasi esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sdi.



12.4-diagramma. 2020-yilning birinchi yarmi uchun asosiy vositalar turi bo'yicha lizingning taqsimlanishi⁹⁶

Ko'chmas mulk sohasida yangi lizing operatsiyalari miqdori birmuncha oshdi. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 38,4 mlrd. so'mdan oshib, 63,0 mlrd. so'mga yetdi. Ko'chmas mulk lizingi sohasida eng katta mablag' "Invest Finance Bank" tomonidan kiritildi (54,8 mlrd. so'm), ikkinchi o'rinda "Infinitleasing" MChJ (5,3 mlrd. so'm), uchinchi o'rinni esa "Trastbank" XAB (3.0 mlrd. so'm) egalladi. Agar 2019-yil (49.3 milliard so'm) va 2018-yil (502.7 million so'm)

⁹⁶ <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-зафар-мустафаев-для-компании-важно-постоянно-расширять-источники-финансирования-лизинговых-проектов-2>

uchun raqamlarni solishtirsak. Ko'chmas mulk lizing sohasida hajmlarning keskin pasayishi kuzatiladi. Buning sababi 2019-yilga qadar, ko'chmas mulk lizing hajmi ko'paydi va QQS joriy etilishi bilan QQS miqdori bir martalik to'lov uchun qaytarma lizing tadbirkor uchun foydasiz bo'ldi⁹⁷.

Agar lizing oluvchining ijaraga olingan obyekt yoki garov narsasini qaytarib olish to'g'risida e'tirozlari bo'lsa, lizing kompaniyasi xo'jalik sudiga murojaat qilishi kerak va faqat sud qaroridan so'ng mulkni sud ijrochilari orqali qaytarishi mumkin. Pandemiya munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq xo'jalik sudlariga karantin davrida garov yoki jarima undirish to'g'risida qaror qabul qilmaslik tavsiya etildi.

COVID-19 pandemiyasidan keyingi umumiy iqtisodiy inqiroz tufayli lizingga beruvchilar lizing to'lovlarini to'lashda qiynalmoqdalar, bu esa kichik lizing kompaniyalarining bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin. Hukumat lizing sohasi uchun regulyatorni joriy etishga qaror qilishi mumkin. Tijorat banklari tomonidan raqobat ham oshishi mumkin. Agar O'zbekiston bozoriga yirik xalqaro ishtirokchilar kirsak, u ham raqobatni oshiradi. Pandemiya keyingi iqtisodiy inqiroz lizing xizmatlariga bo'lgan talabning pasayishiga va moliyalashtirishning yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarning qimmatligi va ularning mahalliy moliya bozorida yetishmasligidir. Iqtisodiyotda pulning yo'qligi mijozlarning to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, qonunchilik borasidagi ba'zi masalalar mavjudki, ular, fikrimizcha, moliyaviy lizing xizmatlarining o'sishi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish uchun muayyan yechimlarni talab qiladi. Xususan, lizing kompaniyalari, banklardan farqli ravishda, lizing shartnomalari va jadvallarini xorijiy valyutada nominatsiya qilishiga yo'l qo'yilmaydi, bu esa o'z navbatida banklar va lizing kompaniyalari

⁹⁷ <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-зафар-мустафаев-для-компаний-важно-постоянно-расширять-источники-финансирования-лизинговых-проектов-2>

o'rtasida nomutanosib raqobatni yuzaga keltiradi. Lizing xizmatlarini xorijiy valyutada ko'rsatish qobiliyati lizing kompaniyalariga o'z navbatida past foiz stavkalari, uzoq muddatli va qo'shimcha xizmatlar tufayli tadbirkorlar uchun maqbul moliyalashtirish manbai bo'lgan xorijiy kredit liniyalarini jalb etish imkonini beradi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, jismoniy shaxslarga lizing xizmatlari ko'rsatilishi mumkin emas. Jismoniy shaxslar uchun moliyaviy lizing mavjudligi lizingning rivojlanishida juda muhim rol o'ynashi mumkin edi. Xususan, xususiy mulkdorlarga ko'chmas mulk lizingi va avtomobil lizingi jahon amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Mamlakatimizda uy-joy ko'chmas mulkning tezkor qurilishi fonida lizing vositasi ham ishlab chiquvchilar, ham aholi uchun maqbul moliyaviy vositaga aylanishi mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: *Milliy lizing bozori, lizing kompaniyalari, yangi lizing bitimlari, lizing portfeli, lizing obyekti.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Lizing bozori deganda nimani tushunasiz?
2. Pandemiya qadar lizing bozori hajmi qanday bo'lgan?
3. Pandemiya davrida lizing obyektlari tarkibida o'zgarish kuzatildimi?
4. Lizing bozorida faol lizingga beruvchi subyektlar qaysilar?
5. Iqtisodiyotning qaysi sohasida lizingdan keng foydalanilmoqda?
6. Lizing faoliyatining respublika bo'ylab taqsimlanishi qanday?
7. Pandemiya va ungacha bo'lgan davrda yangi lizing bitimlari hajmi qanday o'zgargan?

“O‘zagrolizing” AJ tomonidan qo‘llaniladigan lizing shartlari

T/r	Texnikalar nomi *	Lizing shartlari				
		lizing mud-dati, yil	av-ans to'lo-vi, %	lizing yillik foizi, %	kafillik yoki garov ta'minoti	sug'urta polisi
G'ildirakli xaydov va transport traktorlari						
1	New Holland T-7060	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
2	John Deere 6175	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
3	ARION-630 C	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
4	New Holland T-6070	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
5	New Holland TD5-110	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
6	TTZ-812	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
7	NURAFSHON N81	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
Chopiq traktorlari						
8	TTZ-100 HC	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
9	TTZ-811	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
10	NURAFSHON N81S	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
Boshqa traktorlar						
11	TTZ LS I-38	5	25%	26%	talab	talab etiladi

					etiladi	
12	TTZ LS U-62	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
13	New Holland TT-40	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
G'alla va xashak o'rish-yig'ish va boshqa mashinalar						
14	Dominator-130	5 va 10	20 % - 25%	7 % - 26%	talab etiladi	talab etiladi
15	Dominator-130 sholi barabanli	5 va 10	20 % - 25%	7 % - 26%	talab etiladi	talab etiladi
16	CASE AF 4088 (2WD)	5 va 10	20 % - 25%	7 % - 26%	talab etiladi	talab etiladi
17	Vektor-410	5 va 10	20 % - 25%	7 % - 26%	talab etiladi	talab etiladi
18	Sampo C8	5 va 10	20 % - 25%	7 % - 26%	talab etiladi	talab etiladi
19	JAGUAR-850	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
20	GMD 280 HD	3	30%	26%	talab etiladi	
21	KIR-1,5	2	30%	26%	talab etiladi	
22	Z-511	3	30%	26%	talab etiladi	
23	Markant 650	3	30%	26%	talab etiladi	
Boshqa turdagi qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlari						
24	2PTS-4-793A-03	2	30%	26%	talab etiladi	
25	New Holland B90B	5	25%	26%	talab etiladi	talab etiladi
26	KXU-4V	2	30%	26%	talab etiladi	

27	KOV-4	2	30%	26%	talab etiladi	
28	KU-4VM	2	30%	26%	talab etiladi	
29	Rremiya-300	3	30%	26%	talab etiladi	
30	OVX-600	2	30%	26%	talab etiladi	
31	OPD 2	2	30%	26%	talab etiladi	
32	KN-2	2	30%	26%	talab etiladi	
33	SChX-4B (Oddiy)	2	30%	26%	talab etiladi	
34	SChX-4B (Qo'sh qator)	2	30%	26%	talab etiladi	
35	PLANTER D4 (4 qator)	3	30%	26%	talab etiladi	
36	AHM	3	30%	26%	talab etiladi	
37	VM-24	3	30%	26%	talab etiladi	
38	Sahpir 7/300	3	30%	26%	talab etiladi	
39	2PTS-4	2	30%	26%	talab etiladi	
40	2PTS-6	2	30%	26%	talab etiladi	
41	PON-3+1x40x4 p/p	3	30%	26%	talab etiladi	
42	PON-3+1x40	3	30%	26%	talab etiladi	
43	PON-3x40	3	30%	26%	talab	

					etiladi	
44	Standart 7 Plus 3/1	3	30%	26%	talab etiladi	
45	EurOpal 7 (3+1, № 100)	3	30%	26%	talab etiladi	
46	EurOpal 7 (4+1, № 100)	3	30%	26%	talab etiladi	
47	EurOpal 5 (2+1, № 100)	3	30%	26%	talab etiladi	
48	RMU-0,5MM	2	30%	26%	talab etiladi	
49	RMU-0,8	2	30%	26%	talab etiladi	
50	ONSh-600	2	30%	26%	talab etiladi	
51	VP-1	2	30%	26%	talab etiladi	
52	VP-1 MV	2	30%	26%	talab etiladi	
53	5 (4+1) KM-180	3	30%	26%	talab etiladi	
54	4 (3+1) KM-80 100	3	30%	26%	talab etiladi	
55	4 (3+1) MIX DUE	3	30%	26%	talab etiladi	

*Texnikaning narxi Ishlab chiqaruvchi (Sotuvchi) tomonidan belgilanishi sababli narx masalasida texnikani ishlab chiqaruvi (sotuvchi) korxonalarga murojaat etilishi tavsiya etiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuni. T., 1999. 14 aprel. 756-I-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018. 28-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. 2018. 29-dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-sonli qarori.
9. Адактилос А.Д., Чаус М.С., Молдован А.А. Шеринговая экономика. <https://cyberleninka.ru/article/n/sheringovaya-ekonomika>.
10. Александрова Н.В. Понятие и виды секюритизации активов // Финансы и кредит. 2007. №5. С. 27.

11. М.Ю. Бабичев, О.В. Трохова. Банковское дело: Справочное пособие /Под ред. Ю.А. Бабичевой. М.: Экономика, 1994. С.164.

12. Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. Т. 2. К.: Элга-Н, Ника-Центр, 2001. С. 448.

13. Гаврилова Л. Как использовать кредитные деривативы // Рынок ценных бумаг. 2000. №7. С. 40.

14. Газман В.Д. Рынок лизинговых услуг. М.: Правовая культура, 1999.

15. Газман В.Д. Лизинг: финансирования и секьюритизации: Учебник. Высшая школа экономики, 2011.

16. Глобальный лизинговый отчет 2019. Ведущие финансовые технологии. URL: <https://www.whiteclarkgroup.com/reports/global-leasing-report-2019>

17. Горемыкин В.А. Организационное и методическое обеспечение лизингового процесса // Финансовый менеджмент. 2003. №5. С.103-123.

18. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullayev, G.R. Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 32,36 b.

19. Джуха В.М. Лизинг. Серия «Учебники, учебные пособия». Ростов н/Д.: Феникс, 1999.

20. Zaynalov J.R. «Lizing va lizing operatsiyalari» fanidan ma'ruza matni materiallari. SamISI, 2008.

21. Кабатова Е. Лизинг: понятие. правовое регулирование, международная унификация. М.: Наука, 1991. 38 b.

22. Казанкина О.А. Перспективы развития лизинга в условиях цифровой экономики // Вестник СГСЕУ. 2019. №3 (77). С. 160-163.

23. Коноплицкий В., Филина Г. Это бизнес: Толковый словарь экономических терминов. Киев: Алтерпресс, 1996. 49, 447 с.;

Козлов Д. Лизинг: новые горизонты предпринимательства. М.: Экономика и статистика, 29. 1996.

24.Корол Н.Г. Инновационный лизинг. Лизинг программного обеспечения // Управление финансами и рисками в лизинговой компании. 2010. №1. www.lawmix.ru

25.Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. М., 2001. 560 с.

26.Крылов Э.И. Анализ эффективности инвестиционной, инновационной, финансовой и хозяйственной деятельности предприятия: Учебное пособие. СПб.: СПбГУЭФ, 1999. Ч.1, 2. 256 с.

27.Лещенко М.И. Основа лизинга: Учебное пособие. М.: Финансы и статистика, 2004.

28.Шабашев В.А., Федулова Е.А., Едошкик А.В. Лизинг: основы теории и практики: Учебное пособие/ Под ред. Г.П. Подшеваленко. М.: Кронус, 2007.

29.“Lizing xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” 1-bo‘lim, 3-band.

30.Макеева В.Г. Лизинг: Учебное пособие. М.: Инфра-М, 2004.

31.Mustafakulov Sh. Raqamli iqtisodiyot – yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri. (DEUZ)/ “Raqamli iqtisodiyot: yangi O‘zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi”: *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. T., 2020. 26 fevral.

32.Nabiyev E.R., Marnatov M.D. Lizing g‘oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti. T.: UAJBNT, 2004. 80 b.

33. Плешанова Д.А., Ялялиева Т.В. Построение системы внутреннего контроля лизинговых операций // Economics & Law. 2015. № 8-9 (54-55).

34. Роуз Питер С. Банковский менеджмент. М.: Дело ЛтД, 1995. 173 с.

35. Рынок лизинга по итогам 2018 года: новый рекорд. Аналитические материалы. М., 2019. 20 март.

36. Рынок лизинга по итогам 1-го полугодия 2020 года: тотальное поражение.

<https://raexpert.ru/docbank/e9e/b3e/ab8/b0087effddc885d8168f4ee.pdf>

37. Смирнов А.Л. Лизинговые операции. М.: Консалт-банк, 1995. 3 с.

38. Философова Т.Г. Лизинг: научные основы, методы оценки и управления. М., 2004.

39. Д.А. Ендовицкий, Н.Ф. Щербакова, А.Н. Исаенко и др. Финансовый менеджмент: Учебник / Под ред. Д.А. Ендовицкого. М.: Ред Групп, 2012. 800 с.

40. Черникова Е.В. История возникновения и развития лизинга// Вестник УЮрГУ. 2006. №13. <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-vozniknoveniya-i-razvitiya-lizinga>

41. Черногурова И.Г. Методические аспекты организации внутреннего контроля лизинговых операций у лизингодателей // Экономика и предпринимательство. 2013. №6(35). С. 411-414.

42. Шабашев В.А., Федулова Е.А., Кошкин А.В. Лизинг: основы теории и практики: Учебное пособие / Под ред. Г.П. Подчиваленко. М.: Кронус, 2005.

43. Elmirzayev S.E., Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg'or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo'llash

istiqbollari // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. 2019. № 3. Iyun. 4 b.

44.G‘ozibekov D. F., Sobirov O.Sh., Muminov A.G., Kuljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: Fan va texnologiya, 2004.

45.Haydarov Sh.U., Ortiqov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: tan olish, baholash va uning hisobi. T.: NORMA, 2006.

46.Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat: O‘quv qo‘llanma. T., 2014. 380 b.

47.Andreeva A.N., Mizova E.M. Digital economy: new business opportunities. Journal of Economy and Business, vol.4. <https://cyberleninka.ru/article/n/digital-economy-new-business-opportunities>

48.Brynjolfsson E., Kahin B. Understanding the digital economy: data, tools, and research. The MIT Press, Cambridge, Massachusetts, and London, England. – 2002.

[https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=dpf2hL6E-GcC&oi=fnd&pg=PA1&dq=dijital+leconomy&ots=sVyI8a0m9O&sig=P-no3G23a7oNtchwFyX8-](https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=dpf2hL6E-GcC&oi=fnd&pg=PA1&dq=dijital+leconomy&ots=sVyI8a0m9O&sig=P-no3G23a7oNtchwFyX8-K6hsNA&redir_esc=y#v=onepage&q=dijital%20leconomy&f=false)

[K6hsNA&redir_esc=y#v=onepage&q=dijital%20leconomy&f=false](https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=dpf2hL6E-GcC&oi=fnd&pg=PA1&dq=dijital+leconomy&ots=sVyI8a0m9O&sig=P-no3G23a7oNtchwFyX8-K6hsNA&redir_esc=y#v=onepage&q=dijital%20leconomy&f=false)
Имморент Aktiengesellschaft, Австралия. KBC Lease Group, Бельгия. Китай Лизинг Бизнес Ассоциации Китайской ассоциации предприятий с иностранными инвестициями Предприятия, Китай. ЧСОБ Лизинг как, Чешская Республика. Иордания лизинга, Дания. Пиреус египет лизинговая компания, египет. Nordea Finance Finlyandii Limited, Финляндия. Итак, Исландия. Sundaram Finance Limited, Индия. Промышленность и шахты лизинговая компания, Иран. Иккреа Банкарльмпреса, Италия. Аренда ABN AMRO NV, Нидерланды. ДНБ Банк АСА, Финанс, Норвегия. European Fundusz

Leasingowy SA, Польша. Caixa Lizing Электронный факторинг, Португалия. Лизинговая компания УРАЛСИБ, Россия. BCR Lizing IFN SA, Румыния. Swedbank Finans AB, Швейцария. Тунис лизинга, Тунис. Турецкие Финансовая Лизинговая Ассоциация, Турция. УФНА Американская ассоциация финансовых услуг, Соединенные Штаты Америки. Банк HSBC, Великобритания. Лизинг оборудования и финансам ассоциации (ELFA), Соединенные Штаты Америки.

49. Zimmermann H. D. Understanding the digital economy: Challenges for new business models // Zimmermann, Hans-Dieter, "Understanding the Digital Economy: Challengers for New Business Models" (2000). AMCIS 2000 Proceedings. Paper. – 2000. – Т. 402.

50. O'zbekiston Respublikasi Lizingga beruvchilar uyushmasi chizmaiy sayti ma'lumotlari. www.ula.uz.

51. Gandomi A., Haider M. Beyond the hype: Big data concepts, methods, and analytics // International journal of information management. 2015. Т. 35. №. 2. S. 137-144.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0268401214001066?via%3Dihub>

52. «White Clarke Group». – URL: <https://www.whiteclarkegroup.com/>

53. http://www.mirkin.ru/_docs/book018.pdf

54. <https://cyberleninka.ru/article/n/trends-of-international-lease-market-developing>.

55. <https://uzlk.uz/uz> - O'zavtosanoat lizing kompaniyasi chizmaiy sayti.

56. <https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-zafar-mustafaev-dlya-kompanii-vazhno-postoyanno-rasshiryat-istochniki-finansirovaniya-lizingovykh-proektov-2>

57.<https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/9213-zafar-mustafaev-dlya-kompanii-vazhno-postoyanno-rasshiryat-istochniki-finansirovaniya-lizingovykh-proektov-2>

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	----------

I bob. LIZINGNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	5
---	----------

1.1. Lizingning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi	5
1.2. Zamonaviy sharoitda lizingning iqtisodiy mohiyati	10
1.3. Lizing operatsiyalarining moliyalashtirishning boshqa shakllaridan farqli jihatlari	14
1.4. Lizing operatsiyalarining funksiyalari	20

II bob. LIZINGNING ASOSIY TURLARI VA ELEMENTLARI.....	25
--	-----------

2.1. Lizingning moliyalashtirish usuli sifatida afzalligi, kamchiliklari va asosiy belgilari	25
2.2. Lizing obyektlari va subyektlari	30
2.3. Lizing turlari va tasnifi	38

III bob. LIZING SHARTNOMALARINI TUZISH.....	46
--	-----------

3.1. Lizing shartnomasining mazmuni va uni tuzish bosqichlari	46
3.2. Lizing shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari	52
3.3. Lizing shartnomasi doirasida lizing subyektlarining huquq va majburiyatlari	57

IV bob. LIZING OPERATSIYALARINING HUQUQIY ASOSLARI	62
---	-----------

4.1. Lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi huquqiy bazaning shakllanishi. Lizing – O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida	62
4.2. O‘zbekiston Respublikasining “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni	65

4.3. Lizingni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning takomillashuvi	68
---	----

V bob. LIZING INSTITUTLARI VA ULARNING RIVOJLANISHI 76

5.1. Lizing bozorida lizing kompaniya (institut)larining obyektiv zaruriyati.....	76
5.2. Mustaqillik yillarida lizing kompaniyalarining tashkil topishi.....	79
5.3. O'zbekistonda Lizingga beruvchilar uyushmasining tashkil etilishi va lizing bozoridagi ahamiyati	87

VI bob. LIZING TO'LOVLARINING TURLARI VA HISOBLASH USULLARI 94

6.1. Lizing to'lovlari va uning tarkibi	94
6.2. Lizing to'lovlari tarkibida amortizatsiya ajratmasining ahamiyati	99
6.3. Lizing to'lovlarini hisoblash usullari	103
6.4. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida lizing to'lovlarini aniqlash usullarining o'ziga xos xususiyatlari.....	110
6.5. Milliy lizing bozorida lizing to'lovlarini hisoblash amaliyoti.....	115

VII bob. XALQARO LIZING RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR 125

7.1. Xalqaro lizing operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	125
7.2. Xalqaro lizing institutlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	129
7.3. Lizing operatsiyalarini tashkil etishda taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi	136

VIII bob. LIZING OPERATSIYALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH 144

8.1. Lizing xizmatlari samaradorligining nazariy asoslari.....	144
--	-----

8.2. Lizing obyektining sotuvchisi uchun lizingning samaradorligini baholash.....	151
8.3. Lizingga oluvchi uchun lizing loyihasining kreditga nisbatan samaradorligini baholash.....	155
8.4. Lizingga oluvchi uchun muqobil lizing shartnomalarini taqqoslash orqali lizingning samaradorligini baholash.....	164
8.5. Lizingga beruvchida lizing loyihasining baholanishi	168

IX bob. LIZING FAOLIYATIDA UCHRAYDIGAN RISKLAR VA ULARNI MINIMALLASHTIRISH YO‘LLARI 179

9.1. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risk turlari	179
9.2. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risklarni minimallashtirish yo‘llari	184
9.3. Lizingga beruvchilar faoliyatida uchraydigan risklarni minimallashtirishda ichki nazoratning ahamiyati	186

X bob. SEKYURITIZATSIYA – LIZINGNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMI SIFATIDA..... 196

10.1. Sekyuritizatsiya tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	196
10.2. Lizing aktivlarini sekyuritizatsiyalashning asosiy turlari va o‘ziga xos xususiyatlari	200

XI bob. RAQAMLI IQTISODIYOT VA INNOVATSION LIZING XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH 209

11.1. Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati va ahamiyati...	209
11.2. Innovatsion lizing xizmatlarining nazariy asoslari	212
11.3. Innovatsion lizing xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni	220

XII bob. O‘ZBEKISTON LIZING BOZORI HOLATI	228
12.1. O‘zbekistonda lizing bozori holati: pandemiyagacha bo‘lgan davr	228
12.2. O‘zbekistonda lizing bozori holati: pandemiya davri.....	234
ILOVA.....	240
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	244

J.R. Zaynalov, Sh.M. Latipova

LIZING VA LIZING OPERATSIYALARI

O'quv qo'llanma

Muharrir Sh. Bazarova

Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova

Nashr. lits. AI № 305.

Bosishga ruxsat 22.04.2022-yilda berildi.

Bichimi 60x84/16.

Ofset qog'ozi. «New Times Roman» garniturası.

Shartli b.t.14,7. Nashr hisob t.15,3.

Adadi 100 dona. 11-buyurtma.

"IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60^A.

"DAVR MATBUOT SAVDO" MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo'liq, 4-mavze, 46.

85400

BS. 262.19073

ISBN 978-9943-7983-3-5



9 789943 798335